

# TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

# ILMIY AXBOROTLARI

ILMIY-NAZARIY JURNALI № 3 (19) 2019.

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК  
ТАШКЕНТСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО  
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО  
УНИВЕРСИТЕТА**

**SCIENTIFIC  
BULLETIN  
OF THE TASHKENT  
STATE PEDAGOGICAL  
UNIVERSITY**

Jurnal Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2014-yil 30-iyulda ro'yxatga olingan. Guvohnoma №02-00175. Har uch oyda bir marta nashr etiladi.

Jurnalning chiqish ma'lumotlarini GOST 7.4-95 "Nashrlar. Chiqish ma'lumotlari" hamda GOST 7.56-2002 "Xalqaro standart turkum raqami" davlatlararo standartlar talablari asosida bo'lishini to'liq ta'minlash maqsadida, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan **2181-9580 ISSN raqami** berilgan.

Manzil: 10100, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi 27-uy. Tel.: 276-75-26  
e-mail: [tdpuilm@gmail.com](mailto:tdpuilm@gmail.com)

Buyurtma № .... Adadi 10 nusxa. Hajmi 16,25 b/t. Bichimi 60x84 1/8 Nizomiy nomidagi TDPU "Tahrir va nashr" bo'limida chop etildi. Toshkent, Yusuf Xos Hojib -103.

Muharrir **Xolsaidov F.B.**

**BOSH MUHARRIR**

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

**BOSH MUHARRIR O`RINBOSARI**

Muslimov N. – pedagogika fanlari doktori, professor

**TAHRIR HAY'ATI**

- Abdullayeva B.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Asqarov A.** – tarix fanlari doktori, akademik  
**Djurayev R.** – pedagogika fanlari doktori, akademik  
**Begimqulov U.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Djoraev M.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Saparov Q.** – biologiya fanlari doktori, professor  
**Shaxmurova G.** – biologiya fanlari doktori, professor  
**Mo'minova L.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Yuzlikayev F.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Yunusova D.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Isyanov R.** – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
**Urazova M.** – pedagogika fanlari doktori  
**Mamadazimov M.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Kozlov V.** – psixologiya fanlari doktori, Yaroslavl davlat universiteti professori  
**Mazilov V.** – psixologiya fanlari doktori, Yaroslavl davlat universiteti professori  
**Nishonova Z.** – psixologiya fanlari doktori, professor  
**Tulenova K.** – falsafa fanlari doktori, professor  
**To'xliyev B.** – filologiya fanlari doktori, professor  
**Qahramonov Q.** – filologiya fanlari doktori, professor  
**Nasriddinov K.** – fizika-matematika fanlari doktori, professor  
**Nuriddinov E.** – tarix fanlari doktori, professor  
**Toyloqov N.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Mamatqulov D.** – biologiya fanlari nomzodi, professor  
**Avazov Sh.** – pedagogika fanlari nomzodi, professor  
**Shodiyev X.** – XXR Shaansi universiteti professori  
**Yumi LI** – falsafa doktori, Seul pedagogika universitet professori  
**Verenich S.B.** – Belarusiya davlat pedagogika instituti professori  
**Chudakova V.P.** – falsafa doktori, Ukraina pedagogika instituti professori  
**Xalilova Sh.** – psixologiya fanlari doktori  
**Ergashev P.** – psixologiya fanlari doktori  
**Mamadaliyev A.** – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
**Azimov I.** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
**Matenova Yu.** – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
**Panjiyev Q.** – san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent  
**Ishquvatov V.** – tarix fanlari nomzodi, dotsent  
**Nurullayev M.** – fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

**ASTRONOMIYA FANINING MAZMUNI TA'LIMNI GUMANITARLASHTIRISH MANBAIDIR**

**Mamadazimov M.** – Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

**Dadaboyeva F.** - Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Maqolada o'qitish jarayonida astronomiyaning mazmuni uni gumanitarlashtirishning manbai ekanligi masalasi yoritilgan. Bunda, gumanitar fanlar metodologiyasining tabiiy fanlar, jumladan fizika va astronomiyaga ta'siri tufayli ularning tarbiyaviy, xususan insonparvarlashtirish jihatini kuchaytirish nazarda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** gumanizm, ta'limni gumanitarlashtirish, gumanitar potensial, mustaqil ta'lim, o'quv predmeti, o'quv jarayoni, metodologik asos.

**СОДЕРЖАНИЕ АСТРОНОМИИ КАК ИСТОЧНИК ГУМАНИТАРИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ**

**Мамадазимов М.** - доктор педагогических наук, профессор Ташкентского государственного педагогического университета

**Дадабоева Ф.** – базовый докторант Ташкентского государственного педагогического университета

**Аннотация.** В статье рассматривается вопрос реализации гуманитаризации образования при обучении астрономии, при этом в качестве источника выдвигается само содержание обучаемого предмета. При этом, нахождение так называемого гуманитарного потенциала содержания физики и астрономии позволяет усилить воспитательный аспект образования, т.е. реализовать гуманитаризацию.

**Ключевые слова:** гуманизм, гуманитаризация образования, гуманитарный потенциал, самостоятельное образование, учебные предметы, учебный процесс, методологическая основа.

**THE CONTENT OF ASTRONOMY AS A SOURCE OF HUMANITARIZATION IN ITS EDUCATION**

**Mamadazimov M.** - doctor of pedagogical sciences, professor of Tashkent state pedagogical university

**Dadaboyeva F.** - PhD student of Tashkent state pedagogical university

**Annotation.** In this article was described realisation question humanitarisation at astronomy training, thus as a source is put forward the maintenance of a trained subject, first of all physicists and astronomies. Thus, it is necessary to find so-called humanitarian potential of the maintenance of physics and astronomy and then to combine the educational maintenance of a lesson with the found out potential of studied themes. In this case, there is a view of increasing the impact of the methodology of the humanities on the subjects of natural science physics, astronomy.

**Key words:** Humanism, humanization of education, humanitarian potential, self – education, teacher's personality, education of the subject, methodical bases, process of education.

Kelgusida insoniyatning kelajagi fan erishgan va erishayotgan yutuqlardan amalda u qay yo'sinda foydalanishi bilan belgilanadi. Shu boisdan, fanning kelajak maqsadlari qanday? U inson va uning faoliyati bilan bog'liq global masshtabdagi – demografik, ekologik, energetik muammolarni qay tarzda hal etmoqchi, boshqacha aytganda, fanning axloqiy ezgulik va etik mazmundagi holati qanday,

insonparvarmi yoki aksincha ekanligini bilish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan sanaladi<sup>1</sup>. Fan, o'zining rivojlanish jarayonida, inson va uning hayoti bilan bog'liq muammolarga doimiy e'tiborini qaratib, "inson faktori" doimo uning diqqat markazida bo'lgan. Bunda inson ham biologik, ham ijtimoiy shaxs sifatida tabiiy hamda ijtimoiy fanlarning obyektini hisoblanadi. Shu boisdan, planetamiz masshtabida ro'y berish xavfi bo'lgan inqirozlarni faqat texnika yoki fanning inqirozlari deyish unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Chunki ular insoniyatning kelajagini belgilab, kelgusida organik mavjudotlarning bir turi sifatida "yashab qola oladimi yoki yo'qmi?" degan masalaga ham oydinlik kiritadi. Shularni e'tiborga olganda, fanning industrilashtirilishi va texnikalashtirilishiga qaramay, bilishning obyektini sifatida ijtimoiy hayotda insonning roli vaqt o'tishi bilan tushmay, aksincha, ko'tarilish tendensiyasiga ega bo'lishi ko'riladi. Shubhasiz, fanning murakkablashgan texnikasi bu sferadan inson faktorini, uning aktiv faoliyatini siqib chiqara olmaydi, chunki texnika bunda faqat bilishning vositasi sifatidagina ishtirok etadi. Aksincha, fan tarmoqlarining bo'lajak integratsiyasi predmetlararo tadqiqotlarda tug'ilajak ehtiyoj tufayli kompleks fanlarning vujudga kelishi, xususiy fan vakillarining universal tadqiqotchilarga aylanishlari uchun keng sharoit yaratishi bilan inson omilining rolini yanada orttira boradi.

Fanning vaqt o'tishi bilan gumanizatsiyalanishi, fanni sotsial-etik hamda gumanistik yo'nalishga boshqarish bilan bog'liq umumiy jarayonlarni o'zida aks ettiradi. Bu yerda gap fanni faqat bir ijtimoiy institut sifatida boshqarish ustidagina ketmay, balki uni sotsial-etik nuqtayi nazaridan boshqarish, aniqrog'i, uni boshqaruvchi olimlarning dunyoqarashi va axloqiyatida ketyapti. Bu muammoni hal qilish uchun fan va u erishayotgan natijalarni axloq yuzasidan qanday baholash kerakligini, boshqacha aytganda, fan izlayotgan haqiqatning insonparvarligi, umuminsoniy qadri qanday ekanligini aniqlash zarur bo'ldi. Fan insonning tabiat bilan munosabatlarini optimal shakllantirishda muhim rol o'ynab, uning faqat moddiy boyligini emas, balki ma'naviy boyligini o'stirishni ham ta'minlaydi. Ijtimoiy hayot qonunlarini o'rganish, insonga faqat tabiiy inqirozlarnigina emas, balki ijtimoiy falokatlarining oldini olishda ham katta yordam beradi.

- Gumanizatsiyaning asosiy yo'nalishlarini aniqlash;
- Ta'limni gumanitarlashtirishni pedagogik muammo sifatida asoslash;
- Tabiiy – ilmiy fanlar (fizika, astronomiya) mazmunining gumanitar potensialini aniqlash asosiy vazifalar qatoriga kiradi.

Gumanizatsiyaning muhim ikki asosiy yo'nalishi mavjud. Bulardan birinchisi – tabiiy fanlar tarkibiga inson omilini kiritish, ilmiy faoliyatning natijalarida inson qadriyatlarining aks etishiga erishish bo'lsa, ikkinchisi, gumanitar fanlar metodologiyasining tabiiy fanlarga ta'sirini orttira borishdir<sup>2</sup>.

Albatta, bunday bo'linish shartli bo'lib, hozirgi zamon ilmiy izlanishlarida gumanitar fanlarga tegishli g'oyalarning tabiiy fanlar bilan yo'nalishi jarayoni ilgari mavjud. Hozirgi sharoitda tabiatshunoslik o'quv predmetlari, o'z metod va dasturlarini faqat bilish va o'rganish nuqtai nazaridagina emas, insoniyatning kelajagini bashorat qilish, uni loyihalash va boshqarishni hisobga olgan holda rejalashtirishni taqozo qiladi.

Ta'limni gumanitarlashtirish deganda, nimani tushunish kerak? – degan tabiiy savolga javob berishga kelsak, ta'limni gumanitarlashtirish – shaxsni har tomonlama rivojlantirish, ya'ni insoniylik xislatlarini tarbiyalash, tafakkurni rivojlantirish, ularda umuminsoniy qadriyatlarni boyitishga o'z hissi bilan ulush qo'shish ma'suliyatini tarbiyalashdir. Shu munosabat bilan ko'pchilik metodistlar, maktab dasturidagi o'quv rejalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarning nisbiy hajmini ko'paytirish lozim, degan fikr berishadi. Aslida bunday emas, albatta. Xalq ta'limini gumanitarlashtirish muammosi, tabiiy va gumanitar predmetlar orasida o'quv soatlarini qayta taqsimlashni nazarda tutmay, balki barcha o'qitiladigan predmetlarning, jumladan, tabiiy fanlarning gumanitar yo'nalishi va mazmunini

<sup>1</sup> Каримов И.А. Гармонично развитое поколение – основа прогресса страны. Ташкент: "Шарк"- 1998. С. 4.

<sup>2</sup> Тарасов Л.В. Необходимость перестройки преподавания естественных предметов на основе интегративно-гуманитарного подхода// Физика в школе.- 1989. № 4. С. 32-44.

kuchaytirishni nazarda tutadi. Pedagogik muammo tabiiy fanlar qatoridagi astronomiya fanini o`qitishni qayta ko`rib, ularning mazmunidagi “yashirinib” yotgan yoshlarni tarbiyalash masalasida juda katta gumanitar potensialni aniqlash va o`qitish jarayonida ulardan keng foydalanishni ko`zda tutadi.

O`qitiladigan fan “bag`rida” yashirinib yotgan uning gumanitar potentsiali deganda, nimani tushunish kerak, degan savol tug`iladi. Bu, birinchi navbatda, mazkur fanlarni o`qitishda o`qituvchi tabiatning hodisa va jarayonlarida haqiqatni izlash bilan bog`liq asosiy faoliyati bilangina chegaralanib qolmay, faqat ularning avtoritet, modda traditsiyalari va mavjud sharoit (konyuktura) bilan ish tutmashligidadir. Izlanayotgan haqiqatning axloqiyiligini namoyon qilishidadir. Ikkinchisi fanning dunyoqarash mazmunida yashiringan jihati bo`lib, u olam qanday tuzilgan va qanday rivojlanadi? Insonning bunda roli va o`rni qanday? – degan savollar bilan bevosita bog`liq. Bunda tabiiy fanlar: Biz kimlarmiz? Qayerdanmiz? Qayoqqa ketayapmiz? – degan insoniyatning azaliy savollariga javob izlashda tabiiy fanlar gumanitar fanlardan qolishadi deyish o`rinli bo`lmaydi. Uchinchidan, bu fanlar tabiat hodisalarini olam tuzilishining go`zalligi, ulardagi uyg`unlik va garmoniya orqali anglatib, kishida estetik his-tuyg`ularni qo`zg`atadi. To`rtinchidan, bu fanlarning asoslari dunyoda ro`y beradigan barcha antropogen hodisalarda har bir insonning shaxsiy hissasi borligini his qildiradi va sivilizatsiyamizning kelajagi uchun o`z ma`suliyati va javobgarligini sezdiradi. Tabiat qonunlarini bilishni, undan inson amaliy faoliyatida qanday foydalanishni o`rgatadi. Beshinchidan, dunyoda barcha hodisalar obyektiv qonunlar asosida ro`y berishidan ogoh qiladi. Bu g`ayritabiiy kuchlarning roli yo`qligini asoslaydi. Maktabda tabiiy fanlarni, birinchi navbatda, fizika va astronomiya fanlarini o`qitishda ko`p yillar davomida ularning eslatilgan gumanitar mazmuniga e`tiborsizlik bo`ladi. Bunga bir necha sabablar bo`lib, ular ichida oxirgi yillarda insoniyatning hayotiy ehtiyojlarini qondirishda, ilmiy-texnikaviy jarayonning katta roli borligini inobatga olib, qo`yilgan talablarning umumta`lim va maxsus maktablarda o`qitiladigan tabiiy-matematik fanlarni aksariyat texnik muammolar bo`yicha yo`naltirilishiga olib kelinishi, ularning bu masalada katta roli va o`rni borligi bilan chegaralanish jiddiy kamchiliklar, desak xato qilmagan bo`lamiz.

Maktab fizika, astronomiya kurslarining bugungi kundagi bosh vazifasi o`quvchilarning insoniyat oldida turgan va ertaga ko`tarilishi kutilayotgan, bu fanlarga “savdogarchilik” qilib, o`z salbiy mazmuni bilan fanlarga dahldor muammolarni (uchar “tarelkalar”, ekstrosensorika, astrologiya va boshqa “bashorat”lari bilan ilmiy dunyoqarashlarni shakllantirishga to`sqinliklari) tushunishlarida to`g`ri yo`lni ko`rsatishdadir. Asli bu o`rinda gap maktabda fizika va astronomiya o`qitishda uni gumanitarlashtirishning yana bir aspekti haqida, ya`ni o`quvchilarda fikrlashning yangi usuli, ta`bir joiz bo`lsa, tabiatdagi fizik, astronomik planetar fikrlash haqida boryapti. Bu fanlarni o`qitish bo`yicha ko`p yillik tajribalardan kelib chiqib, ishonch bilan shuni aytish lozimki, tabiiy fanlarni o`qitishni gumanitarlashtirishda tarixiylik prinsipini qo`llash juda katta samara beradi. O`qitish jarayonida tarixiy materiallardan keng foydalanish hisobiga ta`limning tarbiyaviy aspektini keskin jonlantirishga erishish mumkin<sup>1</sup>. Ayniqsa, bu masalada o`quvchilarda ilmiy dunyoqarashni, axloqni, vatanparvarlikni, baynalminallikni tarbiyalashda tarixiylik prinsipi alohida o`rin tutadi.

Xususan, fizika o`qitilishida o`quvchilarda o`qitilayotgan predmet asoslariga turg`un qiziqishni shakllantirish uchun fizik g`oyalarning tug`ilishi va evolyutsiyasi, ilmiy izlanishlarning, ijodiy jarayonlarning shart-sharoitlarini o`quvchi ko`z oldida yaqqol gavdalandirish juda muhim. Bunda bayon etilayotgan materiallarning jonli va qiziqarli chiqishi uchun olimning hayoti va ijodiga yoxud ma`lum bir fizik g`oyaning evolyutsiyasiga oid ayrim detallar va epizodlardan keng foydalanish yoshlarning tarbiyasida katta ijobiy natijalarni beradi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Мамадазимов М., Гуманитаризация естественно – научного образования как педагогическая проблема. //ТДПУ илмий ахборотлари журнали №1 / 2014 С. 29.

<sup>2</sup> Мамадазимов М.М., Дадабоева Ф. Гуманизация естественно-научных дисциплин – один важных принципов образования. “Таълим, фан ва инновация” –2015, №2, С.24–26.

Metodist olimlar tomonidan tarixiylik prinsipining o'quvchilarda bir qancha muhim ijobiy xislatlarni, jumladan, fan asoslariga qiziqish va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, bilim saviyasini yuksaltirish, axloqiy, estetik tarbiyalashga doir muhim funksiyalarining mavjudligi aniqlangan. Bular ichida, ayniqsa, o'quvchilarda yuksak insoniy sifatlarni, birinchi navbatda, axloq normalarini, uning bugungi kunda tabiiy fanlarga nisbatan bo'lgan salbiy muammolarga munosabatini, shuningdek, bu muammolarni hal etishda o'z qarashlari, mas'uliyati va javobgarlagini his etish kabi xislatlarni tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi. O'qitish jarayonida qo'llaniladigan tarixiy materiallar o'qitilgan predmet mazmuni bilan bevosita bog'liq bo'lib, sxema, fotografiya, olimlarning ma'lum hodisa haqidagi bayoni, formulalari, chizmalari, davrning bayoniy tasviri, olimlarning ish sharoiti, ayrim kashfiyotlar tarixiy g'oyalar kurashi ko'rinishida bo'lishi mumkin. Aksariyat hollarda o'quvchilarda kuchli taassurot qoldiradigan, ularda kuchli emotsional his-hayajonlarni qo'zg'ata oladigan tarixiy materiallar ichida olimlarning hayoti va ijodi bilan bog'liq biografik ma'lumotlar e'tiborga molik bo'lib, o'quvchi shaxsining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Tarixiylik prinsipi asosida o'qitish, shubhasiz, o'qituvchidan bu borada katta bilim va iqtidorni talab qiladi. Misol tariqasida to'qqizinchi sinfda fizika kursida "Vaznsizlik" deb nomlangan darsning o'tilishini olaylik. Mazkur qonunning nazariy bayoni, garchi u tajribaga tayangan bo'lsa ham, faqat ta'limning bilim berishi bilan bog'liq funksiyasining bajaradi.

Siolkovskiy kosmosga sayohat qilgan kishilarning vaznsiz holatda bo'lgan paytlaridagi ilk tassurotlarini quyidagicha bayon etgan:

"Kosmik kemada vaznsizlikda harakatlanish uchun devordan itarilib harakat qilishga to'g'ri kelardi, harakat unchalik tekis emas edi, ko'plar eshik romiga kelib urilar va romdan itarilib, yana uchishda davom etar edi: boshqalar sira urilib ketmasdan barcha eshiklardan osongina uchib o'tardi; faqat o'z kayutasidagina to'siqni ushlab, o'zining xonasiga kirib olardi... Raketada yeyish va ichish uchun hamma narsa moslashtirilgan edi. Unda, odatdagidek, ya'ni yerdagidek ovqatlanib bo'lmadi: ovqatlanadigan stol, shuningdek, stullar ham joyida turmas edi; kichik turtki bularning hammasini to'ntarib, u burchakdan bu burchakka oson harakatlanish imkonini berardi".

Birinchi kosmonavt Y.A.Gagarinning kosmosga parvozi, Siolkovskiyning kosmik sayohatlar vaqtida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan bu farazlarini tekshirish imkoniyatiga ega bo'lib, quyidagi taassurotlarini bayon qiladi:

"... Kema Yer atrofi orbitasiga – kosmosdagi keng yo'lga chiqdi. Vaznsizlik holati sodir bo'ldi. Men bu holat haqida bolalik chog'larimdayoq Siolkovskiyning kitoblarida o'qigan edim. Vaznsizlik, bu biz uchun biroz g'alatiroqdir ko'rinsa-da, biroq organizm unga tez moslashadi. Garchand men o'zimni kamar bilan kresloga bog'lab qo'ygan bo'lsam-da, kreslodan ko'tarildim va tanamning og'irligini mutlaqo his qilmay, kabina poli va shifti orasida go'yo osilib qolganga o'xshardim. Oyoqlarim, qo'llarim, hatto butun tanam meniki emasdek edi. O'tirolmasdim ham, yotolmasdim ham, go'yo kabinada osilib turgandek edim... Vaznsizlik kishining ishlash qobiliyatiga ta'sir qilmaydi. Men hamma vaqt ishladim: kemaning jihozlarini tekshirar, illyuminator orqali Yerni va yulduzli osmonini kuzatar, shuningdek, bort jurnaliga yozib borar edim. Men skafandrda o'tirib, qo'lqopni yechmay, odatdagi grafit qalam bilan yozdim. Men o'zimni qayerda va qanday holatda ekanligimni bir daqiqa unutib, qalamni yonimga qo'yganimda u o'sha ondayoq mendan nariga uchib ketdi".

Zero, ushbu lavhalar bayoni bilan o'quvchilarni tanishtirish ularning ko'z o'ngida vaznsizlik haqidagi tasavvurlarni gavdalantirish bilan birga ularda kosmosga cheksiz qiziqish uyg'otadi.

Yana bir misol tariqasida, XI sinfda astronomiyadan kosmonavtikaga (osmon mexanikasiga) dahldor mavzu o'rganilayotganda, K.E.Siolkovskiyning hayotidan quyidagi muxtasar parchalarni keltirish ayni muddao bo'ladi:

Konstantin Eduardovich Siolkovskiy 1857-yilda Ryazan guberniyasida o'rmonchi oilasida dunyoga keldi. To'qqiz yoshida shamollash va bo'g'ma kasallikdan so'ng, qulog'i eshitmaydigan bo'lib qoldi. Shu sabab u maktabda o'qishni davom ettira olmadi va otasining matematika hamda tabiiy fanlarga oid kitoblar bo'lgan kichik kutubxonasidan foydalanib, mustaqil bilim olishni davom ettirdi. O'sha

paytlarda uning qalbida ixtiro qilish ishtiyoqi uygʻonadi. Ota-onasi oʻz farzandining mustaqil ishlashga moyilligini, ixtirochilik sanʼati va yetuk qobiliyati borligini bilib, oʻn olti yoshli oʻsmirni bilim olishni davom ettirish uchun Moskvaga yuboradi. U Moskvada yashagan davrlarida juda ogʻir hayot kechirdi; u uydan olib turgan pullarini kitobga va turli tajribalar qilish uchun sarflardi. Siolkovskiy koʻpincha och qolardi. Ammo u iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, tirishqoqlik va ishtiyoq bilan bilim olishni davom ettirdi. “Yodimda, – deb yozadi Siolkovskiy, – u paytlar mening qora nondan boshqa hech narsam yoʻq edi. Har uch kunda men non doʻkoniga borib, 9 tiyinga non sotib olardim. Shu tarzda bir oyda 90 tiyin sarflab yashardim. Shunday boʻlsa-da, men oʻzimning gʻoyalarim bilan baxtiyor edim va kunlik ovqatim qora non boʻlganligidan sira xafa emasdim”. Bundan tashqari, K.E.Siolkovskiy fanda kim boʻlgan?, Nima uchun hozirgi paytda koʻpincha “kosmonavtikaning otasi” deb tilga olishadi? - degan savollarga javob berish ham zarur.

Shu epizodlar oʻquvchining tabiiy fanlarga, birinchi navbatda, fizika va astronomiyaga qiziqishi uchun katta “zaryad” beradi. Olimlar hayotidan beriladigan bunday elementlar, qissalar oʻquvchi hayotida tabiiy fanlarga qiziqishni shakllantirishda oʻz kuchini koʻrsatmay qolmasligi tajribada koʻp marta tasdiqlangan.

Xulosa qilib shuni taʼkidlash lozimki, tabiiy fanlarni, xususan, fizika, astronomiya fanlarining oʻqitiladigan mazmunidan oʻrin olgan shaxslar, olimlar haqidagi shu kabi lavhalar bilan yoʻgʻirilgan matnlar mazmuni uning gumanitar potensialini tashkil etib, ulardan amalda foydalanish oʻqitiladigan fan mazmunini gumanitarlashtirish deyiladi. Gumanitarlashtirilgan fan mazmunini darslarga tatbiq etish oʻquvchilarni fan asoslariga qiziqtiradi. Biroq bu oson ish boʻlmay, har qanday fan oʻqituvchisining ham qoʻlidan kelavermaydi. Buning uchun oʻqituvchidan fan tarixidan yetarlicha koʻp maʼlumot, iqtidor, talay bilimlar va oʻquvchini hayratlantira olish va ajablantira olish kabi mahorat talab etiladi. Darslarda bu ikki faktor optimal holatda yoʻgʻirilgandagina koʻzlangan maqsad amalga oshadi va bu oʻqitish jarayonining effektiv quroliga aylanadi.

## OʻQUV FAOLIYATI MOTIVATSIYASI SOHASIDAGI KATEGORIAL APPARATNING TIZIMI VA MAZMUNI

**Xaydarov F.I.** - Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi dotsenti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oʻsmir yoshlarning oʻquv faoliyatidagi motivatsiyasini ilmiy tadqiq etishda psixolog olimlarning qarashlari, metodologik tamoyil talablari va ularni amalga oshirish xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit soʻzlar:** motiv, motivatsiya, ehtiyojlar, qiziqishlar, mayllar, maqsadlar, ideallar, intilishlar, emotsiyalar, meʼyorlar, qadriyatlar, tasavvurlar, gʻoyalar, his-tuygʻular, effektiv va irodaviy xususiyatlar, tizimli yondashuv, taraqqiyot tamoyili, faoliyat tamoyili.

## СИСТЕМА И СОДЕРЖАНИЕ КАТЕГОРИАЛЬНОГО АППАРАТА В СФЕРЕ МОТИВАЦИИ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

**Хайдаров Ф.И.** - доцент Академии Вооруженных Сил Республики Узбекистан

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются требования методологических принципов и особенности их реализации на основе взглядов психологов при исследовании мотивационного поля образовательной деятельности подростков.

**Ключевые слова:** мотив, мотивация, потребности, интересы, привязанности, цели, идеалы, стремления, эмоции, нормы, ценности, представления, идеи, чувства, аффективные и волевые качества, системный подход, принцип развития, принцип деятельности.

## THE SYSTEM AND CONTENT OF THE CATEGORICAL APPARATUS IN THE FIELD OF EDUCATIONAL ACTIVITY MOTIVATION

**Khaidarov F.I.** - Associate Professor at the Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

**Annotation.** This article discusses the requirements of methodological principles and the features of their implementation based on the views of psychologists in the study of the motivational field of educational activity of adolescents.

**Key words:** motivation, motivation, needs, interests, aspirations, goals, ideals, aspirations, attachments, emotions, norms, values, ideas, ideas, emotions, affective and volitional qualities, systematic approach, development principle, principle of activity.

Hozirgi zamon ilm-fani oldiga har tomonlama yetuk inson shaxsini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani qo'ygan tarixiy qarorlarni hayotga tatbiq qilish psixologiya fanidan inson psixik taraqqiyotining murakkab determinatsiyasi va qonunlarini tadqiq qilishni, shaxsning eng optimal psixologik tuzilmasini shakllantirishni, psixikani turli xil ijtimoiy faoliyat turlarida rivojlantirishni talab qiladi. Bu masalalarning hal qilinishi va psixologiya fani zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi metodologik tamoyillarning ishlab chiqilishiga hamda ularning ilmiy tadqiqotlarda qo'llanilishiga bog'liq.

Davlatimiz tomonidan qabul qilingan Harakatlar strategiyasining amalga oshirilishida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri ta'lim va fan sohasini rivojlantirishdir.


Motivatsiyaga keng ma'noda inson hayotining ko'p qirrali boshqaruvchisi deb qaraladi. Inson hayoti anglangan va anglanmagan hollarda boshqariladi. Shulardan oliy darajadagi boshqarilish anglangan irodaviy boshqarilish hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlarimizni yanada aniqlashtirib, motivatsiyaga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin:

Motivatsiya – insonni faoliyatga undashning murakkab, ko'p darajali tizimi bo'lib, u o'zida ehtiyojlarni, motivlarni, qiziqishlarni, ideallarni, intilishlarni, emotsiyalarni, normalarni, qadriyatlarini mujassamlashtiradi.

Bilish ishtiyoqini rivojlantirish orqali motivatsiyani kuchaytirish faqatgina alohida, o'ta iqtidorli o'qituvchilarning qo'lidan keladi, xolos. O'quv motivlarining sustligi ta'lim samarasi pastligining asosiy omillaridan biridir.

Inson xulq-atvorini belgilovchi motivlar asosida ehtiyojlar yotadi. "Motiv" deyilganda predmetlashgan (vositalashgan) ehtiyoj nazarda tutiladi. Ya'ni bu o'rinda motivning ehtiyojni qondirish uslubi ekanligiga ishora qilinadi. Motiv inson xulq-atvori va faoliyati mazmunidir. L.I.Bojovichning fikriga ko'ra, faollikni taqozo qiladigan barcha narsalar motivlardir. Motivatsiya faoliyat va xulq-atvor natijalarini, jarayonlar kechishini va harakatga keltiruvchi kuchlarni tushuntirib beradi.

Quyida "Inson xulq-atvori motivlarini ehtiyojlar nuqtai nazaridan tushuntirish" chizmasi berilgan:



Yuqoridagi ta'riflardan ham ko'rinib turibdiki, "motivatsiya" tushunchasi olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan va unga yuklatilgan ma'nolar ham rang-barang. Shunday bo'lsa-da, barcha

ta'riflar uchun umumiy bo'lgan ma'no ham mavjud bo'lib, shunga tayangan holda "motivatsiya" tushunchasiga umumiylikka ega ta'rif berish mumkin.

Motivatsiya – murakkab tuzilma, faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlar qorishmasi bo'lib, u o'zini mayllar, maqsadlar, ideallar ko'rinishida namoyon qiladi va inson faoliyatini bevosita aniqlab, boshqarib turadi. Shaxsning motivatsion sohasi deganda, shaxsning yo'nalganligini aniqlovchi hamda ma'lum tuzilishga va ierarxiyaga ega bo'lgan mustahkam motivlar to'plami tushuniladi. Obrazli qilib aytganda, motivatsiya daraxtning o'zagi bo'lib, uning novdalari shu o'zakka mos ravishda o'sadi. Masalan, daraxtning o'zagi qiyshiq bo'lsa, uning o'zagiga tutashgan shoxlari ham noto'g'ri o'sadi. Agar daraxtning o'zagi to'g'ri o'sgan bo'lsa, uning novdasi-yu shoxlari ham to'g'ri o'sadi. Motivatsiya – shaxsning o'zagi hisoblanib, uning barcha ijtimoiy-psixologik xususiyatlari mana shu o'zak atrofida shakllanadi, rivojlanadi. Demak, shaxs "o'zagini" to'g'rilasa, uning keyingi hayoti ham ijobiy kechadi.

Tabiiyki, motivatsiya ma'lum tuzilishga ega. Uning tuzilishini tadqiq qilgan olimlardan biri B.I.Dodonov motivatsiyaning to'rtta komponentini ajratib ko'rsatadi:

1) faoliyatning o'zidan qoniqish; 2) uning bevosita natijasining shaxs uchun ahamiyatliliigi; 3) faoliyat uchun taqdirlanishning emotsional kuchi; 4) shaxsga ko'rsatilgan bosim.<sup>1</sup>

Motivatsiyani ma'lum tamoyillar bo'yicha tabaqalashtirish mumkin. Shunday tamoyillardan biri "kuchli-kuchsiz" tamoyilidir, ya'ni motivatsiya kuchi jihatdan kuchli va kuchsiz motivatsiyalarga ajratiladi. Bunga York-Dodsonning klassik qonuni misol bo'la oladi: har qanday faoliyat samaradorligi motivatsiya kuchiga bog'liq, ya'ni motivatsiya kuchi qancha yuqori bo'lsa, faoliyat samaradorligi ham shuncha yuqori ko'rsatkichga ega. Biroq bu to'g'ri proporsional aloqa ma'lum chegaragacha saqlanadi: motivatsiyaning kuchi ortib borgani sari ma'lum chegaradan boshlab faoliyat samaradorligi pastlay boshlaydi.

Motivlar nafaqat miqdor jihatidan, balki sifat jihatidan ham farqlanishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, motivlar ichki va tashqi motivlarga bo'linadi. Bu o'rinda gap faoliyat mazmuniga motivning munosabati haqida ketayapti. Agar shaxs uchun faoliyatning o'zi ahamiyatli bo'lsa, ichki motivatsiya haqida gap ketadi. Agar boshqa ehtiyojlar ahamiyatli bo'lsa, tashqi motivlar haqida gap ketgan bo'lar edi.

Motivlar yana bir tamoyilga asoslanib ijobiy va salbiy motivlarga bo'linadi. Masalan, tashqi motivlarning o'zi ijobiy (muvaffaqiyatga intilish motivlari) va salbiy (chetlangan motivlar) ko'rinishlariga ega. Bir so'z bilan aytganda, motivlarning turlari ko'p va ularni o'rganishda har biriga alohida yondashmoq lozim.

O'quvchilarning o'quv faoliyatlari ta'lim jarayonining o'zagini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'quv faoliyati motivatsiyasini o'rganish, unga ijobiy ta'sir ko'rsatish ta'lim samaradorligini oshiradi. O'quv faoliyati motivatsiyasi, so'zsiz, o'quv motivlari bilan chambarchas bog'liq.

O'quv motivlarining har xilligi ta'lim jarayonining ham xususiyatini o'zgartirib yuboradi. G.Rozenfeld o'quv motivlariga qarab, ta'limni bir qancha turlarga ajratadi<sup>2</sup>:

1. Ta'lim uchun ta'lim olish, faoliyatdan qoniqmasdan yoki o'tilayotgan fanga qiziqishsiz ta'lim olish.
2. Shaxsiy qiziqishlarsiz va foydalarsiz ta'lim olish.
3. Ijtimoiy identifikatsiya uchun ta'lim olish.
4. Muvaffaqiyat uchun yoki muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqib ta'lim olish.
5. Majburlash orqali ta'lim olish.
6. Ma'lum tushunchalar va axloqiy majburiyatlar yoki umumijtimoiy normalar ta'sirida ta'lim olish.
7. Turmushda ma'lum maqsadga erishish uchun ta'lim olish.
8. Ijtimoiy maqsadlar, talablar va qadriyatlarga tayangan holda ta'lim olish.

<sup>1</sup> Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. – СПб.: Питер, 2000. – 512-стр.

<sup>2</sup> Хайдаров Ф.И. Уқув фаолияти мотивацияси. – Т.: Фан, 2005.- 122-б.



Demak, o'quv faoliyati motivatsiyasini tarkib toptirish, kuchaytirish uchun bolada, avvalo, mazkur faoliyatga nisbatan ehtiyojni paydo qilish zarur ekan. Bunday ehtiyoj esa, o'z-o'zidan vujudga kelib qolmaydi. Ushbu vaziyat an'anaviy ta'lim jarayoniga sezilarli darajadagi o'zgartirishlarni kiritishni ta'lab qiladi. Buning uchun konkret yangiliklar darkor. Biroq ko'zga ko'ringan texnologiyalardan ko'r-ko'rona foydalanish yaramaydi. Kiritilayotgan innovatsiyalarning yo'nalganligi katta ahamiyat kasb etadi. Aynan shuning uchun ham ushbu o'zgartirishlar mohiyati quyidagi tamoyillarga muvofiq bo'lishi joiz:

1. Ta'lim mazmunini psixologizatsiyalash. Ta'lim o'zida inson xususidagi barcha bilimlarni qamrab olgan bo'lishi kerak: inson taraqqiyoti, qobiliyatlari, motivatsiyasi.

2. Ta'lim jarayoni differentsiatsiyasi. Differentsiatsiya nafaqat mazmuniy jihatga, balki bilimlarni o'zlashtirish darajasiga ham taalluqli bo'lishi lozim. Mazmun va talablar differentsiatsiyasi har bir o'quvchiga muayyan muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini berish maqsadida amalga oshiriladi.

3. O'quvchilarning mustaqilligi va mas'uliyatini oshirish. Bolaga u amalga oshirayotgan faoliyat subyekti sifatida munosabatda bo'lish darkor. Shaxsiy mas'uliyat va mustaqillikka intilish – muvaffaqiyatga intilish ehtiyoji mavjud inson belgisidir.

4. O'quvchilarni baholashda o'qituvchida avtoritarizm bo'lmasligi kerak. Bunday holat ularda subyektiv fikrni rivojlantirishga, o'ziga bergan barqaror bahosini shakllantirishga imkon beradi .

5. O'quv samaradorligini oshirishga qaratilgan barcha harakatlarni rag'batlantirish. Ijobiy motivlarni kuchaytirishga qaratilgan metodlardan foydalanish ularda o'zining kuchiga nisbatan ishonchni mustahkamlaydi.

6. O'quvchilarda ularning imkoniyatlari darajasidagi, biroq o'ziga yarasha og'ir faoliyatga jalb etish yo'li bilan irodaviy sifatlarni rivojlantirish. To'siqlarni yengib o'tolmaslik xohishlarni o'ldiradi. Muvaffaqiyatga erishish uchun o'quvchi o'z maqsadi yo'lida uchraydigan barcha qiyinchiliklarni yengib o'tishga tayyor bo'lishi kerak.

7. Boshqa insonlarga va hamkorlikdagi faoliyatga nisbatan ijobiy qadriyatlarni shakllantirish. Bu o'ta muhim, chunki, individualizm motivatsiyasi shaxs ichki olamning qashshoqlashuviga olib keladi va insonni yolg'izlatib qo'yadi.

8. O'quv faoliyati taraqqiyotining o'quvchi uchun ahamiyat kasb etishini ta'minlash. Zotan, ta'lim samaradorligi o'quvchining mazkur jarayonga qay darajada jalb etilganligi bilan bog'liq.

Yuqoridagi har bir ta'lim turining zamirida har xil o'quv motivlari yotganligini tushunish qiyin emas va ularning har birining sifat va samaradorligi ham har xil bo'lishi tabiiy. Demak, o'quvchilar faoliyatini boshqarib turgan o'quv motivlarini o'rganish va ularda ijobiy o'quv motivlarini shakllantirish yo'llarini ishlab chiqish o'ta dolzarb masala ekan.

Ijodiy tafakkurni, boshqa faoliyat turlari kabi, ijtimoiy kontekstda ko'rish kerak. Bilish jarayonlariga bag'ishlangan adabiyotlarda aynan shu fakt e'tibordan chetda qoladi. Kreativlikni oshiradigan yoki pasayishiga olib keladigan tashqi muhit va ijtimoiy omillarni Amabayl (AQSh) o'z hamkasblari bilan hamkorlikda o'rganib chiqqan. Ular "Maktablardagi vaziyat kreativlikning rivojlanishiga ko'mak bermaydi", - degan xulosaga kelishgan. Axir ijodkor shaxslar o'z ishini eng sevimli mashg'ulot deb biladilar. Bunday shaxslar o'z maqsadlariga, niyatlariga erishish ishtiyoqida soatlab ishlashdan charchashmaydi ham, zerikmaydi ham. Ijodkor insonlar juda ham zahmatkash bo'lishadi. Bunday motivatsiya ichki motivatsiya deb ataladi, zotan u shaxs qalbida uyg'onadi. Buning aksi o'laroq maktabda taklif etiladigan motivatsiya tashqi motivatsiya deb ataladi. U baholar evaziga tug'iladi.

Amabaylning fikricha, ichki motivatsiyani imkon qadar yuqori darajaga olib chiqadigan muhit yaratilsagina, inson ijod bilan shug'ullanar ekan (alohida, tug'ma ishtiyoqqa ega kishilarni hisobga olmasak). Ichki motivatsiyani o'ldiradigan oltita vaziyat mavjud:

1. Mustaqil baholash.
2. Nazorat.
3. Rag'bat.
4. Musobaqa.
5. Tanlov cheklanganligi (material, adabiyotlar).

6.O'qish tanloviga ta'sir etadigan tashqi omillar.

Ko'plab ta'lim muassasalarida faqatgina tashqi motivatsiya ish beradi, ya'ni o'quvchilarga baho qo'yiladi. Albatta, tanlovni va ijodiy faoliyatni chegaralasa-da, tashqi undovchilardan to'liq qutilish imkoniyati yo'q. Biroq, ta'lim maskanida tashqi muhitni shunday yaratish kerakki, u ijodiylikni namoyon qilishga yordam bersin, tashqi motivatsiyani ichki motivatsiyaga aylantirsin. Kishining ijodiy salohiyatini oshirish maqsadida tashqi muhitni uyushtirishdan tashqari insonda ma'lum bir ko'nikmalar mavjud bo'lishi zarurligini ham inobatga olish joiz. Chunki ma'lum bir sohada zaruriy bilim va texnik malakalarga ega bo'lmay turib, zo'r olim, buyuk yozuvchi, iqtidorli rassom bo'lishning iloji yo'q. Qisqacha qilib aytsak, agarda kishi ijodiylik salohiyatini oshirmoqchi bo'lsa, unda maxsus bilimlardan kechishi mumkin emas.

Tashqi muhit omillari juda muhim. Yaxshi ta'lim ko'p qirrali tafakkur, yangi g'oyalar asosi bo'lib xizmat qiladi. Yaratish uchun boshni bilimlar bilan to'ldirish kerak. Kishi o'zida o'qishga nisbatan his-tuyg'uni shakllantirishi joiz. Ijod – mashaqqatli mehnat samarasi, undan qo'rqmaslik uchun esa inson butun kuch-g'ayratini ishga solishi kerak.

Xullas, ichki motivatsiya kishini ijod qilishga undaydigan, tafakkur rivojini tezlatadigan eng qudratli ruhiy quvvat manbadir.

Shu o'rinda o'quv motivlari va o'quv samaradorligi o'rtasidagi muhim ilmiy faktga e'tiborni qaratmoqchi edik. Ma'lumki, avvallari o'quv faoliyati va uning samaradorligi haqida gapirilganda, birinchi navbatda, shaxsning intellektual darajasi tilga olinar edi. Shunday bo'lsa-da, keyingi ba'zi psixologik tadqiqotlarda o'quv faoliyatidagi intellektual va motivatsion omillarning o'rni o'rganib chiqilib, kutilmaganda qiziq ilmiy faktlar aniqlandi. V.A.Yakunin va N.I.Meshkovlar tadqiqotida shu narsa ma'lum bo'ldiki, "kuchli" va "kuchsiz" o'quvchilar bir-biridan aqliy darajalariga qarab emas, balki o'quv faoliyati motivatsiyasiga qarab farqlanishar ekan. "Kuchli" o'quvchilar uchun ichki motivatsiya xarakterli bo'lib chiqdi: ularda o'z kasbini yuksak darajada egallash ehtiyoji borligi, mustahkam kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalar olishga intilish mavjudligi aniqlandi. "Kuchsiz" o'quvchilarga kelganda esa, ularning motivlari vaziyatga bog'liq tashqi motivlar ekan: yomon o'qiganligi uchun jazodan qo'rqish, stipendiyadan mahrum bo'lish va h.k.

Yuqoridagi va yana bir qancha boshqa tadqiqotlarning natijalari asosida quyidagi muhim xulosani chiqarish mumkin: o'quvchilarda maxsus qobiliyatlar yetarli bo'lmagan hollarda yoki ularda bilim, malaka va ko'nikmalar talab qilingan darajada bo'lmasa, ularning o'rnini yuksak ijobiy motivatsiya to'ldira oladi. Mazkur kompensatorlik mexanizmi aks yo'nalishda ish bermaydi. "Boshqacha qilib aytganda, qobiliyatlarning har qanday yuksak darajasi ham past o'quv motivatsiyasi yoxud uning yo'qligining o'rnini qoplay olmaydi va shuning uchun ham o'quv faoliyatining samarasini ta'minlay olmaydi<sup>1</sup>".

Ichki ijobiy o'quv motivlarining ahamiyatini anglash pedagogik psixologiyada o'quv jarayonini motivatsion ta'minlash tamoyilining ishlab chiqilishiga sabab bo'ldi. Olimlar o'quvchilarning o'quv-mehnat faoliyati motivatsiyasini maqsadga muvofiq holda shakllantirish zarurati haqida yoza boshladilar. Biroq o'quv faoliyati motivlarini shakllantirishning nihoyatda qiyin masala ekanligini ta'kidlash lozim.

Endi yuqorida ta'kidlangan tamoyillarni amalga oshirish imkoniyatini beradigan konkret innovatsiyani ko'zdan kechirsak.

O'quvchiga bo'lgan munosabatni o'zgartirish. O'quvchining motivlashgan yoki motivlashmaganligi darajasini baholash o'qituvchi tomonidan intuitiv ravishda amalga oshiriladi. O'qituvchi o'quvchining o'z faniga yoki uning o'ziga nisbatan munosabatini yaxshi his qiladi. Odatda o'qituvchilar ishtiyoqmand, motivatsiyasi kuchli o'quvchilarni ko'proq yoqtiradilar va, aksincha, loqayd subyektlarda ko'proq salbiy, biroq motivatsiyaga umuman aloqasi bo'lmagan sifatlarni ko'rishadi.

<sup>1</sup> Немов Р.С. Психология: Учеб. для студ. высш. пед. учеб. заведений. - В 3-х кн. - М.: ВЛАДОС, 2003. Кн. 1. Общие основы психологии. - 688-б.

Psixologlar tomonidan motivlashmagan insonlarga xos mas'uliyatsizlik, loqaydlik, parishonxotirlik, beg'amlik kabi motivatsiya yetishmasligi oqibatida kelib chiqqan sifatlar bilan birga, unga aloqasi bo'lmagan qo'pollik, qaysarlik, ahmoqlik, omadsizlik singari sifatlarni ham kiritib yuborishlari isbotlangan. Boshqacha qilib aytganda, motivatsiyasi kuchli insonlar motivatsiyasi zaifroq kishilardan ko'ra ijobiyroq idrok qilinadi. Motivatsiyasi zaif insonga nisbatan oldindan belgilangan salbiy munosabat muomalaning nosamimiy uslubini paydo qilib, bu hol o'quvchi ishtiyoqining so'nishiga olib keladi. Ya'ni yetarlicha ishtiyoqi yo'q deya tahmin qilingan o'quvchi motivatsiyasi mavjud bo'lmagan tengdoshlari qatoriga kiritib yuboriladi va, aksincha, agar o'qituvchi motivatsiyasi yo'q ta'lim subyektiga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lsa, u motivatsiyasi kuchlilar qatoridan o'rin olishi mumkin. Psixologlar ushbu metodni "o'z-o'zidan ro'yobga chiqadigan bashorat" deb yo'naltiriladigan quyidagi algoritmdan foydalanish mumkin.

"O'z-o'zidan ro'yobga chiqadigan bashorat"lar metodi algoritmi.

- 1.Siz o'quv motivatsiyasi yetarlicha shakllanmagandek tuyuladigan o'quvchingizni yodga oling.
- 2.Ushbu o'quvchi xususida o'zingiz biladigan barcha ma'lumotlarni unutishga harakat qiling.
- 3.Uni qanday ko'rishni istayotganingiz to'g'risida yaxshilab o'ylab ko'ring.
- 4.Uning aniq ideal siymosi ko'z o'ngingizda gavdalanishiga erishing.
- 5.Siz uni qanday ko'rishni istagan bo'lsangiz, xuddi o'shanday deb tasavvur qiling.
- 6.Endi mazkur odamga biron-bir muammo yuzasidan murojaat etganda, o'zingizning u xususidagi ideal tasavvurlaringizga tayanib ish ko'ring.

Sizning bashoratingiz o'z-o'zidan amalga oshadi. U sizning ideal tasavvuringizga yaqinlashadi. Ushbu algoritmdan, dastlab, yangi xulq-atvorni ishlab chiqish va alohida o'quvchilarga yoki butun guruhga nisbatan munosabatni yangilash treningi sifatida foydalaning, keyin esa mazkur yangi xulq-atvorni o'zingiz uchun me'yorga aylantiring.

O'quvchilarda o'quv motivlarini shakllantirish uchun pedagog dastavval ularni bilishi, o'quv jarayonini ichki ijobiy motivatsiya paydo qilish yo'nalishida tashkil etishi zarur.

## O`QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK MAHORATNING O`RNI

**Xoliqov A.** – Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

**Annotatsiya.** Ushbu maqola bugungi ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga bag'ishlangan bo'lib, unda zamonaviy o'qituvchiga qo'yiladigan talablar, pedagogik mahoratni shakllantirish va rivojlantirish usullari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qituvchi, pedagogik mahorat, barkamol avlod, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika, ta'lim, tarbiya, malakali kadr.

## РОЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ

**А. Холиков** - профессор Ташкентского государственного педагогического университета, доктор педагогических наук

**Аннотация.** Данная статья посвящена эффективной организации современного образовательного процесса. В ней изложены требования к современному учителю, а также методы формирования и развития педагогических навыков.

**Ключевые слова:** учитель, педагогические навыки, гармонично развитое поколение, педагогические способности, педагогическая техника, образование, воспитание, квалифицированные кадры.

## THE ROLE OF THE PEDAGOGICAL SKILLS IN TEACHING ACTIVITY

**A. Kholikov** - Professor, Tashkent state pedagogical university, doctor of pedagogical sciences

**Annotation.** This article is dedicated to the effective organization of nowadays's educational process, which outlines the requirements for a modern teacher, the secrets of pedagogical skills, and the ways in which they are formed and developed.

**Key words:** teacher, pedagogical skills, harmoniously developed generation, pedagogical skills, pedagogical technique, education, upbringing, skilled staff.

Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o'qituvchisidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o'z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qilmoqda. Ayniqsa, an'anaviy o'qitishning xorij metodikasi bilan qorishtirilishi zamonaviy o'qituvchi qiyofasini shakllantirishni dolzarb masala darajasiga ko'tardi.

Ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar o'qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini, turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonlardan o'qitish faoliyatiga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Ulardagi tajribalar o'qitish shakllarida foydalaniladigan o'qitish qonuniyatlari, prinsiplarini ijodiy qo'llashda, ilmiy bilishga doir g'oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qadimdan buyuk allomalar vatani bo'lib kelgan O'zbekistonda yosh avlod tarbiyasi mutlaqo o'zgacha ma'no kasb etishi muqarrar. O'qituvchi – O'zbekistonning porloq kelajagini barpo etuvchi, dunyoga mashhur olimlarning davomchisi bo'lgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxsdir. Shunday ekan, o'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi, uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasidagi obro'-e'tibori hozirgi zamon talablariga mos bo'lishi shart. O'qituvchi barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs sifatida nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, yetuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Pedagogik mahoratga ega bo'lish, o'qituvchi uchun ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlovchi zamin bo'libgina qolmasdan, ayni vaqtda, uning jamiyatdagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarda unga nisbatan hurmat yuzaga keladi. O'z davrlarida Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Hojib, Sa'diy Sheroziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abdulla Avloniy va boshqalar o'z asarlarida o'qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o'qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo'lgan sifatlar xususida qimmatli ma'lumotlarni bayon qilishgan. Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan o'qituvchi ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ham ega bo'lolmaydi. Yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi bolani tushuna olishi, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lishi, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholashi, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etishi, pedagogik faoliyatda hamisha ilg'orligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o'quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g'oyalarni hayot bilan bog'lay olishi lozim.

Hozirgi kunda darsliklar, kommunikatsion axborot texnologiyalari qanchalik mukammallashtirilgan va rivojlangan bo'lmasin, pedagogik amaliyot, ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati oxir-oqibatda o'qituvchi shaxsiga, uning kasbiy mahoratiga borib taqaladi. Pedagogik mahoratning asosiy qonuniyati oz mehnati bilan ulkan natijalarga erishishdir. Pedagogik faoliyatga qiziqqan, qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat xislatlari shakllanib boradi.

Darhaqiqat, har bir yosh pedagog mutaxassisni puxta ilmiy-nazariy bilimlar bilan qurollantirish, egallagan ilmiy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash uchun ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, buning uchun ularga pedagogik mahorat sirlarini o'rgatish muhim masala sanaladi.

Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi "pedagogik mahorat" tushunchasiga turlicha izoh beradi.

O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondosh fan sohaslarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis<sup>1</sup> mahoratli sanaladi.

Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib, o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

- 1) madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatkichi;
- 2) o'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi;
- 3) pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganlik, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olish;
- 4) o'quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilish.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlardan iborat:

- 1) pedagogik insonparvarlik yo'nalishi;
- 2) kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish;
- 3) pedagogik qobiliyatga ega bo'lish;
- 4) pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.

Ana shu mas'uliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Pedagogik mahorat o'qituvchining pedagogik faoliyati zahirida takomillashib boradi. O'qituvchi pedagogik faoliyatining ijobiy natijalari mehnat malakasini, ya'ni egallagan bilimlarini o'zining hayotiy va amaliy faoliyatida nechog'lik qo'llay olishi bilan belgilanadi. O'qituvchining pedagogik faoliyati samarali bo'lishi uchun zarur bo'lgan qobiliyatlarni tizimini bilim, bolani tushuna olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, diqqatni taqsimlay olish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan har xil ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirish kabilar tashkil etadi. Shu ma'noda, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'z o'quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilikni o'zida tarkib toptirishi lozim.

I.P.Rachenko pedagogik mahoratni pedagogik san'atning bir qismi sifatida ta'riflab, shunday yozadi: "Pedagogik mahorat deganda, o'qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko'nikmalarni mukammal egallashi, o'z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyasi, hayotga axloqiy-estetik munosabatda bo'lishi, o'z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat'iy irodasi tushuniladi." Tadqiqotchining fikriga ko'ra, quyidagi to'rtta komponent pedagogik mahoratning asosini tashkil etadi:

- o'qituvchilik kasbiga sadoqat;
- o'z fanining o'qitish metodikasini mukammal bilish;
- pedagogik qobiliyatlarni namoyish eta olish;
- pedagogik texnikani o'z o'rnida qo'llay olish.

Yana ta'kidlash joizki, pedagogik mahorat o'qituvchi shaxsiy va kasbiy sifatlarining yig'indisi bo'lib, o'qituvchi o'z mahoratini shakllantirishni ta'minlovchi omillarni, pedagogik-psixologik, metodik

<sup>1</sup> Safarova R.G., Jo'rayev R.H. Pedagogik ensiklopediya. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015. – 377 bet.

bilimlarni doimiy egallab borishi lozim. Yuksak pedagogik mahoratni shakllantirishni ta'minlovchi omillar quyidagilar:

- a) ixtisoslik bo'yicha o'quv predmetini zamon, ilm-fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal bilish, uning boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlash malakasiga ega bo'lish;
- b) ta'lim oluvchilarning yosh, fiziologik, psixologik hamda shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, ularning faoliyatini obyektiv nazorat qilish va baholash;
- d) ta'lim jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish asosida o'z faoliyatini tahlil etish;
- e) o'quv-tarbiyaviy jarayonni zamon talablari darajasida tashkil qilish uchun asosiy pedagogik-psixologik, metodik ma'lumotga ega bo'lish;
- f) fanlarni o'qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanishni bilish;
- g) jamoani "ko'ra bilish", o'quvchilarning qiziqishlari, intilishlari, ularda uchraydigan qiyinchiliklarni tushunish va hamdard bo'la olish, o'z vaqtida ularning fikrini anglay bilish, zukkolik bilan har bir bolaning xarakter xususiyati, qobiliyati, irodasini tushunish hamda ularga muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardor bo'lish;
- j) o'z shaxsiy sifatlari (nutqining ravonligi, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va hokazo)ni takomillashtirish malakasiga ega bo'lish.

Pedagogik mahoratni egallashda nazariy va amaliy kasbga oid bilimlarni egallash, pedagogik jamoa bilan doimiy muloqotda bo'lish ijobiy natijalar beradi. Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterveg o'qituvchining muntazam ravishda fan bilan shug'ullanishi haqida gapirib, shunday degan edi: "O'qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmog'i lozim. Aks holda, u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday o'qituvchidan hech qanday natija kutib bo'lmaydi."

O'qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahorat qirralarini namoyon eta olishi, yetuk o'qituvchi sifatida komil insonni tarbiyalashga, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur. Yosh o'qituvchilarning, shuningdek, ta'lim muassasasida bir necha yillik mehnat tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo'lishlari o'zlarini kasbiy jihatdan takomillashtirib borish yo'lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga rivojlanib boradi. Ularni quyidagi vositalar asosida rivojlantirish mumkin:

1. Mustaqil o'qib-o'rganish (pedagogika fanida ro'y berayotgan eng so'nggi yangiliklar haqida ma'lumotlarni beruvchi yangi adabiyotlar, internet materiallari, portal, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilayotgan ma'lumotlar, shuningdek, ilg'or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash).

2. Tajribali o'qituvchilar faoliyatini o'rganish. Bu ular tomonidan tashkil etilayotgan mashg'ulotlarni kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu borada olingan taassurotlarni umumlashtirish asosida xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir.

3. O'qituvchi-xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari va institutlarida kasbiy malaka va ko'nikmalarini oshirish.

4. Doimiy ravishda ilmiy anjumanlar (nazariy va amaliy konferensiya hamda seminarlar, pedagogik o'qish hamda treninglar)da faol ishtirok etish.

5. Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim muassasalarida o'z tajribalarini oshirish, kasbi bo'yicha eng so'nggi ma'lumotlarni o'rganish.

Pedagogik mahoratning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, uning o'qituvchi shaxsi va kasbi to'g'risida mukammal ma'lumot va tushunchalarga ega ekanligidadir. O'qituvchi inson sifatida shaxsiy fazilatlariga ega bo'lishi bilan birga, kasbiy, ya'ni ixtisoslik fazilatlariga ham ega bo'lishi lozimligini tajriba ko'rsatmoqda. Shaxsiy sifatlarni tizimida o'qituvchi milliy mafkuraviy ongillik, milliy odoblilik, farosat, nozik didlilik, o'z kasbiga sadoqat va vijdoniylik, tashabbuskorlik, bolajonlik, talabchanlik, adolatparvarlik, pedagogik odob, tadbirkorlik, qat'iylik, har qanday vaziyatda o'zini idora qila olish,

millatlararo muloqot madaniyati, kuzatuvchanlik, samimiylik, topqirlik, kelajakka ishonch, xushmuomalilik kabi fazilatlariga ega bo'lishi kerak. Demak, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'zida ham ilg'orlikni, novatorlikni, ijodkorlikni tarbiyalashi lozim.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimining rivojlanishi pedagoglarning faoliyatiga ham uzviy bog'liq ekan, bugungi kun talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, zamonaviy pedagog o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishi va pedagogik mahoratni chuqur egallashi, shu ma'noda, nazariy bilimlarini amaliyotga faol tatbiq etishi ta'lim tizimining taraqqiyotiga xizmat qiladi. Pedagogik mahorat shunday malakalar yig'indisiki, uning natijasi o'qituvchi mehnatida va o'quvchilar xulqi, odobi, tarbiyasida, kelajakda yetuk mutaxassis kadr bo'lib yetishishida o'z aksini topadi. O'qituvchi mehnatining muvaffaqiyati va samarasi uni ilmiy jihatdan puxta tashkil etishga, mehnatni oqilona uyushtirishga ta'sir etadigan shart-sharoitlarga va mehnatni amalga oshirish yo'llarini to'g'ri belgilashga bog'liq.

### СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СИСТЕМ ОБРАЗОВАНИЯ ТУРЦИИ И КАЗАХСТАНА

**Рузиева Д.** – профессор Ташкентского государственного педагогического университета, доктор педагогических наук

**Альптекин З.** – доцент Южно-Казахстанского государственного университета

**Жолдасбеков А.** – доцент Южно-Казахстанского государственного университета

**Аннотация.** Данная статья рассматривает сравнительно-сопоставительный анализ систем образования Турции и Казахстана. Также показывает, что индустриально развитые страны с высокой производительностью труда и передовыми технологиями имеют хорошо организованные современные системы образования, способные обеспечить молодежь не только общим обязательным образованием, но также высшим и послевузовским.

**Ключевые слова:** образование, сравнительные исследования, система образования, инновационные технологии.

### TURKIYA VA QOZOG'ISTON TA'LIM TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI

**Ruzieva D.** - Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

**Alptekin Z.** - Janubiy Qozog'iston davlat universiteti dotsenti

**Joldasbekov A.** - Janubiy Qozog'iston davlat universiteti dotsenti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Turkiya va Qozog'iston ta'lim tizimlarining qiyosiy tahlili ko'rib chiqiladi. Shuningdek, yuqori mehnat unumdorligi va ilg'or texnologiyalarga ega bo'lgan sanoati rivojlangan mamlakatlarda yoshlarga nafaqat umumiy majburiy ta'lim olish, balki oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim olish imkoniyatini yaratadigan zamonaviy ta'lim tizimlari mavjudligi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, qiyosiy tadqiqotlar, ta'lim tizimi, innovatsion texnologiyalar.

### COMPARATIVE ANALYSIS OF THE SYSTEMS OF EDUCATION OF TURKEY AND KAZAKHSTAN

**Ruzieva D.** - professor of Tashkent state pedagogical university, doctor of pedagogical sciences

**Alptekin Z.** - associate professor of South Kazakhstan state university

**Zholdasbekov A.** - associate professor of South Kazakhstan state university

**Annotation.** The article discusses the comparative analysis of the education systems of Kazakhstan and Turkey. Turkey, like Kazakhstan, is focused on improving competitiveness and the formation of an innovative society based on the interaction of science, education and production, is strongly influenced by European integration trends and is characterized by the search for an optimal match between established traditions and new requirements associated with entering the European educational space.

**Key words:** education, comparative studies, education system, innovative technologies.

Сравнительные исследования показывают, что индустриально развитые страны с высокой производительностью труда и передовыми технологиями имеют хорошо организованные современные системы образования, способные обеспечить молодёжь не только общим обязательным образованием, но также высшим и последипломным. Поэтому важно в процессе сравнительных исследований установить связи между инвестициями в образование и их отдачей, а также определить условия, при которых отдельные виды инвестиций являются оправданными. Однако экономическое развитие не единственный критерий. Образование – это серьёзный инструмент для достижения национального единства и политического согласия в обществе.

Глобализация и международная интеграция являются и совместным процессом работы и процессом борьбы развивающихся стран по защите национальных интересов.

Сравнительные исследования – это сравнение посредством специальных методов систем образования различных стран или их компонентов в целях выявления тождеств и различий, их причин, состояния и тенденций развития, объективной оценки возможности использования их опыта при решении проблем образования собственной страны. Сравнительные исследования зарубежных образовательных систем применительно к казахстанским вузам новы и в настоящее время, безусловно, актуальны. Их актуальность обуславливается возрастанием роли высшего образования и научных исследований в развитии и в выживании национальных сообществ и мирового сообщества в целом. Без эффективного функционирования системы высшего образования и передовых исследований в области новых технологий ни одной стране не удастся удержать свои позиции на мировом рынке и сохранить достойное место в мировой экономической системе. В этой же связи возрастает значимость проблемы международного сравнения качества образования.

Состояние обществ и их систем образования обуславливается многими причинами. Существуют определённые закономерности причин и следствий, которые можно раскрыть посредством систематического сбора и анализа соответствующих фактов (данных). В связи с этим важное значение приобретают образовательная статистика, определение показателей и индикаторов состояния и тенденций развития образовательных систем и их соответствия потребностям личности и общества, создание автоматизированных баз данных по системам образования.<sup>1</sup>

Характерной особенностью работ последних лет в указанной области является их практическая направленность, которая получает всё более ярко выраженный характер.

Системы высшего образования США, Японии, Франции, Великобритании и ФРГ имеют глубокие исторические корни, богаты разнообразным опытом, научными идеями, творческими поисками и различными подходами не только в разных странах, но и внутри каждой страны. Для них характерна конкуренция и состязательность. Так, Япония начинает обгонять США по многим образовательным показателям, ФРГ оставила позади США и Японию по торговле передовой технологией и наукоемкой продукцией.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Национальные системы образования: общая характеристика и структура. – Алматы: РОНД, 2004. – 160 с.

<sup>2</sup> Ю.Г.Круглова Зарубежные системы образования (США, Япония, Великобритания, ФРГ, Франция). – М.: МГОПУ, 1996.3.



На основе анализа широкого спектра работ турецких и зарубежных ученых нами выделены основные концептуальные положения и идеи модернизации высшей школы Турции, положенные в основу при разработке комплекса стратегий развития отдельных ее подсистем.

Турция, как и Казахстан, ориентирована на повышение конкурентоспособности и формирование инновационного общества на основе взаимодействия науки, образования и производства, испытывает сильное влияние общеевропейских интеграционных тенденций и характеризуется поиском оптимального соответствия между сложившимися традициями и новыми требованиями, связанными с вхождением в европейское образовательное пространство. Турция является единственной мусульманской страной, которая участвует в создании европейского образовательного пространства. Будучи заинтересованной, с одной стороны, в сохранении собственной национальной и культурной идентичности, и с другой – в оптимальном использовании опыта европейских стран в модернизации высшей школы. Турция накопила опыт решения связанных с общим контекстом проблем, который представляет большой интерес и для нашей страны.

Исследования показали, что высшее образования Казахстана и Турций ориентированы на Болонский процесс.

В результате реализации принятых программ проведена модернизация системы образования, введена трехуровневая система: бакалавр – магистр – доктор Ph.D., утвержден Классификатор специальностей высшего и послевузовского образования Республики Казахстан, рассмотрена 12 летняя модель обучения, подверглись реструктуризации техническое и профессиональное образование. В результате проводимых в Казахстане социально-экономических реформ, в том числе и в высшем образовании, в последние годы наметились отдельные положительные тенденции, такие как:

- демократизация высшего образования и децентрализация управления;
- диверсификация сети и структуры высших учебных заведений;
- создание новой законодательной и нормативной правовой базы;
- внедрение новых государственных стандартов высшего образования;
- рост числа студентов, обучающихся не за счет средств государственного бюджета<sup>1</sup>.

В новых условиях задача государства в сфере образования – гарантировать права граждан на доступ к образованию, распространение информации об образовательных возможностях, обеспечения качества образования путем внедрения образовательных стандартов и мониторинга их соблюдения. В широком смысле основная цель образования для устойчивого развития состоит в содействии становлению всесторонне образованной социально активной личности, понимающей новые явления и процессы общественной жизни, владеющей системой взглядов, идейно-нравственных, культурных и этических принципов, норм поведения, обеспечивающих готовность к социально-ответственной деятельности и непрерывному образованию в быстро меняющемся мире.

Кусаинов А.К. считает для повышения конкурентоспособности казахстанского общества необходимым разработку новой модели образовательной политики Республики Казахстан в контексте устойчивого развития системы непрерывного образования. Главной задачей, которой является подготовка конкурентоспособного специалиста на международном пространстве.

Ярким примером служат развитые государства, в которых “происходит сдвиг от экономики товаропроизводящей к экономике, основанной на производстве и применении знаний. На долю новых технологий, оборудования, содержащих новые знания в них, приходится до 70-85% прироста ВВП. Объем мирового рынка наукоемкой продукции составляет 2 трлн. 300 млрд. долл. США (доля США - 39%, Японии – 30, Германии – 16%). Семь наиболее развитых стран обладают

<sup>1</sup> Kristof De Witte. Lenka Hudrlikova. What about excellence in teaching? A benevolent ranking of universities // Scientometrics. – 2013. – P. 337-364. DOI 10.1007/s11192-013-0971-2.

46 из 50 макротехнологий, удерживают 80% рынка новых технологий. США ежегодно получают от экспорта наукоемкой продукции около 700 млрд. долл. США, Германия – 530, Япония – 400 млрд. долл. США. Главным фактором победы в этой бесконечной гонке за экономическое пространство стали инновации и в целом образование<sup>1</sup>.

Опыт, накопленный ведущими вузами РК, позволяет ставить новые задачи и цели по повышению качества казахстанского образования и науки. В настоящее время расширена академическая свобода вузов в определении содержания учебных программ: увеличен компонент по выбору – в бакалавриате с 40% до 50%, в магистратуре с 50% до 60% и в докторантуре с 70 до 80%.

Важно отметить, что участие Турции в Болонском процессе соответствует генеральной внешнеполитической линии страны по вступлению в Евросоюз. Турецкие студенты в рамках Болонского процесса участвуют в таких программах, как Socrates, Leonardo Da Vinci, Erasmus, Youth и пр. При всей текущей мобильности студентов турецкими властями предпринимаются активные меры по возвращению выпускников на родину. Так, примером может быть программа “Место назначения – Турция”, которую реализует TÜBİTAK. В ходе программы представители крупного турецкого бизнеса в 2010 г. посетили около 200 вузов в США и повели презентацию возможностей дальнейшего развития карьеры для студентов турецкого происхождения, которые примут решение после учебы вернуться на родину. В Турции в 2009-2010 уч. г. насчитывалось 163 учреждений высшего образования. Старейшим вузом страны является Стамбульский университет, который ведет свою историю с XV в. и предоставляет наиболее качественное образование в стране. Помимо него, крупнейшим государственным университетом страны является Анкарский университет. Кроме того, за последние годы в стране открылось огромное количество частных университетов. В целом обучение в университетах Турции ведется на турецком и английском языках. За годы развития университетов академическая и научная языковая среда претерпела серьезные изменения, связанные с широким проникновением в нее англоязычной речи. Со дня провозглашения государства система высшего образования была нацелена на принятие западной и американской моделей университетов, что нашло отражение в повышении эффективности изучения иностранных языков. Важным является тот факт, что турецкие университеты также являются исследовательскими центрами, производящими продукт не только на турецком, но и на многих других языках. Для этого производится активное обучение и переобучение собственных служащих, а также привлечение иностранных специалистов. Численность статей ученых с турецкой аффилиацией в мировых журналах за 15 лет (1996-2010 гг.) увеличилась в 5,5 раза – с 5,6 до 30,6 тыс. В XXI в. ежегодный прирост составлял ежегодно 2-3 тыс. статей. Для сравнения: показатели Казахстана составляли в 1996 г. – 8,2 тыс, а в 2010 г. – 8,9 тыс. статей. С такой динамикой существует достаточно высокая вероятность того, что уже в краткосрочной перспективе турецкие вузы оставят позади казахстанские. Турецкие вузы достаточно широко представлены в этом рейтинге, в том числе университеты традиционно отсталых в социально-экономическом отношении городов Восточной и Юго-Восточной Анатолии (Турецкого Курдистана). Например, ванский Университет Yüzüncü Yıl (“Столетие”) уступает лишь 4 российским вузам, хотя Ван является одной из наиболее отсталых провинций Турции. Учитывая, что в Турции насчитывается чуть менее 170 вузов (103 государственных и 63 негосударственных, а десятки созданы уже в XXI в.), в научном рейтинге мира представлен каждый третий турецкий вуз [6.-с. 116]. Выполняя условия для попадания в мировые рейтинги, турецкие вузы достигли определенных успехов. При этом следует учитывать, что их показатели ежегодно улучшаются. В

<sup>1</sup> Jeremic V., Jovanovic-Milenkovic M. Evaluation of Asian university rankings: Position and perspective of leading Indian higher education institutions // Current Science, 2014. – Vol. 106. – P 1647-1653.

<sup>2</sup> Стародубцев И.И. Трансформирующаяся Турция. – М.: ИБВ; МГИМО, 2011.

рейтинге Ближневосточный технический университет (381-е место), Эгейский университет (472), Университет Гази (490), Университет Хаджеттепе (492), Анкарский университет (496) и Стамбульский университет (497)<sup>11</sup>. Позиции турецких вузов лучше российских и в рейтинге, составленном приложением издания Times Higher Education (THE) при участии аналитической компании Thomson Reuters. В 2012 г. в рейтинг 100 лучших вузов по репутации вошел Ближневосточный технический университет (место в промежутке от 91 по 100). Как известно, этот рейтинг покинул МГУ. В список 400 лучших вузов вошли Билькентский университет (201-225), Стамбульский технический университет, Ближневосточный технический университет (276 - 300), Университет Боазичи (301-350).

Научные исследования показали, что важным фактором значимости вуза в современной мирополитической системе является не только попадание в ведущие рейтинги, но и привлекательность для студентов как с точки зрения знаний, так и с точки зрения инфраструктуры, возможностей академической мобильности, разностороннего развития компетенций и, бесспорно, стоимости обучения. Необходимо отметить, что Турция успешно интегрировала свою систему высшего образования в европейскую, Болонский процесс принес турецкому образованию и науке больше позитивного, чем негативного. Власти Турции не критикуют европейские рейтинги, а активно способствуют продвижению своих университетов вверх по их "лестницам", а также формируют свои собственные рейтинги. Несмотря на имевшиеся и имеющиеся по сей день проблемы, турецкое высшее образование активно их преодолевает, учитывая зарубежный опыт и не стесняясь его заимствовать на благо собственной системы, с учетом собственных интересов и особенностей. Сравнительный анализ показал, что в течение последних трех десятилетий развитие высшего образования в развитых странах характеризуется существенными количественными и качественными изменениями, отражающими коренные сдвиги в производстве, науке, технике, происходящие в результате быстрого развития и углубления научно-технического прогресса, а также под воздействием экономических и социально-политических факторов. Эти изменения затронули основные функции высшей школы, ее организационную структуру и управление, содержание обучения и организацию учебного процесса, научно-исследовательскую деятельность вузов, их связи с производством и другими сферами. Как показывают наши исследования, т.е. данная статья определяет новые направления изучения зарубежного и, в частности, турецкого опыта в области высшего образования. Исследования показывают, что преуспевают сегодня и будут преуспевать в будущем те страны, которые имеют конкурентоспособную экономику. Именно образование становится сегодня главным императивом выживания и развития человечества в условиях глобальных экономических, антропогенных и национальных проблем, условием реализации всемирно признанной концепции устойчивого развития человечества и земной цивилизации в целом.

Таким образом, в исследовании идентифицированы и некоторые характеристики, присущие турецкой системе высшего образования, которые могут быть инкорпорированы в казахстанскую систему высшего образования при определенной их адаптации к социально-педагогическим условиям. К ним относятся, например, повышение роли обучаемых в педагогическом процессе, участие студентов в строительстве собственных программ обучения, грамотное применение в процессе обучения информационных и коммуникационных технологий, привлечение студентов в коммерческую и предпринимательскую деятельность, социальная защита студентов и помощь выпускникам в трудоустройстве, эффективная профориентационная работа и др.

Заметно проявляется и становится ведущей тенденция опережающих темпов (по сравнению с экономикой) подготовки специалистов с высшим образованием, особенно расширение международного сотрудничества в сфере высшего образования на национальном, региональном и международном уровнях, включая вопросы международной мобильности студентов, преподавателей и научных работников высшей школы, признание периодов

обучения в других странах, документов о высшем образовании, ученых степеней и званий и другие.

#### TASVIRIY SAN'AT ASARLARIDA VA INSON HAYOTIDA FRAKTALLAR TUZILISHLARINING TADQIQOTI

**Abdirasilov S.F.** – Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari nomzodi

**Xasanova M.A.** - Toshkent davlat pedagogika universiteti doktoranti

**Annotatsiya.** Maqola inson hayotida va tasviriy san'atda fraktallarning tushunchalari, ta'rifi va xususiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Shuningdek, tasviriy san'atdagi fraktallar tushunchasi, har qanday tabiiy borliq tabiiy tanlovning fraktal tizimi asosida shakllanishi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** tasviriy san'at, fraktal, fraktal geometriyasi, fraktal shakl, fraktal tuzilishi, fraktal tizimi, estetika, oltin kesim.

#### ИССЛЕДОВАНИЕ СТРОЕНИЕ ФРАКТАЛОВ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА И В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

**Abdirasilov S.F.** – кандидат педагогических наук, профессор Ташкентского государственного педагогического университета

**Xasanova M.A.** - докторант Ташкентского государственного педагогического университета

**Аннотация.** Статья посвящено изучению основных понятии фракталов в изобразительном искусстве и в жизни человека, определении фракталов и свойства фракталов. Рассматриваются понятия фракталов в изобразительном искусстве. Любое природное существо формируется на основе "фрактальной системы" естественного отбора.

**Ключевые слова:** изобразительное искусство, фрактал, фрактальная геометрия, фрактальная форма, строение фрактала, фрактальная система, эстетика, золотое сечение.

#### RESEARCH OF STRUCTURE OF FRACTALS IN A LIFE OF MANKIND AND FINE ARTS PRODUCTS

**Abdirasilov S.F.** – candidate of pedagogical sciences, professor of Tashkent state pedagogical university

**Xasanova M.A.** - PhD student of Tashkent state pedagogical university

**Annotation.** Article it is devoted studying of the cores concept of fractals of the fine arts and of human life, definition of fractals and properties of fractals. Concepts of fractals of the fine arts are considered. Any natural being is formed on a basis "фрактальной systems" natural selection.

**Key words:** the fine arts, a fractal, fractal geometry, fractal the form, a fractal structure, fractal system, an aesthetics, gold section.

Fraktal deb ataluvchi shakllarni biz tabiatning o'zida, tasviriy san'at, arxitektura, meditsina kabi ko'p sohalarda, insonning tana tuzilishida, moddiy olamning tizim sifatida shakllangan barcha elementlarida kuzatishimiz mumkin. Biologiyada ham u mavjud. Tabiatdagi har bir jonzod yoki o'simlik tabiiy tanlovning fraktal tizimi asosida rivojlanadi. Fraktallar bizning nafas olishimizda ham, qonimizning aylanishida ham, yuragimizning urib turishida ham ishtirok etadi. Oddiy gap bilan aytganda, fraktallar hayot faoliyatining mohiyatini tashkil etadi. Bunday mohiyatni anglashda yangicha dunyoqarashga ega bo'lgan olim dunyoga kelishi kerak edi. "Tartibsiz bo'lib ko'ringan bu olamni

qanday tartib-qonuniyat ushlab turibdi?” degan savolga “Fraktal geometriya” deb nomlangan yangi ilmiy dunyoqarash yechim topadi<sup>1</sup>.

Tabiatdagi shakllarning ko'pchiligi matematika nuqtai nazardan fraktallar hisoblanadi. Fraktal bu geometrik nazariya emas, u tadqiqotchini dunyoga yangicha nazar bilan qarashga undovchi konsepsiya, avvaldan yaxshi ma'lum bo'lgan narsalarga yangicha nuqtai nazar bilan qarash, borliqni idrok qilishni o'zgartirishdir.

Zamonaviy matematik modellar shunchalik darajada go'zal, maftunkor va sirliki, ular ta'sirchan talaba va tadqiqotchi olimlarni aqldan ozdirishi mumkin. Fraktallarning turli ranglardagi tasvirlari o'zining misli ko'rilmagan uyg'unligi bilan kishini hayratga soladi.

«Fraktallar va san'at ilm uchun» nomli ilmiy maqolada «Oddiy qurilish qoidasi asosida aniqlangan shaklni geometriyadan behabar bo'lgan inson mavjud estetik qadriyati sifatida hayron qolarli darajadagi dekorativ yoki san'at asari kabi idrok etishi mumkinmi?» degan savolga Mandelbrot quyidagicha javob beradi: «Agarda geometrik shakl bo'lsa - fraktal, unda javob - ha»<sup>2</sup>.

A.V. Voloshinovning «San'atning fraktalligi va fraktallar etetikasi haqida»gi tadqiqot izlanishida fraktallar estetikasining muhim xususiyatlarini ajratib bergan:

- koinot va o'ta tartibsizlikning monandligi – o'ta tartibsizlikning geometriyasidan tartibning tug'ilishi va tartib geometriyasidan o'ta tartibsizlikning paydo bo'lishi;
- o'z-o'ziga o'xshash yoki turli-tumanlikda bir xillik;
- oddiylikda go'zallik;
- oltin kesim – san'atning eng muhim fraktali<sup>3</sup>.

Hozirgi vaqtda dastlabki bilimlarga bo'lgan talablar yuqori bo'lmasa ham madaniyat va san'at sohasida ilmiy yutuqlarni qo'shib, shaxslarning falsafiy fikr yuritish moyilligini rivojlantirish zarur. Mazkur maqolada zamonaviy tasviriy san'at asarlari, kompyuter grafika texnikasida bajarilgan, u yoki bu ma'noda fraktal tabiatini o'z ichiga olgan art-obyektlar va san'at ustalar ishini ko'rib chiqamiz.

Bizning kontekstimizda fraktal faqat san'at asari kabi talqin qilinadi. Avvalo, boshlanishiga aslida fraktallar o'zi nimani anglatadi.

Fraktal – bu o'z-o'ziga o'xshashlik xususiyatiga ega, ya'ni har biri butun shaklni takrorlovchi bir nechta qismlardan tashkil topgan geometrik shaklni bildiruvchi atama.

Fraktal va fraktal geometriya tushunchasi 20-asrning 70-80-yillari o'rtalarida matematiklar hamda dasturchilarning ilmiy izlanishlariga qat'iy ravishda kirib keldi.

Fraktallarning asosiy xususiyati – o'z-o'ziga o'xshash yoki cheksiz qaytarilishi. Fraktal geometriyaning paydo bo'lishi 1977-yilda nashrdan chiqqan, Benua Mandelbrot tomonidan yozilgan «The Fractal Geometry of Natur» (Tabiatning fraktal geometriyasi) nomli kitob bilan bog'liq. Mandelbrot ushbu kitobida 1875-1925-yillarda shu sohada ishlagan bir necha olimlarning ilmiy izlanishlari natijalaridan keng foydalangan.

Yanada kengroq ma'noda aytadigan bo'lsak, “fraktal” so'zi matematik ibora hisoblanmaydi va qat'iy matematik ta'rifga ega emas. U quyida sanab o'tiladigan xususiyatlardan birortasiga ega bo'lgan shakl tadqiq qilinayotgan paytda qo'llanilishi mumkin:

1. Barcha darajalarda tartibli tuzilmaga ega. Ularning muntazam shakllardan farqi ham shunda: agar biz muntazam shaklning kichik bo'lagini juda katta masshtablarda qarash, u to'g'ri chiziq bo'lagiga o'xshaydi. Fraktal uchun masshtabning oshishi tuzilmaning soddalashishiga olib kelmaydi, barcha darajalarda biz bir xil murakkab manzarani ko'ramiz.

2. O'z-o'ziga o'xshash yoki o'z-o'ziga o'xshashlikga yaqin xususiyatga ega.

3. Rekursiv (lot. «recursio - qaytish» – o'tganga qaytishi, ilgoriga) tartib yordamida qurilish mumkin.

<sup>1</sup> Мандельброт Б. Фрактальная геометрия природы. М.: Ижевск, 2010. - 656 с. С.16.

<sup>2</sup> Madelbrot B.B. Fractals and an Art for the Sake of Science. Leonardo. Supplemental Issue, Vol. 2, Computer Art in Context: SIGGRAPH '89 Art Show Catalog (1989), pp. 21-24. P.21.

<sup>3</sup> Волошинов А.В. Математика и искусство. М.: Просвещение, 1992. - 335 с. С.125.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, fraktal aniq bir ta'rifga ega emas, biroq adabiyotlarda unga berilgan turlicha ta'riflarni uchratamiz<sup>5</sup>.

Fraktal - u geometrik fraktal bo'lib, qismlardan tashkil topgan hamda ularning har biri butun fraktalning nusxasini kichiklashtirgan holatini ifodalaydi. Fraktal - aniq bir qism o'lchamini o'zgartirgan holda qayta va qayta takrorlovchi geometrik shakldir. Fraktal - qismlardan tashkil topgan, qaysidir ma'noda to'laligicha o'z-o'ziga o'xshash tuzilishdir.

Fraktallar tuzilishi, nafaqat, badiiy go'zalligi bilan o'ziga jalb etadi, balki iqtisodiy jihatdan ham juda foydalidir. XX asrning 90-yillarida Boston shahrida yashovchi yosh olim Natan Kyuxen elektron aloqani fraktallar yordamida o'rnatgan. U radioga juda qiziqqani uchun, o'zi yashaydigan ko'pqavatli uyning tomida katta radioantenna o'rnatmoqchi bo'ladi. Ammo uyning xo'jaini unga ruhsat bermagan. Shunda u fraktal strukturaga ega bo'lgan antennani kashf etib, uning hajmini shu darajada kichraytiradiki, uy xo'jayinining e'tiroziga o'rin qolmaydi. Koxenning eksperimentlari shunday yangi ixtiroga olib keladiki, fraktallar, antennaning masshtabini kichraytirish hisobiga, radioto'lqinlarning diapazonini yanada kengaytirishiga imkon beradi. Natijada telefonlarning xizmat qilish doirasi yanada takomillashtiriladi.

Sog'lom odamning yurak urish ritmi ham fraktal strukturasi ega. Fraktal strukturaning buzilish darajasini aniqlagan holda yurak bilan bog'liq kasalliklarning oldini olish mumkin ekan. Insonning ko'z qarashidagi harakati ham fraktal strukturadan iborat. Ilmiy ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, ob'ektlarni o'rganishda ko'zlar har doim ham ularni diqqat bilan, sinchiklab, bir tekis kuzatgan holda ma'lumot to'plamas ekan.

Tibbiyot sohasida shunday davr keladiki, fraktal strukturalar yordamida rak kasalliklarining oldini olish va davolash mumkin bo'ladi.

V. Kandinskiy fikriga ko'ra «Mavjud belgilar ramzlar bo'lib, tashkil topa boshlangan joyda, zamonaviy san'at vujudga kelishi mumkin»<sup>6</sup>.

Tabiatda faqatgina o'simlik dunyosida emas, daryolar yo'li, hayvonlar, insonlar qon tomirlari va asab sistemalarining tuzilishida ham fraktallik mavjudligi aniqlangan. Modomiki, atom modellari, quyosh sistemasi va galaktika strukturasi o'rtalarida o'xshashlik bor ekan, ular ham fraktal tuzilishga ega bo'lsa, ajab emas. Kepler o'zining mashhur "Olam garmoniyasi haqidagi asarini olam tortishuv qonuniyati bilan go'zallik qonuniyatlari orasida ajratib bo'lmas darajadagi buyuk o'xshashlikdan hayratlanib va zavqlanib yaratgani bejiz bo'lmas kerak. Tasviriy san'atda, umuman har bir rassom ijodida inson bosh va gavda tuzilishlaridagi fraktallikni sezish va uni tomoshabinlarga yetkaza bilish beqiyos ahamiyatga ega.

Peshona chizig'i burun ustida ham takrorlanib (faqat boshqacharoq yo'nalishda), ikkala sirt hosil qilgan o'tmas burchak burun uchining peshona va dahan bilan tashkil qilgan o'tmas burchagiga monandligiga e'tibor bering. Peshona bilan burun tashkil qilgan o'tmas burchak (birlamchi ritm) portretning ko'krak va qorin, orqa bo'yin va yelka sirtlarida, hattoki buklangan yelka va tirsak sathida ham fraktal ravishda takrorlanayotganligining shohidi bo'lamiz. Portretning peshona, burun, dahan, bo'yin oraliqlaridan (fon tomonida) portret tirajining kichikroq masshtabidagi variantlarini ham ko'zga tashlanishi garmoniya qonuniyatlari san'at asarida qo'llanishidan dalolatdir.

Ikkita yaxlitlik sistemalari o'rtasidagi garmonik munosabatlar qay tarzda amalga oshirilishiga Leonardo da Vinchining "Oq suvsar ushlagan ayol" portreti misol bo'la oladi.

Diqqat bilan kuzatsangiz, bir biriga tamomila o'xshamagan ayol va oq suvsar rassom asarida ko'p jihatlar bilan o'xshab ketganini ko'rasiz. Ayol gavdasini chapga, yuzini o'ng tomonga burganligiga go'yo oq suvsar taqlid qilayotgandek, ayolning o'ng qo'li, oq suvsar chap qo'lchasining ko'tarilganligi, ko'zlarining bir xil aniqlikda o'qilishi, ikkalasining me'yorda yoritilganligi ayol qo'l barmoqlari yig'indisining ko'rinishi oq suvsar tumshug'iga o'xshab ketish hollariga rassomning nozik ishorasi,

<sup>5</sup> Федер Е. Фрактали. Пер. с англ.—М.: Мир,1991.—254 с. (Женс Федер, Пленум Пресс, НьюЁрк, 1988). С.175.

<sup>6</sup> Wassily Kandinsky. Ed. M. Bill. With contributions from J. Arp, Ch. Estienne, C. Giedon-Welcker. P.124.

beg'uborlik, latofat va ziyraklik kabi xislatlari har ikki obrazni ko'p jihatdan bir-biriga juda o'xshash qilib yuborgan.

Bugungi kunda ko'pchilik ko'rgazmalarda turli kompozitsiyadagi fraktallar tasvirlangan kartinalar namoyish etilmoqda.

#### ADABIY TA'LIM JARAYONIDA ZAIF ESHITUVCHI VA KAR BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHGA INNOVATSION- USLUBIY YONDASHUV

**Mamarajabova Z.N.** - Toshkent davlat pedagogika universiteti doktoranti, professor, filologiya fanlari nomzodi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zaif eshituvchi va kar o'quvchilarda ongli o'qish, adabiy tahlil malakasini shakllantirish va rivojlantirish, adabiy ta'lim jarayonini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari tadqiqi bayon etiladi. Maqolada adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning nutqining rivojlanishining umumiy va o'ziga xos xususiyatlari, o'rganishning eksperimental dasturiga muvofiq tadqiqot jarayonida bolalar tomonidan ular o'qigan asarlar haqidagi ijodiy fikrlarni og'zaki nutq vositasida bayon etish malakasini shakllantirish to'grisida so'z yuritilgan. Shuningdek, 2019-yilda adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish holatini tizimli o'rganish natijalarining tahlili yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** adabiy ta'lim, kar o'quvchilar, zaif eshituvchi o'quvchilar, ongli o'qish, adabiy tahlil, malaka, pedagogik tizim, tamoyillar, metodlar, kitobxonlik, adabiy-ijodiylik, kommunikatsiya.

#### ИННОВАЦИОННО - МЕТОДИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ПРОЦЕССУ РАЗВИТИЯ РЕЧИ ГЛУХИХ И СЛАБОСЛЫЩАШИХ ДЕТЕЙ В ПРОЦЕССЕ ЛИТЕРАТУРНОГО ОБУЧЕНИЯ

**Мамаражабова З.Н.** – докторант Ташкентского государственного педагогического университета, профессор, кандидат филологических наук

**Аннотация.** В данной статье излагаются изучение педагогических и психологических основ совершенствования процесса обучения литературе, формирование и развитие навыков литературного анализа у глухих и слабослыщащих учеников. Статья была посвящена изучению навыков творческих идей детей на произведениях, которые они читают в устной презентации, в соответствии с экспериментальной программой изучения общих и специфических особенностей развития речи в литературном процессе обучения. В период 2019г. было представлено систематическое исследование развития речи детей с нарушениями слуха в процессе литературного обучения.

**Ключевые слова:** литературное обучение, глухие ученики, слабослыщащие ученики, осознанное чтение, литературный анализ, умение, педагогическая система, принципы, методы, читательская деятельность, литературно-творческое, общение.

#### INNOVATIVE-METHODOLOGICAL APPROACH TO THE PROCESS OF DEVELOPMENT OF THE SPEECH OF DEAF AND POORLY CHILDREN IN THE PROCESS OF LITERARY TRAINING

**Mamarazhabova Z.N.** - doctoral student, Tashkent State Pedagogical University, professor, candidate of philological sciences

**Annotation.** This article outlines the scientific and methodological foundations of literary education in special schools, the study of pedagogical and psychological bases for improving the

process of teaching literature, the formation and development of literary analysis skills among deaf and weak hearing students. The article was devoted to the study of the skills of creative ideas of children in the works that they read in an oral presentation, in accordance with the experimental program of studying the general and specific features of speech development in the literary process of learning. In the period 2019 A systematic study of the development of children with speech disorders during literary learning was presented.

**Key words:** literary education, deaf pupils, weak-learning students, conscious reading, literary analysis, skill, pedagogical system, principles, methods, reading activity, literary and creative, communication.

Maxsus pedagogikada adabiy ta'lim jarayonida kar va zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish alohida jarayon emas, balki o'quvchi shaxsining umumiy, jumladan, estetik va aqliy rivojlanishining bir qismi sifatida tadqiq etiladi. Adabiy ta'lim jarayonida kar va zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish ayni vaqtda umumiy estetik rivojlanishning bir qismi sifatida obrazli fikrlash, ijodiy va qayta yaratuvchi tasavvur, ijodiy faoliyatga intilish uning estetik rivojlanish bilan bog'laydi. Adabiy ta'lim jarayonida bolalar nutqini rivojlantirish shaxsning ko'plab sifatleri va xususiyatlarining birikishi ifodasini qamrab oladi<sup>1</sup>.

Tadqiqot natijalari adabiy ta'lim sharoitida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqini shakllantirish metodikasi rivojlanishining zamonaviy bosqichida surdopedagoglar bolalarni badiiy adabiyotni idrok qilishga tayyorlash, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqini rivojlantirish metodlarini optimal tanlash, evristik va ijodiy xarakterdagi topshiriqlar sonini orttirish, adabiy ta'lim sharoitida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqini shakllantirish natijaviyligini aniqlash bo'yicha diagnostik topshiriqlarni ishlab chiqish bilan bog'liq nuqtiiy rivojlantirishning yangi yo'llarini tatbiq etish haqidagi xulosaga kelishga imkon berdi.

2019-yilda adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish holatini tizimli o'rganish jarayonida Toshkent shahridagi 106-sonli ixtisoslashtirilgan maktab, Buxoro shahridagi 123-sonli sonli ixtisoslashtirilgan maktab, Qarshi shahridagi 17-sonli sonli ixtisoslashtirilgan maktab, Olmaliq shahridagi 80-sonli ixtisoslashtirilgan maktabning o'quvchilari tadqiqot obyekti sifatida tahlil etildi.

Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar nutqining rivojlanishining umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishning eksperimental dasturiga muvofiq, tadqiqot bolalarning o'qigan asarlari haqidagi ijodiy fikrlarini og'zaki nutq vositasida bayon etish malakasini o'rganishdan iborat bo'ldi.

Tadqiqotni tashkil qilish va o'tkazishning metodik asosini M.P.Voyushina, M.I.Nikitina tomonidan ishlab chiqilgan diagnostik topshiriqlar tashkil qildi.<sup>2</sup> O'quvchilar tomonidan o'qigan asarlari haqidagi ijodiy fikrlari og'zaki nutq vositasida bayon etish darajasini aniqlash maqsadida 6-sinf darsligidagi "Tonggi so'z" va "Ko'pik" hikoyasini o'qish, keyin o'qiganlari haqida voqealarning keyingi rivojining o'z variantini taklif qilgan holda, og'zaki matn tuzish taklif qilindi. Birinchi turkum topshirig'ida o'quvchilar bog'langan fikrlarni mustaqil tuzdi, ikkinchisida esa matn asosidagi reja yordamida tuzdilar. Birinchi turkum eksperimental topshiriqlarni bajarishga oid bog'langan fikrlarini jamlagan ishlar tahlili sinaluvchilarning bog'langan fikrlarni mustaqil tuza olmasligini aniqlash imkonini berdi. Odatda, bolalarning fikrlari bitta gapdan tashkil topdi, masalan: "Qiziq", "Menga hikoya yoqdi, chunki hikoya menda yaxshi taassurot uyg'otdi", "Ahmad kuchuk, mushuk, g'oz va o'rdaklar bilan do'st".

Keltirilgan fikrlarda mavzu va g'oyani aniqlash mushkullikni yuzaga keltirdi. Ularda hikoya

<sup>1</sup> Зыкова Т.С. Развитие речи глухих младших школьников в системе коррекционного обучения. Автореферат дисс. ... доктора пед. наук. – М., 1993. – 35 с.

<sup>2</sup> Воюшина М.П. Формирование умения анализировать художественное произведение как средство литературного развития младших школьников. Диссерт. на соиск. канд. пед. наук, – Л., 1989. – 237 с.



qahramonlari aytilmagan, asosiy qahramonlarga munosabat ifodalanmagan, o`quvchilar o`z tuyg`ularini formal ifodalagan. Ta`kidlash kerakki, birinchi turkum topshiriqlarini bajarishda eshitishda nuqsoni bo`lgan o`quvchi sinaluvchilar tajriba o`tkazuvchiga nima haqida yozishni aytib berishni so`rab murojaatlar qilishdi, o`zlari uchun buning qiyinligini bildirishdi. Ko`p hollarda sinaluvchilar hikoyaning davomini mustaqil yozishdan bosh tortdi. Bu holatlar eshitishda nuqsoni bo`lgan o`quvchilarning fikrlarni tuzishda qiyinchiliklarga duch kelishi haqida dalolat beradi, ularni esa o`quvchilarning lug`ati cheklanganligi, o`qish darslarida o`qilgan asarlar asosida o`z hikoyalarini tuzish tajribasining yo`qligi bilan izohlash mumkin.

Ikkinchi turkum topshiriqlar bo`yicha olingan eksperimental material o`qilgan asar haqida fikrlar yaratishning yuqorida ajratilgan darajalari bo`yicha tahlil qilindi. Olingan eshitishda nuqsoni bo`lgan o`quvchilar fikrlarini tahlil qilish natijalari ularni yaratishning yuqori darajasi yo`qligidan dalolat beradi. O`quvchilar ishlarining qiyosiy tahlili eshitishda nuqsoni bo`lgan o`quvchilarning reja asosida tuzilgan fikrlari hajmiga ko`ra normal eshitadigan bolalarning rasmlar turkumi bo`yicha tuzgan fikrlaridan qolishmasligini ko`rsatdi. Nisbatan o`xshash hajmiga qaramay, ularda sifat jihatidan farqlar mavjud. Faqat ikkinchi turkum topshiriqlaridagi reja eshitishda nuqsoni bo`lgan o`quvchilarga fikr tuzish, o`qilgan hikoyaga o`zining munosabatini to`liq yoki qisman ifodalashda yordam berdi. Sinaluvchilarning ayrimlari personajlarga baho bera oldi, ularning o`zaro munosabatlarini yoritib berdi, shuningdek, hikoyani davom ettirishga urinib ko`rdi.

Eshitishda nuqsoni bo`lgan o`quvchilar ishlarida nutqning grammatik tomonining buzilishi qayd etildi. Bundan tashqari, o`quvchilar fikrlarini sifat jihatidan tahlil qilish ularda bir xildagi sintaktik konstruksiyalar mavjudligini qayd qilish imkonini berdi.

Ma'lumotlar topshiriqlarning birinchi turkumida tuzilgan matnlarda sodda yig`iq gaplarning ustuvorligidan (79%) dalolat berdi. Sinaluvchilarning fikrlari bitta gapga teng bo`ldi, masalan: *"Hikoya menga yoqdi, chunki qiziq"*, *"Qiziq"*, *"Menga qiziq bo`ldi"*. Ikkinchi turkum topshiriqlarini bajarishda o`quvchilar tomonidan tuzilgan fikrlarda gaplar miqdori ortdi. Biroq sinaluvchilar tuzgan matnlarda sodda gaplar ustuvorlik qildi (84%). Sinaluvchilarning yozma fikrlari tahlilida ularda katta miqdorda grammatik va nutqiy xatolar aniqlandi: so`z tartibining buzilishi (*zaif eshituvchi o`quvchilarda* 8%, kar o`quvchilarda 10%) *"salom mushuk berdi Adhamga"*; katta bo`lmagan kontekstda aynan bir so`zning takrorlanishi (*zaif eshituvchi o`quvchilarda* 9% va kar o`quvchilarda 10%): *"Mushuk miyov dedi, Kuchuk vov-vov dedi. G`oz g`a-g`a dedi. Mushuk, kuchuk, g`oz bolaga salom berdi. Bola mushuk, kuchuk, g`ozga salom berdi"*; yaqin turadigan bir o`zakdosh so`zlarni qo`llash (*zaif eshituvchi o`quvchilarda* 6% va kar o`quvchilarda 8%): *"Mushuk, kuchuk – sodiq do`stlik, chunki u bola bilan do`stlashdi"*; ortiqcha so`zlarni qo`llash (*I bo`limda* 4% va *II bo`limda* 6% kar o`quvchilarda 2%): *"menga yoqadi, juda yoqadi, judayaa-judayam yoqadi"*; so`z yasash bilan bog`liq xatolar (*I bo`limda* 12% va *II bo`limda* 11% kar o`quvchilarda 40%). Shunday qilib, bolalar ishlarining miqdor va sifat tahlili eshitishda nuqsoni bo`lgan o`quvchilar asarning mazmuniy tomonini ochib berish, fikrlarni grammatik va nutqiy rasmiylashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishini ko`rsatdi. Fikrimizcha, sinaluvchilar duch kelgan qiyinchiliklar nafaqat yetarlicha nutqiy rivojlanmaganlik, balki o`qishga o`rgatish bilan bog`liq pedagogik amaliyotda yo`l qo`yilgan kamchiliklar bilan ham bog`liq. O`qish darslarini kuzatish va ularni tahlil qilish orqali o`qishga o`rgatish amaliyotidagi eng asosiy kamchiliklardan biri o`quvchilarning nutqiy faoliyatining bir-biriga o`xshash turlaridan foydalanishdan iborat ekani aniqlandi. Bu holat darslarda ta`limning bir xildagi metodlaridan foydalanish bilan izohlanadi. O`quvchilar javoblarining shakli qo`yilgan savollar xarakteriga bog`liq bo`ladi. Qayd qilishni talab etadigan, reproduktiv deb nom olgan, shuningdek, izlanishli, fikr qilishni talab etadigan savollar farqlanadi. Amalda esa o`qilgan matn bo`yicha oldindan tayyorlangan hikoyadan boshqa hech bir ish shaklini deyarli kuzatmadik, o`quvchilarning bog`lanishli fikrlari maqsadga yo`naltirilgan mashqlar sharoitida deyarli shakllantirilmaydi. O`qish darslarida olib borilgan kuzatishlar xulosa qilish imkonini beradiki, dars vaqtining qariyb 90% to`liqsiz gaplardan foydalanishni ko`zda tutadigan kundalik muloqot og`zaki so`zlashuv nutqiga, 10% avvaldan ishlangan va yod olingan bog`lanishli hikoyalarga (gapirib berish)

ajratiladi. Kuzatilgan darslarga bayonnomalar yozayotib, o'quvchilarning asar qahramonlari haqidagi mustaqil fikrlari, ularga berilgan baholari, qahramon taqdiri qanday bo'lishini o'ylab topishlari, hikoyaning davomini to'qishlari juda kam qo'llanilishiga e'tibor qaratdik, o'qituvchilar bolalarning: "Yaxshi", "Mehribon", "Jahldor" kabi javoblarini qabul qilaveradilar.

Ta'kidlamoqchimizki, o'quvchilarning yuqorida keltirilgan javoblari dastur talablariga muvofiq kelmaydi, bu o'quvchilarning darslarda yetarlicha nutqiy faol emasligidan dalolat beradi. Darslarda maksimal faollik o'qituvchi tomonidan namoyish qilindi. U hikoya qildi, mazmunni tahlil qildi, umumlashtirdi, bolalarning fikrlarini to'ldirdi. Kuzatilgan darslarning ko'pchiligida o'quvchilar passiv tomoshabin vazifasini bajardi. Keltirilgan dars parchasi o'quvchilar matnda yo'nalganlik olishi, biroq o'z fikrlarini qisqa shaklda ifodalashi, qahramonning tavsifi formal va dalillarsiz ekanini ko'rsatib turibdi. Ta'kidlash muhimki, suhbatda hamma vaqt ham kengaytirilgan javoblar kerak emas. Savolning xarakteri javobni belgilaydi.

Aniq savollarga javoblar qisqa bo'lishi mumkin. Biroq sabab-oqibat, umumlashtirish va baholash xarakteridagi savollar nisbatan to'liq, kengaytirilgan, dalillangan jummalarni talab qiladi.

Ayni vaqtda pedagogik amaliyot tahlili ko'rsatadiki, nutq o'stirish darslarida o'qituvchilar so'zlar o'rtasida aloqadorlik (bog'liqlik)ni aniqlashga, variativ konstruksiyalarni tanlash va shu kabilarga qaratilgan rang-barang ish turlaridan foydalanadi. Chunonchi, "Kumush qish" hikoyasi bo'yicha bayonga tayyorlanib, o'quvchilar matn tahlilidan keyin quyidagi vazifalarni bajardi:

– hikoya matniga tayangan holda otlarga mos keladigan sifatlarni tanlash, ularni boshqa so'zlar bilan to'ldirish: " Qish (qanday?) ..., ... . Kunlar (qanday?) ..., ... . Qor (qanday?) ... .

– matndan olingan gaplarni namuna bo'yicha qayta tuzish: "Kumush qish kirib keldi. – Qish kunlari hammayoq oppoq qor bilan qoplandi".

– so'zlardagi qo'shimchalarni yozish va imlosini tushuntirish: "(Qaerda?) dala.....(qanday?) ... maydon... .

– sinf taxtasida yozilgan gaplardagi xatolarni topish: "Dallarda kuzda sepilgan urug'lar qor tagida yetilib, muzlamasdan turadi. Qor qancha ko'p yog'sa, yer shuncha yaxshi dam oladi, hosil mo'l bo'ladi".

Ta'kidlash kerakki, nutq o'stirish darslarida bu kabi topshiriqlarni bajarish o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'dirmadi. Buni o'qituvchilarning nutq o'stirish darslarini yaratish va nutqiy rasmiylashtirish uchun bazaviy asos deb bilishi bilan izohlash mumkin. Biroq eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar so'z va birikmalarni xatosiz qo'llashi uchun birgina nutqiy va grammatik mashqlarning o'zi yetarli emas. Nutqiy muloqot amaliyoti zarur, buni esa asar tahlili, o'quvchilarning adabiy-ijodiy faoliyati jarayonida yaratish mumkin<sup>1</sup>. Fikrimizcha, o'qish va nutq o'stirish darslarida nutqiy faoliyatga o'rgatishning asosiy yo'nalishlari nutqiy namunalarni idrok qilish, tushunish va qayta yaratish, nutqiy jummalarni analogiya bo'yicha qurish, tanish materialni yangi vaziyatlarga ko'chirish, fikrlarning variativligi bo'lishi lozim. Shunday qilib, o'quvchilarning o'zlari o'qigan asarlar haqida fikrlarining og'zaki bayon etishi tahlili ularda mazkur malaka darajasi past ekanini ko'rsatdi, buni esa nafaqat eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning badiiy asarni idrok qilish xususiyatlari va yetarlicha nutqiy rivojlanmaganligi, balki pedagogik amaliyot tahlili jarayonida aniqlangan badiiy asar va o'quvchilar nutqi ustida ishlarni tashkil qilishdagi kamchiliklar bilan ham izohlash kerak bo'ladi.

Shunday qilib, adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish *pedagogik tizimining* mazmuniy komponenti bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan, birgalikda kitobxonlik, adabiy-ijodiy, kommunikativ malakalarning shakllanishini ta'minlaydigan elementlarni o'z ichiga olgan yangi tuzilmani gavdalantiradi. Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish pedagogik tizimida surdopedagog faoliyatining predmeti eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatiga ta'lim jarayoni sharoitida rahbarlik qilish hisoblanadi.

<sup>1</sup> Marasulova U.N. Umumta'lim maktablari o'quvchilarida adabiy nazariy tushunchalarni shakllantirish va takomillashtirish usullari: Fil. fan. kand. ...diss. – T., 2007. – 126 b.

**MEDIATA'LIM TEXNOLOGIYALARI BO`YICHA TALABALARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI**

**Kadirov X.Sh.** –Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori, (PhD)

**Annotatsiya.** Maqolada zamonaviy pedagogga qo`yiladigan didaktik talablar, talabalarning mediata'lim texnologiyalari bo`yicha kasbiy tayyorgarligini, mediakompetenligini rivojlantirishning pedagogik tamoyillari, samarador innovatsion usullari tahliliy yoritilgan, didaktik tavsiyalar ilgari surilgan.

**Kalit so`zlar:** mediata'lim, axborot muhiti, innovatsion vosita, pedagogik texnologiya, innovatsion yondashuv.

**НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ ПО ТЕХНОЛОГИЯМ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ**

**Кадыров Х.Ш.** - доцент Ташкентского государственного педагогического университета, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

**Аннотация.** В статье приводится аналитическое освещение дидактических требований к современной педагогике и профессиональной подготовке студентов по технологиям медиаобразования, рассматриваются педагогические принципы развития медиакомпетентности, предлагаются эффективные инновационные методы и дидактические рекомендации.

**Ключевые слова:** медиаобразование, информационная среда, инновационные средства, педагогическая технология, инновационный подход.

**THE NEED TO DEVELOP STUDENTS' TRAINING IN MEDIA EDUCATION TECHNOLOGIES**

**Kadyrov X.Sh.** - Associate Professor of Tashkent State Pedagogical University, PhD

**Annotation.** The article provides analytical coverage of didactic requirements for modern pedagogy, students' professional training in media education technologies, pedagogical principles of media education, effective innovative methods and didactic recommendations.

**Key words:** media education, information environment, innovative tools, pedagogical technology, innovative approaches.

Globalashuv jarayonida yuzaga kelayotgan turli g`oyaviy-mafkuraviy tahdidlardan jamiyatni asrash, ruhiy-ma'naviy barkamol, yuksak intellektual yoshlarni, yetuk mutaxassislarni tarbiyalash ta'lim muassasalari pedagoglaridan zamon bilan hamnafas faoliyat yuritish, ilmiy-metodik izlanish, o`z ustida tinimsiz mehnat qilish, har bir o`quv mashg`ulotiga ijodiy yonashishni talab qiladi.

“Zamonaviy o`qituvchining bugungi “axborot asri” deb nomlangan yangi davrda o`z bilimlarini muntazam oshirib borishi, axborotlarni to`plashi va tahlil qilishi, axborotni qayta ishlashi va ularni uzatishi, muammolar va kelishmovchiliklarni o`z o`rinda hal qilishi, mustaqil qarorlar qabul qilishi, ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik qilishi, ilg`or texnologiyalardan foydalana olishi va ularni amaliyotga tatbiq etishi dolzarb ahamiyatga ega. Shuningdek, pedagogdan maktabda mehnat qilish layoqatiga tayyor bo`lish, olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish, kundalik hayotda qo`llanuvchi texnologiyalardan xabardor bo`lish, muammo xususida chuqur fikrlash va o`z bilimini oshirib borish, mehnat jamoasi va mutaxassislar bilan hamkorlik qila olish, zarurat bo`lganda qarorlar qabul qilish, muammolarni hal etish

va yangi fikrlar yaratishda zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish talab etiladi<sup>1</sup>". Mazkur jihatlarni amalga oshirishda innovatsion axborot kommunikativ vositalari, mediata'lim texnologiyalari samarali ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, o'qituvchining o'z faoliyati jarayonida zamonaviy ta'lim metodlari va axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishga tayyorgarlik darajasi kasbiy kompetentligining muhim tashkil etuvchilaridan hisoblanadi. Binobarin, bugungi kunda ta'lim muammosini global muammolar qatoriga kiritish mumkin. Uning ideallari, maqsadi, mazmuni, metodlari, texnologiyalari barqarorlik sifatleri ba'zan keskin o'zgarishlarga yuz tutmoqda. Jamiyatni axborotlashtirish muammosi ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishni talab etadi. Ta'limni axborotlashtirishning asosiy maqsadi axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash orqali intellektual faoliyatni global jadallashtirishdan iborat. Ushbu muammoni hal etish uchun ta'limning innovatsion axborot-didaktik shakllarini asoslash, texnologiya va axborotlashtirish vositalarini bir tizimga birlashtirishning pedagogik, metodik hamda texnologik asoslarini ishlab chiqish va amalda joriy etish lozim. Bizning nazarimizda, bunday tizim vazifasini axborot-ta'lim muhiti o'taydi. Demak, axborot-ta'lim muhitini yaratish ta'limni axborotlashtirishni rivojlantirishning obyektiv natijasi hisoblanadi.

Ta'limni axborotlashtirish – bu o'quv jarayonining bugungi omilidir. Yangi axborot muhiti kasbiy talimning ehtiyojlariga to'la javob beradi. Bunday tushunish bizga kasbiy ta'lim jarayonida mutaxassislar, xususan, kasb ta'limi o'qituvchilarining axborot texnologiyalari bo'yicha tayyorgarligini oshirish imkoniyatlari haqida so'z yuritishga asos beradi.

Zero, hozirgi vaqtda talabalar – bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mediata'lim bo'yicha kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularni ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalarini, mediakompetentligini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi. Yangilangan pedagogik tafakkurda mediata'lim interfaol, o'quvchiga individual ta'sir etadigan usul sifatida ta'lim jarayoniga jadal sur'atlar bilan kirib keldi. "Mediata'lim o'quvchini shaxsiy fikr yuritish, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirish, axborot olish, uni qayta ishlash, sintez qilish, shaxsiy xulosalar chiqarishga o'rgatadi. Mediata'limning bosh maqsadi – asosiy qonunlarni tushunishga yordam berish, oddiy yo'nalishlardagi mediaaxborotlar tilini o'rganish, o'quvchining badiiy o'sishi, rivojlanishiga hissa qo'shish, mediatekstlarni malakali tahlil eta olish, o'rgatish va qabul qilish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat. Uning pedagogik strategiyasi mediamatnlarni badiiy tahlil qila olish, unga lug'aviy asosda baho bera olishdan iboratdir<sup>2</sup>".

Dunyoda mediata'limning ahamiyati turli xalqaro tashkilotlar, jumladan, YUNESKO tavsiyalarida alohida ta'kidlanib, quyidagicha ta'rif berilgan:

-mediata'lim (media education) media (bosma va grafik, tovush, ekran va boshqa axborot manbalari) va media texnologiyalar bilan bog'liq bo'lib, u talabalarga ommaviy axborot vositalari qay tarzda qo'llanishini tushunish, boshqalar bilan aloqa qilganda mediadan foydalanish qobiliyatini egallash imkonini beradi. Xorijiy davlatlarda shu sohada tadqiqot olib borayotgan bir qator olimlar: Y.Nikitina, I.Fateyeva, W.Potter, R.Kubey, M.Mahonlarning oliy ta'lim muassasalari talabalari mediakompetentligini rivojlantirish borasidagi fikrlariga ko'ra, mediata'lim tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyatga ega bo'lib, talabalarni ta'lim-tarbiya jarayonida tanqidiy, tahliliy fikrlashga o'rgatadi. Professor A.V.Fedorov zamonaviy olamdagi mediata'limni ommaviy axborot bilan muloqot madaniyatini shakllantirish maqsadida ijodiy, kommunikativ salohiyatlar, tanqidiy tafakkur, mediamatnlarni to'laqonli idrok etish, talqin qilish, tahlil qilish va baholash, mediatexnologiya yordamida o'z-o'zini ifodalashning turli shakllariga o'qitish maqsadida ommaviy kommunikatsiya, media vositalari va materiallari yordamida shaxsni rivojlantirish jarayoni sifatida ko'radi. M.M.Vaxobovning fikriga ko'ra, o'quvchi-yoshlarda mediasavodxonlik, mediamadaniyat va

<sup>1</sup> Usmonaliyev R., Allayorov T. O'qituvchi mediakompetentligi shaxsiy va kasbiy rivojlanish omili sifatida. // Zamonaviy ta'lim. – T., 2015, № 9, 45-b.

<sup>2</sup> Usmonaliyev R., Allayorov T. O'qituvchi mediakompetentligi shaxsiy va kasbiy rivojlanish omili sifatida. // Zamonaviy ta'lim. – T., 2015, № 9, 46-b.

mediakompetentlikni rivojlantirish orqali turli axborot hurujlari, buzg`unchi yot g`oyalardan asrash, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta`lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi<sup>1</sup>.

“Mediata`lim” tushunchasi Y.N.Usov tomonidan quyidagicha ta`riflanadi: “Mediata`lim o`quvchi individualligining rivojlanishida ommaviy kommunikatsiya va axborot vositalari (matbuot, radio, kino, televidenie, video, kompyuter texnikasi, fotografiya)dan foydalanish tizimidir. Bilimlarni o`zlashtirishga asoslangan an`anaviy o`quv predmetlaridan farqli o`laroq, rivojlanish tizimi o`quvchilarning emotsional-intellektual imkoniyatlari, badiiy-ijodiy faoliyati amaliyotini taqozo etadi”.

Jumladan, oliy o`quv yurtlarida kasb ta`limi yo`nalishida ta`lim olayotgan talabalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mediata`lim vositasida kasbiy bilim va ko`nikmalarni shakllantirish, ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning o`ziga xos pedagogik tamoyillari mavjud bo`lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Bo`ljak kasb ta`limi o`qituvchilarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo`yicha tayyorgarligini oshirish tizimi hamda ulardan pedagogik amaliyotda foydalanish ko`nikmalarini shakllantirish modelini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish.

Oliy o`quv yurtlarida ta`lim olayotgan bo`ljak kasb ta`limi o`qituvchilarining axborot texnologiyalari bo`yicha tayyorgarligini oshirish tizimi modelini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish muhim muammo bo`lib, o`z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- ta`lim maqsadi va vazifalari, pedagogik amaliyotning asosiy yo`nalishlari, tashkiliy shakllari, uslublari, o`qitish vositalari va natija.

2. Intellektual-axborotlashtirilgan ta`lim muhitini yaratish.

Axborot muhiti foydalanuvchilar tomonidan turli maqsadlarda qo`llaniladigan dasturli-apparatli vositalar, axborotli aloqa tarmoqlari, ta`lim muassasasining tashkiliy-uslubiy elementlari va predmet sohalari haqidagi amaliy axborotlar majmuasini ifodalaydi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko`rsatdiki, kasbiy ta`lim yo`nalishlarida intellektual-axborotlashtirilgan ta`lim muhitini yaratish pedagog va talabalarining axborot bilan ishlash faoliyati samaradorligini ta`minlashga hamda kompyuter vositasida o`qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishga imkon yaratadi.

3. Kasb ta`limi o`qituvchilarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo`yicha tayyorgarligini oshirish jarayonining o`quv-uslubiy ta`minoti.

Ta`lim muassasalarida o`quv ishlarini tashkil etishda axborot va telekommunikatsiya vositalaridan foydalanib, o`qituvchi va ta`lim oluvchining tezkor muloqotini tashkil etish muhimdir. Ko`pgina oliy o`quv yurtlari ma`muriyati moddiy-texnik bazani yaratishni asosiy vazifa deb hisoblaydi. Holbuki, bo`ljak kasb ta`limi o`qituvchilarini axborot texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlashning asosi ularning mustaqil kognitiv faoliyati hisoblanadi. Shu bois, uning uslubiy ta`minotini yaratish muhim masala sanaladi.

Bizningcha, ta`limni axborotlashtirish bir necha yo`nalishda olib borilishi lozim. Ulardan biri dasturiy ta`minotlardan foydalanish hisoblanadi. Unga “Windows” operatsion tizimida hujjatlarni tahrirlashga mo`ljallangan matnni tayyorlash tizimi, bir xildagi ma`lumotlarni qayta ishlash va tizimlashtirish imkonini beruvchi universal dasturlar; katakchalarida faqat sonlar emas, balki matnlar joylashadigan, hisob-kitob ishlari avtomatik ravishda bajariladigan, elektron blanka ko`rinishdagi MS EXCEL jadvalining turli versiyalari; matnli va grafik ko`rinishdagi ma`lumotlarni qog`ozli tashuvchilardan kompyuter xotirasiga o`tkazishga imkon beruvchi skanerlar; grafik ko`rinishdagi ma`lumotlarni qayta ishlash uchun raqamli fotografiya va dasturiy ta`minotlar; lokal kompyuter tarmog`i va global internet tarmog`idan foydalanish hamda turli xil brauzerlar (masalan, MS Internet Explorer) orqali INTERNET tarmog`ida joylashgan ma`lumotlarni o`qish va boshqalar kiradi. Kasb ta`limining aniq yo`nalishlari bo`yicha ma`lumotlar bazasini va avtomatlashtirilgan o`rgatuvchi tizimni yaratish, kasb ta`limi amaliyotiga ma`lumotlar bazasini qo`llash kasb ta`limini kompyuterlashtirishning ikkinchi yo`nalishi hisoblanadi

<sup>1</sup> Babadjanov S. Pedagogika oliy ta`lim muassasasi talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi. Avtoreferat. – T., 2018. 2. 10-11

4. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash.

Amaliyot ko'rsatadiki, axborot texnologiyalaridan foydalanilganda ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish sifat jihatdan mutlaqo yangi bosqichga ko'tariladi. O'qitishning yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini ma'lum darajada optimallashtiradi. Uning axborot va metodik ta'minotini yaratishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, axborot texnologiyalari ta'lim jarayonini boshqarishda juda qo'l keladi. Shunday bo'lsa-da, eng asosiy maqsad ta'lim jarayonida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish emas, balki ular vositasida ta'lim samardorligini oshirish va aniq natijaga erishishdir. Shu bois, o'qitishning yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish strategiyasi, usul va metodlarini belgilashda ularning boshqaruv sifati va tezkorligini oshirishga imkon beruvchi asosiy vosita ekanligi hisobga olinadi. Shubhasiz, ularni amalda qo'llash ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga, ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb masalalarni yechishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda axborotlashtirilgan ta'lim muhitini joriy etish muhim ahamiyatga ega. U bir necha komponentdan tashkil topgan:

a) avtomatlashtirilgan ma'lumotnoma. U o'qituvchilarni zaruriy o'quv ma'lumotlari (o'rganilayotgan predmetga oid va boshqa ma'lumotlar) bilan ta'minlaydi. Avtomatlashtirilgan ma'lumotnoma o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- o'quv jarayonini takomillashtirish va axborotlashtirish bo'yicha metodik muammolar banki;
- ishbilarmonlik xarakteridagi didaktik o'yinlar va muammoli o'qitish usullari banki;
- o'quv guruhlari bo'yicha ma'lumotlar (guruh ro'yxati, o'zlashtirish natijalari va boshqalar) banki;

- o'quv-dasturiy hujjatlar banki (o'quv rejalar, o'quv-uslubiy ishlar, o'quv yuklamalar).

b) elektron ma'ruza matni. U quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi: kompyuter xotirasiga turli o'quv axborotlari (kurs mazmuni, individual topshiriqlar, masalalar, test topshiriqlari va boshqalar)ni kiritish; tarqatma materiallar va uyga beriladigan topshiriqlar nusxalarini ko'paytirish, ularni muayyan algoritm va qoida bo'yicha tizimlashtirish, kompyuter ekraniga yoki qog'ozga chiqarish; o'quv axborotlarini tasniflash va kengaytirish, individual topshiriqlar tayyorlash.

v) predmet bo'yicha bilimlar banki. Ushbu komponent ta'lim masalalari va muammolari, qo'yilgan masala va muammolar yechimini topishga imkon beruvchi axborotli modullar, o'rganilayotgan masalalar va muammolarga oid didaktik o'yinlar, topshiriq va masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

g) pedagogik dasturiy vositalar majmui: avtomatlashtirilgan o'quv kurslari; turli toifadagi o'rgatuvchi dasturlar; o'quv ma'lumotlari bazasi va boshqalar.

Ko'rinadiki, "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan ta'lim oluvchilarga nafaqat nazariy bilim beriladi, shuningdek, ular yangi amaliy ko'nikmalarga o'rgatiladi va kasbiy faoliyatga tayyorlanadi. Chunki bugungi kunda kasbiy faoliyat haqidagi bilim va kasbiy ko'nikmalar mutaxassislar amaliy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu dolzarb masalani hal etish uchun esa ta'lim muassasalarida kasbiy ta'lim-tarbiyaning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish, xususan, pedagogik innovatsiyalar, mediata'lim vositasida bo'lajak mutaxassislarda zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash bo'yicha pedagogik izlanishlar olib borish zarur.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari va pedagoglarning axborot texnologiyalari bo'yicha tayyorgarligini oshirish tizimi modelini yaratish va uning samaradorligini oshirish uchun kasb ta'limi jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash muhimdir.

Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligi kasb ta'limi o'qituvchilari, shuningdek "Informatika va axborot texnologiyalari"dan saboq beruvchi o'qituvchilar tomonidan o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilayotgan axborot texnologiyalari hamda ilg'or innovatsion metodlarga

bog`liq. Shubhasiz, bu hol kasb ta'limi o'qituvchilarining mediata'lim texnologiyalari bo'yicha tayyorgarligini oshirishning pedagogik tamoyillarini ta'minlashni talab etadi.

### **O`QUVCHILARDA EKOLOGIK TOLERANTLIK VA ORGANIZMLARNING YASHASH MUHITIGA MOSLASHISHI HAQIDAGI QARASHLARNI SHAKLLANTIRISH**

**Azimov I.T.** - Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti

**Saydamatov F.R.** - Toshkent davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

**Annatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchilar ongida ekologik tolerantlik va ekologik omillardan haroratning tirik organizmlarga ta'sir doirasi haqidagi bilimlarni shakllantirish to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan. Tirik organizmlarning ekologik omillarga ta'siri va harorat diapozoni bo'yicha rivojlanish qonuniyatlariga asoslanib, ekologik guruhlarni ajratish qonuniyatlari yoritilgan. O'simlik va hayvonlarning haroratga nisbatan chidamlilik chegaralari o'quvchilarga misollar asosida tushuntirilgan.

**Kalit so'zlar:** ekologiya, tolerantlik, chidamlilik, antropogen, biotik, abiotik omillar, optimum, iqlimlashtirish.

### **ФОРМИРОВАНИЕ ВЗГЛЯДОВ УЧЕНИКОВ НА ЭКОЛОГИЧЕСКУЮ ТОЛЕРАНТНОСТЬ И ПРИСПОСОБЛЕНИЕ ЖИВЫХ ОРГАНИЗМОВ К ОБИТАЕМОЙ СРЕДЕ**

**Азимов И.Т.** - доцент Ташкентского государственного педагогического университета

**Сайдамов Ф.Р.** - старший преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

**Аннотация.** В данной статье приведены сведения о формировании экологической толерантности учеников, на примере изучения экологических факторов о пределах воздействия на живые организмы температуры. Раскрыты закономерности деления живых организмов на экологические группы на основе влияния экологических факторов и температурного диапазона. Объяснения приводятся на основе примеров границ выносливости растений и животных относительно температуры.

**Ключевые слова:** экология, толерантность, выносливость, антропогенный, биотический, абиотический фактор, optimum, акклиматизация.

### **REALIZATION OF ENVIRONMENTAL TOLERANT AT STUDENTS AND ORGANIZATIONS**

**Azimov I.T.** - Associate Professor, Tashkent State Pedagogical University

**Saydamatov F.R.** - Senior Lecturer, Tashkent State Pedagogical University

**Annotation.** In given article data on formation of ecological tolerance of pupils, on an example of studying of ecological factors about influence limits on live organisms of temperature are resulted. Laws of division of live organisms on ecological groups on the basis of influence of ecological factors and a temperature range are opened. Explanations are given on the basis of examples of borders of endurance of plants and animals concerning temperature.

**Key words:** ecology, tolerance, anthropogenic, biotic, abiotic factors, optimum, acclimatization.

Tabiatdan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi zamonaviy ekologiyaning amaliy qismi sifatida odamzodning ekologik ehtiyojiga muvofiq, tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni, biosfera barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan mahalliy, mintaqaviy va

global muammolardan biri hisoblanadi. Bu muammoni o'quvchilar ongiga singdirish va ekologik madaniyatni shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Hozirgi ekologik sharoit keskin o'zgarib borayotgan sharoitda har qanday tirik organizm bilan muhit o'rtasidagi munosabatlarning umumiy qonuniyatlarini o'rganish, abiotik, biotik, antropogen omillarning ta'sirini o'rganish eng dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan tirik organizmlarga jonsiz tabiat omillarining ta'sir doirasi chegarasini ochib berish, o'simlik va hayvonlarning ma'lum haroratga chidamlilik darajasini yoritib berish ayni vaqtda faoliyat ko'rsatayotgan pedagog, biolog va ekologlarning asosiy maqsadidir. Tirik organizmlarning tolerantlik darajasini baholash har bir organizmning biologiyasini o'rganish va introduksiya qilish imkonini yaratib beradi. Zamonaviy ekologiya o'rganadigan obyektlar va jarayonlar qanchalik xilma-xil bo'lsin, ularni o'ziga xos bitta umumiy xususiyat – hayot birlashtirib turadi. Ekologik omillarning ta'sir doirasiga qarab, tirik organizmlar chidamli va chidamsiz turlarga ajratiladi. Eng muhimi, abiotik omillardan biri harorat bo'lib, eng muhim cheklovchi omil ham hisoblanadi. Har bir tur uchun eng past va eng yuqori harorat chidamlilik chegarasi hisoblanadi; undan chetga chiqish organizm uchun halokatli ta'sir ko'rsatadi, ya'ni o'ta issiq yoki o'ta sovuq harorat organizmni qattiq shikastlab, nobud qiladi. Deyarli barcha tirik mavjudotlar hujayra sitoplazmasi xossasiga muvofiq 00-50°C oralig'idagi haroratda yashash qobiliyatiga ega. Optimal muhitda cheklovchi omil, ya'ni harorat me'yorida bo'ladi, organizmlar o'zlarini yaxshi his qiladi, tez ko'payadi va populyatsiyalar soni o'sib, ularning ko'pligi ta'minlanadi.

Cheklovchi omil, ya'ni haroratning har ikkala chetki qismi – minimum va maksimum chegarasida “hayotiy faoliyat” bir oz pasaygan bo'ladi va organizmlar uchun bu sharoit noqulay ta'sir etadi. Chidamlilikning eng quyi chegarasida omil yanada cheklanadi, ya'ni harorat tushib (sovib) ketadi, eng yuqori chegarasida ham yanada cheklanadi, ya'ni harorat ko'tarilib (isib) ketadi, oxir-oqibatda, organizmlar noqulay sharoitga tushib qoladi va nobud bo'ladi. Demak, chidamlilikning quyi va yuqori chegarasida organizm hayotiy faoliyatining susayishi kuzatilib, haroratning yanada pasayishi yoki ko'tarilishi uning nobud bo'lishiga olib keladi<sup>1</sup>.

Biologik chidamlilikning umumiy qonuni organizmning u yoki bu ekologik omilga (masalan, haroratga) chidamlilik, ya'ni “ekologik qobiliyati”ni ifodalaydi. Shu ma'noda, ekologik tolerantlik – atrof-muhitning noqulay ta'siriga organizmning bardosh bera olish qobiliyatidir<sup>2</sup>.

Har xil turlarga mansub organizmlar bir-biridan “ekologik qobiliyati” yoki “ekologik tolerantligi” bilan ajralib turadi. Masalan, Arktikada uchraydigan suvo'ti – sferillaning hayoti harorat –34° C sovuq bo'lganda ham davom etadi. Ba'zi bir zamburug'larning sporalari –190° C sovuqda ham o'sish qobiliyatini saqlab qoladi. Ko'pchilik o't o'simliklarining quruq urug'lari –80°C sovuq yoki 120°C issiqqa bardosh bera oladi.

Harorat o'simliklar hayotida ham muhim o'rin tutadi. 10°C dan 30-35°C gacha bo'lgan haroratda fotosintez jarayonining jadalligi ikki marta oshadi, keyin sekin-asta pasayib, 40-45°C haroratda umuman to'xtaydi. Quruqlikdagi o'simliklarning aksariyati nafas olish jadalligiga bog'liq holda, 50-60°C haroratda nobud bo'la boshlaydi.

O'simliklarning past haroratga morfologik moslashishi, ya'ni noqulay sharoitda kurtaklari yoki novdalarining tuproq va qor qatlami, xazonli qatlam va shu kabilarga nisbatan joylashishi bo'yicha bir necha hayotiy shakllari farqlanadi. Daniyalik olim K.Raunkiye barcha o'simliklarni hayotiy shakllariga ko'ra, bir necha guruhlariga ajratgan:

- epifitlar – tuproqda ildizi bo'lmaydi va boshqa o'simliklar tanasida o'sadi;
- fanerofitlar (daraxtlar, butalar) – kurtaklari yerdan ancha balandda joylashadi, ular tangachasimon qoplama bilan qoplanadi, novdalari qishda sovuqdan nobud bo'lmaydi;
- xamefitlar (butacha, chala butachalar) – kurtaklari yerga yaqin joylashadi, qishda qor bilan qoplanadi va novdalarini sovuq urmaydi;

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи / <http://uz.uz/oz/politics/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyoev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>.

<sup>2</sup> Xo'janazarov O'.E., Mirsovurov M., Norbobayeva T. Ekologiya va barqaror taraqqiyot ta'limi. T.: “Navro'z”. 2014.



• kriptofitlar (ko`p yillik o`tlar) – qurib qoladi, kurtaklari tuproq yoki suv ostidagi tugunak, piyozbosh yoki ildizpoyada joylashadi;

• terofitlar (bir yillik o`simliklar) – mavsum noqulay kelishi bilan nobud bo`ladi, har yili faqat urug`idan unib chiqadi<sup>1</sup>.

Iqlim sharoitlariga, xususan, haroratga morfologik moslashish hayvonlarda ham kuzatiladi. Bir turga mansub hayvonlarning hayotiy shakllari turli darajali, masalan,  $-20^{\circ}\text{C}$  dan  $-40^{\circ}\text{C}$  gacha bo`lgan past haroratda ham shakllanishi mumkin. Xususan, yo`lbarslar ichida eng kattasi birmuncha shimolda – sovuq iqlim sharoitida yashaydigan Amur yo`lbarsi hisoblanadi. Issiqqonli hayvonlarda tanasining o`lchami populyatsiyaning o`rtacha ko`rsatkichidan katta bo`ladigan individlar arealning birmuncha sovuq qismida yashaydi. Bu qonuniyat Bergman qoidasi deyiladi<sup>2</sup>.

Organizmlar hayotida haroratga fiziologik moslashish katta ahamiyat kasb etadi. Ulardan eng oddiyisi – iqlimga moslashish (iqlimlashtirish), ya`ni o`simlik, hayvon va odam organizmining o`zgaruvchan geografik muhit sharoitida yashashga moslashishi, boshqacha aytganda, issiq yoki sovuqni o`tkazishga fiziologik moslashishi hisoblanadi. Masalan, ba`zi hayvonlar o`z tanasidan suv bug`lanishini ko`paytirish orqali ortiqcha qizib ketishdan saqlanadi, poykiloterm hayvonlar esa o`z tanasidan qisman suv yo`qotish yo`li bilan sovib ketishdan saqlanadi.

Haroratga munosabat, issiq yoki sovuqdan saqlanishning boshqa shakllari ham mavjud. Masalan, hayvonlar migratsiyasi, ya`ni hayvonlarning yashash shart-sharoiti yoki rivojlanish jarayonlari o`zgarishi bilan ko`chishi, masalan, qushlarning issiq o`lkalarga uchib ketishi, hayvonlarning qishlashi, ya`ni qishki sovuq davrda uzoq vaqt karaxt bo`lib, uyquga ketishi, masalan, sug`ur, olmaxon, ko`rshapalak kabi jonivorlar o`z tanasida metabolizm jarayonini susaytirib, shu orqali oziq moddalar sarfini kamaytirib, tana haroratini deyarli nol darajagacha tushirish qobiliyatiga ega. Ko`pchilik hayvonlarda qishqi tinim davri kuzatiladi, ya`ni rivojlanishning turli bosqichida muhitning noqulay shart-sharoitida vaqtinchalik fiziologik to`xtash jarayoni boshdan kechiriladi.

Shunday qilib, akklimatizatsiya – organizmning hududiy, sun`iy yoki tabiiy ko`chishidan, ya`ni yashash joyini o`zgartirganidan so`ng, yangi yashash sharoitiga moslashishi, boshqacha aytganda, uning muhitdagi o`zgarishlarga fiziologik va ekologik moslashishi bo`lib, bunda harorat quruqlik-havo muhitida yashaydigan organizmlar va populyatsiyalarning moslashish jarayoniga faol ta`sir ko`rsatuvchi eng muhim cheklovchi omillardan hisoblanadi. Tiik organizmlardagi tolerantlik darajasi va harorat hamda atrof-muhit ta`siriga javob reaksiyasini o`rganish o`quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, ekologik qarashlarini shakllantirishda, tabiat va tabiiy resurslarga ongli munosabatni tarbiyalashda alohida o`rinda turadi.

## GERMANIYA TA'LIM TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**To`xbabekov K.A.** – O`zbekiston milliy universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

**Annotatsiya.** Maqolada zamonaviy sharoitda Germaniyada oliy ta`lim olishning amalga oshirish muammolari, xususan yuridik ta`lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili amalga oshirilgan. Boloniya jarayoniga kirgan mamlakatlar ta`lim tizimi mazmunini o`rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu milliy oliy ta`limda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida vujudga keladigan muammolar yechimi bo`yicha ijobiy javob topish imkonini beradi.

**Kalit so`zlar:** huquq, ta`lim, ta`limda huquq, Boloniya jarayonii, oliy ta`lim.

<sup>1</sup> Захлебный А.Н. Содержание экологического образования в средней общеобразовательной школе: теоретическое обоснование и пути реализации: Автореф. дис. д-ра пед. наук: 13.00.01. - М., 1986. - 25 с.

<sup>2</sup> Ердаков Л.Н. Непрерывное экологическое образование. - Новосибирск: Изд-во НГПУ, 2014. - 381 с.

**ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ГЕРМАНИИ**

**Тохбабеков К.А.** - доцент Национального университета Узбекистана, кандидат исторических наук

**Аннотация.** В статье анализируются проблемы получения высшего образования в Германии в современных условиях, в частности, реформа юридического образования. Важно изучить содержание системы образования в странах, которые являются частью Болонского процесса. В статье обоснована возможность нахождения положительного решения проблем, возникающих в ходе реформ в национальном высшем образовании.

**Ключевые слова:** право, образование, права в образовании, Болонский процесс, высшее образование.

**FEATURES OF THE GERMAN EDUCATIONAL SYSTEM**

**Tohbabekov K.A.** - Associate Professor of the National University of Uzbekistan, candidate of historical sciences

**Annotation.** The article analyzes the problems of implementation of higher education in Germany in modern conditions, in particular the reforms in the field of legal education. It is important to study the content of the education system in countries that are part of the Bologna process. This is based on the fact that the national higher education reform can provide a positive response to the problems that arise in the course of the reforms.

**Key words:** law, education, the right to education, The Bologna Process, higher education.

Ta'lim olish huquqi – har bir fuqaroning konstitutsion huquqi bo'lib, bu shaxs va jamiyat ma'naviy rivojlanishini belgilab beruvchi asosiy omildir. Ta'lim olishni huquqiy jihatdan ta'minlash – jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotini belgilovchi muhim jihat. Har qanday davlatning asosiy vazifalaridan biri o'z fuqarolari uchun ta'lim olish, jumladan oliy malakali mutaxassis sifatida shakllanishi va oliy ta'limning barqaror riojlanishi uchun teng huquqli, tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy hamda moliyaviy-iqtisodiy shart - sharoitlarni yaratishdir<sup>1</sup>.

Dunyoda, xususan, Yevropada oliy ta'limni yaqinlashtirish va uyg'unlashtirish asosida yagona tizimni yaratish maqsadida bir qator yetakchi davlatlar tomonidan Boloniya shartnomasi imzolandi. Boloniya jarayonining boshlanishi XX asrning 70-yillaridan, ya'ni Yevropa Ittifoqi ministrilar kengashi tomonidan ta'lim sohasida hamkorlik qilish to'g'risidagi dastur doirasida qabul qilingan rezolyutsiya bilan belgilandi. 1998-yili Parij universitetining 800 yillik tantanalarini nishonlash uchun tashrif buyurgan to'rtta (Germaniya, Fransiya, Italiya va Buyuk Britaniya) davlat ta'limi vazirlari mavjud oliy ta'lim tizimi mintaqada oliy ta'limning rivojlanishi uchun to'sqinlik qilayotgani to'g'risidagi xulosaga kelindi. Germaniya, Fransiya, Italiya va Buyuk Britaniya tomonidan 1998-yil 25-mayda Yevropa oliy ta'limining umumiy nizomini shakllantirish va standartlashtirish maqsadida Sarbona deklaratsiyasi imzolandi<sup>2</sup>.

Bu, birinchi navbatda, mehnat bozorini zamon talablariga mos raqobatbardosh mutaxassislar bilan ta'minlash bilan birga, oliy ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarni rag'batlantirishni maqsad qilib belgilaydi. Sarbona deklaratsiyasi bilan belgilab olingan maqsad va vazifalar keyinroq 29 ta davlat ta'lim vazirlarining Yevropa ta'lim makonidagi oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish va mustaqilligini saqlab qolish zaruratidan kelib chiqib, barcha ma'suliyatni o'z zimmlariga olgan holda, 1999-yil 19-iyunda imzolangan Boloniya deklaratsiyasi bilan

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

<sup>2</sup> Т.И. Моностырская., А.Насеи., Реализация идей Болонского процесса в Германии: дискуссия и реальность // Высшее образование сегодня. – 2008. –№ 4. – С.10-13.

tasdiqlandi. Bugungi kunda Boloniya deklaratsiyasi Yevropa oliy ta'lim muhitining yagona huquqiy asosini bunyod etishga asoslangan muhim ahamiyat kasb etuvchi akt hisoblanadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – yagona Yevropa ta'lim muhitini barpo etishdan iborat bo'lib, uni amalga oshirish yo'li o'zaro yengil muvofiqlashtirilgan va tenglashtirilgan darajalar tizimini yaratish, ikki pog'onali ta'lim jarayoniga o'tish, ta'limda ballar yig'ishda kredit tizimini kiritish, diplom uchun yagona Yevropa ilovalarini ishlab chiqish, akademik mobillikni rivojlantirish va b. Bu borada Germaniya Federativ Respublikasining oliy ta'limni modernizatsiyalash borasidagi tajribasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Boloniya jarayonidagi kelishuvi asosida oliy ta'limda ikki pog'onali bakalavriat va magistratura tizimiga o'tish belgilangan. Biroq muhim jihat shundan iboratki, ikki pog'onali ta'lim tizimiga o'tilishi Germaniyaning yuridik va meditsina sohaslarida ta'lim olayotgan talabalarga ta'sir etmadi. Yuridik va meditsina yo'nalishlari bo'yicha ikki pog'onali ta'lim tizimiga o'tilmaganligining omili ushbu davlatda mazkur sohalarda ta'lim klassik asosda amalga oshirilishi bilan izohlanadi. Ya'ni ta'lim yakunida bitiruvchilar davlat imtihonlarini topshiradilar. Bitiruvchilar o'qishni muvaffaqiyatli tamomlaganlaridan keyin davlat organlarida (sudya) yoki davlat maxsus nazoratida bo'lgan sohalarda (vrachlar) bo'yicha ishlashlari mumkin. Bu Germaniya oliy ta'lim tizimining o'ziga xos ko'pyillik an'alariga ega bo'lgan ajralib turuvchi kuchli jihatlari bo'lib, oliy ta'limda amalga oshirilgan islohotlar mazkur sohalarga ta'sir etmadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, Germaniyada huquqshunos sifatida faoliyat olib borish istiqbolli sanalib, o'z navbatida, huquqshunoslik sohasida oliy ma'lumotli mutaxassis bo'lish jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bunda, birinchidan, maqsad "bir xil", "universal-huquqshunoslar" ("Einheitsjurist")ni tayyorlashdan iborat. Ushbu mutaxassislar o'qishni tamomlaganidan so'ng yurisprudensiyaning barcha (davlat, fuqarolik va jinoyat huquqi) sohaslarida, davlat organlarida (sudya, advokat, prokuror), shuningdek, xususiy kompaniyalarda ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan malakali mutaxassis bo'lib yetishadilar; ikkinchidan, ta'lim olish muddati olti yildan sakkiz yilgacha bo'lgan ikkita davlat imtihonini topshirish belgilangan. Talabalar to'rt-besh yil davomida aynan huquqshunoslikka oid fanlarni o'rganib, uch bosqichdan iborat bo'lgan birinchi davlat imtihonlarini toshiradilar. Avvalo, talaba davlat, fuqarolik va jinoyat huquqi bo'yicha yuridik murakkablikdan iborat bo'lgan uy vazifasini bajarishi lozim. Ya'ni sohaga oid normativ manba va adabiyotlardan foydalangan holda, hajmi 50 varaqdan 100 varaqqacha bo'lgan referat yozishi, shuningdek, davlat, fuqarolik va jinoyat huquqi bo'yicha uchta nazorat ishi bajarilishi kerak, shundan so'ng, og'zaki imtihon qismi bo'lib o'tadi. Og'zaki imtihon jarayonida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni olib borgan professor-o'qituvchilar ishtirok etishmaydi. Davlat imtihonini qabul qilish uchun amaliy faoliyat olib borayotgan huquqshunoslar, vazirlik vakillari, sudya va boshqa oliy o'quv yurtlari professorlari jalb etiladi.

Shunday qilib, Germaniyada davlat imtihoni uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, mazkur jarayon huquqshunoslik bo'yicha egallangan bilim va ko'nikmalarni tekshirishga qaratilgan. Qayd etib o'tish lozimki, davlat imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tish va kelgusida huquqshunoslik sohasida faoliyatni davom ettirish uchun talabalar har tamonlama chuqur bilimga ega bo'lishlari talab etilib, bu borada Germaniyada talaba uchun repetitor (Repetitorium) xizmatlari mavjud. Repetitor – bu professor, amaliyotchi huquqshunos yoki davlat imtihonidan muvaffaqiyatli o'tgan mutaxassis. Repetitor davlat imtihonlariga tayyorlashda katta yordam ko'rsatib, uning xizmatlariga 95%dan ortiq talaba murojaat qiladi. Birinchi bosqich davlat imtihonlari muvaffaqiyatli topshirilganidan so'ng, talaba huquqshunoslik sohasida amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va olingan bilimlarni yanada mustahkamlash uchun maxsus haq to'lanadigan amaliyotni (refendariat) o'taydi. Olib borilgan amaliyot uchun talaba 900 yevro miqdorida oylik maosh oladi. Amaliyot ikki yil davom etib, ma'lum yo'nalishdagi faoliyatni olib boradi:

- fuqarolik yo'nalishi (masalan, fuqarolik ishlari bo'yicha sud va umumiy yurisdiksiya) – 5 oy;
- jinoiy yo'nalish (masalan, jinoiy ishlar bo'yicha prokuratura va sud va umumiy yurisdiksiya) – 3 oy;
- ma'muriy yo'nalish (ma'muriy sud va boshqa tashkilotlarda) – 3 oy;
- advokatura (advokatlik byurosida) – 9 oygacha (istiqbolli yo'nalish);

– saylovlar bo'yicha amaliyot 4 oyga yaqin.

Ko'rsatilgan davr davomida amaliyotchi talaba ixtisoslik yo'nalishini tanlash huquqiga ega<sup>1</sup>. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, qayd etib o'tilgan amaliyotni o'tash tizimi kelgusida huquqshunoslikning turli sohalarida faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda amaliy tajriba bo'lib xizmat qiladi. Amaliyot tugaganidan keyin talaba birinchi davlat imtihoniga o'xshash jarayondan iborat bo'lgan ikkinchi davlat imtihonini topshiradi. Ushbu imtihonni muvaffaqiyatli topshirgan talabalar Germaniyada "to'liq huquqshunoslar" ("Volljurist") deb nomlanib, ular yurisprudensiyaning barcha sohalarida faoliyat olib borishlari mumkin. Germaniyada huquqshunoslik sohasida ta'lim olish jarayoni uzoq davrni qamrab olgan bo'lib, bu faqatgina nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanib qolmay, amaliy ko'nikmalarni ham puxta, chuqur egallashlari uchun xizmat qiladi. Bu bilan nemislar o'zlarini yuqori malakali, o'z kasbini mukammal egallagan professional mutaxassislar bilan ta'minlab boradilar.

Ta'kidlab o'tilganidek, Germaniya oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning o'ziga xos jihatlari shundan iboratki, huquqshunoslik sohasida oliy ma'lumotli bo'lish ta'limi an'anaviy ikkita davlat imtihonini topshirish va ikki yillik amaliyotni o'tish tizimiga asoslangan. Shu bilan bir vaqtda, Germaniya oliy o'quv yurtlari tomonidan xorijiy talabalar uchun huquqshunoslik sohasida magistrlik darajasini olish bo'yicha ta'lim dasturlari taklif etilgan. Ta'limni muvaffaqiyatli tugatganlarga huquq magistranti darajasi beriladi. Germaniyaning barcha oliy o'quv yurtlarida magistraturaga kirish talablari bir xil bo'lib, avvalo, talabgor huquqshunoslik sohasida oliy ma'lumotga ega bo'lishi, nemis (yoki ingliz) tilini bilish darajasi bo'yicha xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim.

Germaniyada magistrlik darajasini egallagan xorijiy mutaxassislarga dunyoda, xususan, rivojlangan davlatlar tomonidan talablar ko'p. Bu quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- Germaniya oliy ta'limi dunyoning deyarli barcha mamlakatlari tomonidan tan olinadi;
- ta'lim berish faqatgina nemis tilida emas, balki ingliz tilida ham olib boriladi.

Biroq, nemis tilida o'qish to'lovsiz bo'lib, bu Germaniya fuqarolarining magistraturada ta'lim olishi uchun xizmat qiladi. Zero, ta'limni moliyalash masalasi chet el talabalari uchun mamlakatni va o'qish joyini tanlashda muhim sanaladi. Germaniyada turli tashkilotlar (Germaniya akademik almashuv xizmati – DAAD) va fondlar (masalan, Genrix Byoll nomidagi Fond, Aleksandra fon Gumboldta nomidagi Fond va b.) tomonidan ta'lim moliyalashtirib boriladi.

Oliy ta'limda tahsil oluvchilarni moliyaviy ta'minlash magistraturaga ham taalluqli bo'lib, magistr darjasiga ega bo'lish bilan doktorlik dissertatsiyasini himoya qilish huquqini olish mumkin.

Xulosa sifatida oliy ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha Germaniya tajribasini ijobiy baholash mumkin. Mazkur jarayon, birinchidan, zamonaviy talablarga mos yangilangan o'quv dasturlarini tayyorlash ikki bosqichli oliy ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish imkonini berib, bu an'anaviy o'quv kurslari mazmunini yangi talablarga uyg'unlashtirib, oliy ma'lumot olishga xizmat qiladi, shuningdek, talabalarining manfaatlarini birlashtiradi. Ikkinchidan, oliy ta'limni isloh qilish jarayonida nafaqat universitetlar, balki turli xil xususiy kompaniyalar ham ishtirok etishini e'tiborga olishni belgilaydi, chunki korxonalar o'z bo'limlarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlashdan manfaatdor. Ushbu yondashuv yosh mutaxassislarni ishga joylashtirish muammosini hal qiladi. O'z navbatida, mamlakatimizda oliy ta'lim tizimida va oliy ta'lim tizimidan keyin oliy malakali mutaxassislarni tayyorlashda jahon andozalari, xususan, Yevropa ta'lim tizimi asosida milliy oliy ta'lim takomillashtirib borilar ekan, bu jarayonda faqatgina o'z imkoniyatlarimizni tadqiq etish bilan chegaralanib qolmasdan, Boloniya jarayoniga kirgan mamlakatlar ta'lim tizimi mazmunini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu milliy oliy ta'limda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida vujudga keladigan muammolar yechimi bo'yicha ijobiy javob topish imkonini beradi.

<sup>1</sup> С.А.Мышенко., Проблемы реализации права на высшее образование в условиях Болонского процесса и пути их решения // Право и законодательство. –№ 2. – С. 118-124.

**ОПЫТ ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕМАТИКИ СТУДЕНТАМ ГУМАНИТАРНЫХ НАПРАВЛЕНИЙ**

**Латыпова А.Р.** - старший преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

**Аннотация.** В данной статье рассматривается решение проблем изучения учебных материалов по математике для студентов, изучающих гуманитарные науки.

**Ключевые слова:** математические понятия, математические методы, математическая база, практическая направленность курса, самообразование.

**EXPERIENCE IN TEACHING MATHEMATICS TO STUDENTS IN THE HUMANITIES**

**Latipova A.R.** - senior lecturer Tashkent state pedagogical university

**Annotation.** This article discusses how to solve the problems of studying educational materials in mathematics for students studying humanities.

**Key words:** mathematical concepts, mathematical methods, mathematical base, practical orientation of the course, self-education.

**GUMANITAR YO'NALISH TALABALARIGA MATEMATIKANI O'RGATISH TAJRIBALARI**

**Latipova A.R.** - Toshkent davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada gumanitar yo'nalishda ta'lim olayotgan talabalarning matematika darslarida o'quv materiallarini o'rganish muammolarini hal qilish haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** matematik tushunchalar, matematik usullar, matematik baza, kursning amaliy yo'nalishi, mustaqil ta'lim.

На протяжении многих лет я преподаю высшую математику студентам Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами. Большинство прошедших передо мной студентов обучались по специальностям «Русский язык и литература», «Корейский язык и литература», «Английский язык и литература», «Методика преподавания истории», «Дефектология», и выбор будущей специальности, по их признанию, в частности, объяснялся надеждой на малое присутствие математики в учебной программе. Средний студент приходит после школы и лица (колледжа) на первый курс с неусвоенными элементарными математическими понятиями. Прослеживается тенденция занижения математического образования в школах и лицеях. Урон качеству математического образования наносится и введением тестирования при приеме в ВОУ. В книге Peter Sacks «Standardized Minds: the high price of America's testing culture and what we can do to change it»<sup>1</sup> производится анализ тестовой системы и делается вывод, что она формирует стандартное мышление. Тогда как первоначальная идея экзамена состоит в том, чтобы увидеть, как молодой человек мыслит, тест проверяет, способен ли ученик хранить в памяти большой объем зазубренной информации. В итоге студенты, которых набирают на первый курс, приходят в университет совершенно неподготовленными к дальнейшему обучению и усвоению материала. А студенты гуманитарных направлений математику при поступлении в ВОУ не сдают. Приходится тратить время на повторение элементарных основ математики, например, заново учиться складывать дроби, решать квадратные уравнения, производить разложение на множители многочленов и т.п.

<sup>1</sup> Соуза Д. Как мозг осваивает математику. Практические советы учителю. М.: Ломоносов, 2010. — с.240

Аудиторного времени на изучение материала курса математики недостаточно, а программный материал пройти нужно в срок. Для этого необходимо усовершенствовать методы обучения математике, ввести так называемый интенсивный метод обучения. Первой попыткой для введения такого метода обучения математике была разработка методического пособия по математике. Это пособие практического направления. Материал в нем изложен в максимально подробной форме, приведены решения задач и примеров. С помощью данного методического пособия студенты могли разобраться с конкретными непонятными моментами и наиболее сложными задачами, которые не были усвоены во время аудиторного занятия; самостоятельно изучить тему в случае пропуска занятия. Пособие содержит в себе полный материал аудиторного практического занятия. Также в него включены дополнительно разобранные задачи, которые не были решены во время работы в аудитории. В конце каждой темы приведены задания для самостоятельного решения и домашнее задание. Пособие содержит в себе самую необходимую информацию по каждой из пройденных тем. Благодаря ему студенты учатся самостоятельно решать примеры, им не приходится тратить время на поиск литературы, программный материал изучается быстрее. По пособию студенты без всяких затруднений могли подготовиться к письменному промежуточному и итоговому контролю по математике. Методическое пособие служит первой попыткой систематизации накопленного преподавательского опыта автора и усовершенствованию интенсивного обучения математике студентами гуманитарных направлений. Ниже приведена часть решения из методического пособия по теме «Понятие множества. Операции над множествами<sup>1</sup>».

#### Понятие множества. Операции над множествами

1. Найти множество корней уравнения  $x(x-1)(2x-1)(2+x)=0$

**Решение.** Для того, чтобы произведение обращалось в ноль необходимо, чтобы хотя бы один из его множителей обращался в ноль. Поэтому решением уравнения будут числа:

$$x_1=0, x_2=1, x_3=\frac{1}{2}, x_4=-2$$

Т.о. имеем множество решений  $A = \{-2, 0, \frac{1}{2}, 1\}$

2. Найти множество натуральных делителей числа 25

**Решение.** Натуральными делителями числа 25 будут числа 1, 5, 25. Таким образом, имеем множество натуральных делителей числа 25:  $B = \{1, 5, 25\}$

3. Найти множество простых чисел до 20.

**Решение.** Натуральные числа, имеющие два натуральных делителя (1 и само число), называются простыми. Например, 2, 3, 5, 7, 11, 13, 17, 19, 23 и т.д. Таким образом, искомым множеством будет множество  $C = \{2; 3; 5; 7; 11; 13; 17; 19\}$

4. Найти множество действительных корней уравнения  $x^2 + 1 = 0$ .

**Решение.** Так как  $x^2 \geq 0$ , то уравнение  $x^2 + 1 = 0$  не имеет действительных корней. Следовательно множеством действительных корней данного уравнения будет пустое множество:  $A = \emptyset$

5. Найти объединение  $A \cup B$ , пересечение  $A \cap B$ , разность  $A \setminus B$  множеств  $A = \{1; 3; 5; 7; 9\}$  и  $B = \{4; 6; 7; 8; 9\}$ .


**Решение.**

$$A \cup B = \{1; 3; 4; 5; 6; 7; 8; 9\},$$

<sup>1</sup> Латыпова А.Р. Задачи и упражнения для практических занятий по предмету «Основы высшей математики» для студентов направления образования «5111400 – иностранный язык и литература (английский, немецкий языки)», «5111100- Музыкальное образование», «5111900-Дефектология». Методическое пособие. Т, 2015

$$A \setminus B = \{1;3;5\},$$

$$A \cap B = \{7;9\}. A \cup B$$



6. Является ли множество  $A = \{1;3;4\}$  подмножеством множества  $B = \{1;2;3;4;5\}$ ?

**Решение.** Будет, так как каждый элемент множества  $A$  является элементом множества  $B$ :  $1 \in B, 3 \in B, 4 \in B$ . Таким образом, по определению подмножеств  $A \subset B$ .

8. Найти все подмножества множества  $B = \{1;2;3\}$

**Решение.** Запишем все одноэлементные подмножества множества  $B$ :  $\{1\}, \{2\}, \{3\}$ . Далее, запишем все двухэлементные подмножества:  $\{1;2\}, \{1;3\}, \{2;3\}$ . И, наконец, трехэлементное:  $\{1;2;3\}$ . Множество  $\emptyset$  является подмножеством всех множеств. Итак, решением будет множество  $B^* = \{\{1\}, \{2\}, \{3\}, \{1;2\}, \{1;3\}, \{2;3\}, \{1;2;3\}, \emptyset\}$ . Непонимание математики произрастает в основном не из особенностей мозга, а из банального страха перед дисциплиной и неумении сконцентрироваться и удерживать свое внимание на задаче. Более того, ощущение страха мешает рабочей памяти производить математические операции и запоминать числа и выражения<sup>1</sup>. Поэтому моя задача, как педагога, преодолеть этот страх посредством введения методических приемов различного характера для интенсивного обучения (в ходе занятий мы не останавливаемся на конкретно одном методе, а комбинируем различные методы в зависимости от изучаемой темы). Любому человеку в современном мире необходимо уметь мыслить, необходима способность к самостоятельной интеллектуальной деятельности. Математика является эффективным средством развития культуры мышления. Мерой мыслительных способностей является способность к абстрагированию. Все мы рождаемся со способностью понимать числа и выполнять математические операции. Это вовсе не значит, что все мы станем великими математиками. Но это, без сомнений, означает, что наши математические способности намного выше, чем мы привыкли думать.

Математическое образование является частью общечеловеческой культуры. Любому человеку в современном мире необходимо уметь логически мыслить, необходима способность самостоятельной интеллектуальной деятельности. Доказано, что математика является эффективным средством развития культуры мышления. Мерой мыслительных способностей является способность к абстрагированию. Особая ответственность за формирование абстрактного мышления лежит именно на математике. Кроме того, математика — это база, способствующая возможности самообразования, обеспечивающая готовность к овладению другими дисциплинами. Успех большинства людей зависит от уровня их умственных и творческих способностей, развитию которых помогает математика<sup>2</sup>.

## BOSHLANG`ICH SINFLARDA ORFOGRAFIYANI ADAPTIV O`RGATISH TEXNOLOGIYASI

Raximqulova M.B. – Samarqand davlat universiteti dotsenti

**Annotatsiya.** Maqolada bugungi kunda boshlang`ich sinf o`quvchilarining grammatik-orfografik tayyorgarligiga qo`yiladigan talablarning ortib borishi va metodika fanining yuqori darajada

<sup>1</sup> Соуза Д. Как мозг осваивает математику. Практические советы учителю. М.: Ломоносов, 2010. — с.240

<sup>2</sup> Скороходова Т. В. Математические дисциплины в системе образования // Молодой ученый. 2013. №9, С. 401-403

koeffitsientga ega bo'lganligi haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, bilimlarning konkret sharoitlarda qo'llanishi hamda tafakkurning kreativligini ta'minlovchi texnologiyalarning yaratilishiga yordam beruvchi omillar, maqsadli dasturiy vositalardan foydalanishni nazarda tutadigan adaptiv yondashuvning potensial imkoniyatlari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** orfografiya, texnologiya, adaptiv o'rgatish, grammatika, axborotlashtirish, kompyuter, dasturiy pedagogik vosita.

### ТЕХНОЛОГИЯ АДАПТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ ОРФОГРАФИИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

**Рахимкулова М.Б.** - доцент Самаркандского государственного университета

**Аннотация.** В статье подчеркивается растущая потребность в грамматической и орфографической подготовке учащихся начальной школы, высокий уровень коэффициента методических дисциплин. Также приводятся сведения о факторах, способствующих созданию технологий творческого мышления, использованию знаний в конкретных условиях, показана необходимость использования потенциала адаптивного подхода с использованием программного обеспечения.

**Ключевые слова:** орфография, технология, адаптивное обучение, грамматика, информатизация, компьютер, программные педагогические средства.

### ADAPTIVE ORTHOGRAPHY TECHNOLOGY IN INITIAL CLASSES

**Rakhimkulova M.B.** - associate professor of Samarkand state university

**Annotation.** The article highlights the growing need for grammatical and orthographic preparation for elementary school students today, the high level of coefficients of methodology, the use of knowledge in specific contexts, and the factors that contribute to the creation of creative thinking technologies. It is important to find out ways to resolve conflicts between underutilization of the potential of an adaptive (individual and differentiated) approach with using software.

**Key words:** spelling, technology, adaptive learning, grammar, informatization, computer, software teaching tools.

Axborotlashish jarayoni tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi globallashuv davrida mamlakatimiz ta'lim tizimiga yangi texnologiyalarni joriy qilishga va o'quv jarayonida axborot resurslaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangilangan ta'lim tizimini joriy etish jarayonida ta'lim bosqichlarida orfografiyani o'rgatishga qiziqish ham didaktik, ham lingvistik nuqtayi nazardan ham g'oyatda muhimdir. Bu borada boshlang'ich ta'lim uchun orfografiya metodikasiga doir qonuniyatlar hanuzgacha yetarli darajada tadqiq etilmagan, xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga imlo malakalarini adaptiv o'rgatish til komponentlariga qo'yiladigan talablarga bog'liq ravishda qay darajada korreksiyalanishi aniqlanmagan.

Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini axborotlashtirishning yetakchi tendensiyalarini aniqlash uchun uni amalga oshirish sharoitlarini o'rganish taqozo qilinadi. Bu sharoitlardan birinchisi o'quvchilarning kompyuter savodxonligini oshirish, yuqori malakali o'qituvchi kadrlarni tayyorlash, ikkinchisi, ta'limning dasturiy pedagogik vositalari (DPV)dan foydalanish orqali endilikda qaror topgan shakl va usullarni modernizatsiyalash, uchinchisi, axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida adaptiv o'rgatishni ta'minlashga doir ta'lim mazmunini (orfografik malakalarni shakllantirishda nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar nisbatini) o'zgartirish, unga yangi shakl va metodlarni kiritishdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual xususiyatlarini hisobga olishga asoslangan, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash darajasini o'z ichiga oluvchi, o'qitish rejasini korreksiyalash imkonini



beradigan tizim muammosiga yagona yondashuvning yoʻqligi oʻzbek tili orfografiyasining adaptiv istiqbolli texnologiyalarini yaratishga izn bermaydi.

Orfografiyani adaptiv oʻrgatishning ayrim jihatlari T.K.Donskaya, L.I.Larionova, V.K.Lomaryov, L.K.Bazarova, L.V.Savelyeva kabi rus olimlari, K.Qosimova, N.Nazarova, A.Abduqodirov, U.Begimqulov kabi oʻzbek olimlari tomonidan turli darajada oʻrganilgan. Fikrimizcha, boshlangʻich sinflarda orfografiyani axborot texnologiyalari yordamida adaptiv oʻrgatishda dasturiy-pedagogik vositalarning funksional vazifasi – oʻquvchilarning individual imkoniyatlari va nimani maʼqul koʻrishni hisobga olib, oʻquv axborotini taqdim qilish va mavzuni oʻzlashtirishga yoʻnaltirishdan iboratdir. Odatda DPV yangi axborotning oʻzlashtirilishi oʻquvchilarning dastur bilan teskari aloqasi mavjud boʻlganida amalga oshirilishini nazarda tutadi.

Dasturiy vositalardan (DV) oʻquv maqsadlarida foydalanishning koʻp yillik tajribasiga qaramasdan, uning imkoniyati hali oxirigacha kashf etilganicha yoʻq. Buning sababi kompyuterli taʼlim tizimini yaratish va qoʻllash yuzasidan nazariy asoslarning yaratilmaganligi va ayrim DPVlarning tasnifi, tipologiyasi va ularga qoʻyiladigan talablar majmuyi yoʻqligidadir.

Dasturiy vositalarning didaktik yoʻnalishi taʼlimiy maqsad va vazifalarning qoʻyilishiga bogʻliq.

Funksional yoʻnalganligi boʻyicha DPVlarning quyidagi turlari farqlanadi: namoyish qiluvchi, maslahat qiluvchi, mashq trenajorlari; nazoratni amalga oshiruvchi dasturlar; axborot-test; mashq qilish; murabbiy; axborot; kommunikatsion; aralash.

DPVlarni metodik vazifasi boʻyicha quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Taʼlimiy natijalarning shakllanganlik darajasiga oid DPVlar: yangi materialni oʻrgatishni shakllantiruvchi (koʻnikma va malakalar ustida ishlash); umumlashtiruvchi (bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirish); nazorat qiluvchi (erishilgan bilimlarni tashxislash; koʻnikma va malakalarni nazorat qilish); kombinatsiyalashgan; yordamchi.

2. Oʻquv faoliyatini boshqarishga doir DPVlar: boshqaruvchi (oʻqitish jarayonini yoʻnaltiradi); tashxislovchi (oʻzlashtirish darajasini aniqlaydi); namoyish qiluvchi (oʻquv materialini namoyish qiladi); generatsiyalovchi (oʻquvchilarning bilimini hisobga oladi, mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar toʻplamini tuzadi); mashqlar bajaruvchi (oʻquvchilarni topshiriqlarni bajarishga yoʻnaltiradi va savollarga beriladigan javoblarni taklif etadi); nazorat qiluvchi (bilimlar, koʻnikma va malakalar nazorat qilinadi).

DVlarning har bir tipi undan taʼlim jarayonida foydalanishning metodik maqsadi va oʻquv jarayonini jadallashtiradigan, uni sifat jihatidan yangi darajaga koʻtaradigan imkoniyatlarni aks ettiradi.

DVlarning bunday tipologiyasi bir qator holatlar tufayli yuzaga kelgan boʻlib, asosiylari quyidagilardir: mavjud yoki taklif etilayotgan DVlarni oʻqituvchining tanlab olish zarurligi va ularni taqqoslash, murakkabligi boʻyicha ierarxiyasini yaratish, turli metodik vazifalarni yengillashtirish zarurati.

Axborot-izlanish dasturiy tizimi quyidagilardan iborat:

- axborot dasturiy vositalari – oʻquvchiga zaruriy axborotni tanlash imkonini beradi; axborotni tizimlashtirish koʻnikma-malakalarini shakllantiradi;

- imitatsion dasturiy vositalar – nutqning funksional tasnifini biror cheklangan sondagi parametrlar yordamida oʻrganishning maʼlum jihatini ifodalaydi;

- namoyish qiluvchi dasturiy vositalar – oʻquv materialining koʻrgazmali taqdim etilishini, oʻrganilayotgan hodisalar, jarayonlar va obyektlar orasidagi oʻzaro aloqadorlikni vizuallashtirishni taʼminlaydi;

- oʻquv-oʻyin dasturiy vositalar – oʻquv vaziyatlarini qiziqarli tarzda uyushtirish uchun moʻljallanadi (masalan, koʻnikmalarni shakllantirish maqsadida optimal qaror qabul qilish yoki optimal mashqlar strategiyasini ishlab chiqish). Ular oʻquvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ishlarini tashkil etish, xotirasini rivojlantirish maqsadini koʻzda tutadi.

Ta'lim amaliyotida bunday ish rejimiga ega bo'lgan kombinatsiyalangan dasturlar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin: namoyish rejimi; mashq qilish rejimi; o'yin rejimi (o'quv maqsadlarida va charchoqni chiqarish uchun foydalaniladi); nazorat rejimi; maslahat rejimi.

Har bir dasturning vazifasi o'ziga xos bo'lib, orfografik o'quv materialini mazmunini tahlil qilish asosida o'zlashtirish va mustahkamlashni nazarda tutadi. Mazkur dasturlarning xilma-xil vazifalari ularni hal etishga umumiy yondashuv bilan birlashtirilgan bo'lib, rivojlantiruvchi, muammoli-modulli ta'lim konsepsiyasiga asoslanadi.

Avtonom (aniq bir darslik bilan bog'lanmagan) va lokal (darslikdagi mavzularni yoritish bilan bog'liq) dasturlar bir-biridan ajratiladi. Ko'plab o'quv adabiyotlari mavjud hozirgi vaqtda kompyuterli dasturlarni chiziqli, tarmoqlangan, siklli algoritmlar bo'yicha umumlashtirish mumkin.

Dasturlar adaptatsiyalanish xususiyatlariga ko'ra adaptiv, qisman adaptiv, noadaptiv dasturlarga bo'linadi.

Adaptiv dasturlar o'quv materialini bayon etish usulini ta'lim sharoitlarining o'zgarish va har bir o'quvchining orfografik materialni o'zlashtirish darajasi hamda tezligiga bog'liq ravishda almashtirish imkonini beradi. Adaptiv dasturda u yoki bu savollar, topshiriqlar, sharhlar, tavsiyalarning o'quvchi javobining to'laligi va to'g'riligiga mos ravishda kompyuter tomonidan tanlanadigan bir necha variantlari bo'ladi.

Kombinatsiyalangan dasturlarni adaptiv dasturlash deb atash mumkin, chunki ular ma'lum bosqichda adaptiv xarakterda bo'ladi. Chunonchi, namoyish rejimida didaktik materialning kichik yoshdagi maktab o'quvchilari tomonidan idrok qilinishi xususiyatlarini hisobga olgan holda bir necha variantlarini taqdim etish ko'zda tutiladi; orfografik ko'nikmalarni birlamchi mustahkamlash bo'yicha trening rejimida xatolar bo'lganida ular yo'q bo'lganidagiga qaraganda ko'proq topshiriqlar taklif qilinadi; trening rejimida o'quvchilar topshiriqlarni tez va bexato bajarganlarida qo'shimcha material taklif etiladi.

O'rgatuvchi dasturlar qismlarining erkinlik darajasi bo'yicha farqlanadi. Tizimga birlashtirilgan dasturlardan foydalanilganda nisbatan mustaqil modullarga murojaat qilish imkoniyati bo'ladi. Bu modullardan biri (namoyish-mashq qilish dasturi) qoida bilan birlamchi tanishish va mashq topshiriqlarini bajarish, ikkinchisi (nazorat-mashq qilish dasturi) bilimlar, ko'nikma va malakalarni joriy nazorat qilish, uchinchisi (test dasturi) yakuniy nazoratda orfografik xatolarni qayd etish va tushuntirish uchun foydalaniladi.

O'rgatuvchi modul o'quv materialining tizimli kvantlash, muammoviylik, modullik, kognitiv vizuallashtirish tamoyillari asosida tuzilgan va bir yoki bir necha orfografik tushunchalarni kompyuter vositalaridan foydalanib tashkil etiladigan turli metodlar yordamida o'rganishga yo'naltirilgan mantiqiy tugal birligini ifoda qiladi.

Dasturlar tashkil etuvchi elementlarining soni va joylashish ketma-ketligi bo'yicha farqlanadi.

Kombinatsiyalangan dasturlar to'rt qismdan iborat bo'ladi:

1-qism – ma'lum nazariy ma'lumotlarning dolzarbligini belgilashga yo'naltiriladi (orfografik qoidalarni o'rganishga tayyorlash).

2-qism – yangi qoida va u bo'yicha qilinadigan mashqlarni ko'rgazmali namoyish etishga qaratiladi.

3-qism- trenajor bo'lib, u orfografik tahlil bo'yicha mashqlarni o'z ichiga oladi. Trening bir xil tipdagi ko'p sonli misollardan iborat bo'lmashligi lozim. Agar o'rganuvchi 5 tacha topshiriqni ishonch bilan bajarayotgan bo'lsa, boshqa ish turlariga o'tiladi.

4-qism – nazorat qiluvchi.

Bu qismlar uchta modulga birlashtiriladi. Birinchi (namoyish-mashq qilish) moduliga 1-2-qismlar, ikkinchi (nazorat-mashq qilish) moduliga 3-qism, uchinchi (test) moduliga 4-qism kiradi.

Qoidalarning ta'riflarini ongli bilib olish orfografik masalani yechishda, ilk qoidalarni qo'yishda, kompyuter dasturining modellarini ketma-ket qo'llashda yordam beradi. Ular har bir qoidaning

komponentlarining ta'riflanishdagi tanish, tanlanma va yakuniy belgilarni aniqlash yo'li bilan o'zlashtirish bo'yicha izchil va puxta ishlashga yo'naltiriladi.

Birinchi (namoyish-mashq qilish) modulining tuzilishi:

1-bo'lim – orfografik materialni o'rganishga tayyorgarlik.

2-bo'lim – qoidaning ifodalanishi ustida ishlash.

3-bo'lim – o'rganilgan orfogrammalarning so'zlarda belgilanish tartibi.

4-bo'lim –orfografik bilim, ko'nikma va malakalarni birlamchi mustahkamlash.

Ikkinchi (nazorat-mashq qilish) moduli variantli topshiriqlar va mashqlarni, yordamchi kadrlarni o'z ichiga oladi.

Uchinchi (test) modul o'quvchi baholanadigan tabaqalashtirilgan topshiriqlardan tashkil topadi.

Dastur tuzishda o'quvchilar faoliyatining motivatsiyalanishi zarurligi hisobga olinadi. Bu xildagi dasturlar asosida ishlaganda mashqlarni bajarish maqsadi tushunarli bo'lishi lozim. Ta'limiy nuqtayi nazardan ma'lum qoidalar hamda qoidalar tizimini egallash, psixologik jihatdan orfografik tahlilni o'tkazish chog'ida tafakkur va aqliy faoliyat rivojlanadi.

Faoliyat maqsadi bilan dastlabgi tanishish kompyuter dasturlari bilan ishlashda o'qituvchining oldindan tushuntirishi orqali amalga oshiriladi.

Dasturlar displey ekranida taqdim qilinadigan materiallar xarakteri bo'yicha farqlanadi. Ular faqat til birliklari (so'z, so'z birikmalari, gaplar)ni, til materiali va sxemalarni, jadval va rasmlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Orfografiya bo'yicha dasturlar asosida til materiali yotadi. Biroq yorqin ko'rish obrazlari, grafik ko'rgazmalilik, tasvirlarning dinamik xarakterda bo'lishi (multiplikatsiya) materialning yaxshiroq xotirlab qolinishiga muvofiqdir. Kombinatsiyalangan dasturlar xarakteri bo'yicha turlicha ko'rgazmali materialni taqdim etishda kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish imkonini beradi.

Metodik adabiyotlarda dasturlarning ikki tipi farqlanadi:

1) faqat xatoni qayd etuvchi dasturlar;

2) tushuntiruvchi dasturlar.

Ikkinchi tipdagi dasturlarning istiqbolli ekanligi shubhasizdir. Chunki kompyuter xatolarni tushuntirishi, uni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatishi, qoidalarni ongli tarzda qo'llashga yo'llashi mumkin.

Shunday qilib, orfografik mavzularni o'rganish darslarida namoyish-mashq qilish, nazorat-mashq qilish, test modullarini o'z ichiga oladigan va faqat xatolarni qayd qilishgina emas, balki tushuntirishga qodir, individual ishlashga yo'naltirilgan adaptiv-o'yinli va muammoli topshiriqlar kiritilgan kombinatsiyalangan dasturlar ijobiy samara beradi.

## MUAMMOLI TOPSHIRIQLAR ASOSIDA TALABALAR IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH

**Melibayeva R.N.** – Toshkent tibbiyot akademiyasi dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Ta'lim jarayonida bilim oluvchilar ijodkorligini, kreativligini o'stirib borish, ularni mustaqil qarorlar qabul qilish, turli ta'limiy va hayotiy vaziyatlarda muammolar ustida bosh qotirish va to'g'ri yechim topa olish uquvini shakllantirish, intellektual salohiyatini oshirish o'ta dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bunday xususiyatlar ta'lim jarayonida tarkib toptiriladi va shakllantiriladi. Ijodiy tafakkur asosi hisoblangan divergen tafakkurni muammoli topshiriqlar va vaziyatli masalalar orqali talabalarda rivojlantirish yuqori samarali natijalar berishi maqolada tajribalar asosida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** tafakkurning o'sishi, tafakkurni rivojlantirish, intellektual mashq, g'oya, muammoli vaziyat, topshiriq.

**РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ПРОБЛЕМНЫХ ЗАДАНИЙ**

**Melibayeva R.N.** - доцент Ташкентской медицинской академии, доктор философии по психологическим наукам (PhD)

**Аннотация.** На сегодняшний день одним из актуальных вопросов считается развитие у студентов умений и навыков самостоятельного мышления, решений дидактических и жизненных проблем, принятие оптимальных решений, развитие творчества и креативности, повышение интеллектуального потенциала студентов. Такие способности формируются в образовательном процессе. В статье приводится опыт эффективного использования проблемных задач и проблемных ситуаций для развития дивергентного мышления, которое считается основой творческого мышления.

**Ключевые слова:** рост мышления, развитие мышления, интеллектуальные упражнения, идея, проблемная ситуация, задание.

**DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING OF STUDENTS ON THE BASE OF PROBLEMS**

**Melibayeva R.N.** - associate professor, Tashkent medical academy, doctor of philosophy in psychology (PhD)

**Annotation.** Today, one of the most pressing issues is the development of students' abilities and skills in independent thinking, solving didactic and life problems, making optimal decisions, developing creativity and creativity, and discovering intellectual abilities. Teachers in the learning process should pay special attention to the development of creative abilities of students. The article deals with the effective using of problem tasks and problem situations for the development of divergent thinking, which is considered the basis of creative thinking.

**Key words:** growth of thinking, creative thinking, intellectual exercises, ideas, problem situations, tasks.

Izlanishlarimiz davomida talabalarda ta'lim jarayonida o'zlashtirilgan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni turli hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish mahoratini shakllantirish maqsadida ijodiy tafakkurning o'sishiga turtki beruvchi topshiriqlarni qo'llashni va bu holat ta'lim subyektlari ijodiy tafakkuri rivojlanishiga qay darajada ta'sir ko'rsatishini aniqlashni o'z oldimizga maqsad etib belgiladik.

Eksperimentda biz uchun nihoyatda zarur jumboq – bu talabalarni qiyinchiliklarni yengishga o'rgatish orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirishdan va ayrim paytda duch keladigan muvaffaqiyatsizliklar oldida dovdorab qolmasdan, balki o'zini o'zi qo'lga olishga safarbar qilishdan iboratdir. Mazkur omillarga nazariy jihatdan yondashsak, biz uchun ikkinchi omil zaruriyatning muhimligi tariqasida mulohaza, mushohada maydoniga chiqadi. Xuddi shu ikkinchi omil talabaga o'z qiziqishini o'zi boshqarish imkonini beradi. Modomiki shunday ekan, talabalarni ta'lim jarayonida faqat qiziqarli bo'lgan mashg'ulotlar bilangina emas, balki yetarli darajada qiziq bo'lmagan (yoqtirmagan) narsalar bilan shug'ullanish zaruratini his etish ruhida kasbiy tayyorlash kerak. Lekin qiziqishni, o'quv motivatsiyasini faollashtirish yo'lini inkor qilish mumkin emas. Shu narsani ta'kidlab o'tish kerakki, ko'zlagan maqsadga yetish uchun har ikkala yo'lni parallel ravishda talabalar ongiga singdirib borish ma'qul. Buning uchun ularda qiyinchiliklarni yenga olish uquvini, o'zini-o'zi qo'lga olish fazilatini shakllantirish maqsadga muvofiq va qolaversa, bularning barchasi ijodiy tafakkur bilan bevosita bog'liqdir.

Talabalarga hamma uchun bir xil qiziq bo'lmagan turli o'quv fanlariga taalluqli materiallardan mustaqil topshiriqlar berildi. Topshiriqlar o'zining tuzilishi va oldiga qo'ygan maqsadi jihatidan turlicha bo'lib, qiziqishni, motivni (motivatsiyani), o'quv faoliyatini talaba tomonidan mustaqil boshqarishga

qaratilgandir. Shu bilan birga, topshiriqlarni yechish ijodiy tafakkurni taqozo etib, turlicha usullarni, ularning variantlarini, modifikatsiyalarini talab qiladi. Jumladan, quyidagi muammolarni yechish ularning diqqatiga havola qilindi va ketma-ketlikda bajarish vazifasi yuklatildi.

1-topshiriq: "Nima, qayerdan, qanday?" Topshiriq bayoni: Ishtirokchilar davra bo`lib o`tiradilar va noodatiy, to`liq tushunish qiyin bo`lgan predmet namoyish qilinaadi. Har bir ishtirokchi tartib bilan uchta savolga javob berishlari kerak:

-Bu nima? Bu qayerdan olingan? Bundan qanday foydalanish mumkin?

Javoblar ishtirokchilar tomonidan takrorlashga ruxsat etilmaydi va ular har bir savolga yangi, o`ziga xos javob berishlari talab qilinadi. Bu mashq uchun rekvizit kiritish eng oddiy usul hisoblanadi.

Topshiriq mazmuni: Yengil intellektual mashq bo`lib, ishtirokchilarning tafakkur tezligini faollashtiradi, tekshiriluvchilarni noodatiy g`oya topishga undaydi.

Muhokama: Ishtirokchilarning keltirilgan javoblari orasidan eng qiziqarli va originalini esda olib qolganligi aniqlanadi.

2-topshiriq: "Orginal foydalanish". Ushbu mashq sinaluvchilar e`tiborini odatdagi predmetlardan original foydalanish mumkin bo`lgan jihatlarini topishga yo`naltirilgan. Masalan: eski gazeta yoki qog`oz; sport halqasi, gantel; g`isht; avtomobil shinasi; shisha idishning qopqog`i; kuyib qolgan lampochka; plastik idish; sok solinadigan alyumin idish.

Topshiriqlar 4-5 kishilik guruhlarda bajariladi, buning uchun 10 daqiqa ajratiladi. Har bir guruh har bir predmetning qanchalik ko`p foydalanish mumkin bo`lgan xususiyatlarini yoritishi lozim.

Topshiriq mazmuni: Mashqlar ijodiy tafakkur sifatlarining muhokamasi uchun materiallarni tasavvur qilish (tezlik, originallik, egiluvchanlik) imkonini beradi. Bu sifatarni mashqlantirish tekshiriluvchilarda atrofdagi predmetlar va ularning vazifalarini idrok qilishdagi shablonlarining o`zgarishiga xizmat qiladi. Shuningdek, mashqni tashkil qilishda ishtirokchilarni rollar bilan ta`minlash va ularning rollarini o`zgartirib borish ham mumkin.

Muhokama: Rollar qanday taqsimlanishi, g`oyani kim ilgari surganligi, ishtirokchilar o`zlarini qanday tutganliklari, sinaluvchilarning ishtirokida qanday sifatlar ustuvor bo`lishi, odatda, ishtirokchilar kundalik faoliyatida ham o`zlarini shunday tutishlari mumkinligi kabi savollar muhokama qilinadi.

3-topshiriq: "Harakat usullari". Mashqlar bayoni: Tajriba jarayonida ishtirokchilarga iloji boricha ko`p usullar taklif qilish tavsiya etiladi. Tekshiriluvchilar tomonidan har qanday noan`anaviylikni hosil qilish, hal qilishga imkon beradigan harakatlarni amalga oshirish mumkinligi haqida ko`rsatma beriladi.

Misol uchun, faqat sovg`aga ega bo`lishga intiling va original hamda eng yaxshi sovg`alarni to`plash, hosil qilishga harakat qiling. Sizda gazeta va skotch mavjud. Ushbu vositalardan foydalanib, o`quv xonasidagi mavjud narsalardan qanday original sovg`a tayyorlash mumkin (faqat o`quv xonasida mavjud bo`lgan narsalardan foydalanib)? Shuningdek, ushbu masala ustida ham mulohaza yuritib ko`ring:

– yo`lovchini jihazlanmagan velosipedda tashish;

– suzib ketayotgan qayiqning teshilgan qismini ta`mirlashga (teshik hajmi 2x2 sm, qo`lda maxsus yopishtirish uchun materiallar yo`q) harakat qiling;

Topshiriqlarni bajarish ishtirokchilarda faollikni ta`minlaydi. Sinaluvchilar 3-4 kishilik kichik guruhlariga bo`linib, topshiriqni bajaradilar. Muammo yechimini topish uchun variantlarni tanlash, yetakchilarini ajratib olish va ishchi guruhni shakllantirish lozim bo`ladi.

Topshiriq: Talabalar ijodiy fikrlashlarining asosiy fazilatlaridan (aniqlik, egiluvchanlik, o`ziga xoslik) noodatiy holatlarda foydalanish.

Muhokama: Har bir kichik guruh vakillari ma`lum bir usullarni taklif qilishlari uchun quyidagi ikkita savolni muhokama qiladilar:

1. G`oyalarning paydo bo`lishiga nimalar yordam berdi va nimalar bu jarayonni qiyinlashtiradi?

2. Shaxsan siz o`z hayotingizda boshdan kechirgan shunga o`xshash vaziyatlarni eslang, muammolarni siz qanday hal qilishga erishgansiz? Agar iloji bo`lsa, aniq misollar keltirib, yechimlarini taklif qila olasizmi?

1-jadval

Talabalar ijodiy tafakkurining ta'lim yo'nalishi va bosqichiga ko'ra ko'rsatkichlari

Shkalalar	Psixologiya							
	1-bosqich (n=32)				3-bosqich (n=37)			
	Tajriba boshida		Tajriba yakunida		Tajriba boshida		Tajriba yakunida	
Tezlik	5,21	0,11	7,36	0,21*	5,84	0,15	8,45	0,22***
Egiluvchanlik	4,48	0,17	6,38	0,11**	5,98	0,25	9,52	0,14***
Originallik	4,71	0,13	6,45	0,20**	4,68	0,21	9,40	0,17***
Aniqlik	12,33	0,24	28,82	0,14***	12,82	0,17	30,35	0,20***

Izoh: \* $r \leq 0,05$ , \*\* $r \leq 0,01$ , \*\*\* $r \leq 0,001$

Talaba – psixologlarning birinchi va uchinchi kurslarida: tezlik (5,21 va 7,36; 5,84 va 8,45; egiluvchanlik (4,48 va 6,38); originallik (5,98 va 9,52). Tajribaning boshi va yakunlovchi bosqichi bo'yicha talabalar ko'rsatkichlarida statistik farq aks etmoqda.

2-jadval

Talabalar ijodiy tafakkurining ta'lim yo'nalishi va bosqichiga ko'ra ko'rsatkichlari

Shkalalar	Filologiya							
	1- bosqich (n=65)				3-bosqich (n=57)			
	Tajriba boshida		Tajriba yakunida		Tajriba Boshida		Tajriba yakunida	
Tezlik	5,72	0,23	6,45	0,22**	5,27	0,17	7,32	0,23**
Egiluvchanlik	5,36	0,12	7,52	0,14**	6,50	0,21	11,58	0,12**
Originallik	4,68	0,21	8,40	0,17***	7,21	0,20	10,53	0,21**
Aniqlik	12,82	0,17	16,35	0,20***	17,21	0,18	31,46	0,21***

Izoh: \* $r \leq 0,05$ , \*\* $r \leq 0,01$ , \*\*\* $r \leq 0,001$

Talaba – psixologlarning natijalari singari xorijiy filologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining ijodiy tafakkur ko'rsatkichlari quyidagi ko'rinish oldi: tezlik (5,72 va 6,45; 5,27 va 7,32); egiluvchanlik (5,36 va 7,52; 6,50 va 11,58); originallik (4,68 va 8,40); aniqlik (17,82 va 16,35; 12,21 va 31,46).

3-jadval

Talabalar ijodiy tafakkurining ta'lim yo'nalishi va bosqichiga ko'ra ko'rsatkichlari

Shkalalar	Biologiya							
	Tajriba boshida		Tajriba yakunida		Tajriba Boshida		Tajriba yakunida	
	1-bosqich (n=71)				3-bosqich (n=64)			
Tezlik	5,84	0,15	8,15	0,22**	5,77	0,10	8,51	0,23**
Egiluvchanlik	5,98	0,25	7,27	0,14*	6,87	0,09	12,23	0,12**
Originallik	5,32	0,14	7,51	0,17***	7,64	0,18	11,72	0,21**
Aniqlik	12,24	0,17	17,30	0,20***	13,18	0,11	29,37	0,21***

Izoh: \* $r \leq 0,05$ , \*\* $r \leq 0,01$ , \*\*\* $r \leq 0,001$

Yuqorida tahlil qilingan ikkita ta'lim yo'nalishi talabalarini natijalari singari talaba – biologlarning natijalarida ham o'ziga xoslik aniqlandi. Bu holat jadvaldagi ko'rsatkichlar singari quyidagicha ko'rinish oldi: tezlik (5,84 va 8,15; 5,77 va 8,51) ; egiluvchanlik (5,98 va 7,27; 6,87 va 12,23); originallik (5,32 va 7,51); aniqlik (12,24 va 17,30; 13,18 va 29,37).

4-topshiriq: "Yer yumaloq". Mashq bayoni: Yerning yumaloq ekanligini hamma biladi. Lekin aniq ma'no nima? Bu so'z o'yini bo'lishi mumkinmi? Psixologik nuqtai nazaridan, kichik bolalar so'zlarning ma'nosini tushunmasliklari mumkin, ammo kattalar unga boshqacha yondashadilar. Masalan, ular

yerning dumaloqligiga ishonadilar. Dengizda yoki tekislikda aylanadigan tekis doiraning kosmosdan ko`rinishini tasavvur qiladilar. Bunday holda, yer qanday shaklda degani savolga ular “yumaloq” deb javob beradilar. Bu esa dunyoning tuzilishi haqidagi ularning fikrlariga zid keladi. Ba`zan oddiy holatlarda yerning “yumaloqligi”ni isbotlash qiyin bo`ladi. Topshiriq 3-5 kishilik kichik guruhlarda amalga oshiriladi. Topshiriqni bajarish vaqti 6-8 daqiqani tashkil etadi. Topshiriq mazmuni: Fikrlarni yaratish, mashq qilish qobiliyatini ishlab chiqish bilan bir qatorda noaniq talqinlarning mavjudligini namoyish qilishga imkon beradi. Oqibatda, hatto tushunishdagi xatolar yuzaga kelishi mumkinligi aniq ko`rinadi. Munozara: Ishtirokchilardan muammoni yechish jarayonida, birinchi navbatda, misollar yordamida tushuntirish talab qilinadi. So`ngra, ularga qanday qilib “Yerning yumaloq”ligini tasavvur qilishlariga doir fikrlarni ifoda etish taklif qilinadi. Fikrlar orasidan originallari ajratib olinadi. Ushbu topshiriqlar bilan bir qatorda, talabalarda ijodiy tafakkurning rivojlanish holatining diagnostikasi uchun alohida tadqiqot metodikasini qo`llashga ham e`tibor qaratildi. Tajribamizning ushbu bosqichida P.Torrensning “Ijodiy tafakkur testining qisqartirilgan shakli”dan tajriba boshida va topshiriqlarni bajarib bo`lgandan keyin, tajriba oxirida takroriy tatbiq qildik.

Talabalarining mashqlardan keyingi holatdagi natijalarini uchta ta`lim yo`nalishiga ko`ra tahlil qilishga to`g`ri keldi. Ijodiy tafakkur xususiyatlarini o`rganish bo`yicha qo`lga kiritilgan natijalarning ko`rsatishicha, ta`lim bosqichlari va yo`nalishlariga ko`ra talabalarining ko`rsatkichlari anchagina o`ziga xos ekanligining guvohi bo`ldik.

Talabalarda ijodiy tafakkurining rivojlanishiga ta`lim jarayoni uchun yetarli bo`lgan o`quv materiallari bilan bir qatorda, doimiy tafakkurni rivojlantirishga yo`naltirilgan topshiriqlarni taqdim etish foydadan holi emasligini tajriba natijalari ko`rsatmoqda. Shuni unutmash lozimki, talabalar tafakkurining rivojlanishi uzluksiz bosqichga ega bo`lganligi sababli uning doimiy kamol topishini ta`minlashga xizmat qiluvchi tadbirlarni muntazam, sistemali ravishda tashkil qilib borish lozimdir.

Muammoli topshiriqlar ijodiy tafakkur rivojlanishining muhim shartidir. Muammoli vaziyatlar, topshiriqlar ta`sirida talabalar ijodiy tafakkuri ta`lim bosqichi va ta`lim yo`nalishidan qat`iy nazar, rivojlanishi mumkin ekan. Muammoli vaziyatlar tufayli talabalarining ijodiy tafakkurining rivojlanishi ularning topshiriqlar ustida tez fikrlashi, ixcham yechimlar topishga intilishi, aniq xulosalarga kelishi va original yechimlar topishi bilan belgilanadi.

## ФИЗИКА ПРАКТИКУМИДА ЗАМОНАВИЙ ТИЗИМЛИ МЕТОДЛАРНИ ҚЎЛЛАШ УСУЛЛАРИ

**Бегматова Д.А.** - Ўзбекистон миллий университети доценти

**Абдуллаев Н.Қ.** – Ўзбекистон миллий университети таянч докторанти

**Аннотация.** Мақолада физика практикумида замонавий тизимли ёндашув моҳияти очиб берилган ва мисол тариқасида физикадан лаборатория қурилмасини тизимли таҳлил қилиш усули баён қилинган.

**Калит сўзлар:** замонавий метод, тизим, тизимли таҳлил, тизим назарияси, тизимли ёндашув, лаборатория.

## СПОСОБЫ ПРИМЕНЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ СИСТЕМНЫХ МЕТОДОВ НА ПРАКТИКУМЕ ПО ФИЗИКЕ

**Бегматова Д.А.** - доцент национального университета Узбекистана

**Абдуллаев Н.К.** - базовый докторант национального университета Узбекистана

**Аннотация.** В статье раскрывается сущность системного подхода в практикуме по физике и в качестве примера описывается метод анализа лабораторного устройства по физике.

**Ключевые слова:** современный метод, система, системный анализ, теория системы, системный подход, лаборатория.

### METHODS OF MODERN SYSTEM METHODS IN THE PRACTICE OF PHYSICS

**Begmatova D.A.** - associate professor of the National university Of Uzbekistan

**Abdullayev N.Q.** - PhD student of of the National university Of Uzbekistan

**Annotation.** The article explains the essence of the system approach to physics and, for example, describes the method of analyzing a laboratory device from physics.

**Key words:** system, system analysis, system theory, system approach, laboratory.

Маълумки, физика практикумини ўтказишда замонавий таълим технологияларидан фойдаланиш дарс самарадорлигини оширишга имкон беради. Ҳозирги кунда таълимда физикада тизимли таҳлил методи кенг қўлланиладиган таълим технологияларидан биридир. Тизимли таҳлил услубий тадқиқотларнинг муҳим объекти ва энг тез суръатлар билан ривожланаётган илмий йўналишлардан бири саналади. Ҳар бир тизимли таҳлил назарий таълимоти умумий тамойилларга бўйсунган ҳолда муаммоларнинг хусусиятидан келиб чиқиб такомиллаштирилади<sup>1</sup>.

Фанда тизимли ёндашув турли ҳодиса, жараёнларнинг моҳиятини тушунишга татбиқ этилади. Бу ёндашув табиий фанлар негизда Людвиг фон Берталанфи<sup>2</sup> томонидан яратилади. Бу ёндашув табиий фанлардан ижтимоий ҳаётга ҳам татбиқ этилади. Унга кўра, табиат ва жамият мураккаб тизимни ташкил этади. Шу ўринда тизим тушунчасининг моҳиятини белгилаш билан унинг хусусиятлари аниқланади.

Бугун “тизимли таҳлил”, “тизимли ёндашув”, “тизим назарияси”, “тизим тамойиллари” деган тушунчалар кўп ишлатилади, аммо улар синонимлар эмас. Аксарият ҳолларда бу тушунчалар синоним сифатида фарқланмай қўлланилади. Тизим назарияси тизимлар олами тўғрисидаги илмий билимларни беради, амалга оширади, келиб чиқиш, шакл-шамойили, функциясини турли табиатдаги тизимнинг ривожини тушунтиради<sup>3</sup>.

Тизимли ёндашув борлиққа нисбатан инсоннинг методологик ёндашуви, тамойиллар ўйғунлигини ифода этувчи тизимли дунёқарашдир.

Ёндашув – усуллар йиғиндиси, бу кимгадир, нимагадир таъсир кўрсатиш, ниманидир ўрганиш, ишни ташкил этиш усуллари. Шундай қилиб, ёндашув у ёки бу фаолиятнинг умумий тартибларини, қайсидир назариянинг дастлабги ва асосий ҳолатлари тўғрисидаги тасаввурларни беради.

Тизимли ёндашув турли хил йўллар билан ўзини намоён қилса-да, фан соҳаларининг барча йўналишларида ишлатилади. Техника соҳасида техник тизим, кибернетикада бошқарув тизимлари, биологияда биологик тизим ва уларнинг таркибий даражалари, социологияда таркибий функционал ёндашув<sup>4</sup>.

Табиий фанларда илм-фан ва билимлар бирлиги ва синтези учун интилиш истаги устун. Ва бу жараён хусусиятларини аниқлаш, ўрганиш замонавий илмий билим назарияси бўйича тадқиқот ҳисобланади.

Тизимли ёндашувнинг моҳияти объектни тизим сифатида кўриб чиқишга қаратилган тушуниш тамойиллари, шунингдек, билишнинг илмий методологияси ва амалий фаолияти демакдир. Тизимли ёндашув бир тарафлама тадқиқот таҳлил усулларини инкор этади. Асосий

<sup>1</sup> Azizxo'jayeva N.N. "Pedagogik texnologiya va pedagogic mahorat." – T., 2006.

<sup>2</sup> Imboden D., Bertalanfi L. Introduction to systems Analysis. Heidelberg New York Dordrecht London, 2013.

<sup>3</sup> Samarov R. Tizimli tahlil: nazariya va amaliyot. – T., 2017. – 204 b.

<sup>4</sup> Alimardonov T., Ravshanov F., Berdaliyev N. "Pedagogik tizimli tahlil asoslari" // O'quv qo'llanma. – T., 2017.



урғу объектнинг яхлит хусусиятларини таҳлил этишга, тизим ва унинг алоқадорлигини аниқлашга, ривожланиш ва функционалликка қаратилади. Мисол тариқасида, физикадан лаборатория қурилмасида ўлчов асбобини танлашни тизимли ёндашув асосида кўриб чиқамиз<sup>1</sup>.

Мисол:

Физика практикумида замонавий тизимли таҳлил методидан фойдаланиш усулини қўйидаги лаборатория практикуми ишларини ўтказишда қўллаш усулини баён қиламиз. Ўқув физика лабораториясида ўлчов асбоблар базаси мавжуд. Ўлчаш масаласи ечими учун асбобларнинг яроқлилигини баҳолаш талаб этилади. Масалан: доимий электр кучланиш (110)V диапазонда 1% дан ошмаган хатоликда 30 секунддан ошмаган ўлчов вақтида ўлчаш учун ишлатилади. Ўлчаш шарти бажариладиган нормал асбоблар сони 5 та.

Ечим:

Системани  $S=(x,R)$  кўринишида тавсифлаймиз. Бу ерда  $x$  – асбоблар сони,  $R$  – нисбий тартиб.  $N_i$  масалани ечиш учун  $N_j$ га қараганда яхшироқдир.  $N$  – даража элементлар сони. Бу ерда  $N_i \in X, N_j \in X$ . Бизнинг мисолимизда аниқлик диапазонида ва аниқлаш тезлиги характеристикаларини ҳисоблаймиз.  $N_i$  асбоби  $N_j$  асбобига қараганда яхшироқ ҳисобланади, агар у битта ҳарактеристика бўйича яхши бўлса, қолган характеристикалар бўйича пастроқдир.

$R$  муносабат учун  $R$  матрицани аниқлаймиз ва қўйидагича жойлаштирамиз. Агар  $N_i N_j$  дан яхшироқ бўлса,  $R$  муносабат бажарилади.  $(i, j)$  кататка 1 ёзилади. Агар  $N_i N_j$  тенг ёки ёмон бўлса,  $R$  муносабат бажарилмайди. У ҳолда,  $(i, j)$  кататка 0 ёзилади. Демак, матрица 0 ва 1 кетма-кетликдан ташкил топган.

1-қадам: Берилган матрица қатори йиғиндисига тенг бўлган вектор-қатор,  $A_0$  ни тузамиз.  $A_0 = (3,2,0,4,0)$   $A_0$  қатордаги ноллар берилган муносабат бўйича бошқалардан кўра энг яхши элементни беради. Бу элементлар  $N_0$  тартибдаги даражани ташкил этади. Бизнинг мисолимизда булар  $B_3, B_5$  формал ёзуви билан бажарилади.  $(B_3, B_5)-N_0$

2-қадам:  $A_0$  қаторни қайта ўзгартирамиз. Айнан:

а) 0 ларни крест белгиси билан ўзгартирамиз.

б)  $A_0$  қатордан 0 га мос келган элемент  $B_3, B_5$  қийматларни ташлаб юборамиз. Матрицада улар тўғри чизиқ билан тавсия этилади.

Натижада  $A_1 = (1, 0, x, 2, x)$  қаторни оламиз.  $A_1$  қатордаги янги 0 лар бошқалардан яхшироқ бўлган элементларни беради ( $B_3, B_5$  элементларидан ташқари). Бу ҳолда элемент  $B_2$  дир. У  $N_1$  тартибни ҳосил қилади.  $(B_3)-N_1$

3-қадам:

$A_1$  қаторни 2-қадамдагига ўхшаш қайта алмаштирамиз, натижада

$A_2 = (0, x, x, 1, x)$  қаторни оламиз. Демак, янги пайдо бўлган ноллар  $N_2$  қаторни ҳосил қилувчи элементларга мос келади.  $(B_1)-N_2$

4-қадам:

0 элементига мос келадиган қийматларни ташлаб юбориб ва олдинги 0 ларни крест қилиб алмаштириб,  $A_2$  қаторни қайта алмаштирамиз, натижада  $A_3 = (x, x, x, 0, x)$  қаторни оламиз. Янги 0 лар  $B_4$  элементига мос келади. Уни қўйидагича ёзамиз:  $(B_4)-N_3$ .

Натижалар қўйидагича тақсимланади:

(B3, B5)	(B2)	(B1)	(B4)
N0	N1	N2	N3

Чиққан натижаларни элементларнинг қўйидаги графикларига жойлаштирамиз.

<sup>1</sup> Аполов О.Г. Теория систем и системный анализ. – Уфа, 2012. – С. 34.

Хулоса: Шундай қилиб система 4 тартибли даражага бўлинади. Даража элементи NO R муносабат бўйича бошқалардан энг яхшиси ҳамда ўлчанаётган масаланинг ечими учун ҳам яхшироқ мос келади. N3 даража элементи масала ечими учун энг ёмонидир<sup>1</sup>.

Демак, тизимли таҳлил муаммони ҳал қилиш методологияси сифатида барча зарурий услубларни, билимларни ва муаммони ечиш учун лозим бўлган ҳаракатларни умумлаштирувчи устун вазифасини бажаради. Айнан шу билан унинг жараёнлар тадқиқоти, статистик ечим назарияси ва бошқа шу каби соҳалар билан муносабатлари аниқланади. Тизимли таҳлил у ёки бу методдан қайси босқичда ва қандай шаклда фойдаланиш лозимлигини аниқлаб беради<sup>2</sup>.

## TARBIYA JARAYONIDA IJOBIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

**Alimova G.** – Toshkent davlat pedagogika universiteti oqituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ranglarning mo`jizakor olamini, uning sirli jilvalarini o`zida aks ettirib, unda ranglarda ifodalangan ramziy ma`nolar, rang psixologiyasi, ranglarning bolalar ruhiyatiga ko`rsatadigan ta`siri, tarbiya jarayonida bolalarda ranglar vositasida ijobiy sifatlarni shakllantirish yo`l-yo`riqlari yoritib berilgan.

**Kalit so`zlar:** rang, ramziylik, qizil, sariq, oq, qora, yashil, ruhiyat, psixologik ta`sir, bolalar tarbiyasi.

## ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПОЛОЖИТЕЛЬНЫХ КАЧЕСТВ В ВОСПИТАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

**Алимова Г.** - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

**Аннотация.** В этой статье рассказывается о чудесном мире цветов, его таинственном очаровании, приводятся сведения о символическом смысле цвета, психологии цвета, о влиянии цвета на детей и способах формирования положительных качеств у детей в процессе воспитания при помощи цвета.

**Ключевые слова:** цвет, символика, красный, желтый, белый, черный, зеленый, душа, психологическое воздействие, воспитание детей.

## FACTORS REFLECTING POSITIVE QUALITY IN THE EDUCATIONAL PROCESS

**Alimova G.** - teacher of the Tashkent state pedagogical university

**Annotation.** This article highlights about the wonderful world of colors and its mysterious glee, highlighting the symbolic meanings of colors, the psychology of color, the impact of colors on children, and the ways in which children can form positive traits through color. instructions are given.

**Key words:** color, symbolism, red, yellow, white, black, green, psychic, psychosocial impact, parenting.

Insoniyatning borliqni anglashi unda mavjud bo`lgan narsalarning shakli, rangi, hajmi bilan bevosita bog`liq. Olamdagi narsa-hodisalar qadimda qanday tarzda anglanganligini davr manzaralari aks etgan yodgorliklardan bilib olishimiz mumkin. Ular insoniyatning tashqi olamni anglashidagi tasavvurlari bo`lib, ba`zan bu tasavvurlar ramzlarga ham aylanib ulgurgan.

<sup>1</sup> Imboden D., Bertalanfi L. Introduction to systems Analysis. Heidelberg New York Dordrecht London, 2013.

<sup>2</sup> Samarov R. Tizimli tahlil: nazariya va amaliyot. – T.,2017. – 204 b.

Misol tariqasida, borliqdagi turli ranglar inson tomonidan nafaqat narsalarning rangi sifatida ko'rilgan, balki ma'lum bir mazmun-mohiyat kasb etish vazifasini ham bajargan. Qadim zamonlardan beri odamlar afsonalarda, xalq an'analarida, ertaklarda, turli xil diniy ta'limotlarda aks ettirilgan ranglarning ma'nosini anglashga alohida ahamiyat berishgan.

Ma'lumki, quyosh nuri spektrda tarqalib, 7 ta asosiy rangni tashkil etadi. Qadimda ushbu ranglar 7 ta sayyoraga mos keladi, degan qarashlar mavjud bo'lgan: qizil – Mars rangi, ko'k – Venera rangi, sariq – Merkuriy rangi, yashil – Saturn rangi, binafsha – Yupiter rangi, to'q sariq – Quyosh rangi, binafsharang – bu oyning rangi.

Bundan tashqari, ranglar nafaqat sayyoralar va ularning ta'sirini, balki odamlarning ijtimoiy holatini, turli xil psixologik holatlarni ham anglatadi. Bu ma'lum rangdagi kiyimlarni tanlashda, kundalik hayotda rang bilan bog'liq jihatlarga e'tibor berishda namoyon bo'ladi.

Mana shu tanlangan ranglarning ramziylikka egaligi haqida farazlar mavjud bo'lib, ranglarning ramziy ahamiyat kasb etishini turli xalqlar turlicha talqin qilishgan va bu qarashlar bugungi kungacha saqlanib qolgan. Xususan, qadimgi davrlarda odamlar qizil rangga alohida qiziqish bildirganlar. Ko'pgina tillarda qizil rang chiroy ma'nosini beradi va qizillik chiroyli narsalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ya'ni qizil rang bilan tasvirlangan narsalarda go'zallik aks ettirilgan. Masalan, Xitoyda "qizil yurak" samimiy inson qalbini ifodalasa, fosiq va makkor odamning yuragi qora deb ko'rsatiladi. Qizil rang, birinchi navbatda, qon va olov bilan bog'liqdir. Uning ramziy ma'nolari juda xilma-xil bo'lib, ba'zida bir-biriga qarama-qarshi mazmun kasb etishiga ham duch kelamiz. Chunonchi, qizil rang tasviri, bir tomondan, quvonch, go'zallik, sevgi va hayotning to'liqligini anglatadi, boshqa tomondan, adovat, qasos, urushni bildiradi.

Oq rang poklikni, beg'uborlikni, aybsizlikni, fazilatni, quvonchni anglatadi<sup>1</sup>. Oq rang deganda aniqlik tushunilgan bo'lib, ushbu tushuncha haqiqat g'oyasi bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Shuning uchun qadimgi Rimda vestallar oq ko'ylak va oq niqob kiygan. Chunki ular haqiqat tarafdorlari sifatida namoyon bo'lgan. Shuningdek, oq rang ruhiy samimiylikka intilishni anglatibgina qolmay, hatto bu intilish ruhiyat bilan bog'liq bo'lgani holda, jismonan insonning bu dunyodan uzilishi ma'nosini ham bildirgan. Ushbu rang diniy ta'limotlarda ilohiy nur bilan birlashishni anglatgan, jumladan, islom dini falsafasiga oid asarlarda farishtalar, azizlar va solihlar oq rang bilan bog'liq holda tasvirlangan. Ba'zi xalqlarda esa oq kiyimni shohlar va ruhoniylar kiygan, bu tantanavorlik va ulug'vorlik ramzi sanaladi. Barcha narsaning ziddi mavjud ekanligi kabi oq rang yuqorida keltirilgan mazmunlarga nisbatan teskari qiymatga ega bo'lgan o'rinlar ham uchraydi. O'zining tabiati bilan bu rang boshqa barcha ranglarni o'ziga singdirish, neytrallash xususiyatiga ega va bu rang haqidagi tasavvurlar o'limga ham borib taqaladi. Bu kabi tasavvurlar marosimlarga o'z ta'sirini o'tkazganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Afrika va Avstraliyaning ba'zi qabilalarida yaqin kishining o'limidan keyin tanani oq bo'yoq bilan bo'yash urf-odatlarining bir ko'rinishi hisoblanadi. Xitoyda va Osiyo va Afrikadagi ba'zi boshqa mamlakatlarda oq rang motam rangidir.

Qora rang, qoida tariqasida, baxtsizlik, qayg'u, motam va o'limni anglatadi<sup>2</sup>. Qadimgi Meksikada, odamning marosim qurbonligi paytida, ruhoniylarning yuzlari va qo'llari qora rangga bo'yalgan. Qora ko'zlar haqidagi tasavvurlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bunday ko'zlar xavfli, hasadgo'ylik ramzi sanalgan. Ammo ba'zi ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, qora rang va jinsiy jozibadorlik o'rtasida bog'liqlik bor degan qarashlar ham mavjud. Ayrim Afrika qabilalarida juda qora teriga ega ayollar sevishganlar sifatida e'tiborga olinadi. Sevgi ehtiroslari ham qanchalik zulmatda tasvirlansa, shunchalik sirli deb tushunilgan. Bundan tashqari, Afrikaning qurg'oqchil hududlarida suv kamligi sababli qora bulutlar unumdorlik va mo'l-ko'lchilikni va'da qilmoqda, deb qabul qilinadi. Qora buqalar, echkilar yoki qushlar yomg'ir yuboradigan qo'riqchi ruhlarga qurbonlik qilinadi, go'yoki qora jonivorning qurbon qilinishi insonlarning istagi bo'lmish yomg'irni olib kelishga xizmat qiladi. Sariq – quyosh rangi sifatida qabul

<sup>1</sup> Базыма Б.А. Цвет и психика // монография. – Х.:ХГАК, 2001. –172 с.

<sup>2</sup> Базыма Б.А. Цветовая символика и психодиагностика. – Х., №576, 2002.

qilinadi va shu bilan birga, oltin rangi hamdir. Ko'pgina ayollar sariq kiyimlarni afzal ko'rishadi. Ko'pincha, sariq rang zodagonlar va yuqori sinflarning ajralib turadigan belgisi bo'lib xizmat qilgan. Masalan, mo'g'ul lamalari qizil kamar bilan sariq kiyim kiyishadi. Boshqa tomondan, Osiyoning ba'zi xalqlarida sariq rang motam, qayg'u rangidir. Yevropada sariq yoki sariq-qora bayroq karantin uchun ilinganligi, vabo uchun sariq yoki qizil belgi qo'yilishi barchamizga tarixdan ma'lum. Slavyan xalqlari orasida sariq rang hasad, xiyonat qilishning rangi hisoblanadi. Ko'plab xalqlarda ko'k rang jannat va abadiylikni anglatadi. Shuningdek, u mehribonlik, sodiqlik, doimiylik, muloyimlik ramzi bo'lib, poklik, halollik, shon-sharaf va sadoqatni anglatadi. Inglizlar haqiqiy protestantni "ko'k" deb atashadi. Turkiy xalqlarda esa ko'k rangning ma'nosi keng bo'lib, osmonni, yuksaklikni ifodalagan, shu sababli o'zlaridan ulug' bir qudrat borligini anglab, uni Ko'k Tangri deb atashgan. Fransuzlarda bu rang qo'rquvni yodga soladi, ular dahshatni "ko'k qo'rquv" deb atashadi. Slavyan xalqlari orasida ko'k ruhiy dunyo bilan bog'liq qayg'u rangini anglatgan. Shuningdek, qadimgi afsonalarda qora va ko'k rangi misolida jinlar tasvirlangan. Yashil – bu tabiat rangi. Ko'pgina millatlar uchun bu yoshlik, umid, kulguni anglatga, ba'zida yetuklik, mukammallikni ham bildiradi. O'rta asrlarda Yevropada ayollar yashil va sariq kiyim kiygan, Germaniyada esa bor-budidan ayrilgan, kasod bo'lgan odamlar yashil shlyapa kiyishlari odat tusiga kirgan. Ranglarning qadimiy ramziyligi va ularning turli madaniyatlarda talqin qilinishi, nafaqat individual shaxsning, balki butun jamoalarning rang-barang va hissiy-ixtiyoriy holati ilmiy jihatdan o'z tasdig'ini topgan. Ranglarning muvofiqligi va dominantligining psixologik holat bilan bog'lanishi M.M.Lusher, I.Gyote va boshqa psixologlar tomonidan o'rganilgan. Bugungi kunda gullarni ramziy belgilash biznes reklama sohasida keng qo'llaniladi. Psixologlar ko'k, oltin, oq, qora, qizil ranglarni elita segmentiga ega bo'lgan mahsulotlarni aniqlash uchun ishlatish mumkinligini aniqladilar, chunki ular asrlar davomida jamiyat elitasi bilan aniqlanib kelgan "qimmat" ranglardir. Darhaqiqat, yuqori narx oralig'idagi mahsulotlarda ko'k yoki qora ranglarning oltin bilan kombinatsiyasi juda keng tarqalgan. Qora rang logotipni (masalan, oltin rangda qilingan) yoki mahsulotning o'ziga xos tasvirini samarali ta'kidlash imkonini beradi. Masalan, ushbu texnikadan ko'plab alkogol ichimliklar ishlab chiqaruvchilari foydalanadilar, xususan, viski Johnny Walker va Black Label, konyak Comus yoki Martell. Shunday qilib, mahsulot nomi ajralib turadi va sizning oldingizda elita ichimlik ekanligi ta'kidlanadi. Xuddi shu yondashuv erkaklar uchun qimmat atirlar va odekolonlarni yaratishda qo'llaniladi. Agar premium segmentning ranglari ishonch, qat'iylikni ifodalashi lozim bo'lsa, qizil va sariq ranglarning kombinatsiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Makdonaldning "xalq" restoranlari va Lipton choyining ushbu ikki rangdan foydalanishi bejiz emas. Yashil va ko'k ranglar, odatda, mahsulotning yangiligini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Bir-biri bilan uyg'unlashishi qat'iy man etilgan ranglar ham mavjud, chunki ular iste'molchida salbiy his-tuyg'ularni keltirib chiqaradi. Masalan, binafsha rangning to'q sariq rang bilan kombinatsiyasi umidsizlikni, o'z joniga qasd qilishni anglatadi. Xuddi shu ta'sir, masalan, tim qora bo'lmagan fonda oq harflar bilan yozilgan yozuvdan kelib chiqadi.

Hozirgi vaqtda olimlar rangning insonning psixofiziologiyasiga ta'siridan tijorat va maishiy maqsadlarda foydalanishga harakat qilishmoqda. Haqiqatan ham, har bir rang inson ruhiyatiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Bu, ayniqsa, bolalar ruhiyatida yaqqol aks etadi. Shuning uchun bolalar xonalarini ta'mirlash va bezashda ranglarning ruhiyatga ta'siri hisobga olinishi zarur. Bolalar katta yoshli insonlarga nisbatan rang va rang kombinatsiyalariga ko'proq moyil bo'ladi. Jumladan, ko'k rang ma'lumotni yaxshiroq o'zlashtirish va do'stona munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi. Biroq ko'k rangning ba'zi ko'rinishlari diqqatni tezda jalb qiladi va ish qobiliyatini pasaytiradi. Yashil rang asab tizimiga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, bosh og'rig'ini, charchoqni, asabiylikni yengillashtiradi va qon bosimini pasaytiradi. Qizil rang qonda adrenalin miqdorini, shuningdek, ish qobiliyatini oshiradi va shuning uchun ko'proq harakatlari sust bolalarga tavsiya etiladi. Biroq qizil va yashil ranglarning haddan tashqari ko'payishi bolalardada foyda olish istagini uyg'otadi va salbiy xususiyatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Binafsharang yurak va o'pka faoliyatini yaxshilaydi, tananing chidamliligini oshiradi. Shunga qaramay, ular suiiste'mol qilinmasligi kerak: bu rang charchoq uchun subliminal katalizatoridir. Ranglar hatto xonalarni vizual ravishda kengaytirishi (masalan, sariq va sariq-yashil) yoki

ularni toraytirishi mumkin (qizil-to'q sariq). Sariq-yashil yoki to'q sariq rang ruhiy charchoqni yengillashtiradi, sariq rang esa aqliy faolikka yordam beradi. Demak, bolalarning tarbiyasida, ularda ijobiy sifatning shakllanishida ranglar muhim rol o'ynaydi. Bolalar temperamentiga qarab ham, rang psixologiyasi farqlanadi. Masalan, melanxolik temperamentli bolalar paxta, bezak va geometrik naqshlarda porloq ranglarga muhoj bo'lishadi. Sangvinik va xolerik temperamentli bolalar esa nafis pushti, ochiq ko'k, shaftoli yoki firuza devorlari bo'lgan xonada tinch va xotirjam bo'lib qoladi. Shuningdek, yaponlar "Nomsiz ranglar" usuli yordamida bolalarda ijodkorlik qobiliyatini yaratishda samara berishini ta'kidlaydi. Bunda yosh o'rganuvchilarning oldiga ranglar solingan 10 ta idish qo'yiladi. Idishning ustiga rang nomi yozilmaydi, faqatgina uning ichidagi ranglardan foydalanilgan nuqtachalar aks ettiriladi. Nuqtalarning o'lchami turlicha bo'ladi. Dizaynerlarning maqsadi – shu orqali bolaning o'ylash va o'rganish malakasini o'zgartirish. Bunda bola ranglarni aralashtirib, qanday rang hosil bo'lganini ko'radi va o'zicha mulohaza yuritadi. Masalan, bola pushti va ko'k rangli ikki nuqta aks ettirilgan idishga qaraydi. Hozircha bu idish ichidagi ikkita rangdan qanday rang hosil bo'lishini bilmaydi. U mutaxassislar aytganidan so'ng, idishlarni siqib ko'radi va pushti hamda ko'k ranglardan siyoh rang hosil bo'lishiga guvoh bo'ladi. Bu nihoyatda qiziqarli jarayon. Yana bir misolni olaylik. Siyohrang idishda katta ko'k va kichkina pushti rang nuqtalar aks ettirilgan. Bu oz miqdorda pushti va ko'p miqdorda ko'k rangni aralashtirib ko'r, demakdir. Bola amaliyotni bajaradi va uning ko'z o'ngida to'q ko'k rang hosil bo'ladi. Keyingi bosqichda bolaga istalgan ikkita rang aytilib, ulardan qanday rang paydo bo'lishi mumkinligi so'raladi. Kichik ijodkor uni o'zicha o'ylab, tasavvuridagi ranglarni aytadi. Bola bu usulni o'rganib olgach, o'zi istagan ranglarni qorishtiradi va shu tariqa, o'zi uchun yangi ranglarni kashf etib boradi. Ranglar bilan ishlashning oson va zavqli bu usuli bolada ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirib, yangilik yaratishga bo'lgan istagini oshiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, borliqdagi narsa-hodisalar bolalar ongida akslanishi natijasida unda ma'lum bir kayfiyat uyg'otishi, psixologik ta'sir qilishi mumkin. Shu ma'noda ranglarning turli jilvasi bolalar uni qabul qilganda mavjud hissiyot bilan sintezlashib, psixologik holatni boshqarish xususiyatiga ega. Shunday ekan, ranglarning sirli xususiyatlarini anglash va ulardan oqilona foydalanish samaradorlikka erishishning muhim shartidir.

### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITASIDA IJTIMOY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**

**Maqsudov U.Q.** - Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darsliklarida keltirilgan xalq og'zaki ijodi namunalari orqali o'quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirishga oid usullar yoritilgan. Unda tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, ertak, maqol, latifa, topishmoq, tez aytish, Afandi.

### **ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПОСРЕДСТВОМ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА**

**Мақсудов У.** - преподаватель Ферганского государственного университета

**Аннотация.** В этой статье описывается формирование социальной активности учащихся на примерах устного народного творчества, представленных в учебниках для начальных классов. В статье уделено отдельное внимание реализации воспитательных целей.

**Ключевые слова:** устное народное творчество, сказка, пословица, шутка, загадка, скороговорка, Афанди.

## PEDAGOGICAL POSSIBILITIES FOR IMPROVING SOCIAL ACTIVITY IN THE EARLY CLASS STUDENTS

**Maksudov U.K.** - The teacher of the Fergana state university

**Annotation.** This article describes how to build students' social activity on the examples of folklore presented in elementary school textbooks. The article is focused on educational goals.

**Key words:** folklore, fairy tales, proverbs, anecdotes, puzzles, quick words, Afandi.

Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki boyliklarni – bilimlarni o`rganish, o`zlashtirish va rivojlantirish vazifasi turadi. Bu vazifani amalga oshirishning birdan-bir yo`li ta`lim tizimini tinmay takomillashtirish orqali yosh avlodni ilm-fan asoslari bilan chuqur qurollantirishdir. Mustaqil Vatanimizda ta`lim-tarbiya ishlariga alohida e`tibor qaratilgan. Xususan, "Ta`lim to`g`risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol yo`nalishlarini belgilab bergan.

Boshlang`ich ta`lim yurtimiz kelajagini buyuk davlat darajasiga ko`taradigan ijodkor shaxsni yaratishda mustahkam poydevor rolini o`ynaydi. Bunda boshlang`ich sinf o`quvchilarini ma`naviy barkamol inson qilib tarbiyalash va ijtimoiy faolligini oshirishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o`qish darslarida amalga oshiriladi. Ayniqsa, o`qish darslarida xalq og`zaki ijodining eng ommabop va qiziqarli bo`lgan janrlaridan bo`lgan ertaklarni o`quvchilar juda qiziqib o`qiydilar va o`rganadilar. Boshlang`ich sinf o`quvchilari xalq og`zaki ijodi namunalaridan dastlab ertak bilan tanishadilar. Boshlang`ich sinf "O`qish kitobi" darsliklarining barchasiga ko`plab ertaklar kiritilgan. Jumladan, "O`qish kitobi"dagi "She`r va sichqon", "Maymun bilan duradgor", "Rostgo`y bola", "Ochko`z sichqon", "Aqlli bog`bon", "Hakka va uning bolalari", "Maqtanchoq ayiq", "Nima totli?", "Baxtli bo`lish osonmas", "O`tinchi yigit bilan sher", "Urto`qmoq", "Oltin tuyoqli kiyik", "Oqko`ngil chol va xasis boy", "Sanog`idan adashmadi", "O`ktam", "O`jar baliqcha", "Quyuncha va ayyor tulki" kabi ertaklarni misol qilishimiz mumkin. Boshlang`ich sinflarda ertaklarni o`rganishda quyidagi maqsadlar ko`zda tutiladi:

1. Bolalarni barkamol inson ruhida tarbiyalash, ularda Vatan, jamiyatga muhabbat hissini tarbiyalash.
2. O`quvchilarga xalq ertaklari materiallari bo`yicha davlat ta`lim standartlari asosida bilim berish.
3. O`quvchilarda ertak materiallarini o`qishga havas uyg`otish.
4. O`quvchilarning o`qish, og`zaki nutq malakalarini rivojlantirish, shu orqali muloqot ko`nikmasini shakllantirish.
5. Ijtimoiy faolligini oshirish.

Ertaklarni o`qitishdan asosiy tarbiyaviy vazifa ularni barkamol inson ruhida shakllantirishdir. Shuning uchun boshlang`ich sinflarda ertaklarni o`qish orqali o`quvchilarning umumiy kamolotiga, ularda vatanparvarlik, do`stlik qadriyatlarini shakllantirish, jamoa ichida o`zini boshqarish, mehnatsevarlik, halollik, rostgo`ylik, o`qishga ongli munosabatda bo`lish kabi ijobiy xususiyatlarni tarbiyalashga alohida e`tibor berish lozim.

Ma`lumki, inson barkamolligida ustuvor o`rin egallagan jihatlardan biri ilmi bo`lishga intilish, bilimga chanqoqlik hisoblanadi. Shuning uchun o`quvchilarda 1-sinfdan boshlab bu mavzudagi ertaklar o`qitiladi. 4-sinfdan esa "Ilm afzal" ertagi o`rganiladi. Bu ertakni o`rganishdan asosiy tarbiyaviy maqsad o`quvchilarni ilm olishga qiziqtirish, ilmning inson hayotidagi o`rnini ko`rsatish hisoblanadi. Ertaklarning mazmuni asosida o`quvchilarning o`zidan hayotlarida o`zlari tanigan va bilgan ilmi odamlar haqida gapirib berish so`raladi. Bu kabi usullarning qo`llanishi o`quvchilar qalbida bilim bo`lishga ishtiyoq uyg`otadi. Ilm inson shuurini yoritishini bilib oladilar. Har qanday ma`naviyatli inson, avvalo, rostgo`y, halol va mehnatsevar bo`lmogi lozimligini bilgan o`quvchi hayotda ham shunday bo`lishga intiladi. Shuningdek, o`quvchi gapirish jarayonida omma oldida nutq texnikasini qanday qo`llashga oid ichki xulosalarini ham chiqarib oladi. Ertaklarda yolg`onchilik, baxillik va dangasalik kabi illatlar qoralanadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar juda ta'sirchan bo'ladilar, ular ertaklarda berilgan ezguliklardan quvonadilar, aksincha, yovuzliklardan nafratlanadilar. Xususan, 1-sinfda "Rostgo'y bola" ertagini o'qish darsida rostgo'ylikning bebaho xislat ekanligiga alohida urg'u beriladi. Ertak mazmunidan ko'rinadiki, rostgo'ylik insonda eng qadrlanadigan fazilatlaridan biri ekan. Rostgo'y insongina buyuk martabalarga erishadi.

O'qituvchi ushbu ertakni o'qish darsida o'quvchilarga quyidagi savollarni berish orqali ularda rostgo'ylikka nisbatan ichki moyillikni uyg'otishi mumkin:

1. Rostgo'ylik nima?
2. Siz yolg'on gapirib turasizmi? Nima uchun?
3. Sizni aldashganmi? Bu holatda nimalarni his qilgansiz?

O'quvchilar ushbu savollarga javob berish davomida o'zlarining rostgo'ylik haqidagi tushunchalarining qay darajada kengligini bilib oladilar. Ularda o'z fikrlarini mustaqil bayon etish ko'nikmalari shakllantiriladi. Shuningdek, o'qituvchi o'quvchilardan ertak mazmuniga mos maqollarni aytishni so'rashi ham mumkin. Ular "Boshingga qilich kelsa ham rost so'zla", "Shirin yolg'ondan achchiq haqiqat afzal", "To'g'ri gapning to'qmog'i bor" kabi maqollarni topishi mumkin. Bunda o'quvchilar topqirligi va fikrlashining kengligi rivojlantiriladi. Shu kabi ta'limiy va tarbiyaviy jihatlarga diqqat qilish o'quvchilarni rostgo'y bo'lishga, yolg'onchilikdan qochishga undaydi. Shuningdek, o'quvchi gapirish jarayonida omma oldida nutq texnikasini qanday qo'llashga oid ichki xulosalarini ham chiqarib oladi.

Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsliklarida berilgan har qanday ertak zamirida o'quvchilarni ma'naviy yetuk inson ruhida tarbiyalash g'oyasi yotadi. O'qituvchi esa ana shu g'oyani ilg'agan tarzda o'z darslarini uyushtirsa va o'tkazsa, o'z pedagoglik vazifasini ado etgan bo'ladi. Zero, ma'naviyati yuksak, har tomonlama rivojlangan komil shaxsgina yurtimiz kelajagini buyuk qila oladi.

Ilm olish yo'lidagi izlanish insonning e'tiqodi va dunyoqarashini shakllantiradi, ma'naviy-axloqiy kamolot sari yetaklaydi. Maktab ta'lim-tarbiya maskani bo'lib, shaxsning kelajagi shu maskanda uning qanday amalga oshirilishiga, tarbiyachi hisoblanmish o'qituvchining o'z burch, vazifalariga qanday munosabatda bo'lishiga bog'liqdir. Barkamol insonni, ya'ni o'zi yashab turgan jamiyat, xalq uchun fidoyi shaxsni tarbiyalashga ham shu yerda zamin qo'yiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy tarbiyasida xalq maqollaridan foydalanishning ham alohida o'rni bor. Zero, o'quvchilar o'quv dasturiga ko'ra, "O'qish kitobi" darsligi sahifalari orqali bir qator maqol va latifalarni o'qib-o'rganadilar. DTS talablaridan kelib chiqib ularni yod oladilar. Mana shu jarayonda maqollardan o'quvchilarni ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim vosita sifatida foydalanish juda muhim hisoblanadi. Har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy qarashlari o'z-o'zidan, bo'sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo'lishini hammamiz yaxshi bilamiz. Buning asosiy omillardan biri boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsliklarida berilgan xalq maqollari va latifalari sanaladi.

Maqol xalqning ko'p asr mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to'plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham, chuqur mazmunga ega bo'lgan og'zaki ijod janrlaridan biridir. Maqol atamasi arabcha so'z bo'lib, "qavlun" – "gapirmoq", "aytmoq" degan ma'noni bildiradi va bir xilda tushuniladigan ibora, ifodalar maqol janrini tashkil etadi. Maqollarda ibratli fikr aytiladi. Biroq har qanday ibratli fikr maqol bo'lavermaganidek, ibratli fikrning maqolga aylanishi uchun muayyan shartlar mavjud. Ana shunday shartlardan biri – maqolga aylanuvchi ibratli fikr xalqning uzoq yillar mobaynidagi hayotiy tajribasida sinalgan bo'lishidir. Darhaqiqat, maqollar turli ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni, xalqning etik va estetik normalarini, e'tiqodiy tasavvurlarini, maishiy turmushi va mehnat tarzini, sevgi va nafratini, orzu va intilishlarini obyektiv baholashda katta ahamiyat

kasb etadi. Shuning uchun ham rus yozuvchisi L.N.Tolstoy “Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini ko`raman<sup>1</sup>” deb yozganida to`la haqli edi.

Maqol xalq hayoti, orzu-intilishlari va dunyoqarashini ko`p asrlik tajribalarida sinovdan o`tkazib aks ettirishi tufayli kundalik turmushimizda katta g`oyaviy, tarbiyaviy rol o`ynaydi. Chunki maqolda aks etgan voqea-hodisa yo keskin tasdiq etiladi yo inkor qilinadi. Demak, har bir maqol kishiga izchil g`oyaviy yo`nalish beradi, undagi ideallarning yuksalishiga ko`mak beradi. Haqiqiy xalq maqolida mehnatkash omma manfaatlari, ideallari aks etar ekan, maqolga murojaat etgan har bir kishi o`z xalqi va vataniga mehr bilan qarashga o`rganadi, adolat va ozodlik, mardlik va bahodirlik, insonparvarlik va do`stlik, tinchlik va mehnatsevarlikka intiladi.

Boshlang`ich sinflarda maqollarni o`rganish orqali o`quvchilar og`zaki nutqini o`stirish bilan bir qatorda, o`quvchilar ongiga turli insoniy fazilatlar singdiriladi. Bunda quyidagilarga e`tibor beriladi:

1) maqollar tajribada sinalgan fikrni tasdiqlaydi. Masalan: “Hunarli kishi xor bo`lmas”(1-sinf), “Hunar bo`lsa qo`lingda, non topilar yo`lingda” (3-sinf), “Yolg`iz otning changi chiqmas, Changi chiqsa ham dong`i chiqmas”(4-sinf) maqollarida hunari orqasidan kishining yaxshi turmush kechirishi hamda kishilar orasidagi ahillikning ahamiyati ifodalangan;

2) tabiatda sodir bo`lgan voqea va hodisalarni jamiyat hayotiga (ko`chma ma`noda) bog`laydi. Inson uchun uning zarurligi anglashiladi. Masalan: Bog`ni eksang bog` bo`ladi;

3) Maqol mazmunida narsalarning o`ziga xos xususiyati, mohiyati ochiladi va bu inson hayotiga ham bog`liq holda, ma`no jihatidan tarbiya mazmunini beradi. Masalan: “Do`stsiz boshim – tuzsiz oshim” (4-sinf), “Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni” (1-sinf);

4) Maqollardagi muhokama va tafsilot inson, jamiyat va ayrim predmetlarning mohiyatini eslatish bilan birga, o`quvchilar fikrini uyg`unlashtiradi, tarbiyaviy ta`sir ko`rsatadi. Masalan: “Ona yurtning – oltin beshiging” (4-sinf), “Erinchoqlik boshga balo keltirar” (4-sinf). Bu maqol orqali esa bolalarda erinchoqlik, dangasalikka qarshi immunitetni hosil qilish mumkin.

Maqollar badiiylikka ega bo`lib, ma`lum ohangda o`qiladi, bu esa maqol mazmunining o`quvchi ongiga oson yetib borishini ta`minlaydi.

Ilm-fanni egallashga, hunar olishga yo`naltiruvchi maqollar o`quvchilarning bilim olishga bo`lgan ishtiyoqini oshiradi, kasb-hunarga bo`lgan qiziqishni kuchaytiradi. Zero, komillik belgisi, eng avvalo, ilmlilik va birorta hunarning mohir egasi bo`lish bilan ham belgilanadi.

Boshlang`ich sinflarda latifalarni o`rganish orqali o`quvchilarda insoniy fazilatlarni shakllantirish va ijtimoiy muloqotga tayyorlash mumkin. Latifa xalq og`zaki ijodining eng ommaviy janrlaridan biri bo`lib, nozik, mayin kinoya, qochiriqlar ishtirok etuvchi kulguli, kichik hajmli hikoyadir. Latifalar xalq o`rtasida “Afandi” deb ham yuritiladi. Latifalar yagona qahramon (Nasriddin Afandi) bilan bog`liq holda yaratiladi, ixcham syujetga ega bo`ladi.

Boshlang`ich sinflarda latifalar ustida ishlaganda ularda tanqid qilingan illatlar haqida alohida to`xtalib o`tish, bu illatlarning mohiyati ochilgan holda, o`quvchilarga yaxshi fazilatli bo`lish kerakligini uqtirib o`tish kerak. Bu esa o`qituvchidan juda katta pedagogik mahoratni talab qiladi.

Har bir latifada uning qirralari namoyon bo`ladi. O`qituvchi ana shu qirralarning mohiyatini o`quvchilar ko`z oldida shakllantirsagina, latifalarni o`qishdan ko`zlangan tarbiyaviy maqsadga erishilgan bo`ladi. Demak, boshlang`ich sinf o`quvchilarini barkamol inson ruhida tarbiyalashda latifalarning ham alohida o`rni borligini, ularni o`rganish darslarida o`qituvchi buni hisobga olishi zarurligini e`tirof etish kerak.

Xulosa qilib aytganda, xalq og`zaki ijodi namunalari bugungi hayotimiz bilan chambarchas bog`liqligi sababli ularni o`rgatish jarayoni qiziqarli kechadi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining tezkor, hozirjavob, uddaburonlik xususiyatlarini rivojlantirishda xalq og`zaki ijodi namunalari bo`lgan maqol, ertak, topishmoq, latifa va tez aytishlarning alohida o`rni bor.

<sup>1</sup> livelib.ru: <https://www.livelib.ru/author/5497/top/listview/biglist/~2> Лев Толстой. Издательство: Искательпресс Серия: Библиотечка Школьника



**BO`LAJAK VATAN HIMOYACHILARINI TARBIYALASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Xaydaraliyev X.** - Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola yosh avlodni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlarini o'z ichiga olgan bo'lib, unda vatanparvarlik, harbiy vatanparvarlik tushunchalari mohiyati, fuqarolarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish va rivojlantirish yo'l-yo'riqlari bayon etildi, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiya va takliflar berildi.

**Kalit so'zlar:** vatanparvarlik, harbiy vatanparvarlik, tarbiya, konsepsiya, himoya, Qurolli Kuchlar, tarix, madaniy meros.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ВОСПИТАНИЯ БУДУЩИХ ЗАЩИТНИКОВ РОДИНЫ**

**Хайдаралиев X.** - преподаватель Ферганского государственного университета

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются меры по совершенствованию системы воспитания молодого поколения в духе военного патриотизма, раскрыта сущность понятий патриотизма, военного патриотизма, а также изложены способы формирования и развития чувства военного патриотизма среди молодежи. Даны рекомендации и предложения по совершенствованию системы воспитания молодежи в духе военного патриотизма.

**Ключевые слова:** патриотизм, военный патриотизм, воспитание, концепция, защита, вооруженные силы, история, культурное наследие.

**IMPROVING THE EDUCATION SYSTEM OF FUTURE DEFENDERS OF THE HOMELAND**

**Xaydaraliev X.** - The teacher of the Fergana state university

**Annotation.** This article includes measures on improving the system of upbringing the young generation in the spirit of military patriotism, which outlines the concepts of patriotism, military patriotism, and how to build and develop a sense of military patriotism among young people, recommendations and suggestions for improving the system of education in the spirit of military patriotism.

**Key words:** patriotism, military patriotism, education, concept, defense, armed forces, history, cultural heritage.

Har bir davlatning, har bir xalqning taraqqiyoti uning harbiy sohadagi qudrati bilan belgilanadi. Mamlakat taraqqiyoti uchun uning barcha fuqarolari qalbida fidoyilik, vatanparvarlik tuyg'ulari mujassam bo'lishi kerak. Vatanparvarlik tushunchasiga manbalarda axloqiy va siyosiy prinsip, ijtimoiy tuyg'u, - ta'rif berilgan bo'lib, u vatanga muhabbat, unga sadoqat, o'tmish va hozirgi zamondan g'ururlanish, vatan manfaatlarini himoya qilish istagi, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalariga xos bo'lgan eng muhim qadriyatdir. Bondarenko va V.V.Kolpachevning fikricha, vatanparvarlik tuyg'usi quyidagi omillar bilan bog'lanadi:

Tabiiy omillar. Dastlab vatanparvarlik, birinchi navbatda, ko'chmanchi xalqlar uchun xos bo'lgan va oila a'zolari, urug'-aymoq o'rtasidagi qon-qarindoshlik munosabatlarini saqlagan.

Ma'naviy va axloqiy omillar. Vatanparvarlik odamlarni ma'naviy rishtalar va ma'naviy burchlar bilan birlashtiradi.

Siyosiy omillar. Siyosiy jihatdan vatanparvarlik odamlar tomonidan mavjud hokimiyatni, boshqaruv shaklini, davlatning siyosiy tuzilishini, uning rivojlanish istiqbollari va maqsadlarini qabul qilishni anglatadi.<sup>1</sup>

Harbiy vatanparvarlik deganda, Vatanga sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo'lishga undaydigan ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy fazilat tushuniladi. Uning axloqiy mohiyati – Vatanga mehr-muhabbatli va sodiq bo'lishdan, yurtning o'tmishi va hoziri uchun faxrlanishdan, mamlakat manfaatlarini himoya qilishga intilishdan iborat. Shuningdek, bu fazilat otabobolardan meros qolgan zaminni sevish, xalq urf-odatlarini, qadriyatlarini asrash va rivojlantirish, o'z vatanini dushmanlardan, yot va begona g'oyalardan himoya qilish, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamalikni nazarda tutadi. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi – bu O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining mustaqil yurtimizni mardlarcha himoya qilishga qodirligi va tayyorligi, askarlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ma'naviy-axloqiy tizimidir<sup>2</sup>.

Ma'lumki, kelajagi buyuk davlatni barpo etishda o'sib kelayotgan yosh avlod quruvchi vazifasini o'taydi. Jahonda mamlakat mudofaasining asosiy ko'rsatkichi vatanparvarlik hissi yuqori darajada rivojlangan, fidoyi, bilim va tajribasini Vatanga baxshida etuvchi avlodni shakllantirish hisoblanadi. Murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarflik kasb etadi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat. Ushbu jarayonda davlat va nodavlat tashkilotlari, oila, mahalla, ta'lim-tarbiya institutlarining o'zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ta'kidlash lozimki, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi uzluksiz jarayon bo'lib, u bir-biriga bog'liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-mafkuraviy, madaniy-ma'rifiy tadbirlar majmuasidan iborat. Bu borada yurtimizda qator sa'y-harakatlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, bugungi kunda Qurolli Kuchlarimizni salohiyatli askar va ofitser kadrlar bilan ta'minlashda, yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashda, ularni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoniga jalb etishda, intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylari yorqin dalildir. Shuningdek, mamlakatimiz mudofaa salohiyatini mustahkamlash O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab olingan.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni takomillashtirishning asosiy prinsiplaridan biri ilmiylik; tarixiylik; aniqlik va tezkorlik; muntazamlilik; faollik; ta'lim va tarbiya ishlarining uyg'unligi; tarbiya jarayonining izchilligi; harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanishdan iboratdir<sup>3</sup>.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari quyidagi to'rt bosqichda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

a) birinchi bosqich (3-7 yoshdagilar) - atrofdagi olam, Vatan haqida dastlabgi tasavvurlar paydo bo'ladigan bosqich hisoblanib, unda bolalarga oila muhitida yoki maktabgacha ta'lim muassasalarida vatanga muhabbat, sevgi va sadoqat tuyg'ulari madh etilgan she'r va qo'shiqlar o'rgatish, multfilm va turli o'yinlar namoyish etib, rasmlar orqali dunyoni anglatish, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) bilan tanishtirish masalasi kun tartibiga qo'yiladi;

<sup>1</sup> Buzskiy M.P., Vyrshchikov A.N., Kustmartsev M.B. Vatanparvarlik va vatanparvarlik tarbiyasining nazariy muammolari. – Volgograd, 2008. – 90 b.

<sup>2</sup> Sotiboldiyev A.A., Ma'murov U.I. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi. // O'quv qo'llanma. – T., 2007. – B. 15.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida Qarori. – T., 2018-yil 23-fevral, 140-son

b) ikkinchi bosqich (7-16 yoshdagilar) – bunda vatanparvarlik hissiyotlari o`quvchilarda qahramonlikka intilish, jasorat ko`rsatish istagi, tengdoshlari jamoasida o`z o`rniga ega bo`lish, ular hurmatiga sazovor bo`lishi, o`ziga yuqori e`tibor va talabchanlik, katta ijtimoiy faollik kabi yangi his-tuyg`ularning shakllanishiga ko`ra rivojlanadi. Aynan shu yoshda maktab o`quvchilari botirlik, kuch, iroda, mardlik, do`stlikka va o`rtoqlarga sadoqatni qadrlaydi. Bu ularga Vatan himoyasi muqaddas burch ekanligini chuqur anglab yetishi uchun imkon beradi.

v) uchinchi bosqich (16-18 yoshdagilar) - yoshlarda Vatanga va uning himoyasi uchun munosib xizmat qilishga ruhan va jismonan tayyorlikni ta`minlashga yo`naltiriladi. Bu yoshdagi o`quvchilarning fikrlashi yanada yetuklashadi, chuqur umumlashtirishlarga, tartib va qobiliyatga ega bo`ladi. Ular Vatan himoyachisi haqida to`la tasavvurga ega bo`ladilar. Bu davrda nafaqat Ikkinchi jahon urushi qahramoni yoki faxriysi, balki mustaqil O`zbekiston himoyachisining eng yaxshi xislatlari xos bo`lgan zamondoshlarimizning jasoratlari, ularning yuksak marralarni zabt etishlari va xalqimiz mehnatini ishonchli himoya qilish haqidagi ma`lumotlar yoshlar ongida chuqur tasavvurli iz qoldiradi. Biroq hisobga olish kerakki, bu yuksak namunalar faqat o`quvchilarning ishlari va harakatlarida o`rnini topsagina, e`tiborga sazovor bo`ladi. Shuning uchun o`quv-tarbiyaviy jarayonda o`quvchilarga o`tgan urush voqealari, xalqning front va front ortidagi ommaviy jasorati haqida bilimlar berish bilan birga, ularda Vatan himoyasiga tayyorlash uchun ijtimoiy dunyoqarashlarni ham shakllantirish lozim.

g) to`rtinchi bosqich (18-30 yoshdagilar) - yoshlarni jismonan barkamol va ma`nan yetuk etib rivojlantirish, ularning tashabbuskorlik qobiliyatlari, intellektual salohiyati, malakasini oshirish, sog`lom hayot kechirishga undash va shunga erishishni nazarda tutadi.

Har bir xalq o`z tarixini avaylab keladi, bu tarix ne`matlari bo`lmish merosdan kelajak sari ildam yo`l bosish uchun kuch-quvvat oladi. Xalq ozodligi uchun qurbon bo`lgan milliy qahramonlar jasorati, millat ravnaqi uchun jonbozlik qilgan ilm va fan sohiblarining faoliyati esa har bir avlod uchun yo`lchi yulduz bo`lib xizmat qiladi. Zero, tarixidan bexabar xalq – mazlum xalq, tarixi yolg`on bilan yozilgan xalq – mahkum xalq, tarixini asragan va bilgan xalq – tenglar ichida teng xalqdir. Bizning xalqimiz ruhiy-ma`naviy taraqqiyotida o`tmish madaniy merosi va milliy ma`naviy qadriyatlar muhim o`rin tutadi. Shunga ko`ra, vatanparvarlik ruhining rivojlanish darajasi va ko`lami boy tarixiy merosimizni kishilarimiz tomonidan nechog`lik o`rganib, o`zlashtirilishiga bog`liq. Hozirgi sharoitda vatanparvarlik g`oyasini rivojlantirishda madaniy merosning o`rni quyidagi omillar bilan belgilanadi:

– xalqimizning haqqoniy tarixi, boy madaniy merosi va milliy ma`naviy qadriyatlari hamda mustaqillik yillari ularni tiklab, rivojlantirish bo`yicha amalga oshirilgan ishlarning mazmuni va ahamiyatini chuqur anglash;

– respublikamiz ta`lim-tarbiya tizimida yaratilgan keng imkoniyatlar va hozirgi davr talablaridan kelib chiqib, milliy g`oyaning tarixiy meros bilan uzviy bog`liq jihatlarini o`qitishning zamonaviy uslub-vositalarini yaratish va ulardan samarali foydalanish;

– g`oyaviy ta`lim-tarbiyada madaniy merosdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va bu boradagi ishlarni milliy taraqqiyot manfaatlari asosida uzluksiz rivojlantirib borish.

Shu jihatdan yoshlarimizga harbiy vatanparvarlik ruhini sindirish, ularda ona Vatanga mehr-muhabbat, hurmatni yanada kuchaytirish borasida quyidagi ishlarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

– ta`lim muassasasi kutubxonalarini harbiy vatanparvarlik yo`nalishidagi badiiy-tarixiy adabiyotlar bilan to`ldirish;

– asar mualliflari bilan uchrashuvlar tashkil etish;

– Vatan ozodligi yo`lida kurashgan ajdodlarimizning hayot yo`llarini kengroq o`rganish va yoritish;

– ularning qalamlariga mansub asarlarni ilmiy o`rganish va keng targ`ib etish;

– boy hayotiy tajribaga ega bo`lgan harbiy xizmatchi va faxriylar, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlarda g`olib bo`lgan shaxslar bilan uchrashuvlar, seminar-treninglar, viktorinalar, davra suhbatlari tashkil etish;

– mardlik saboqlarini o`tkazish va ekskursiyalar uyushtirish;

– teleko`rsatuv va radioeshittirishlar, film va multfilmlar, badiiy va musiqiy asarlar, askar qo`shiqlari, ommaviy axborot vositalari, veb-saytlar va elektron o`yinlar va boshqa texnik vositalardan foydalanish;

– bolalar, o`smirlar va chaqiruvgacha bo`lgan yoshlar o`rtasida ommaviy sport ishlarini tashkil etish va o`tkazish;

– milliy xalq qahramonlarimizning jasorati, harbiy vatanparvarligini aks ettiruvchi multfilmlar, video va kinofilmlar, sahna asarlari, tarixiy asarlarni yaratish borasida tizimli ishlarni yo`lga qo`yish.

Bu kabi tadbirlar ma`naviy-ma`rifiy ishlarining rang-barangligini ta`minlaydi, pirovard natijada jamiyatda sog`lom ijtimoiy-ma`naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Bugungi ta`lim jarayonida an`anaviy o`qitishning xorij metodikasi bilan uyg`unlashtirilishi natijasida harbiy vatanparvarlikni yoshlar ongiga singdirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham samaralidir. O`quvchilar qalbi va ongiga milliy ruh, insonparvarlik, mehnatsevarlik, adolat, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish bo`yicha quyidagi tavsiyalarni keltirib o`tamiz:

– pedagoglarning axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan (AKT) foydalanish samaradorligini yanada oshirish bo`yicha o`quv va uslubiy qo`llanmalar ishlab chiqish hamda o`quv seminarlari tashkil etish;

– ta`lim muassasalarida AKTdan to`liq foydalanishni yo`lga qo`yish uchun zarur sharoitlarni yaratish;

– zamonaviy AKT orqali o`quvchilarga axborotlarni sodda, qisqa va aniq tarzda, bolaning manfaatidan kelib chiqib, o`quvchi yashaydigan sharoitga qiyoslab yetkazish;

– o`quvchilarda axborot manbalarini tanqidiy tahlil qilish, o`zlashtirilayotgan o`quv materiali bo`yicha shaxsiy fikr va qarashlarni shakllantirish;

– o`quvchilarda Vatanga sadoqat, mehr-oqibat va kelajakka bo`lgan ishonch hissini yuksaltirish maqsadida xalqimizga xos milliy va umuminsoniy qadriyatlarni axborot-kommunikatsion texnologiyalari orqali keng targ`ib qilish;

– ota-onalarga o`z farzandlarini axborot xurujlaridan himoya qilish bo`yicha tavsiyalar berish.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda kelajagimiz vorislari bo`lgan yoshlarda vatanparvarlik ruhini rivojlantirish, Vatanga bo`lgan muhabbat va ertangi kunga ishonch ruhida tarbiyalash davlat ahamiyatiga molik vazifa bo`lib, uni ro`yobga chiqarish barchamizning fuqarolik burchimizdir.

## THE TECHNOLOGY OF FULL ASSIMILATION OF KNOWLEDGE IN MATH CLASSES

**Artikova G.A.** - Academy of Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

**Annotation.** This article describes the goals and some possibilities of applying the technology of full assimilation of knowledge in conducting practical exercises in mathematics and the criteria for evaluating the results.

**Key words:** mathematics, practical lesson, full assimilation, learning outcomes, assessment.

## ПРИМЕНЕНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПОЛНОГО УСВОЕНИЯ ЗНАНИЙ НА ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЯХ ПО МАТЕМАТИКЕ

**Артикова Г.А.** - Академия Вооруженных Сил РУз.

**Аннотация.** В статье приведены цели и некоторые возможности применения технологии полного усвоения знаний при проведении практических занятий по математике и критерии оценивания результатов.

**Ключевые слова:** математика, практическое занятие, полное усвоение, результат обучения, оценивание.

### MATEMATIKADAN AMALIY MASHG'ULOTLARDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEXNOLOGIYASINI JORIY ETISH

**Artikova G.A.** - O'zR Qurolli Kuchlar Akademiyasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada matematikadan amaliy mashg'ulotlarda to'la o'zlashtirish texnologiyasini joriy etishning ayrim imkoniyatlari va maqsadlari hamda olingan natijalarni baholash mezonlari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** matematika, amaliy mashg'ulot, to'la o'zlashtirish, ta'lim natijasi, baholash.

The difficult problems of teaching mathematics is the reduction of students' interest in mathematics, the growth of underachievement, the drop in the quality of knowledge, skills, and the dissatisfaction of teachers with the results of their work. The success of the learning process depends on many factors, among which a huge role is played by learning, taking into account the abilities and abilities of students. The technology of "full assimilation" meets this condition to the greatest extent.

According to observations of scientists, depending on the intellectual abilities of different students, different time is required for mastering the same teaching material. However, the traditionally organized educational process ignores this reality and requires that all trainees learn all the material for a given period of time, the same for all. It turns out that the rate of mastering each must have its own, which will eliminate the differences in knowledge and achieve full assimilation of knowledge.

Stages of implementation of the technology of full assimilation of knowledge:

1. Preparatory:

- a) Thematic planning;
- b) development of a reference standard;
- c) Development of diagnostic and didactic materials.

2. The internal

- a) organizational input of the teacher;
- b) information input of the teacher;
- c) study of new material:
  - 1) actualization. Explanation of the new material.
  - 2) solution of support tasks (minimum level).
  - 3) communication (collective form of work, in pairs, independent work).
  - 4) generalization.
- d) organization of diagnostic testing.<sup>1</sup>

Organization of corrective - developing classes.

After conducting the diagnosis, students are divided into those who have reached, and who have not reached full assimilation (90-100% completed test). A correction and deepening group appears. The main form of work is group work. The teacher explains the goals and objectives of the forthcoming work, divides the students into groups, and distributes didactic material. Instructs the groups on the sequence of work, establishes a schedule of work (time for collective discussion and protection of answers), collective analysis and evaluation. Explains how to make out the result of the work, reports the evaluation criteria, controls the progress of the group work. Alternately participates in the work of

<sup>1</sup> G.K.Selevko -The modern educational technologies: Tutorial. – M.:Public education, 1998. – p. 5-6. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: Учебное пособие. – М.: Народное образование, 1998. –с. 5-6.

groups, not imposing their own, but encouraging them to search. Organizes a group report on the work performed, assesses the effectiveness and effectiveness of the work of the group or its individual members. When grouping groups, it is necessary to take into account the homogeneity of educational successes, the nature of interpersonal relations, the optimal number and other. The development group (5 people) works with additional material or under an individual program. Support group students help the laggards to reach the minimum level. After rendering assistance, they are transferred to the development group. Students of the development group independently study the material (enriched) and carry out the proposed tasks. In each group, the organizer is appointed. After the task is completed, the groups begin to discuss the answers and results under the guidance of the teacher, identifying rational solutions. The teacher encourages interesting statements, their findings, stimulates students to realize the errors, their causes, discusses the measures to eliminate them. A mandatory requirement for the work of groups is the fulfillment of assignments by each student. So, it is not known in advance who will answer. Everyone should be well prepared.

Students who have achieved full mastery can work according to an individual plan, using time for self-education. Work with the correction group. While the development group works independently, the teacher pays time to the correction group. According to the results of diagnostic testing, typical mistakes made by the majority of students are revealed. For this part of the material, the teacher conducts classes with the whole group: the presentation of the material is repeated anew, but the method of submission is changed. When eliminating frequent gaps and difficulties, the individual work of the teacher with the student or the student consultant with the student is often used. The main form of work is the mutual learning of students in small groups (2 to 3 members) or with the participation of a consultant student from a support group. The auxiliary work ends with a re-diagnosis.

Working with the correction group can be organized as follows:

- 1) Explanation.
- 2) Poll.
- 3) Work on the model.
- 4) Repeated diagnostic work.

At the first step, either the teacher re-explains, or the student-consultant or student independently learns the reference material. At the second step the student - consultant conducts a student questioning on theoretical issues. At the third step the student independently or with the student - adviser studies exercises "Check yourself". At the fourth step the student independently performs the tasks of the section "Solve yourself" (re-diagnosis). Students who successfully coped with re-diagnosis tasks can continue to work with advanced materials. (Only 2 attempts at diagnosis). Then final control and study of a new topic. A further system of measures to correct the academic work of students:

- Work to eliminate gaps is done through a system of individual homework assignments. They should be feasible, aimed at eliminating specific errors and must be evaluated.
- Support service - play in self-management. Strong students additionally deal with laggards.
- The teacher keeps a record of the main difficulties of students<sup>1</sup>.

Independent work - the main form of organization of classes of this type - is the foundation for the successful course of the learning process. 80% of all time is spent on independent work of students.

A system for monitoring and evaluating students. Monitoring and evaluation of knowledge is the main means by which the teacher reveals how students have learned the program material. There are two types of control - external and internal. The external control is exercised by the teacher, the internal one is the students among themselves (mutual control, self-control). The evaluation process

<sup>1</sup> M.V.Klarin - Technological approach in education. – School technologies. – 2003. - №5. - p.3-22.

always takes place twice - first the students themselves, only then the teacher's control. This is the basic requirement of evaluation. Allocate current and final estimates. Current grades the student receives at the first stages of studying the material. More often they do not reflect the actual level of knowledge, but perform the following functions: stimulate the learning process, correct the learning process. Give students to be convinced of the level of their knowledge. Current assessments encourage the student to self-improvement. The final evaluation is made by the teacher at the stage of determining the results of the activity. Assessments must be in unity otherwise they cease to regulate the student's educational behavior.

Evaluation of students at various stages of mastering the educational material:

1. When studying a new material, priority is given to the non-marking method; here there is a qualitative assessment of the work - praise, approval, encouragement in case of failure. Priority is the current self-assessment - learned, not learned and why?

2. Evaluation of the results of diagnostic testing.

3. Evaluation. The mark is determined by the standard:

- if the student has coped with the tasks of the obligatory level, then his work is evaluated by an assessment with mark "good"

-if he did even tasks of advanced level – mark will be "5"

-if you have done a deep-level task, an additional mark "5" is displayed or you can increase the score by 1 mark if there are non-significant errors in the previous tasks.

#### ZARRALAR FIZIKASI AMALIY MASHG`ULOTLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN MAZMUNI

**Madaliyev A.M.** –Qo`qon davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zarralar fizikasi amaliy mashg`ulotlari ahamiyati, ularning takomillashgan mazmunini ishlab chiqish va ularga qo`yiladigan talablar va o`ziga xosliklar bayon qilingan.

**Kalit so`zlar:** zarralar fizikasi, amaliy mashg`ulot, masalalar yechish, takomillashgan mazmun, elementar zarra, o`zaro ta`sir, o`zaro ta`sir turlari, saqlanish qonunlari, o`qitish metodikasi.

#### УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОДЕРЖАНИЯ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ ПО ФИЗИКЕ ЧАСТИЦ

**Мадалиев А.М.** - преподаватель Кокандского государственного педагогического института

**Аннотация.** В данной статье излагается значение практических занятий по физике частиц, разработка их усовершенствованного содержания, предъявляемые к ним требования и их особенности.

**Ключевые слова:** физика частиц, практическое занятие, решение задач, усовершенствованное содержание, элементарная частица, взаимодействие, типы взаимодействий, законы сохранения, методика преподавания.

#### IMPROVED THE CONTENT OF PRACTICAL LESSONS IN PARTICLE PHYSICS

**Madaliyev A.M.** - Teacher of Kokand State Pedagogical Institute

**Annotation.** In given article value of practical training on the nuclear physics, working out of their perfect maintenance, demands made to their and their features is stated.

**Key words:** nuclear physics, practical employment, decision of problems, advanced maintenance, an elementary particle, interaction, types of interactions, preservation laws, a teaching technique.

Mamlakatimizda ta'lim sohasiga qaratilayotgan alohida e'tibordan maqsad shuki, yurtimiz kelajagi uchun jahon andozasiga mos, yuqori darajada bilimli va teran fikrlaydigan yetuk kadrlar tayyorlashdir. Bu esa o'qitishni ham mazmun, ham uslub jihatdan yuqori pog'onaga ko'tarishni talab qiladi. Ta'limning barcha bosqichlari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, asosan, pedagogika oliy ta'lim muassasalari zimmasiga tushadi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida talabalarga chuqur bilim berish, egallayotgan kasblariga doir amaliy ko'nikma, malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Talabaga bilim berishda asosiy vazifalardan biri o'quv jarayonining muhim bo'g'ini bo'lgan amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish va ijobiy yutuqlarga erishishdir. Chunki talabalarga beriladigan nazariy bilimlar amaliy mashg'ulotlarda har tomonlama mustahkamlanadi. Fizikadan amaliy mashg'ulotlarni, asosan, fan mavzusiga doir masalalar yechish tashkil etadi.

Ma'lumki, zamon talablari va fan yangiliklari asosida zarralar fizikasining takomillashgan mazmuni M.Y.Mansurovaning tadqiqot ishida ishlab chiqilgan<sup>1</sup>. Bu mazmun oliy pedagogika ta'lim muassasalari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, ushbu fanning asoslarini o'zida mujassamlagan. Bu asoslarni har tomonlama mustahkamlash uchun esa amaliy mashg'ulotlar mazmunini ishlab chiqish talab qilinadi. Shu o'rinda zarralar fizikasi jarayonlarining o'ziga xosligi, murakkabligi va tasavvurga qiyin berilishini, albatta, inobatga olish talab qilinadi. Shu sababli ham amaliy mashg'ulotlarning mazmuni beriladigan nazariy ma'lumotlarni har tomonlama mustahkamlashi, zarralar fizikasi jarayonlarini yaxshi o'zlashtirishga hamda ular to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirishga va sohani sifatli o'zlashtirishga xizmat qilishi zarur.

Masalalar yechish fizika fani ma'ruzalarini ham ma'lum ma'noda to'ldiradi. Masala yechish orqali talabalar bilimini kengaytiradilar va chuqurlashtiradilar, qonun va formulalarni chuqurroq bilishni o'rganadilar, ularning qo'llanish chegaralarini ko'rib chiqadilar, umumiy qonuniyatlarni aniq bir vaziyatlarga qo'llash malakasini egallaydilar. Masalalar yechish jarayonida hisoblash, adabiyotlar va ma'lumotlar bilan ishlash malakasi hosil bo'ladi. Masala yechish fizik hodisalarga maxsus yondashish yo'llarini o'rgatadi. Talabalar ma'lum bir mavzuga oid masala yechishda keng hodisalar ko'lamini bilishga jiddiy yondashishni o'rganadilar. Masalan, talabalar zarralar fizikasini o'rganishda masalalar yechish orqali tabiatdagi fundamental saqlanish qonunlarining amal qilishi, zarralarni xarakterlovchi kattaliklar, zarralar olamidagi saqlanish qonunlarining xususiyatlari, saqlanish qonunlari bilan simmetriyalar orasidagi bog'lanishlar kabi bo'limning mazmunini chuqur va har tomonlama tushunishga erishadilar va tasavvurlari to'liq shakllanadi hamda masalalarni yechish, ularni tahlil qilishga ishonch hosil qiladilar<sup>2</sup>.

Masala yechish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda hisoblash malakasini oshirishga mashq – masalalar, u yoki bu qonunlarning qo'llanilishlarini namoyish qiluvchi masalalar, bilimlarni mustahkamlash va nazorat qilish masalalari va bilimni orttirishga xizmat qiladigan masalalar ko'rib boriladi<sup>3</sup>.

Fizika o'qitishning zaruriy qismlaridan yana biri, talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirishdir. Bilim va ko'nikmani tekshirish talabalarining mehnatsevarlik sifatlarini tarbiyalashga, muntazam ravishda mehnat qilish zarurligini bilishga, hamma ko'rinishdagi o'quv vazifalarni vijdonan bajarishga xizmat qiladi. Talabalar bilimini sinash vaqtida u yoki bu xulosa asosida nima yotishini, faktlardan kelib chiqadigan umumlashtirish nimadan iboratligini bilish malakasiga ega bo'lishini talab

<sup>1</sup> Mansurova M.Y. Oliy ta'limda elementar zarralar fizikasi mazmuni va uni o'qitish metodikasi (bakalavriat bosqichi misolida). Ped.fan.nom.diss. – Toshkent, 2009. – 126 b.

<sup>2</sup> Nasriddinov K.R., Rajabov N.Z., Nasriddinov D.K. Elementar zarralar fizikasi. // Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 41-bet.

<sup>3</sup> Sadriddinov N., Rahimov A., Mamadaliyev A., Jamolova Z. Fizika o'qitish uslubi asoslari. – Toshkent. "O'zbekiston", 2006. – 173-b.



etish ular mantiqiy fikrlashlarining rivojlanishiga ma'lum darajada ijobiy ta'sir qiladi. Bilim, ko'nikma va malakani tekshirish – bilimni takrorlash, chuqurlashtirish, mustahkamlash va sistemalashtirish hamdir<sup>1</sup>.

Test topshiriqlarini tuzishda mazmun asosiy o'rinni egallaydi, shu sababli o'quv kursi mazmunidagi bilimlarni aniqlash va ularga mos o'quv maqsadlariga erishish darajasini belgilaydigan test topshiriqlarini tuzish maqsadga muvofiq. O'quv maqsadlari taksonomiyasi B.Blum<sup>2</sup> tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u o'z ichiga bilish, tushunish, amaliyotga qo'llash, tahlil qilish, sintezlash, baholash kabilarni o'z ichiga oladi.

Elementar zarralar fizikasi bo'limining yaxshi o'zlashtirilishi ma'ruza mashg'ulotlarida olinadigan nazariy bilimlarning amaliy mashg'ulotlar davomida mustahkamlanishiga bog'liq. Nazariy bilimlar ma'ruza mashg'ulotlarida tushunarli bo'lib tuyuladi. Lekin amaliy mashg'ulotlarda berilgan nazariy bilimlar turli jarayonlarni tahlil qilish natijasida yanada mustahkamlanadi. Elementar zarralar fizikasida masalalarning asosiy qismini zarralarning parchalanish yoki o'zaro ta'sir jarayonlarini tahlil qilish tashkil qiladi. Albatta, bu jarayonlar o'zaro ta'sir turiga qarab energiya, impuls, impuls momenti hamda spin, izotopik spin, g'alatilik, maftunkorlik kabi kvant sonlarining saqlanish yoki saqlanmasligi bilan bog'liq bo'ladi. Talabalar bu jarayonlarni yaxshi tahlil qila bilishlari hamda ularda ma'lum darajada ko'nikmalar shakllanishi kerak. Agar nazariy bilimlar amaliy mashg'ulotlar bilan mustahkamlanmasa talabalar bilim va tasavvurlarining yuzaki bo'lishiga olib keladi.

Pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun "Umumiy fizika"dan fan dasturida zarralar fizikasidan amaliy mashg'ulot uchun quyidagi mavzular ajratilgan<sup>3</sup>:

1. Elementar zarralar. 2. Zarralar jarayonida energiya saqlanishi. 3. Barion zaryadi saqlanish qonuni. 4. Lepton zaryadi saqlanish qonuni.

Masalalar yechishga mo'ljallangan ko'pgina adabiyotlarda zarralar fizikasiga doir masalalar, asosan, zarralar energiyasi va impulsining saqlanishiga doir berilgan. Bu masalalar esa yuqorida keltirilgan mavzularning ikkitasini o'z ichiga oladi xolos. Bu esa zarralar fizikasi amaliy mashg'ulotlarining takomillashtirilgan mazmunini ishlab chiqish hamda, amaliy mashg'ulotlar uchun topshiriqlar (masalalar, testlar va x.k) to'plamini tayyorlashni taqazo etadi.

Pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun zarralar fizikasi amaliy mashg'ulotlarining takomillashtirilgan mazmunini ishlab chiqishda, bizning fikrimizcha, quyidagilar e'tiborga olinishi kerak:

Zarralar fizikasi amaliy mashg'ulotlarining o'qitilish holati. Bunda amaliy mashg'ulotlarning takomillashtirilgan mazmunini shakllantirishning pedagogik-psixologik jihatlari ko'riladi. Oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim mazmuni, uning strukturasi alohida ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim ta'lim mazmunini zamonaviy bilimlar, maxsus malakali ta'lim bilan qurollantirib qolmay, fanlarning rivoji, ularning ilmiy-metodologik va g'oyaviy negizlari bilan tanishtiradi. Shu bois, oliy ta'lim tizimidagi ta'lim jarayonini ijobiy shakllantirishda pedagogdan yuksak mahorat, qobiliyat talab etiladi.

Zarralar fizikasi amaliy mashg'ulotlarining takomillashtirilgan mazmunini shakllantirishdagi didaktik talab va imkoniyatlar. Pedagogika oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchilar tayyorlanadi, demak, ularga bayon etiladigan elementar zarralar fizikasi kursi o'ziga xos, uni o'qitadigan o'qituvchilar zimmasiga maxsus ma'suliyat yuklaydigan bo'lishi kerak.

Zarralar fizikasi amaliy mashg'ulotlarining mazmuni va tarkibi.

Zarralar fizikasi mazmunidan kelib chiqib, amaliy mashg'ulotlarda taklif qilinadigan masalalar quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:


Kuchli o'zaro ta'sir jarayonlariga oid masalalar. Bu ta'sirda qatnashuvchi zarralar adronlar deb ataladi. Bu o'zaro ta'sir proton va neytronlarni yadroda ushlab turadi. Yoki kvarklar shu kuch orqali bog'lanib, adronlarni tashkil qiladi. Ma'lumki, bunday jarayonlarda barcha saqlanish qonunlari bajariladi.

<sup>1</sup> Sadriddinov N., Rahimov A., Mamadaliyev A., Jamolova Z. Fizika o'qitish uslubi asoslari. – Toshkent. "O'zbekiston", 2006. – 139-b.

<sup>2</sup> Bloom B.S. a.o. Handbook on Formative and Summative Evaluation of Student Learning. N-Y., McGraw-Hill, 1971. – c. 232


<sup>3</sup> Umumiy fizika fan dasturi. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. TDPU. – Toshkent, 25.08.2018. – 24 b.

Masala. Quyidagi jarayonlarning sodir bo'lish yoki bo'lmashligini izohlang.



Kuchsiz o'zaro ta'sir jarayonlariga oid masalalar. Kuchsiz o'zaro ta'sir. Bu ta'sir deyarli barcha zarrachalarga xosdir. Bu ta'sir ostida sodir bo'ladigan jarayonlar ancha sekin yuz beradi. Atom yadrolarining  $\beta^-$  parchalanishi kuchsiz o'zaro ta'sirga misol bo'ladi. Bunday jarayonlarda talabalar ayrim kvant sonlarning saqlanmasliklarini mukammal tushunib yetishlari talab etiladi.

Masala. Quyidagi jarayonlar sodir bo'lishi mumkinmi?



Elektromagnit o'zaro ta'sirlarga oid masalalar. Elektromagnit o'zaro ta'sir. Bu ta'sirda, asosan, zaryadlangan zarralar qatnashadi. Lekin neytral zarralar ham o'z strukturasi ga egaligi sababli bu ta'sirda qatnashishi mumkin. Masalan, neytron murakkab strukturaga egaligi, ya'ni shu sababli magnit momentiga egaligi sababli elektromagnit o'zaro ta'sirda qatnashadi. Bu ta'sir hozirgi paytda eng yaxshi o'rganilgan ta'sir turi hisoblanadi.

Masala. Tabiatda elektromagnit o'zaro ta'sir sababli mavjud tuzilmalarni ayting va ularga izoh bering.

Bunday o'zaro ta'sirlarda saqlanish qonunlari bajarilishi kerak. Bu saqlanish qonunlari orasida energiyaning, impulsning va harakat miqdori momentining saqlanish qonunlari fazo-vaqt simmetriyasi natijasida kelib chiqadi. Bundan tashqari, elektr va barion zaryadlarining saqlanish qonunlari ham universal hisoblanadi. Lekin barion zaryadi saqlanish qonuni ichki simmetriyaga asoslangan. Ichki simmetriyaga asoslangan yana izotop spin saqlanish qonuni mavjud. Izotop simmetriya – izotop spin saqlanish qonuni kuchli o'zaro ta'sirda saqlanadi, elektromagnit va kuchsiz ta'sirda esa buziladi.

Juftlik saqlanish qonuni esa (to'lqin funksiyaning fazoviy o'qlariga nisbatan aks ettirish operatsiyasiga nisbatan simmetriya) kuchli va elektromagnit o'zaro ta'sirda saqlanadi, kuchsiz ta'sirda buziladi. G'alatilik kvant soni –  $S$  va maftunkorlik kvant soni –  $C$  ham kuchsiz ta'sirda buziladi.

Zarralar fizikasi amaliy mashg'ulotlarining takomillashgan mazmunida, mashg'ulotning ta'limiy ahamiyatiga ham alohida e'tibor qaratilishi zarur:

1. Masalalar yechish orqali talabalar olgan nazariy bilimlar darajasini aniqlash.
2. Talabalar masalalar yechish jarayonida analiz va sintez, taqqoslash, aniqlashtirish, tasniflash va tizimlashtirish kabi tafakkur operatsiyalaridan foydalanishi natijasida ularning fikrlash doirasini kengaytirish va mantiqiy tafakkurini rivojlantirish.
3. Masalalar yechishda o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan kvant sonlari, ularning jarayonlarda o'zini tutishi kabi jihatlarini yanada chuqurroq o'rgatish va mustahkamlash.

Zarralar fizikasi amaliy mashg'ulotlarining takomillashtirilgan topshiriqlarini loyihalashtirishda, nazarimizda, quyidagilarga e'tibor qaratish zarur deb o'ylaymiz:

Talabalarni amaliy mashg'ulotning maqsadi, borishi va bajariladigan topshiriqlar bilan tanishtirish.

Talabalarga topshiriqlarni tavsiya etish.

Talabalarining mustaqil yoki jamoaviy ishini tashkil etish.

Amaliy topshiriqlar yuzasidan talabalarining individual yoki jamoaviy axborotlarini tinglash.

Umumiy muhokamadan keyin, ularni baholash: bunda to'rt darajaga mos keluvchi nostandart testlar tarqatiladi. Bu orqali nafaqat o'qituvchi talabani, qolaversa, talaba o'zini-o'zi ham baholashi mumkin bo'ladi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun zarralar fizikasi amaliy mashg'ulotlarining takomillashgan mazmunini ishlab chiqish, samarali o'qitishni ta'minlovchi o'quv qo'llanmalar, ilmiy-uslubiy, metodik tavsiyalar, dars ishlanmalari hamda elektron ishlanmalar tayyorlashni talab etadi. Ishlab chiqilgan takomillashtirilgan mazmuni, uni o'qitish metodikasi hamda yaratilgan o'quv qo'llanmalar va elektron materiallar pedagogika oliy ta'limida zarralar fizikasi bo'limidan chuqur va mustahkam bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, o'qitishning an'anaviy va past samarali usulidan to'laqonli xalos etadi.

#### TA'LIM TIZIMIDA SMART-AUDITORIYADAN FOYDALANGAN HOLDA O'QUV MASHG'ULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Muslimov Sh.N.** – Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

**Umarova F.A.** – Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

**Umarova Z.A.** – Toshkent davlat pedagogika universiteti, dasturchi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ta'lim tizimida Smart-auditoriya tizimi orqali o'qitishning afzalliklari keng yoritilgan. Maqolada oliy ta'lim muassasalari faoliyatida Smart-auditoriyaning ahamiyati, maqsadi, mazmuni, o'qitishdagi afzalliklari va Internet texnologiyasi yordamida tinglovchi hamda o'qituvchilarning masofadan turib interfaol muloqot qilish jarayoni masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Smart-auditoriya, E-Minbar, FingerPrint, FingerPrint texnologiya, touchscreen, kommunikatsiya, audio va video darsliklar, online darslar (Internet sahifa), elektron kutubxonalar, multimedia elektron darsliklar.

#### ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ АУДИТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ SMART-AUDИТОРИЙ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

**Муслимов Ш.Н.** - базовый докторант Ташкентского государственного педагогического университета

**Умарова Ф.А.** - базовый докторант Ташкентского государственного педагогического университета

**Умарова З.А.** - Ташкентский государственный педагогический университет, программист

**Аннотация.** В данной статье описываются преимущества обучения с помощью системы Smart-аудитория в системе образования. В статье освещаются значение, цель, содержание, преимущества обучения в Smart-аудиториях в высших учебных заведениях, а также процесс интерактивного общения слушателей и преподавателей с использованием интернет-технологий.

**Ключевые слова:** Smart-аудитория, E-кафедра, FingerPrint, технология FingerPrint, сенсорный экран, коммуникация, аудио и видеоучебники, онлайн-уроки (веб-страница), электронные библиотеки, мультимедийные электронные учебники.

### IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF CLASSROOM ACTIVITIES USING SMART CLASSROOMS IN THE EDUCATION SYSTEM

**Muslimov Sh.N.** - PhD student of Tashkent state pedagogical university

**Umarova F.A.** - PhD student of Tashkent state pedagogical university

**Umarova Z.A.** - Tashkent state pedagogical university, programmer

**Annotation.** In given article advantages of training by means of system a Smart-audience in an education system are described. In article value, the purpose, the maintenance, advantages of training in Smart-audiences in higher educational institutions, and also process of interactive dialogue of listeners and teachers with using of Internet technologies are shined.

**Key words:** Smart Auditorium, E-Minbar, FingerPrint, FingerPrint technology, touch screen, communications, audio and video lessons, online lessons (web pages), electronic libraries, multimedia electronic textbooks.

Hozirgi davr ta'lim bosqichining yangi talablariga ehtiyoj yuqoriligini ko'rsatmoqda. Bunda masofaviy ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash va uni boshqarish ham muhim o'rin tutadi. Bu borada, respublikamizda qator ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni tasdiqlandi va unga muvofiq:

- o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

- xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish kabi vazifalar yuklatildi. Kontseptsiyada belgilangan yo'nalishlarga ko'ra, O'zbekistonda flagman universitetlar tashkil etiladi, bo'lajak ilm-fan vakillari orasidan ziyolilar qatlami shakllantiriladi va E-minbar tizimi orqali har bir mashg'ulotni onlayn kuzatish imkoni paydo bo'ladi. Bundan tashqari, Davlat rahbari oliy ta'lim sifatini oshirishga oid topshiriqlar ham bergan. Bu o'rinda E-Minbar, ya'ni har bir auditoriyada bo'lib o'tayotgan mashg'ulotni to'g'ridan-to'g'ri onlayn tarzda tarqatish tizimini tashkil etish taklif qilingan. Bu oliy ta'lim tizimida taxsil olayotgan talaba yoshlarni olgan bilimlarini mustaxkamlashga, o'z ustilarida ishlashlariga va shu bilan bir qatorda oliy ta'lim muassasalarida taxsil olmaydigan yoshlar ham ushbu onlayn-kurslarda o'zlariga kerakli bo'lgan yangi bilimlarni olish imkoniga ega bo'ladi, ta'lim sifatiga baho berish imkoni ham paydo bo'ladi.

Elektron axborot ta'lim resurslari o'quv jarayoniga moslashuvchan harakterga ega. O'quv materialning hajmi qancha katta bo'lsa, EATRdan foydalanishda shunchalik sustlik kuzatiladi. Biroq, shunga qaramay, EATR taklif etayotgan materialni ko'chirish, uni qayta ishlash, olingan material bazasida yangi o'quv materiallarini tayyorlash imkoniyatlariga ega<sup>1</sup>. Elektron yoki masofaviy ta'limning yangi bosqichida nafaqat axborot texnologiyalarini qo'llash, balki elektron shakldagi ta'lim manbalari

<sup>1</sup> N.Muslimov, D.Sayfurov, M.Usmoiboeva va A.To'raevlar. Web-texnologiya asosida elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish. – T., 2015

bilan ta'minlashni ko'zda tutiladi. Oliy ta'lim tizimida tatbiq etilgan axborot tizimlaridan E-minbar tajribasi axborot tizimlarini o'zaro integratsiya qilish natijasida Smart-auditoriya faoliyati yo'lga qo'yildi.

Smart-auditoriya o'zida FingerPrint, Smart -minbar, multimediya proektori kabi zamonaviy axborot texnologiyalarini jamlagan tizim. FingerPrint texnologiyasi talaba va professor-o'qituvchilarning barmoq izlarini skanerlash asosida davomatni avtomatik tarzda aniqlaydi hamda markaziy serverda qayd etib boradi. Ushbu elektron qaydlar yordamida guruh va fakul'tet kesimida joriy sanada mashg'ulotlarda qatnashmayotgan talabalar, semestr davomida ko'p dars qoldirgan talabalar to'g'risidagi hisobotlar avtomatik tarzda shakllanadi. Ushbu texnologiya o'qituvchining dars boshlanishida an'anaviy yo'qlama (davomat aniqlash) uchun sarflaydigan vaqtini tejash bilan birga fakul'tet va kafedralardagi professor-o'qituvchilarni ma'suliyatini hamda ish samaradorligini va shaffofligini oshiradi.

Shuningdek, talabalarni ta'lim jarayoniga, mashg'ulotlarga mas'uliyat bilan qarashga undaydi. E-minbar dars materiallarini mavzu bayonidan chalg'imasdan tushuntirishda yangi texnologiya bo'lib, o'qituvchi uchun kerakli bo'lgan turli ma'lumot va uskunalar bilan jihozlangan.

Ovoz kuchaytirish moslamasi o'qituvchi va namoyish qilinayotgan multimediya materiallari ovozi o'quvchilarga yaxshi yetib borishini ta'minlaydi. Darsni bir vaqtda webinar ko'rinishida olib borishga mo'ljallangan konferents-aloqa platformasi darsda qatnashmayotgan talabalarga mashg'ulotni onlayn tarzda kuzatish va o'zlashtirish imkonini beradi. Dars vaqtida ko'p zarurat tug'iladigan, masalan proektor ekranini boshqarish, yoritish chiroqlarini o'chirish va yoqish, xonadagi pardalarni tushirish va ko'tarish kabi amallarni o'qituvchi o'z joyidan turib touchscreen yordamida amalga oshiradi.

E-minbar dasturiy platformasi professor-o'qituvchiga o'zining virtual kabinetidagi ishini tashkil qilish, joriy sana uchun dars jadvali, taqvim-mavzuli (kalendarъ-tematik) reja, bugungi mavzu va darsga oid boshqa ma'lumotlar bilan tanishish, mashg'ulot davomida talabalarga mavzu doirasida yanada ko'proq ma'lumot berishda qulay vosita hisoblanadi.

Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, mobil texnologiyalar so'nggi vaqtlarda pedagogik innovatsiyalarning asosiy manbai hisoblanadi.

Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak.

Ta'lim oluvchilar uchun mustaqil bilim olish imkoniyatlarini oshirish, ta'limning elektron axborot resurslarini shakllantirish va riojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish ta'lim mazmunini takomillashtirishning zaruriy sharoitlaridan biri sanaladi. Zamonaviy ta'lim tizimining asosini sifatli va yuqori texnologiyali muxit tashkil etadi.

Shu o'rinda aytish joizki, AKT sohasi ta'limi amaliyotida mutaxassislik fanlarini o'qitishda interaktiv o'quv materiallaridan foydalanish talabalarning mustaqilligi, ijodkorligi, fanga qiziquvchanligi, yangiliklarga intiluvchanligini shakllantirishga yordam beradi.

So'nggi yillar davomida Articulate Storyline, Adobe Captivate, CourseLab, Lectora, Adobe Presenter, iSpring, CourseBuilder, UniMaster, Android Book App Maker kabi interaktia o'quv materiallarini yaratish imkoniyatini beruvchi pedagogik instrumental dasturlar xorijiy va maxalliy mutaxassis, pedagoglar tomonidan yuqori baxolanmoqda.

Android Book App Maker - Android platformalar uchun mo'ljallangan .apk fayl shaklida tasvirlangan mobil ilovalar shaklidagikitoblarni yaratishda yordam beradi. 3D sahifani varaqlash effektlari bilan boyitilgan kitoblarni yaratish uchun foydalanuvchidan dasturlashga oid yoki boshqa maxsus bilimlarga ega bo'lish talab etilmaydi.

Dasturni ishga tushirgach, bo'lgusi kitob uchun mo'ljallangan matn saqlangan .txt yoki doc formatdagi faylni yuklang. Kerakli rasmlarni qo'shing, shrift tanlovini o'rnatib, kitob haqidagi ma'lumotlarni to'ldiring: kitob ilovasi va muqovasi uchun piktogrammani tanlang va "Yigish" ("собрать") tugmasini bosib. Sanoqli daqiqalardayoq dastur sizga Android qurilmasida o'rnatishga tayyor, imzolangan dasturni taqdim etadi.

Kasb ta'limi "Dizayn" ta'lim yo'nalishida Kompozitsiya asoslari fanining ma'ruza mashg'ulotining yangi bilim berish qismida E-minbardan foydalangan holda ayollar kiyimlarida ko'krak vitochkalarni ko'chirish mavzusi slayd orqali namoyish qilib, tushuntirib beriladi.

Mavzuni mustahkamlash qismida esa vitochkalarni ko'chirish yuzasidan tayyorlangan videorolik ko'rsatilgan holda, talabalar ko'nikmasini shakllantiriladi. Undan so'ng Smart–minbar yordamida mavzu yuzasidan tayyorlangan savol va topshiriqlar talabalar hukmiga havola qilinadi. Dars yakunida savol javobda faol qatnashgan talabalar rag'batlantiriladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim tizimida AKT ni qo'llash ham iqtisodiy, ham ijtimoiy samara beradi. Shunig uchun bu boradagi nazariy, uslubiy va boshqa jihatlarni davr talablari asosida takomillashtirilishi bugungi kunnig dolzarb vazifalaridan biridir. Axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarga mo'ljallangan ko'nikmaga asoslangan yondashuvni rivojlantirishga, o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, bu ularga ta'lim maskanlarida malakali, professional shaxsga aylanish imkonini beradi. Yuqorida ta'kidlanganidek, zarur bilimlarni sotish va sotib olish uning tovarga aylanganligini bildiradi. Chunki, bilimlarning muntazam ravishda yangilanib turilishi va ularni ish kuchi tomonidan qo'llanilishi ijtimoiy — iqtisodiy taraqqiyotning kalitidir<sup>1</sup>.

Bilim berishga ixtisoslashgan oliy ta'lim va o'rta maxsus o'quv yurtlarida innovatsiyalar keng ko'lamda qo'llanilishi zarur. Smart-auditoriyada o'qitish, ta'lim tizimining har bir bosqichiga, ya'ni bog'cha, maktab, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limga tatbiq etish, yangi fanlar va texnologiyalarni qo'llash kabilar shular jumlasidandir. Ushbu jarayonning ommaviylashishi universitetlarning ishlab chiqarish va bozor bilan aloqasining yuzaga kelishida, yetuk mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **ANALITIK TAFAKKUR VOSITASIDA MAFKURAVIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI**

**Tursunov D.** – Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada analitik tafakkur asosida o'quvchilarning g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, kompetensiya tushunchasi haqida ilmiy asoslar keltirilgan. Jadval asosida g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikning kompetensiyalar tizimi aniqlashtirilgan.

**Tayanch so'zlar:** o'quvchi, kompetensiya, analitik tafakkur, g'oyaviy-mafkuraviy, kognitiv, sotsial, emotsional, kommunikativ.

#### **ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПОСРЕДСТВОМ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ**

**Турсунов Д.** - базовый докторант педагогического научно-исследовательского института им. Кори Ниези

**Аннотация.** В данной статье рассматривается развитие идеологической компетентности студентов на основе аналитического мышления. Также приведены научные основы понятия компетенция. Определена система компетенций идеологической компетенции на основе таблицы.

<sup>1</sup> Abduqodirov A. A. va boshqalar. Axborot texnologiyalari. – T., 2002. va Abduqodirov A. A., Pardaev A. X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. — T.: Fan, 2009.

**Ключевые слова:** ученик, компетенция, аналитическое мышление, идеологический, когнитивный, социальный, эмоциональный, коммуникативный.

### OPPORTUNITIES FOR IDEOLOGICAL COMPETENCE DEVELOPMENT BY ANALYTICAL THINKING

**Tursunov D.** - PhD student at the Pedagogical Research Institute named after Niezi

**Annotation.** This article discusses the development of ideological competence of students based on analytical thinking. It also provides a scientific basis for the concept of competence. The system of competences of ideological competence is defined on the basis of the table.

**Key words:** reader, competence, analytical thinking, ideological, cognitive, social, emotional, communicative.

Mustaqillik o'zbek xalqining erkin tafakkurini innovatsion g'oyalari tomon ilgari surish, yuksak texnologiyalarni yaratish, amaliyotga tatbiq etish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Taraqqiyotning keyingi yillarida mustaqillik davri farzandlarining tafakkur qilish quvvati keskin ortdi: innovatsion g'oyalarni yaratish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish borasida, tadbirkorlik xususida dunyodagi boshqa tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan avlod voyaga yetdi. Bugungi yoshlarning tafakkur salohiyati yaqin o'tmishdagi avlodning fikrlash tarzidan serqatlamliligi, dunyoviylashgani bilan ajralib turadi. O'zbekiston mamlakati rivojlanib, jahon xalqlari bilan turli sohalarda aloqalar kuchayib borishi natijasida tashqi tomondan kirib kelayotgan ma'naviy-mafkuraviy xurujlar soni ham tobora ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi minbarida turib: "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimizning qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarmizning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virus"i tarqalishining oldini olishdir"<sup>1</sup>, – deya aytgan ezgu gaplari mazmunidan yosh avlodning mustaqil tafakkurini, analitik fikr yuritish layoqatini rivojlantirish biror mamlakatning xususiy tashvishi bo'lmay, dunyo xalqlari oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri ekani anglashiladi.

Zamonaviy iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish ta'lim tizimi oldiga qo'yayotgan talablar bilan bog'liqlikda o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlarda kompetent yondashuv ta'lim mazmuni va metodlarini o'zgartirishning yangi bosqichi sifatida ko'rib chiqilgan. Ana shu nuqtayi nazardan ko'plab tadqiqotlarda kompetensiya produktiv va ijodiy faoliyat uchun zarur o'zaro aloqador shaxsiy sifatlar majmuyi, kompetentlik esa ma'lum sohaga doir biron-bir muammoni hal etishga imkon beruvchi shaxsning zaruriy kompetensiyalarni egallaganligi deya talqin etilgan.<sup>2</sup>

Kompetensiya (lotincha so'z bo'lib, "erishaman", "to'g'ri kelaman" ma'nolarini bildiradi) – subyektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun tashqi va ichki zaxiralarni samarali tashkil qila olishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan kasbiy masalalarni yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi, 2017-yil 19-sentabr.

<sup>2</sup> Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – T.: O'MKHTTKMOQTI, 2007. – 315 b.; Turg'unov S.T. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ...diss. – T., 2007. – 362 b.; Брызгалова С.И., Илына М.В.,

Ротенкова Т.Н. Педагогические условия формирования ключевых компетенций учащихся основной школы: Монография – Калининград: БФУИМ. И. Канта, 2011. – 176 с. Илина М.В. Реализация компетентного подхода в работе с учебным текстом (из опыта преподавания курса "История западной России в основной школе") // Исследования Балтийского региона. Вестник Института Балтийского региона РГУИМ. И.Канта. – 2010. – №1. – С. 149-156.; Уразова М.Б. Совершенствование технологии подготовки будущего педагога профессионального образования к проектной деятельности: Дисс...док.пед.наук. – Т.:ТГПУ, 2015. – 287.; Botcheva L., Shih J., Huffman L.C. Emphasizing Cultural Competence in Evaluation: A Process-Oriented Approach // American Journal of Evaluation. 2009. Volume 30. №2. P. 176-188.; Unland M., Kleiner B.H. New developments in organizing around core competence. Work study. London: 1996. Vol.45, Iss. 2.. Kleiner. Work study. London: 1996. Vol.45, Iss. 2.

<sup>3</sup> В.И.Загвязинского, А.Ф.Закировой. Педагогический словарь. – М.: "Академия", 2008. – С.41.

N.M.Muslimovning fikricha inglizcha “competence” tushunchasining lugʻaviy maʼnosi “qobiliyat” demakdir, biroq kompetensiya atamasi bilim, koʻnikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi.<sup>1</sup>

N.V.Tarasova “kompetensiya” tushunchasini “muammoni hal etish uchun bilim va vaziyat, bilim va harakat oʻrtasida aloqadorlikni taʼminlash imkonini beradigan bilim, qadriyatlar, layoqatlarga asoslangan umumiy qobiliyat” sifatida talqin etadi. Muallifning fikridan kelib chiqqan holda, kompetensiya – insonning mavjud bilim va hayotiy tajribalarga tayangan holda maʼlum bir muammoni hal etishga doir qobiliyati, degan xulosaga kelish mumkin.

Kompetensiya – maʼlum bir sohada samarali produktiv faoliyat uchun zarur boʻlgan oʻquvchining avvaldan belgilangan taʼlimiy tayyorgarligiga qoʻyiladigan ijtimoiy talablar (meʼyorlar)dan ham oʻzib ketishidir.

Kompetensiyaning turlarini tasnif etishga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud. Jumladan, N.A.Muslimov va M.B.Urazovalar kasbiy taʼlim nuqtayi nazaridan kompetensiyalarni quyidagi turlarga ajratadi: maxsus kompetensiya – yetarli yuqori darajada oʻz kasbiy faoliyatini egallash, keyingi kasbiy rivojlanishini loyihalashtira olish; ijtimoiy kompetensiya – birgalikdagi kasbiy faoliyat, hamkorlikni egallash, oʻz mehnati natijalariga ijtimoiy javobgarlik; shaxsiy kompetensiya – shaxsiy mustaqil aks etish va mustaqil rivojlanish usullari, shaxsning kasbiy deformatsiyalarga qarshi turish vositalarini egallashi; individual kompetensiya – kasb doirasida individuallikni mustaqil qoʻllash va rivojlantirish usullarini egallash, kasbiy-shaxsiy oʻsish, mustaqil tashkil qilish va mustaqil reabilitatsiya qilishga tayyorlik; asosiy kompetensiyalar – moslashish va mahsuldor faoliyat uchun zarur boʻlgan shaxsning madaniyatlararo va sohalararo bilim, qobiliyat va koʻnikmalari.<sup>2</sup>

O.Hayitov va N.Umarovalar klaster yondashuvi asosida kompetensiyalarni quyidagicha guruhlashni taklif etishadi: axborotlar bilan ishlashga doir kompetensiyalar: axborotlarni toʻplash va tahlil etish, qarorlar qabul qilish; axborotlarni qayta oʻzgartirish; muvaffaqiyatga erishishga doir kompetensiyalar: rejalashtirish, faoliyatni tashkillashtirish, natijalarni tahlillash; insonlar bilan ishlashga doir kompetensiyalar: munosabatlarni boshqarish, guruhda ishlash, atrofda qilargalarga taʼsir koʻrsatish; oʻz-oʻzini takomillashtirishga doir kompetensiyalar: oʻz-oʻzini tekshirish, kasbiy oʻsish, innovatsion mobillik.<sup>3</sup>

M.B.Urazova loyihaviy faoliyat nuqtayi nazaridan kompetensiyalarni quyidagi turlarga ajratishni taklif etadi: reflektiv kompetensiya: oʻz-oʻziga baho berish, oʻz shaxsi va faoliyatining yutuqlari va kamchiliklariga boʻlgan oʻziga xos talabchanlik, oʻz ijodiy yutuqlari va omadsizliklari sababini tushuna olish; kognitiv kompetensiya: mustaqil ravishda yangi bilim va qobiliyatlarni egallay olish, mustaqil rivojlanish gʻoyalarini qoʻllash; axboriy kompetensiya: kerakli axborotning olinishi, qayta ishlanishi va ishlatilishiga doir maxsus qobiliyatlarning egallanishi; kommunikativ kompetensiya yuqori darajadagi muloqotga erishishga yordam beradigan usullar; ijtimoiy kompetensiya: voqelikning ijtimoiy ahamiyatini anglash, javobgarlikni oʻz zimmasiga olish qobiliyati, shaxsiy qiziqishlarning jamiyat ehtiyojlari bilan bogʻliqligining namoyon boʻlishi.<sup>4</sup>

Tarixiy tafakkurni rivojlantirish muammosini tadqiq etgan pedagog olim B.X.Xoʻjayev tadqiqot obyekti bilan bogʻliqlikda motivatsion-kognitiv, informatsion; kommunikativ gʻoyaviy-mafkuraviy, fuqarolikka doir, maʼnaviy-axloqiy, akmeologik, aksiologik, estetik kompetensiyalar tizimini aniqlashtirgan.<sup>5</sup>

<sup>1</sup>Muslimov N.A. Kasb taʼlimi oʻqituvchisining kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – T.: OʻMKHTTKMOQTI, 2007. – B.130.

<sup>2</sup> Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpoʻlatov Sh.N. Kasb taʼlimi oʻqituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2013. – B.6.

<sup>3</sup> Hayitov O., Umarova N. Yoshlarda professional oʻsishga intilishni rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari. – T.: TURON-IQBOL, 2001. – B.78.

<sup>4</sup> Urazova M.B. Совершенствование технологии подготовки будущего педагога профессионального образования к проектной деятельности: Дисс. ... док. пед. наук. – Т.: ТГПУ, 2015. – С. 57-61.

<sup>5</sup> Xoʻjayev B.X. Umumtaʼlim maktablari oʻquvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik taʼminot vositasida rivojlantirish: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2016. – B. 92-94.



Analitik tafakkur – tahliliy fikr yuritish san’ati, biror muammo, masala, axborot, voqea-hodisani o’rganish jarayonida u haqda atroflicha, aniq, teran, chuqur, mazmundor, mustahkam to’xtamga kelish qobiliyati. Analitik tafakkur egasi tahlil qilinayotgan obyektни har tomonlama sinchiklab o’rganadi: murakkab axborotlarni qismlarga ajratadi – har bir so’z, jumla, detal, narsa ustida jiddiy fikr yuritadi, qismlarni o’zaro mantiqiy bog’laydi, maqbul xulosaga keladi va kerakli qarorlar qabul qiladi. Analitik qobiliyat egasi har qanday hodisa ustida fikr yuritganda narsa-hodisaning tashqi ma’nosini o’qish bilangina cheklanmay, uning ichki – botiniy ma’no qatlamlarini ham aniqlashga urinadi. Natijada, tahlil etilayotgan obyekt yuzasidan atroflicha tushuncha yuzaga keladi. Analitik tafakkur muammo yoki masalaning oson va tez, to’g’ri va aniq hal etilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tahlillar asosida g’oyaviy-mafkuraviy kompetentlikning quyidagi kompetensiyalar tizimi aniqlashtirildi (1-jadval).

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, g’oyaviy-mafkuraviy kompetentlikka taalluqli kompetensiyalar tizimi o’quvchilarda analitik tafakkurni rivojlantirishni taqozo etadi.

Har bir inson o’zining individual xususiyatlariga ko’ra, tafakkurning ma’lum bir tipiga moyil bo’ladi. Bu moyillik uning fikrlash jarayonida, xatti-harakatlarida, borliqqa bo’lgan munosabatlarida, kasb-hunarida, yashash va mehnat jamoa muhitida, o’qib-izlanishda bo’lgan kuchli ehtiyoji kabi omillarda yanada aniq ko’rinadi. Insonning fikrlash darajasi o’zi shug’ullanayotgan sohaning aqliy yoki jismoniy faoliyatga mansubligiga qarab ham turlicha bo’ladi. Aqliy mehnat egalari o’z faoliyatlarini fikr yuritish asosiga quradilar. Ayniqsa, muntazam ilm bilan shug’ullanuvchi kishining fikrlash qobiliyati tafakkuriy sifatlarga boyligi bilan ajralib turadi. Analitik tafakkur yuritish har bir inson uchun foydalidir. Ayniqsa, yuksak g’oyaviy-mafkuraviy kompetentlikka ega bo’lish uchun uning ahamiyati kattadir. Analitik tafakkur o’quvchilarda “o’zlik”ni idrok etish, ma’naviy fazilatlarini o’z ruhiyatida barqarorlashtirishda, g’oyaviy-mafkuraviy immunitetni oshirishda “sermahsul qurol” sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Fikr bilan ish yuritadigan inson hamisha muvaffaqiyat qozonadi, to’g’ri yo’ldan adashmaydi. Fikrlash insonni ilgarilab borishga, foydali ishlar qilishga yo’naltiradi.

1-jadval

G’oyaviy-mafkuraviy kompetentlik tuzilmasi

I’spec	Kompetensiyalar	Tashqi namoyon bo’lishi	Ichki his-tuyg’ular
IQ	Kognitiv	Mavjud bilimlaridan foydalanadi va yangi bilimlarni namoyish etadi	Yangi bilimlarni egallash motivatsiyasiga ega
SQ	Sotsial	Ijtimoiy maqomga muvofiq xulq-atvor namunalarini namoyish etadi	O’zini milliy g’oya targ’ibotchisi, g’oyaviy-mafkuraviy himoyachi, ijtimoiy faol fuqaro rollarida anglash
PQ	Shaxsiy	Maqsadni amalga oshirish qobiliyati	Hayot mazmuni, qadriyatlar, maqsad va vazifalarni anglay olish ko’nikmasi
EQ	Emotsional	Boshqa kishilarning emotsiyalariga konstruktiv yo’nalganlik va o’z his-tuyg’ularini adekvat namoyon etish	O’zi va boshqalarning his-tuyg’ularini anglay olish va boshqarish
CQ	Kommunikativ	Relevant belgilar tizimi yordamida o’z fikrini ifoda etish	Zamonaviy belgilar tizimi yordamida o’z boshqalarning maqsad-muddaosini tushunish qobiliyati
TCQ	Umummadaniy	G’oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning harakatlantiruvchi kuchlarini tushunish, tarixiy meros va madaniy an’alarga mas’uliyatli munosabat	Shaxsiy axborot xavfsizligi ko’nikmalariga egalik, axborotlarning ishonchligini baholash, umuminsoniy qadriyatlarga rioya qilish

ANALITIK TAFAKKUR

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’qitish jarayoni analitik tafakkur vositasida ma’naviy fazilatlarini kamol toptirishning, mafkuraviy immunitetni oshirishning katta imkoniyatga ega bo’lgan muhim

obyektlaridan biridir. Ayniqsa, badiiy adabiyot ma'naviyatning tuganmas manbasidir. O'quvchi badiiy-ma'rifiy asarlarni o'qish, o'rganish orqali tahliliy fikr yuritadi: ma'naviy oziqlanadi, ma'rifiy yuksaladi. Kitob mutolaasi o'quvchining fikrlarini o'tkirlashtiradi, tafakkur qamrov doirasini kengaytiradi. O'quvchi milliy-mafkuraviy fazilatlarni o'z oilasidan, yashab turgan mahallasidan, atrofidagi odamlardan fikrlash, tafakkur yuritish vositasida o'rganib, o'zlashtirib boradi. Badiiy adabiyot bu borada uning eng beminnat ustozidir.

Mumtoz asarlar, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodi milliy-mafkuraviy fazilatlarning konidir. O'quvchilar bu buyuk siymoning asarlarini o'qish, o'rganish jarayonida mustaqil fikr yuritish, analitik tafakkur qilish orqali axloqiy sifatlarning muhimligiga, ularni kasb etish ulug' saodat ekanligiga to'liq ishonch hosil qiladilar, milliy-mafkuraviy fazilatlarni egallash istagi, ehtiyoji bilan harakatga keladilar. Masalan:

Har kishining tavrig'a loyiq kerak,  
Surati holig'a muvofiq kerak.  
Kimki ulug'roq anga xizmat kerak,  
Ulki kichikroq, anga shafqat kerak<sup>1</sup>.

Badiiy asarni analitik yondashuv asosida tahlillash jarayonida har bir so'z, jumla ustida fikr, mushohada yuritiladi – tahlillash operatsiyalari bajariladi. So'zning botiniy va zohiriy ma'nolari "kashf" etiladi. Tegishli xulosa va qarorlar qabul qilinadi, ular ichidan eng maqbuli saylab olinadi.

• "Har kishining" – har bir odamning, kishining, kimsaning. Bu o'rinda "kim bo'lmasin", "har qanday olamning", "kishi kim bo'lishidan qat'iy nazar" kabi ma'nolarni anglatadi;

• "tavrig'a" – kam qo'llanadigan eskirgan so'z bo'lib, "aslida", "zotida", "azaldan" kabi ma'nolarni bildiradi;

• "loyiq kerak" – munosib bo'lmoq, sadoqatli bo'lmoq, loyiq bo'lmoq;

• "Har kishining tavrig'a loyiq kerak" – har bir odam o'z nasl-nasabiga, zotiga munosib bo'lishi kerak. Har bir inson o'zligini, nasl-nasabini, kimning avlodi, zurriyodi ekanini, millatini, milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini, an'alarini sira unutmasligi, ularga sadoqat ko'rsatishi, shularga muvofiq hayot kechirishi zarur. Inson O'ZLIGINI aslo unutib qo'ymasligi, yo'qotmasligi kerak;

• "Surati" – ko'rinish, suvrat. Bu o'rinda insonning tashqi olami, xatti-harakatlari, bajarayotgan amali, gap-so'zlari; voqelikka munosabati, qilayotgan ishlari; imkoniyatlari, kuch-qudrati.

• "holig'a" – siyrati, ichki olami. Ichki o'y-kechinmalari, xayol-orzulari, niyat-maqсадlari, fikr-o'ylari.

• "muvofiq kerak" – muvofiq kelmoq, mos tushmoq, bir xil bo'lmoq.

"Surati holig'a muvofiq kerak" – insonning surati va siyrati bir xil bo'lishi kerak. Bu o'rinda insonning tashqi va ichki olamining uyg'unligi, so'z va ish-amalining birligi haqida so'z boradi. "Tili boshqa, dili boshqa" bo'lishlik tanqid qilinadi. Munofiqlik eng og'ir gunohlardan biridir. Muborak hadisi shariflarda ham munofiqlik qattiq qoralanadi. "Surat"ning "holig'a" muvofiq kelmasligi – munofiqlikning bir ko'rinishidir. Alisher Navoiy hazratlari "Farhod va Shirin" dostonida Farhodni barkamol inson sifatida ulug'lab: "Demon, ham ko'ngli pok-u ham ko'zi pok, Tili pok-u so'zi pok-u o'zi pok..."<sup>2</sup>, – deb ta'rif beradi.

"Kimki" – kimki, kim; ulug'roq" – ulug'roq, kattaroq. Bu o'rinda yoshi katta odam; "anga" – unga; xizmat kerak" – xizmat kerak, qarov, e'tibor, e'zoz zarur; Kimki ulug'roq anga xizmat kerak" – yoshi ulug' odamlarga mehribonlik, g'amxo'rlik qilish zarur. Kattalarni e'zozlash, hurmatlash, asrash talab etiladi; "Ulki kichikroq, anga shafqat kerak" – kimki kichik yoshda ekan, unga shafqat – rahmdillik, iltifot kerak, uni ayash zarur.

Shu atigi to'rt misrada ulkan axloqiy tarbiya, ma'rifiy saboq mujassam ekani tafakkur qudrati bilan "kashf" etiladi. Hech kim hech kimga axloqiy tarbiya borasida va'z aytmaydi, nasihat qilmaydi.

<sup>1</sup> Shohbaytlar / Ikkinchi kitob. – T.: "Tamaddun", 2016. – 208 b. – B.20.

<sup>2</sup> Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. 8-t. Xamsa: Farhod va Shirin. – T.: 1991. – 122 b.

Fikriy tortishuv, bahs-munozaralar fikrlarni yanada boyitadi. Analitik tafakkur vositasida mantiqiy xulosalar, fikriy umumlashmalar hosil qilinadi:

- inson har qanday vaziyatda kim ekanini, kimning avlodi ekanini yodda tutish lozim. Nojo'ya ishlar insonning nafaqat o'ziga, balki ajdod va avlodlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Odamlar "tavrig'a" loyiq bo'lganlarni "ota-onasiga rahmat", "yaxshi odamning bolasi ekan", "ta'lim bergan ustoziga rahmat", – deya maqtaydilar. O'zligini unutganlarni "manqurt", deb nafratlanishadi. O'ZLIKni anglash va asrash kerak;

- so'z va ish birligi – muvaffaqiyat garovi. Rejali ish buzilmaydi. Buyuk millatning farzandlari buyuk ishlarga qodir bo'lishi kerak. Ajdodlar bilan quruq g'ururlanish, ularga munosib bo'lish degani emas. Bugunning qudrati bilan o'tmishni yodda tutib, kelajakni ta'minlash uchun amalga oshirilgan ezgu ishlar yurtga, Vatanga foyda keltiradi;

- mehribonlik – ulug' fazilat. Kim mehr ko'rgazsa, mehr ko'radi, g'azab ko'rsatsa – qahr. Ulug' millatning farzandlari o'z ulug'larini, kattalarini hamisha hurmat qiladi, xor qilib qo'ymaydi. Kichiklar kattalarga mehr ko'rsatib, o'z keksalik davrining rohatini ta'minlab boradilar. Kattalar e'zozlangan yurtda qut-baraka bo'ladi;

- rahm-shafqat – kishining ziynati. Kichiklar, yoshlar kattalarning rahmdilligidan najot topadi, kamolga yetadi. Yoshlar tarbiyasiga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatgan yurtni hech qachon yov bosib ololmaydi. Yoshlar – kelajakning haqiqiy egalari va davomchilaridir;

- inson hamisha tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Tarbiyalanganlik – insonning har bitta xatti-harakatida, so'z va gaplarida namoyon bo'ladi. Tarbiya – kamolotning asosidir.

Ko'rinadiki, fikrlash, analitik tafakkur yuritish insonni ma'naviy jihatdan to'yintiradi, ma'rifiy yuksaltiradi. Umumta'lim fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilar badiiy asarlarni tahlil etish jarayonida mustaqil fikr yuritish, analitik tafakkur qilish vositasida milliy-mafkuraviy fazilatlarni o'zlashtirib boradilar.

Analitik tafakkur qobiliyati o'quvchini olamda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga befarq, loqayd qoldirmaydi: hushyorligini oshiradi, ogohlikka da'vat etadi. Bunda ommaviy axborot vositalari, internet tizimi orqali yetkazilayotgan axborot, xabar o'quvchi tomonidan analitik tahlil qilinadi: sabab-oqibatlarini tafakkur qilinadi, munosabat bildiriladi, maqbul qaror-xulosaga kelinadi. Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarning g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirishda badiiy asarlar qatorida siyosiy nutq, ma'ruzalardan olingan matnlarni analitik yondashuv asosida tahlillash yanada yaxshi samara beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqidan olingan parchaning analitik tahlili misolida yuqoridagi fikrlarni qo'llab-quvvatlash mumkin bo'ladi: "Biz diniy ekstremizm g'oyalari ta'siriga adashib tushib qolgan fuqarolarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish, ularni sog'lom hayotga qaytarish bo'yicha ishlarni yanada takomillashtiramiz<sup>1</sup>".

Matndagi har bir so'z ustida analitik fikr yuritiladi, mantiqiy xulosalar yasaladi:

- "Biz" so'zi mamlakat Prezidentini, boshqaruv apparatini, butun o'zbek xalqini nazarda tutadi; "Biz" - diniy ekstremizm g'oyalari umuman qarshi bo'lgan, tinchliksevar, millatlararo totuvlikni, diniy bag'rikenglikni istovchi, shu yo'lda oldinga intiluvchi kishilar jamoasini anglatadi;

- "adashib tushib qolgan" birikmasi diniy ekstremizm tushunchasiga aniqlik kiritadi. Ekstremizm [lot. extremus - eng oxirgi; o'taketgan, ashaddiy; keskin] siyosatda va mafkurada ashaddiy, favqulodda usullar bilan yo'l tutishga, keskin choralar ko'rishga tarafdorlik.<sup>2</sup> Demak, diniy ekstremizm, din niqobi ostida qilinadigan yovuzlik;

- "diniy ekstremizm g'oyalari ta'siriga adashib tushib qolgan", deb aytilishidanoq diniy ekstremizm g'oyalari vayronkorlikni, xunrezlikni, notinchlikni targ'ib etishi idrok etiladi;

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga O'zbekiston Respublikasini 2018-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan murojaatnomasi. – T., 2017-yil 22-dekabr.

<sup>2</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. – Beshinchi jild. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 630 b. – B.57.

• “adashib tushib qolgan fuqarolar” – fikriy nochor odamlar, oxirini, oqibatini o`ylamay ish tutgan kimsalar; tafakkurida sog`lomlik, ruhiyatida sobitlik, qat`iyat yetishmaydigan kishilar; ishonuvchan, sodda, oddiy odamlar;

• “adashib tushib qolgan fuqarolar” – yosh, hayotiy tajribasi kam yoki yo`q; o`sha vaziyatda, ehtimol, imkonsiz, ilojsiz; o`z xato ishlaridan qattiq pushaymon chekayotgan, ortga – ezgu yo`llarga qaytish yo`llarini izlayotgan fuqarolar;

• “adashib tushib qolgan fuqarolar” - Islom dinining asl mohiyatini to`la anglab yetmaydigan, chalasavod, fikriy beqaror kimsalar;

• “ijtimoiy” – jamoa, jamiyatga oid. Matn doirasida: hamma, barcha “adashib tushib qolganlarni.” Hech kimni ajratib, yakkalab qo`ymay. Moddiy imkoni bor-yo`qligidan qat`iy nazar;

• “ijtimoiy rehabilitatsiya qilish” – mamlakatda adolat tamoyillarining barqarorligidan, inson omiliga e`tibor, g`amxo`rlik ko`rsatilishidan, mamlakat rahbarining, xalqining bag`rikengligidan, kechirimlilikidan, insonparvarligidan dalolat beradi;

• “sog`lom hayot” – tinch va farovon turmush. Tafakkur sog`lomligi. Yaratish, bunyodkorlik, tadbirkorlik bilan hayot kechirish tarzi;

• “yanada” - ezgu ishlarining avvaldan boshlanib, davom etib kelayotganini, uzviylik va izchillikni anglatadi;

• “takomillashtiramiz” – mavjud tizimga innovatsiyalar kiritish, qulayliklar yaratish, faoliyat mazmunini yanada boyitish, samaradorlikni orttirish, kafolatlangan natijalarga erishishni ta`minlash;

• matnda ezgu maqsad, ezgu tilak ifodalangan;

• nutq qatida INSON omili, INSON manfaati yotadi;

• Diniy ekstremizm g`oyalari ta`siriga adashib tushib qolmaslikning asosiy omillari nimada?

• tafakkuriy sog`lomlik;

• ma`rifiy bilimlarni egallash;

• yuksak ma`naviyatli bo`lish;

• ezgu ishlar bilan doimo oldinga intilish.

Ko`rinadiki, analitik tafakkur o`quvchida milliy-mafkuraviy fazilatlarini barqarorlashtiradi, g`oyaviy-mafkuraviy qarashlarni sog`lomlashtiradi. Fikrlash insonga omad olib keladi. Umumiy o`rta ta`lim tizimida analitik tafakkur vositasida o`quvchilarning g`oyaviy-mafkuraviy kompetentligini shakllantirish, axloqiy fazilatlarini oshirish – ularning kelajakda fuqarolik e`tiqodini rivojlantirishga asos bo`lib xizmat qiladi.

Tahlillar asosida tadqiqot doirasida g`oyaviy-mafkuraviy kompetentligining quyidagi kompetensiyalar tizimi aniqlashtirildi: kognitiv, sotsial, shaxsiy, emotsional, kognitiv, kommunikativ, umummadaniy. G`oyaviy-mafkuraviy kompetentlikka taalluqli mazkur kompetensiyalar tizimi o`quvchilarda analitik tafakkurni rivojlantirishni taqozo etishi haqidagi xulosaga kelindi.

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКИ В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ

**Кулабекова Г.К.** - базовый докторант Южно-Казахстанского государственного университета

**Аннотация.** Воспитание подрастающего поколения является одной из основных проблем современного общества. Одним из эффективных путей воспитания полноценной, гармонично развитой, толерантной личности является обращение к традициям народной педагогики, которая охватывает все стороны воспитания: нравственное, трудовое, физическое, эстетическое и др. В данной статье особое внимание уделено проблемам народной педагогики, традициям семейного воспитания. Актуальность статьи обусловлена необходимостью применения методов и приемов народной педагогики в глобализационный период общества.

**Ключевые слова:** воспитание подрастающего поколения, традиции народной педагогики, национальные традиции тюркских народов, воспитание детей на традициях народной педагогики.

#### TARBIYA JARAYONIDA XALQ PEDAGOGIKASINING O`RNI VA AHAMIYATI

**Kulabekova G.K.** - Janubiy Qozog'iston davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Yosh avlodni tarbiyalash zamonaviy jamiyatning asosiy muammolaridan biridir. Barkamol shaxsni tarbiyalashning samarali usullaridan biri tarbiyaning barcha jihatlarini qamrab oladigan xalq pedagogikasi an'alariga murojaat qilishdir: axloqiy, mehnat, jismoniy, estetik va boshqalar. Ushbu maqolada xalq pedagogikasi muammolariga, oilaviy tarbiya an'alariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolaning dolzarbligi jamiyatning globallashuv davrida xalq pedagogikasi usullari va texnikalarini qo'llash zarurati bilan bog'liq.

**Kalit so'zlar:** yosh avlodni tarbiyalash, xalq pedagogikasi an'analari, turkiy xalqlarning milliy urf-odatlarini, xalq pedagogikasi an'alariga asoslangan tarbiya.

#### ROLE AND SIGNIFICANCE OF POPULATION PEDAGOGY IN CHILD EDUCATION

**Kulabekova G.K.** - PhD student of the south Kazakhstan state university

**Annotation.** Upbringing of generation is one of the main problem of the modern society. One of the effective ways of upbringing of the full-fledged, harmoniously developed, tolerant personality is familiarizing with traditions of national pedagogy which covers all aspects of upbringing: moral, labor, physical, esthetic, etc. This article is paid the special attention to the problems of national pedagogy, traditions of family upbringing. The relevance of article is caused by the necessity of application of methods and ways of national pedagogy in the globalization period of society.

**Key words:** upbringing of younger generation, traditions of folk pedagogy, national traditions of the Turkic peoples, parenting in the traditions of folk pedagogy.

В современном, трансформирующемся под воздействием глобализационных процессов, мире становится очень сложным сохранить своеобразие национальной культуры, традиций, истории. Ныне современное общество остро переживает кризис духовно-нравственных идеалов. Одним из самых действенных методов предотвращения подобных проблем, а также способствующих воспитанию достойного подрастающего поколения, любящего родную землю, свой народ и страну – является обращение к традициям народной педагогики, где содержится многовековой бесценный опыт.

Духовное наследие народа – традиции, его уникальные обычаи и обряды всегда играли важную роль в гражданском, духовном становлении человека, в формировании его нравственно-этических, эстетических, физических и других качеств, в социализации личности в целом.

В настоящее время перед современным обществом стоит задача о воспитании гражданской активности молодого поколения, о формировании стойкой убежденности в актуальности веками сложившихся народных традиций, норм и ценностей. Поэтому воспитывать подрастающее поколение необходимо на основе народной педагогики, традициях тюркского мира.

Народная педагогика – это проверенная жизнь в воспитательной практике, передаваемая из поколения в поколение, вышедшая из многовекового народного опыта как выдающаяся книга идей и мыслей, принципов и нравочучений, средств, методов, приемов и примеров воспитания.

Великий русский педагог К.Д.Ушинский народную педагогику считал одним из важнейших факторов, под влиянием которых складывалась отечественная педагогическая наука. “Народ имеет свою особую характеристическую систему воспитания... Только народное воспитание является живым органом в историческом процессе народного развития<sup>1</sup>”.

Известный исследователь, основоположник науки “Этнопедагогика” академик Г.Н. Волков, называет этнопедагогику “педагогией национального спасения<sup>2</sup>”. По его определению, этнопедагогика – наука об опыте народных масс по воспитанию подрастающего поколения, об их педагогических воззрениях, наука о педагогике семьи, рода, племени, народности, нации. Главное достоинство народной педагогики – это правдивость, ибо успешно воспитывать, учить подрастающее поколение можно только на правде, искренности, без этого любая традиция отмирает. А также, ученый-исследователь отмечает, что народные традиции являются голосом сердца и совести, голосом правды и надежды.

У каждого народа есть своя неповторимая уникальная педагогическая культура, присущая только ей и основанная на ее собственной истории, культуре, искусстве, этике, психологии, философии и трудовых традициях. Любой народ – явление уникальное, особое, который вносит что-то свое – неповторимое в цивилизацию. В развитии человеческой истории каждая нация, народность внесла свою лепту.

Происходящие ныне социально-экономические и политические изменения в мире оказали весьма серьезное влияние на все стороны жизни и деятельности людей. Сегодня современная молодежь, под влиянием западной идеологии теряет облик носителей национальной тюркской культуры. Нынешняя пропаганда западного образа жизни и ценностных ориентаций работает, прежде всего, на повышение интереса к зарубежной поп-культуре. Традиционные этические нормы и ценности присущие народу больше не являются приоритетными в культуре поведения. Теряют значение важные понятия, как “нравственность”, “долг”, “честь”, “гордость”, “достоинство”.

Народная педагогика тюркских народов, как и вся их нравственно-духовная жизнь, богата и многообразна. И хотя педагогическая культура тюрков не была предметом специальных научных изысканий, о ней упоминали многие философы, историки, археологи, этнографы, антропологи, филологи. Уникальные материалы народной педагогики, основа которых заложена в произведениях устного народного творчества, в традициях, обрядах и обычаях, народных праздниках и гуляниях, играх, служат неиссякаемым источником, где сохранены содержание, методы и приемы, формы воспитания. Мудрость народа о воспитании детей является выражением многовековой педагогической культуры и опыта семейного воспитания народа.

Самой действенной чертой народной педагогики тюрков является ее связь с жизнью, с практикой обучения и воспитания детей. В ней заложены самые прочные основы педагогической культуры тюркского общества – это почтительное отношение к старшим, высокая нравственность, гостеприимство, порядочность, скромность, трудолюбие, честность.

Нравственно-этические нормы, выработанные в течение столетий тюркским народом, передавались от одного поколения к другому. Передача молодому поколению социально-нравственных, духовно-этических ценностей предшествующих поколений, прогрессивных идей и традиций народа осуществляется через труд, созидательную деятельность, и приобщение молодежи к своей истории. Одолев этим особо ценным опытом, каждое новое поколение развивает и совершенствует его, дополняя новыми знаниями и открытиями.

Народная педагогика рассматривается нами как совокупное педагогическое знание и воспитательный опыт народа. Необходимость изучения памятников народного творчества как

<sup>1</sup> Волков Г.Н. Этнопедагогика: Учеб. для студ. сред. и высш. пед. учеб. заведений. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Издательский центр “Академия”, 2000. – 176 с.

<sup>2</sup> Волков Г.Н. Этнопедагогика: Учеб. для студ. сред. и высш. пед. учеб. заведений. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Издательский центр “Академия”, 2000. – 176 с.

первоисточника культуры народа, в том числе и педагогической, отмечали все прогрессивные педагоги. Выдающиеся педагоги и просветители прошлого много внимания уделяли изучению педагогических воззрений народа и его педагогического опыта.

Великие ученые-мыслители тюркского мира Абу Наср аль-Фараби, Ибн-Сина, Фердоуси, Хорезми, Омар Хайям, М.Х.Дулати, Ю.Баласагунский, великие казахские просветители А.Кунанбаев, Ч.Валиханов, И.Алтынсарин и др. опирались на народный опыт воспитания, на весь комплекс народной мудрости, высоко ценили значение народной педагогики и продуктивные народные идеи в воспитании. Во многих их научных наследиях раскрыты значения педагогических идей народного воспитания.

Абу Наср аль-Фараби (873-950) большое значение в формировании человека, его личности, придавал воспитанию, особенно духовному и нравственному. В своем семейном трактате «О достижении счастья» он отмечал: добродетели могут быть приобретены двумя первичными путями: обучением и воспитанием. «Обучение – это наделение теоретическими добродетелями народов и городов. Воспитание – это способ наделения народов этическими добродетелями и искусством, основанными на знании. Обучение осуществляется только словом, тогда как при воспитании народам и горожанам прививают привычку, совершенствовать действия, исходящие из свойств, основанных на знании»<sup>1</sup>.

Один из великих мыслителей средневековья Бируни уделял особое внимание таким проблемам нравственности, как честь и достоинство, добро и зло, справедливость и совесть. Мысли Бируни о достоинстве и благородстве, о знании заслуживают особого внимания. Считая их нравственными качествами, он полагает, что благородство – это выполняемые обязательства по отношению к близким людям, а знания облагораживают человека, и передача своих знаний другим приносит истинное счастье.

Ибн-Сина подходил к вопросам педагогики творчески. Ибн Сина глубоко понимал всю сложность и трудность воспитания детей. В «Каноне врачебной науки», в разделе «О воспитании», конкретно решаются поставленные вопросы, излагаются ценные мысли о воспитании характера детей. В воспитании детей он предпочитал внушение и добрый пример педагогов – воспитателей и взрослых людей.

Огромная заслуга его в том, что он возвеличил униженные мусульманской религией физические и умственные достоинства людей, проповедовал борьбу за счастье в реальном мире, выдвигал идею непобедимости добра, воспевал земную возвышенную человеческую любовь, моральную чистоту, дружбу, патриотизм.

Юсуф-Хас Хаджиб так же, как и многие другие ученые средневековья, внес значительный вклад в развитие культуры народов мусульманского Востока. Его произведение «Благодатное знание» посвящено общественно-политическим, этическим и в известной мере, педагогическим проблемам того времени (XI век). Оно является своеобразным кодексом моральных прав и норм поведения в обществе. Основная идея поэмы раскрывается в процессе беседы: вопросов и ответов, в наставлениях и дискуссиях.

Поэма Ахмада Югнаки (XII век) «Дары праведных» – одно из первых дидактических произведений Востока, в котором рассматриваются проблемы нравственного воспитания человека. Нравственные качества человека поэт считал главными в процессе воспитания. Заложивает внимания его высказывания о сдержанности речи и правилах поведения, которые не потеряли актуальности и в наши дни: «Слушай, что говорит образованный человек. Главное в правилах воспитания – язык, его надо сдерживать».

Народное воспитание, которое укрепляет и развивает в человеке ум и самосознание, также оказывает большое влияние на развитие всего общества, его законов и принципов.

<sup>1</sup> Касмова Х.И. Использование национальных традиций в нравственном воспитании детей старшего дошкольного возраста в семье: Дис. ... канд.пед.наук:13.00.06. – Ташкент, 2001. – 137 с.

Памятники устного творчества тюркского народа, дошедшие до наших дней, подтверждают наличие богатого материала по воспитанию детей. Многие наставления, назидания и нравоучения, примеры для подражания передавались через богатейшую сокровищницу человеческой мудрости.

Созданные народом философские трактаты, произведения народного эпоса: “Кобыланды батыр”, “Камбар батыр”, “Ер Кокше” (казахский), “Урал-батыр” (башкирский), “Манас” (киргизский), “Ёрюзмек” (карачаево-балкарский), “Улан” (чувашский), “Маадай-Кара” (алтайский), “Кўр-оглы” (узбекский) и другие являются величайшими достижениями духовной культуры тюркских народов, также они служили средством воспитания характера, придавая особый колорит образовательной среде.

Одной из важной составляющей народного этикета является уважение и почтение к старшим.

Большую роль в воспитании молодого поколения играют аксакалы – мудрецы, которые, как правило, учат детей. Названные факторы народного воспитания у тюрков, применявшиеся старшими поколениями на протяжении тысячелетий, приносили положительные результаты. Они востребованы и актуальны и в нашей современной действительности.

Уважение и внимание к старшим – еще одна извечная черта народной педагогики, благороднейшая традиция всех народов Средней Азии и Казахстана. А.К. Миноваров утверждает, что традиция уважения старших переходит от поколения к поколению: “Мальчики и девочки выражали традиционную почтительность, вставая и прикладывая руку к груди при поклоне, когда входили старшие. Не принято было отвечать излишне громко. Соблюдение этих правил поведения сохранилось до нашего поколения”.

Природными народными педагогами в тюркской общине выступают, старцы, пожилые люди (дедушки, бабушки) интуитивно но по опыту своим добрым советом помогающие воспитанию юной смены и обогащающие сокровищницу народной педагогики.

Народное воспитание, как любое социальное и педагогическое явление, имеет свое содержание, форму, приемы и средства воздействия на молодое поколение.

Арсенал народной педагогики очень богат методами и приемами воспитания. Вековой опыт позволил тюркскому народу выработать определенные дидактические приемы и правила воспитания детей. В каждодневной практике бытуют такие методы воспитательного воздействия на детей, такие как: благословение; назидание; напутствие; назидание; разъяснение; советы; приучение; поощрение; одобрение; поддержка; убеждение; личный пример; устная похвала; показ; намек; укор; осуждение; наказание и т. д.

В систему народных воспитательных средств мы также относим духовное наследие народа – это национальные традиции, народное искусство, родное слово, фольклор, семейно-бытовая культура, произведения педагогического творчества народа и др.

Народы Средней Азии и Казахстана веками жили вместе, вели сходный образ жизни, культивировали одинаковые формы семейно-бытовых отношений. Таким образом сложились общие традиции, обычаи, воззрения на проблемы воспитания и обучения молодого поколения. Но это духовное богатство народа, неся в себе много самобытного, национального, по своей сущности общечеловечно, гуманно, демократично. Через призму национальных обычаев и традиций народ преломляет и усваивает все лучшее в педагогической культуре других народов, имеющее интернациональный характер<sup>1</sup>.

А.Э.Измайлов отмечает, что народные воспитатели позаботились, чтобы в свои афоризмы включить различные педагогические категории: наставление, предупреждение, упрек, даже определенные педагогические условия, при соблюдении которых можно рассчитывать на успех в любом деле. Далее приводит примеры подобных афоризмов. Узбеки говорят: “Если дурной

<sup>1</sup> Измайлов А.Э. Народная педагогика: Педагогические воззрения народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Педагогика. 1991, – 256 ст.



человек откажется от зла, мир станет цветком”. Казахи считают “Если возвратился из путешествия шестилетний, его должен навестить шестидесятилетний”. Каракалпаки на основе житейской философии советуют: “Если посеял просо, не жди пшеницы”. Киргизы призывают “Если ты велик – “Будь скромн”. Таджики указывают признак мужественности «Если ты мужчина, выходи на поле боя”. Туркмены обращаются ко всем «Если ты правитель – грей свой народ, как солнце».

Сегодня народная педагогика вобрала в себя самое ценное и во взаимодействии с научной педагогикой стала мощным средством воспитания и обучения детей.

Народ вкладывает в свое творчество сокровенные мысли о воспитании идеального человека, наделенного самыми лучшими нравственными качествами. Народ всегда стремился привить молодому поколению любовь к Родине, правдивость, честность, скромность, человеколюбие. В современных условиях традиции развиваются, совершенствуются и обогащаются. Это и есть проявление народной педагогики в действии, в жизни.

Вывод. В данной статье нами была рассмотрена проблема воспитания детей на основе использования идей народной педагогики тюрского мира. Анализ духовного наследия народа показывает, что оно содержит огромный объем информации по проблемам воспитания и обучения, о семье, о родине, а также что идеи о воспитании перекликаются с идеями и мыслями современности.

Поколение, воспитанное на истинных ценностях, общечеловеческих и национальных, сможет отличить прекрасное от безобразного, возвышенное от низменного, причем не только в произведениях искусства, но и в быту, в труде, в поведении людей. Педагогические воззрения тюрского народа должны стать предметом дальнейшего изучения и распространения.

### **ЭФФЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ СПОРТИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**Ибрагимов А.Т.** - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются перспективные направления для повышения эффективности волейболистов и методы подготовка квалифицированных волейболистов.

**Ключевые слова:** волейбол, физическая, техническая подготовленность, факторы, эффективность.

### **SPORT TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING SAMARALI YO'NALISHLARI**

**Ibragimov A.T.** - Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada voleybolchilar uchun sport mashg'ulotlarining samaradorligini oshirishning istiqbolli yo'nalishlari haqida so'z yuritilgan. Malakali voleybolchilarni tayyorlash masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** voleybol, jismoniy, texnik tayyorgarlik, omillar, samaradorlik.

### **EFFECTIVE DIRECTIONS FOR IMPROVING SPORTS EDUCATION**

**Ibragimov A.T.** - Teacher of the Tashkent State Pedagogical University

**Annotation.** This article discusses promising areas for increasing the effectiveness of volleyball players and methods for training qualified volleyball players.

**Key words:** volleyball, physical, technical readiness, factors, efficiency.

Современный волейбол представляет собой высокодинамичную игру, зрелищность которой обусловлена непредсказуемостью действий спортсменов, постоянным возникновением сложных игровых ситуаций, требующих быстрого и точного выбора эффективных вариантов решения сложной двигательной задачи, находчивости, хорошей ориентировки в пространстве. Непрерывное изменение формы и содержания игровых приемов в различных зонах площадки детерминирует необходимость своевременного реагирования на действия партнеров и соперников, придающих мячу разное направление, траекторию и скорость перемещения<sup>1</sup>.

Это ставит волейболиста перед необходимостью постоянного прогнозирования параметров полета мяча, определяющих способность спортсмена к смене мышечного напряжения, объективной оценке двигательных возможностей каждого партнера и противника. На результативность действий волейболистов оказывают воздействие различные факторы, выявление и учет которых позволит им выйти на новый уровень функционирования организма в условиях напряженной тренировочной и соревновательной деятельности.

Закономерное развитие и совершенствование современного волейбола обусловило внесение существенных изменений в правила соревнований: усиление подачи; возможность отбивания мяча любой частью тела; повышение количества атак из глубины площадки и др.

Это привело к значительному повышению требований к физической и технико-тактической подготовленности игроков, обусловило необходимость выявления дополнительных резервов, латентных возможностей организма, поиск способов активизации интеллектуального и волевого потенциала.

Анализ научной и научно-методической литературы по проблеме совершенствования системы спортивной подготовки квалифицированных волейболисток показал, что эффективность их двигательных действий определяют следующие факторы:

- сформированность навыков пространственно-временной ориентировки при взаимодействии с мячом, партнерами по команде и противником;
- готовность к прогнозированию моторных актов соперника;
- способность к экстраполяции двигательных действий].

Наиболее сложными двигательными задачами в волейболе являются эффективное управление нервно-мышечным напряжением; своевременное распределение и перераспределение мышечных усилий, детерминирующих результативность выполнения технического приема; адекватное сенсорное реагирование на игровую ситуацию. Успешное решение данных задач требует навыков ориентирования в пространственно-временных и пространственно-силовых параметрах моторных актов, составляющих основное содержание игровой деятельности волейболистов.

При сравнительно небольшом количестве сложных технических приемов в волейболе их непрерывная изменчивость, вызванная сменой скорости, траектории направления и полета мяча, а также перемещений спортсмена, обуславливает возникновение новых игровых ситуаций, которые требуют проявления определенного уровня развития внимания, быстроты реакции на изменения пространственно-силовых и пространственно-временных параметров двигательных действий, развитой мышечной силы, выносливости, а также других качественных сторон моторной деятельности. Оптимальный для данного этапа спортивной подготовки уровень сформированности скоростно-силовых качеств, устойчивости тела, специальной ловкости, точности двигательных действий и других двигательных координаций обуславливает способность своевременно реагировать на действия партнеров и соперников; с большой

<sup>1</sup> Бурцев А.В. Совершенствование пространственно-временной ориентировки у квалифицированных волейболистов / А.В. Бурцев // Педагогико-психологические и медико-биологические проблемы физической культуры и спорта. – 2011. – № 1. – С. 34-38. – Режим доступа: <http://www/kamgifik.chelny.net/journal>. с. 34-38, 2, с. 157

степенью точности выявить направление, траекторию и скорость полета мяча, что указывает на большую значимость пространственно-временной ориентировки.

Невозможность выполнения моторных актов с заданными пространственно-временными параметрами обусловлена постоянным изменением условий игровой деятельности и свидетельствует о необходимости формирования навыков экстраполяции движений. Это способствует повышению показателей технико-тактической подготовленности игроков, росту их спортивного мастерства.

Успешная экстраполяция моторных актов связана с проявлением скоростных качеств при выполнении нападающих и защитных приемов. Среди различных проявлений быстроты движений особое место в волейболе занимает скорость двигательной реакции.<sup>1</sup>

Эффективность выполнения технического приема определяется степенью согласованности деятельности зрительного, слухового, двигательного и других анализаторов. В процессе игровой деятельности разнообразные внешние и внутренние раздражители необходимо рассматривать в качестве единого, комплексного раздражителя. В связи с этим особую значимость приобретает способность к прогнозированию параметров перемещения мяча в зависимости от особенностей игровой ситуации, а также корректировки способов и скорости передвижения спортсменов к мячу.

Соревновательная деятельность обуславливает стрессовое воздействие на организм, величина которого детерминирована:

- способностью к управлению психоэмоциональным состоянием;
- установкой на решение конкретной задачи;
- уровнем физической и технико-тактической подготовленности игроков;
- показателями сформированности мотивационной сферы;
- способностью к реализации волевого потенциала;
- уровнем развития восприятия, внимания, тактического и стратегического мышления;
- приобретением личностного опыта соревновательной деятельности.

Результативность соревновательной деятельности волейболистов определяется:

- готовностью к выполнению двигательных действий при их максимальной согласованности, в высоком темпе;<sup>2</sup>

- применением неожиданных вариантов проведения широко распространенных технических приемов, требующих высоких показателей прыгучести, ловкости, силы и точности ударных действий по мячу;

- способностью к выработке коллективного ритма игровых действий;

- эффективностью защитных действий, выбор которых обусловлен точным прогнозированием характера действий противника, уровнем сформированности навыков пространственно-временной ориентировки и экстраполяции движений.

С целью совершенствования навыков пространственно-временной ориентировки выполнялись следующие двигательные задания:

- прием мяча снизу двумя руками с выполнением трех шагов по специальной разметке, определяющей их длину;

- то же с учетом звуковых сигналов, задающих скорость двигательных действий;
- то же с изменением двигательного ритма, предложенного тренером;

<sup>1</sup> . Колесник И.С. Формирование пространственно-временной ориентировки волейболистов на основе экстраполяции двигательных действий: учебное пособие / И.С. Колесник, А.В. Бурцев. – Ульяновск, 2012. – С. 157.

<sup>2</sup> Гончарова А.В. Повышение надежности защитных действий волейболисток с учетом решения спортивных двигательных задач / А.В. Гончарова // Теория практика физической культуры. – 2007. – № 12. – С. 45-48. Пустошило П.В. Психофизиологические аспекты подготовки студентов-волейболистов в процессе годичного тренировочного цикла / П.В. Пустошило // Теория практика физической культуры. – 2010. – № 10. – С. 18.

- отбивание мяча разными частями тела с последующей передачей двумя руками сверху партнеру;

- то же с увеличением скорости и амплитуды движений;
- то же с усилением акцента на передаче мяча;
- проведение ложного броска после второй передачи мяча.

Для формирования навыков экстраполяции двигательных действий применялись следующие упражнения:

- передача мяча двумя руками сверху и после приема двумя руками снизу передача мяча для пробивания блока;

- то же с постепенным увеличением скорости движений;
- то же с изменением двигательного ритма и усилением последнего моторного акта;
- прием мяча двумя руками снизу, пережат в сторону, прием мяча двумя руками сверху в приседе и передача мяча для пробивания блока;

- то же с изменением направления и скорости движений;

- то же с увеличением траектории полета мяча;

- прием мяча двумя руками снизу, кувырок вперед в группировке; передача мяча двумя руками снизу;

- то же с изменением направления и скорости движений.

Способность к прогнозированию двигательных действий противника развивалась в процессе выполнения системы специальных двигательных заданий:

- по подготовительным действиям противника определить направление траектории и скорость полета мяча, принять удобное исходное положение для его приема с последующей передачей партнеру;

- по характеру движений руки в верхней точке вылета противника для пробивания блока определить направление и силу удара по мячу с последующим выбором моторного акта, обеспечивающего прием мяча;

- по особенностям параметров отбивания мяча частью тела определить направление и траекторию направления мяча, а также адекватность предпринятого ответного действия.

Таким образом, учет факторов, влияющих на эффективность соревновательной деятельности квалифицированных волейболисток: формирования навыков пространственно-временной ориентировки при взаимодействии с мячом, партнерами по команде и с противниками; готовности к экстраполяции двигательных действий в процессе тренировочной и соревновательной деятельности, а также способности к прогнозированию двигательных действий соперника, способствует повышению уровня физической и технической подготовленности спортсменов. Результаты показали целесообразность использования методики совершенствования технико-тактической подготовленности квалифицированных волейболисток, разработанной на основе учета данных факторов.

## PEDAGOGIK MENEDJMENT VA UNING TA'LIM TIZIMIDAGI ZARURATI

**Tojiboyeva N.** – Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada menejment tushunchasii, pedagogik menejmentning xususiyatlari to'g'risida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ilmiy adabiyot, menejment, ilmiy boshqaruv, ilmiy tanlov, operativ nazorat, pedagogik menejment, boshqaruv organlari, ta'lim vazirligi, tashkiliy faoliyat.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ МЕНЕДЖМЕНТ И ЕГО НЕОБХОДИМОСТЬ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ**

**Тожибоева Н.** – базовый докторант Ташкентского государственного педагогического университета

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются некоторые теории управления, особенности педагогического менеджмента.

**Ключевые слова:** научная литература, менеджмент, научное управление, научный отбор, оперативный контроль, педагогический менеджмент, органы управления, министерство образования, организационная деятельность.

**PEDAGOGICAL MANAGEMENT AND ITS NEEDS IN THE EDUCATION SYSTEM**

**Tojiboyeva N.** - PhD student of Tashkent state pedagogical university

**Annotation.** In given article some theories of management, feature of pedagogical management are considered.

**Key words:** scientific literature, management, academic management, scientific selection, operational control, pedagogical management, governing bodies, Ministry of Public Education, organizational activity.

Ilmiy adabiyotlarni o`rganish natijalari yigirmanchi asrning so`nggi o`n yilligigacha menejment fani masalasi iqtisodiy va ishlab chiqarish muammolari doirasida tahlil etilgan. Menejment tushunchasi dastlab xorijda paydo bo`lgan bo`lib, boshqaruv nazariyasi turli davlatlarda turlicha ishlab chiqilgan. Boshqaruvning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi kamida yetti ming yilni tashkil etadi va beshta boshqaruv inqilobini qamrab oladi va bu hodisaning jamiyat hayotida roli va ahamiyatini tubdan o`zgartiradi.

Ta`kidlash joizki, milliy ta`lim tizimini boshqarishning zamonaviy muammolarini o`rganish, shuningdek, davlat va xususiy mulkchilik shakllarining muayyan ta`lim muassasalari uning tarkibiy qismlari sifatida bozor iqtisodiyotiga xos bo`lgan ishlab chiqarish munosabatlariga o`tishga doimiy ravishda yetaklaydigan yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ishlayotganligini ta`kidlash lozim. Xorijiy nazariyalar va boshqaruv tushunchalarini tahlil qilish bugungi kunda milliy ta`lim tizimini boshqarishning dolzarb muammolarini tushunish uchun juda dolzarbdir, chunki ularda mavjud qonunlar ta`lim texnologiyalari va mahsulotlarining bozor sharoitida faoliyat yuritadigan davlat va xususiy mulkchilik ta`lim muassasalariga ham taalluqlidir. Zamonaviy boshqaruvning nazariy jihatdan asosligi va amalda tasdiqlangan eng zamonaviy konsepsiyalari quyidalar:

Ilmiy boshqaruv nazariyasi asoschisi F.U.Teylor tashkiliy boshqaruvni texnologik jarayonlar va inson faoliyatining tartibga solinishi bilan izohlaydi. U ishchilarning shaxsiy mehnatini boshqarishni quyidagi to`rt tamoyilga bo`ladi<sup>1</sup>:

- Jarayonning har bir elementini amalga oshirishda ilmiy yondashuv;
- Xodimni tanlash, tayyorlash va o`qitishga yetarlicha yondashish;
- Ishchilar bilan hamkorlik;
- Menejerlar va ishchilar o`rtasida mehnat natijalarining mas`uliyatini taqsimlash.

Xodimlarning charchashini kamaytirish, kasb tanlashda ilmiy tanlov, inson salohiyatini ish joylariga moslashtirish masalalari bugungi kunda menejmentning Teylor ta`limoti asosini tashkil qiladi. Mazkur ta`limotga ko`ra xodimlarning vazifalari uchun yetarli talablar ro`yxatini shakllantirish, ish

<sup>1</sup> Фредерик Уинслоу Тейлор. Принципы научного менеджмента. — М., 1991.

joyidagi ijro intizomini mustahkamlash muammosini hal qilish va xodimning mehnati samaradorligini va daromadlarni oshirishga qaratilgan talbirlar yetakchi o'ringa turadi.

Taylor o'z nazariyasida ish sifatini operativ nazorat qilish va xodimlarning vazifalarini to'g'ri taqsimlash, xodim mehnati ustidan ma'muriyatning vakolatlarini kuchaytirish g'oyasini ilgari suradi. Ushbu yo'nalishda klassik boshqaruv maktabining asoschisi hisoblangan A.Fayol esa menejerni muntazam ravishda muhokama qilib, menejerlarning bir qolipga solingan tavsifini taklif qiladi. U menejerlar uchun xos bo'lgan faoliyat turlarini quyidagicha ta'riflaydi:

- rejalashtirish;
- tashkil qilish;
- boshqarish;
- muvofiqlashtirish;
- nazorat qilish.

A.Fayol, shuningdek, o'z qarashlarida ma'muriy boshqaruv tamoyillarini quyidagicha asoslaydi:

- mehnat, hokimiyat va mas'uliyat, intizom, barqarorlik.

A.Fayolning ilmiy boshqaruv nazariyasi boshqaruvning intellektual va alohida, mustaqil turi deb tan olingan edi. Mamlakatimizda va qo'shni MDH mamlakatlarida iqtisodiy tizimning ilmiy va ma'muriy boshqaruv g'oyalari ishlab chiqilgan. Zamonaviy pedagogikada esa pedagogik jarayonni boshqaruv fanlari nuqtayi nazaridan o'rganish tendensiyasi ortib bormoqda. Bugungi kunda nafaqat texnologiya va ishlab chiqarishda, balki ijtimoiy tizimlarda, shu jumladan, pedagogikani boshqarish sohasida ham menejment fanining o'rnini ortib bormoqda. Pedagogik menejment ma'lum bir natijaga erishish uchun odamlarning sa'y-harakatlari bo'yicha konsentratsiyasini ta'minlaydigan maxsus faoliyat turi sifatida ham ko'rilishi mumkin. Ijtimoiy tizimlarning turlaridan biri ta'limdir. Har bir sohadagi boshqaruv faoliyati, umumiy qoidalar bilan bir qatorda muayyan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ta'lim boshqaruvida muayyan o'ziga xoslik mavjud. Birinchidan, ta'lim jamiyatning kelajagini belgilaydigan va milliy, mintaqaviy, shahar yoki tuman miqyosida faoliyat ko'rsatadigan global tizimdir<sup>1</sup>.

Ta'lim tizimida boshqaruv organlari ta'lim vazirligi, hududlar, viloyatlar, shaharlarning ta'lim boshqarmalari, shuningdek, tuman ta'lim boshqarmalari hisoblanadi. Menejment obyektlari turli xil ta'lim muassasalari bo'lib, ular o'z navbatida tizim sifatida qaralishi mumkin. Ta'lim vazirligi tizimida boshqaruvning obyekti bo'lgan umumta'lim maktabi ijtimoiy tizim bo'lib, unda bunday tizimlarni pedagogik jarayonlar tizimi, ta'lim ishi tizimi va boshqalardan ajratib olish mumkin. Pedagogik boshqaruvning ko'plab xususiyatlari pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Xususan, ta'lim tizimini boshqarish xususiyatlari ta'lim, tarbiya va rivojlanish funksiyalari, shuningdek, pedagogik jarayonning maqsadlari, usullari, vositalari va shakllarining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Pedagogik boshqaruvning o'ziga xos xususiyati – ta'lim tizimining davlat boshqaruvi. Ta'lim tizimini boshqarishning davlat xususiyati "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun bilan belgilangan ta'lim sohasidagi davlat siyosatining bir qator tamoyillari bilan belgilanadi.

Bunda:

- ta'limning dunyoviy xarakterda ekanligi, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi, inson hayoti va salomatligi, erkin shaxsiy rivojlanishni;
- fuqarolik va Vatanga muhabbatni tarbiyalash;
- dinlararo bag'rikenglik va millatlararo totuvlik;
- ta'lim tizimining talabalar, o'quvchilarni rivojlantirish va o'qitish darajasi va xususiyatlariga moslashishi;
- davlat, xususi ta'lim muassasalarida bir xilda DTSlarining joriy etilishi;
- ta'lim sohasida erkinlik;
- ta'limni boshqarishning demokratik, davlat-jamoat tashkilotlarining hamkorligi.

<sup>1</sup>Дятлов А. Н. Общий менеджмент: Концепции и комментарии: Учебник. - М.: Альпина Бизнес Букс, 2007. - 400 б.

Ta'limni boshqarishning davlat xarakteri, shuningdek, davlat organlari irqi, millati, tili, jinsi va boshqalaridan qat'iy nazar, ta'limga bo'lgan huquqlarining davlat tomonidan kafolatlarini ta'minlagan holda namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasidagi davlat siyosatini izchil amalga oshirish uchun davlat ta'lim standartlari, ta'lim dasturlarining majburiy minimumi, o'quvchilarning o'quv yuklamasining maksimal miqdorini, bitiruvchilar darajasiga qo'yiladigan talablarni bajarish bilan davlat siyosatini olib boradi. Shu bilan birga, ta'lim organlarining vazifasi nafaqat ta'lim uchun rasmiy kafolatlarni taqdim etish, balki shaxsni o'zi belgilashi va o'zini o'zi anglash uchun shart-sharoitlarni yaratishdir.

Pedagogik menejmentning muhim xususiyati ta'lim tizimini boshqarishda jamoat xususiyatiga ega bo'lib, davlat organlari bilan birgalikda ta'lim va tarbiya guruhlari, ota-onalar va jamoatchilik vakillarini o'z ichiga oladi. Menejmentdagi ishtiroki o'quv muassasasida yaxshi ruhiy muhitni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Umumta'lim maktablari darajasida boshqaruvning ijtimoiy xarakterining haqiqiy timsoli maktab pedagogik kengashi hisoblanadi. Maktab pedagogik kengashining funksiyalari va mazmuni umumta'lim muassasasi Ustavi qoidalari bilan belgilanadi.

Pedkengash eng yuqori boshqaruv organi bo'lib, u oyiga kamida bir marta o'tkaziladi. Har bir maktab pedkengashda o'z maktabining rivojlanish maqsadlari va rivojlanish istiqbollari aniqlaydi. Davlat ta'lim muassasalari bilan bir qatorda nodavlat ta'lim muassasasi ham o'z ustaviga ega. Tashkiliy faoliyatning ushbu tuzilishi teng ravishda o'qituvchining tashkiliy faoliyatiga ham taalluqlidir.

O'qituvchining tashkiliy faoliyatining o'ziga xosligi birinchi navbatda uning maqsadlarida namoyon bo'ladi. U boshqa hissiyotlarning (ta'lim, mehnat, ilmiy) samaradorligini ta'minlashga qaratilgan aniq bir obyektiv natijaga ega emas. O'qituvchining faoliyatini tashkil etishning mazmuni, shakllari va usullari doimo bir yoki bir nechta bolalar faoliyatiga tegishli. L.I.Umanskiy<sup>1</sup> bu borada tashkilot faoliyatining yakuniy maqsadi, odatda, tashkilotchi emas, balki boshqa shaxs yoki bir guruh odamlar tomonidan o'rnatilganligini ta'kidlaydi.

O'qituvchining tashkiliy faoliyatining o'ziga xos ajralmas qismi bolalar faoliyatining natijalaridan qat'iy nazar, ta'lim samaradorligini ko'rsatadi. Shu bilan bir vaqtda, uning samaradorligi kabi jamoa, ta'lim va talabalar, joriy munosabatlar tabiati, o'quvchilarning birdamlik guruhlari rivojlantirish darajasi bo'lib, mezonlar bilan hukm qilinishi mumkin. Shu bilan birga, tashkiliy faoliyatning asosiy mahsuloti doimo psixologik, ideal xususiyatga ega. Uning tashqi xususiyatlariga ko'ra, o'qituvchining tashkiliy faoliyati amaliyotda namoyon bo'ladi. Biroq bu asosan, ichki, psixologik jihatdan ijodiylikni talab etadi. O'qituvchining pozitsiyasi dunyoviylik, intellektual rivojlangan ijtimoiy va professional malakani egallashdir. Bu o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro munosabatining individual ko'rinishlarida aks etadi. Ilmiy adabiyotlarni o'rganish natijalari yigirmanchi asrning so'nggi o'n yilligigacha menejment fani masalasi iqtisodiy va ishlab chiqarish muammolari doirasida tahlil etilgan. Menejment tushunchasi dastlab xorijda paydo bo'lgan bo'lib, boshqaruv nazariyasi turli davlatlarda turlicha ishlab chiqilgan. Boshqaruvning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi kamida yetti ming yilni tashkil etadi va beshta boshqaruv inqilobini qamrab oladi va bu hodisaning jamiyat hayotida roli va ahamiyatini tubdan o'zgartiradi.

Ta'kidlash joizki, milliy ta'lim tizimini boshqarishning zamonaviy muammolarini o'rganish, shuningdek, davlat va xususiy mulkchilik shakllarining muayyan ta'lim muassasalari uning tarkibiy qismlari sifatida bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan ishlab chiqarish munosabatlariga o'tishga doimiy ravishda yetaklaydigan yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ishlayotganligini ta'kidlash lozim.

Xorijiy nazariyalar va boshqaruv tushunchalarini tahlil qilish bugungi kunda milliy ta'lim tizimini boshqarishning dolzarb muammolarini tushunish uchun juda dolzarbdir, chunki ularda mavjud qonunlar ta'lim texnologiyalari va mahsulotlarining bozor sharoitida faoliyat yuritadigan davlat va xususiy mulkchilik ta'lim muassasalariga ham taalluqlidir. Zamonaviy boshqaruvning nazariy jihatdan asosligi va amalda tasdiqlangan eng zamonaviy konsepsiyalari mavjud.

<sup>1</sup> Уманский, Л. И. Поэтапное развитие группы как коллектива /Л. И. Уманский / В сб. Коллектив и личность. / Под ред. К. К.Платонова М., 1975. С.77-87.

Ilmiy boshqaruv nazariyasi asoschisi F.U.Taylor tashkiliy boshqaruvni texnologik jarayonlar va inson faoliyatining tartibga solinishi bilan izohlaydi. U ishchilarning shaxsiy mehnatini boshqarishni quyidagi to'rt tamoyilga bo'ladi:

1. Jarayonning har bir elementini amalga oshirishda ilmiy yondashuv;
2. Xodimni tanlash, tayyorlash va o'qitishga yetarlicha yondashish;
3. Ishchilar bilan hamkorlik;
4. Menejerlar va ishchilar o'rtasida mehnat natijalarining mas'uliyatini taqsimlash.

Xodimlarning charchashini kamaytirish, kasb tanlashda ilmiy tanlov, inson salohiyatini ish joylariga moslashtirish masalalari bugungi kunda menejmentning Taylor ta'limoti asosini tashkil qiladi. Mazkur ta'limotga ko'ra xodimlarning vazifalari uchun yetarli talablar ro'yxatini shakllantirish, ish joyidagi ijro intizomini mustahkamlash muammosini hal qilish va xodimning mehnati samaradorligini va daromadlarni oshirishga qaratilgan talbirlar yetakchi o'rinda turadi.

Taylor o'z nazariyasida ish sifatini operativ nazorat qilish va xodimlarning vazifalarini to'g'ri taqsimlash, xodim mehnati ustidan ma'muriyatning vakolatlarini kuchaytirish g'oyasini ilgari suradi. Ushbu yo'nalishda klassik boshqaruv maktabining asoschisi hisoblangan A.Fayol esa menejerni muntazam ravishda muhokama qilib, menejrlarning bir qolipga solingan tavsifini taklif qiladi.

U menejerlar uchun xos bo'lgan faoliyat turlarini quyidagicha ta'riflaydi:

- rejalashtirish;
- tashkil qilish;
- boshqarish;
- muvofiqlashtirish;
- nazorat qilish.

A.Fayol shuningdek, o'z qarashlarida ma'muriy boshqaruv tamoyillarini quyidagicha asoslaydi:

- mehnat, hokimiyat va mas'uliyat, intizom, barqarorlik.

A.Fayolning ilmiy boshqaruv nazariyasi boshqaruvning intellektual va alohida, mustaqil turi deb tan olingan edi. Mamlakatimizda va qo'shni MDH mamlakatlarida iqtisodiy tizimning ilmiy va ma'muriy boshqaruv g'oyalari ishlab chiqilgan. Zamonaviy pedagogikada esa pedagogik jarayoni boshqaruv fanlari nuqtayi nazaridan o'rganish tendensiyasi ortib bormoqda. Bugungi kunda nafaqat texnologiya va ishlab chiqarishda, balki ijtimoiy tizimlarda, shu jumladan, pedagogikani boshqarish sohasida ham menejment fanining o'rni ortib bormoqda. Pedagogik menejment ma'lum bir natijaga erishish uchun odamlarning sa'y-harakatlari bo'yicha konsentratsiyasini ta'minlaydigan maxsus faoliyat turi sifatida ham ko'rilishi mumkin. Ijtimoiy tizimlarning turlaridan biri ta'limdir. Har bir sohadagi boshqaruv faoliyati, umumiy qoidalar bilan bir qatorda, muayyan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ta'lim boshqaruvida muayyan o'ziga xoslik mavjud. Birinchidan, ta'lim jamiyatning kelajagini belgilaydigan va milliy, mintaqaviy, shahar yoki tuman miqyosida faoliyat ko'rsatadigan global tizimdir. Ta'lim tizimida boshqaruv organlari ta'lim vazirligi, hududlar, viloyatlar, shaharlarning ta'lim boshqarmalari, shuningdek, tuman ta'lim boshqarmalari hisoblanadi. Menejment obyektlari turli xil ta'lim muassasalari bo'lib, ular o'z navbatida tizim sifatida qaralishi mumkin. Ta'lim vazirligi tizimida boshqaruvning obyekti bo'lgan umumta'lim maktabi ijtimoiy tizim bo'lib, unda bunday tizimlarni pedagogik jarayonlar, sinfi tizimi, ta'lim ishi tizimi va boshqalardan ajratib olish mumkin. Pedagogik boshqaruvning ko'plab xususiyatlari pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Xususan, ta'lim tizimini boshqarish xususiyatlari ta'lim, tarbiya va rivojlanish funksiyalari, shuningdek, pedagogik jarayonning maqsadlari, usullari, vositalari va shakllarining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Pedagogik boshqaruvning o'ziga xos xususiyati – ta'lim tizimining davlat boshqaruvi. Ta'lim tizimini boshqarishning davlat xususiyati "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun bilan belgilangan ta'lim sohasidagi davlat siyosatining bir qator tamoyillari bilan belgilanadi.



Ta'limni boshqarishning davlat xarakteri, shuningdek, davlat organlari irqi, millati, tili, jinsi va boshqalaridan qat'iy nazar, ta'limga bo'lgan huquqlarining davlat tomonidan kafolatlarini ta'minlagan holda namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasidagi davlat siyosatini izchil amalga oshirish uchun davlat ta'lim standartlari, ta'lim dasturlarining majburiy minimumi, o'quvchilarning o'quv yuklamasining maksimal miqdorini, bitiruvchilar darajasiga qo'yiladigan talablarni bajarish bilan amalga oshiriladi.

Pedagogik menejmentning muhim xususiyati ta'lim tizimini boshqarishda jamoat xususiyatiga ega bo'lib, davlat organlari bilan birgalikda ta'lim va tarbiya guruhlari, ota-onalar va jamoatchilik vakillarini o'z ichiga oladi. Menejmentdagi ishtiroki o'quv muassasasida yaxshi ruhiy muhit yaratilgan muhitni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Umumta'lim maktablari darajasida boshqaruvning ijtimoiy xarakterining haqiqiy timsoli maktab pedagogik kengashi hisoblanadi.

Maktab pedagogik kengashining funksiyalari va mazmuni umumta'lim muassasasi Ustavi qoidalari bilan belgilanadi. Pedkengash eng yuqori boshqaruv organi bo'lib, u oyiga kamida bir marta o'tkaziladi. Har bir maktab pedkengashda o'z maktabining rivojlanish maqsadlari va rivojlanish istiqbollari aniqlaydi. Davlat ta'lim muassasalari bilan bir qatorda nodavlat ta'lim muassasasi ham o'z ustaviga ega. Tashkiliy faoliyatning ushbu tuzilishi teng ravishda o'qituvchining tashkiliy faoliyatiga ham taalluqlidir.

O'qituvchining tashkiliy faoliyatining o'ziga xosligi birinchi navbatda uning maqsadlarida namoyon bo'ladi. U boshqa hissiyotlarning samaradorligini ta'minlashga qaratilgan aniq bir obyektiv natijaga ega emas. O'qituvchining faoliyatini tashkil etishning mazmuni, shakllari va usullari doimo bir yoki bir nechta bolalar faoliyatiga tegishli. L.I.Umanskiy bu borada tashkilot faoliyatining yakuniy maqsadi, odatda, tashkilotchi emas, balki boshqa shaxs yoki bir guruh odamlar tomonidan o'rnatilganligini ta'kidlaydi.

O'qituvchining tashkiliy faoliyatining o'ziga xos ajralmas qismi bolalar faoliyatining natijalaridan qat'iy nazar, ta'lim samaradorligini ko'rsatadi. Shu bilan bir vaqtda, uning samaradorligi kabi jamoasi, ta'lim va talabalar ta'lim, joriy munosabatlar tabiati, o'quvchilar birdamlik guruhlari rivojlantirish darajasi bo'lib, mezonlar bilan hukm qilinishi mumkin. Shu bilan birga, tashkiliy faoliyatning asosiy mahsuloti doimo psixologik, ideal xususiyatga ega. Uning tashqi xususiyatlariga ko'ra o'qituvchining tashkiliy faoliyatlari amaliyotda namoyon bo'ladi. Biroq, bu asosan, ichki, psixologik jihatdan ijodiylikni talab etadi. O'qituvchining pozitsiyasi dunyoviylik, intellektual rivojlangan ijtimoiy va professional malakani egallashdir. Bu o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro munosabatining individual ko'rinishlarida aks etadi.

#### **JAMIYATDA BEFARQLIK, LOQAYDLIK VA BEGONALASHUVNING PSIXOLOGIK TAHLILI**

**Zokirova Sh.A.** – Toshkent kimyo-texnologiya instituti katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jamiyatda befarqlik, loqaydlik va begonalashuvning psixologik tahlili berilgan. Barkamol shaxsni tarbiyalashning psixologik usullari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** begonalashuv, befarqlik, loqaydlik, dangasalik, marginallik, oila, millat, an'ana, urf-odat, sotsial guruh, din, dunyoviylik.

#### **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ БЕЗРАЗЛИЧИЯ, РАВНОДУШИЯ И ОТЧУЖДЕНИЯ В ОБЩЕСТВЕ**

**Закирова Ш.А.** - старший преподаватель Ташкентского химико-технологического института

**Аннотация.** В данной статье представлен психологический анализ безразличия, равнодушия и отчуждения в обществе. Описаны психологические методы воспитания подростка.

**Ключевые слова:** отчуждение, безразличие, равнодушие, лень, маргинальность, семья, национальность, традиция, обычай, социальная группа, религия, светский.

## PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF INDIFFERENCE, INDIFFERENCE AND ALIENATION IN SOCIETY

**Zakirova Sh.A.** - senior lecturer at the Tashkent chemical technology institute

**Annotation.** This article presents a psychological analysis of indifference, indifference, and alienation in society. The psychological methods of raising a teenager are described.

**Key words:** alienation, indifference, indecision, laziness, marginality, family, nationality, tradition, social group, religion, peacefulness.

O'zbek xalqi qadim-qadimdan nafaqat o'z yaqinlariga nisbatan, balki o'zga millat, xalq va din vakillariga nisbatan munosabatda ham tolerantlik, bag'rikenglikka amal qilganidan tarix guvohlik berib turibdi.

"Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) o'lkani zabt etdi, mahalliy aholi o'z diniy e'tiqodiga nisbatan sobit turdi. Xorazm, Buxoro va Sug'diyona kabi ko'hna shahar va kentlarida tub aholi Otashparastlik (zardushtiy)ka e'tiqod qilgan bo'lsa, janubda buddaviylik riqojlangan edi. Milodiy davrga kelib, mahalliy aholining ayrimlari nasroniylik dinini qabul qildi, ammo, yahudiylik dini mahalliy aholi o'rtasida tarqalmagan bo'lsa-da, uning tarqalishiga keskin qarshilik qilmadi. Chunki bu davrga kelib, Buyuk ipak yo'li tufayli hudud aholisi o'rtasida g'ayridinlarga nisbatan bag'rikenglik (tolerantlik) tamoyili shakllangan edi. Shu sababdan turli millat, xalq va din vakillari emin-erkin istiqomat qilgan. Hatto, hududda Islom dini keng tarqalgan dastlabki yillarda ham bag'rikenglik (tolerantlik) an'analari davom etgan.

Nafaqat o'z millati, xalqining azaliy an'ana, urf-odat va qadriyatlariga nisbatan hurmat ruhida, balki o'zgalarga nisbatan munosabatda ham bu tamoyilga og'ishmay amal qilgan, bu aholi vakillari o'rtasida qachondan va qay tarzda milliy o'zlikka nisbatan befarqlik, loqaydlik va begonalashuv kabi salbiy illatlar paydo bo'ldi.

Shaxsda o'z ajodlarining tarixi, madaniyati va ma'naviyatiga nisbatan befarq hamda loqayd munosabat kuchayib, ma'naviy boylikdan moddiyat(boylikka ruju qo'yganda)ni ustun qo'yish kabi salbiy illatlar avj olganda begonalashuv hissi yuzaga keladi.

Xususan, Sobiq Ittifoq davrida "temir qafas" kabi dunyodan uzilib qolgan edi, u davrda yashagan insonlarda tashqi dunyoni bilishga bo'lgan qiziqish va intilish kuchli bo'lib, o'zga dunyo haqidagi muhim ma'lumotlarni faqatgina ommaviy axborot vositalaridan bilish mumkin edi. Shu sababdan odamlarda axborotga nisbatan "chanqoqlik" hissi mavjud edi.

Mustaqillikni dastlabki yillarda yuzaga kelgan iqtisodiy taqchilik va qiyinchiliklar odamlarni bir qadar "sinov"dan o'tkazdi. Bu kabi taqchilik, qiyinchilik va ishsizlik tufayli yuzaga kelgan tibbiy xizmat hamda maishiy turmush darajasining pastligi ko'pchilikni qattiq "sarosima"ga solib qo'ydi. Nima bo'lganda ham, odamlar bu kabi qiyinchiliklarni yengib o'tish yoki undan "qochib qutilishi" zarur edi. "Sobiq Ittifoqni barpo etish davrida majburan o'z ona yurtini tark etgan muhojirlar sonidan-da ko'proq muhojirlar o'z yashab turgan hududidan ko'chdi. Ittifoqda yashab qolgan va qiyinchilikdan muhojirlikni afzal bilganlarni har ikkisi oldida ham "yangicha hayot"ga ko'nikma hosil qilish mas'uliyati turardi.

Amerika sotsiologlari tomonidan 1920-yilda Yevropa va amerikaga ko'chib keluvchi muhojir(immigrant)larning o'z millati, xalqi va jamiyatiga xos tafakkur tarzi hamda dunyoqarashini tubdan isloh qiluvchi "amerikacha", jamiyatga xos va mos millat tushunchasidan ko'ra ustuvor turuvchi, "Amerika fuqaro"ligiga sodiqlik sotsial konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, har bir muhojirdan ushbu konsepsiyaga amal qilishni talab etilardi.

Ushbu sotsial konsepsiyaning asosiy maqsadi marginalizatsiya ya'ni, maqsadi noma'lum sotsial guruhning "an'ana"lariga sodiqlik ruhiyatini singirishdan iborat bo'lgan edi. Muhojirlardagi shaxsga xos

xususiyat o'z millati, xalqi va jamiyatiga xos obyektiv bog'liqlikdan mahrum qiluvchi, asriy va azaliy an'ana, aloqalarni parchalashdan millatga xos, milliy g'urur, estetik, axloqiy, huquqiy hamda fiziologik me'yor va qadriyatlarning buzilishiga qaratilgan sotsial harakat edi.

Marginallik – (marginalis-lotincha) millat va xalqlarning asrlar davomida yuzaga kelib, shakllangan milliy ijtimoiy normalarini “chegaralov”chi va undan chetlash, mahrum etishga qaratilgan ijtimoiy konsepsiya sifatida individda interfaollikni belgilaydi. Individni demagog va adventistlarga hos oldindan aytib bo'lmaydigan va nazoratsiz harakatlariga to'liq bog'liq holatda o'zgartirishga mo'ljallangan edi.

Muhojirlarga nisbatan tadbiiq etilgan mazkur konsepsiya, avvalombor, jamiyatga nisbatan tadbiiq etilishi lozim edi. Biroq amerika dunyosida hali irqchilik to'liq barham topmagani sabab, ushbu konsepsiyani jamiyatda to'laqonlik qaror topishiga halal berdi. Lekin, ikkinchi jahon urushi davrida va undan keyingi yillarda “osuda hayot ilinjida” amerikaga ko'chib kelgan muhojir(immigrant)larda ushbu konsepsiya kutilgan samarani bera boshladi. Shuningdek, XX asrning 90-yillarida, xususan, Amerika va Yevropa jamiyatida millat, xalq va milliy o'zlikdan ustuvor ahamiyat kasb etgan, erkin dunyo fuqarosi degan tushuncha to'liq qaror topdi.

Sobiq ittifoqning parchalanishini uzoq kutgan Amerika va G'arb matbuotchilari bu mavzuda uzoq vaqt, xo'p va ko'p yozishdi. Sotsiologlar ham ushbu mavzudan chetlashmay, iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli “sobiq ittifoqchilar”ni yangidan-yangi inqirozlarga uchrab, “tug'ilib ulgurmay halokatga uchrashi”ni bashorat qilib, uning amaliy chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

Jumladan, galdagi vazifa sotsiolog E.R. Rashkovskiy fikriga ko'ra<sup>1</sup>: Sobiq Ittifoqdan “meros” bo'lib qolgan jamiyatni siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy va etnik birlik kabi barcha sohalarda qiyinchilik bilan amalga oshirilayotgan islohotlarga putur yetkazishga qaratilgan “Xo'rlangan ayol” va “Erkin dunyo insoni” kabi sotsial loyihalar amalga oshirildi. Ushbu sotsial loyihani ommalashtirish uchun turli axborot xurujlari (OAV va internet) qo'llanildi. G'arb sotsiologlari bashorat qilganidek, 2000-yillardan internet va mobil aloqa shiddat bilan quloqchilik yozdi. Ushbu qulaylikdan, ayniqsa, yoshlar qatlamining axborotga bo'lgan “chanqog'i qondi”. Hozirda ushbu qulaylikdan bahramand bo'lganlar jamiyatning o'rta va katta yoshlilar qatlamini tashkil etib, internet va mobil aloqadan asosiy foydalanuvchilar hisoblanadi. Ammo, bugungi sotsial tarmoqlarda ma'lumotlar oqimining keskin ortishi yoki bir xabarning turlicha talqin qilinishi axborot iste'molchilarida zerikish uyg'ondi.

Befarqlik, loqaydlik, dangasalik va begonolashuv kabi salbiy tushunchalar sof falsafiy tushuncha bo'lmay, uning mazmun va mohiyatini anglash uchun bir qator ijtimoiy fanlar va psixologiya fanlarining o'zaro uzviyligida o'rganiladi. Demak, befarqlik va loqaydlik tufayli yuzaga keladigan dangasalik ham o'zaro uzviylikda begonolashuv kabi salbiy illatni barcha jihatlarini o'zida “mujassam” qilgan holda, din, millat, xalq va hudud kabi tushunchalarni “parchalash”da falsafiy mazmun hamda mohiyatga ko'ra makon va zamon tanlamaydi. Psixologiya fanida begonolashuv jarayoni, avvalo, salbiy voqea va hodisalarga moyil, o'zida ma'lum bir millat, xalqqa xos ijtimoiy hayot tarzi, me'yorlariga ega bo'lmagan yoki o'zidan qoniqish hosil qilmaydigan, ya'ni hayotda o'z o'rniga ega bo'lmagan shaxslarda kechadigan psixofiziologik holatdir.

Bu kabi psixofiziologik holatdagi kimsa, qo'rqitish, azoblash va tahqirlash singari jarayonlarni kuzatishga moyil bo'lib, voqea ta'sirida hayotga bo'lgan alamzadalik hissini qondiradi. Ular hayotda, yaqinlaridan mehr ko'rmagan, ma'naviy va ruhiy dunyosi shikastlangan hamda o'zlikdan begonolashgan tarzda harakat qiladi.

Ruhiy tushkunlikning sabablari ko'p, ammo undan chiqishning yagona va to'g'ri yechimi, avvalo, insonda hayotga bo'lgan qiziqish hamda o'ziga bo'lgan ishonchini uyg'otishdir. Har doim ham biror muammo tufayli ruhiy tushkunlikka tushgan kimsada muammoga nisbatan to'g'ri va xolis yechim topilmasligi sabab bo'ladi. Bunday vaziyatga tushganlarning aksariyati muammoni yaqinlaridan yashirib, yolg'iz yechim topishda vertual olamga murojaat etishdan yo'lini yo'qotib, yangi muammolarga yo'liqadi.

<sup>1</sup> Мангейм К. Идеология и утопия // Утопия и утопическое мышление: антология зарубежной литературы. -М.: “Прогресс”, 1991. – С. 369.

Psixolog D.N.Smirnovaning fikriga ko'ra<sup>1</sup>, XX asrning 90-yillarida Rossiya aholisining har jihatdan ahvoli qanchalik og'ir va qiyin bo'lmasin, baxtsiz voqea sodir bo'lganda o'z ahvolini o'ylab o'tirmasdan yordamga shoshilardi. Jumladan, avtohalokat chog'ida chetda turib kuzatish holati kam bo'lib, deyarli ko'pchilik yordamga oshiqardi, ammo 2000-yildan internet va mobil aloqa tizimi ommalashgach, voqeaga guvoh bo'lganlar qo'l telefoniga bu hodisani tezroq tasvirga olib, tarmoqqa qo'yishga oshiqishadi. Hatto, ular bu xatti-harakatlaridan tez tibbiy yordam va huquq tartibot xodimlarining faoliyatiga xalal berib, yana ulardan norozi ham bo'lishadi. So'nggi yillarda bu holat Rossiya jamiyatida odat tusiga kirishi jamoatchilikni ko'p ham tashvishlantirmay qo'ydi. Yevropacha egoizm ta'siri kuchaydi.

Ma'lumki, musulmon kishining eng muhim xususiyatlardan biri xushyorlik va ogohlik bo'lib, u o'z qo'ni-qo'shnisi, do'st-birodari va qarindoshlari holidan doimo boxabar bo'lib turadi. Befarqlik, loqaydlik va begonasirash hissi musulmon kishiga yot tushunchadir. Zero, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) bunday marhamat qiladilar: "Musulmonlar bir jasad (forscha jism, tana) kabidir, agar, musulmon kishining bir tana a'zosi xastalansa, qolganlarini isitma oladi<sup>2</sup>".

Bu hadisda bir jamiyatda yashayotgan mo'min-musulmonlar go'yo bir tan-u bir jon ekani, shu jamiyatning muammosi uning har bir a'zosisiga aloqador ekanligi aytilgan. Shuningdek, boshqa bir hadisi sharifda bunday deyiladi: "Musulmon kishi bir kun o'zi to'q bo'lsa, qo'shnisini ham och holda qoldirmaydi". Qo'shnidan boxabar bo'lish deganda musulmon kishi qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug' va mahalladoshlari bilan yaqin bo'lishadi degani emasmi? Musulmon kishi o'z birodari( birodar, forcha dindosh) holidan xabar olib, yon-atrofdan sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga befarq yoki betaraf qarab, shunchaki kuzatuvchi bo'lmaydi. Kimdir yomon ish qilgani yoki axloqsizlik, ya'ni behayo va beparda gaplarni aytayotgani yoki birovning boshqasiga zulm, adolatsizlik qilayotganini ko'rib yoki eshitib, indamay ketmaydi. Balki, uni bu noto'g'ri yo'ldan qaytarib, to'g'ri va xolislik bilan tushuntiradi.

Xulosa qilish mumkinki, befarq, loqayd va o'zlikdan begonashuv kabi salbiy illatlarning hayotimizdan o'rin olmasligi uchun oila va ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlikka asoslangan ta'lim va tarbiya konsepsiyasini ishlab chiqish lozim. Har doimo tarbiya borasida ustuvor bo'lgan oila ushbu mas'uliyatli vazifani ado etishda ham ta'lim sohasi bilan o'zaro hamkorlikda tashabbuskorlikni o'z qo'liga olishi darkor.

## TALABALAR O`QUV-BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV

**Raximov Z.T.** – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti kafedra mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston sharoitida innovatsiyalarni o'rganish, uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, ta'lim tizimini isloh qilish, shuningdek, talabalar o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishga innovatsion yondashuv masalalari atroflicha tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** talabalar, innovatsiya, faoliyat, yondashuv, samaradorlik, zaruriyat, ehtiyoj, talab, taklif.

## ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К РАЗВИТИЮ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

**Рахимов З.Т.** - заведующий кафедрой Каршинского инженерно-экономического института, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

<sup>1</sup> Смирнова Д.Н. Социальные проблемы и их решение // Философские науки. – М.:2013. № 8. – С. 19-30.

<sup>2</sup> Муслмонлик одоби. Ҳадис. www.Qur'on.uz.

**Аннотация.** В статье подробно проанализированы вопросы изучения инноваций в условиях Узбекистана, их внедрения в образовательный процесс, реформирования системы образования, а также инновационного подхода к развитию учебно-познавательной деятельности студентов.

**Ключевые слова:** студенты, инновация, деятельность, подход, эффективность, необходимость, потребность, спрос, предложение.

### INNOVATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF EDUCATIONAL ACTIVITY OF STUDENTS

**Rakhimov Z.T.** - Head of the Department of the Karshi Engineering and Economics Institute, doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD)

**Annotation.** In article questions of studying of innovations in the conditions of Uzbekistan, their introductions in educational process, education system reforming, and also the innovative approach to development of uchebno-informative activity of students are in detail analysed.

**Key words:** students, innovation, activity, approach, efficiency, necessity, need, demand, suggestion.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalar, ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishi ta'lim tizimi xodimlaridan ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, bunda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni talab etib, har bir tizim xodimi, ayniqsa, o'qituvchilar zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi.

T.I.Shamovaning tadqiqotlarida oliy ta'lim muassasalarida o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan talablar shakllantirilgan. Ular fanning nazariy (mazmunli) blokini talabalarning asosiy fikriy va amaliy harakatlaridan tarkib toptirishi zarur; faollashtirish vositalari bilimlarni o'zlashtirish va faoliyat usullari algoritmining faolligiga yo'naltirishi kerak; faollashtirish vositalarini tanlash ta'limning tarkibiy qismlariga ta'sir etgani holda bilishning har bir bosqichi aniq maqsad asosida amalga oshirilishi uchun imkoniyat yaratishi lozim<sup>1</sup>.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda "o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish" tushunchasini ham ta'riflash mumkin. Bizning firimizga ko'ra, o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish – belgilangan mezonlarga muvofiq, talabalarning past darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarining o'rta va yuqori darajalarga o'sib o'tishini ifodalovchi jarayon sanaladi. O'quv-bilish faoliyatining o'ziga xosligi uning o'quvchilar tomonidan ular uchun yangi bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga, obyektiv borliqni anglashga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Biroq bilimlarni o'zlashtirishning xarakteri turlicha bo'lishi mumkin. Bizning nazarimizda, aynan mana shu o'quv-bilish faoliyatining turli ko'rinishlari predmetini farqlab beradi. Har bir o'quv predmetini o'rganishda quyidagi jihatlar ko'zga tashlanadi:

- 1) axborotli jihati – axborotni o'zlashtirish;
- 2) shaxsiy jihati – faoliyat usullarini egallash.

O'quv mashg'ulotlarida talabalarning o'quv-bilish faoliyatining asosiy turlari quyidagilardir: kuzatish, tajriba, kitoblar, politexnik lug'atlar, ma'lumotnomalar bilan ishlash, bilimlarni tizimlashtirish va boshqalar. Ular bir-biri bilan o'zaro bog'langan. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etish o'qituvchilarning innovatsion faoliyatidan boshlanadi. Chunki o'qituvchi ta'lim va tarbiya jarayonining yetakchisi, tashkilotchisi bo'lib, uning innovatsion madaniyati, tashabbuskorligi, ijodiy faolligi, kreativ fikrlashi, novatorlikka bo'lgan intilishi ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. "Innovatsiya" so'zi lotin tilidagi "inovatis" (in – ichiga, novus – yangi, yangilik) so'zidan olingan bo'lib, tarjima qilganda "yangilik kiritish, ijodiy

<sup>1</sup> Шамова Т.И. Активизация учения школьников. – М.: Педагогика, 1982. С. 122

o'zgarish, yangilanish" degan ma'nolarni anglatadi. Innovatsiyalar ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan, biron-bir sohada aniq maqsadga qaratilgan hamda amaliy tatbiq etishga yo'naltirilgan yuqori samaradorlikka ega yangilik hisoblanadi. Pedagogik innovatsiya deyilganda, samarali natijaga erishish maqsadida ta'lim-tarbiya jarayoniga yangiliklar, ijobiy o'zgarishlar kiritish tushuniladi. Pedagogik innovatsiyalar ta'lim amaliyotida hamda olim va pedagoglarning ijodiy faoliyati natijasida vujudga keladi.

O'zbekiston sharoitida innovatsiyalarni o'rganish, uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish ta'lim tizimini isloh qilish masalalari bilan bog'liq ravishda tayyor axborotlarni berishga asoslangan an'anaviy o'qitish turidan, talabalarning izlanishga, ma'lumotlarni o'zlari izlab topishga o'rgatadigan ta'lim tizimiga o'tish yo'lidagi harakatlari bilan asoslanadi. Shunga ko'ra, yangi bilimlarga: yangilik, innovatsiya, innovatsion jarayonlar kabi tushunchalar mohiyatini anglashga ehtiyoj kuchayadi.

"Yangilik kiritish" (innovatsiya) tushunchasi yangiliklarda ham, ushbu yangilikni amaliyotga tatbiq etish jarayoni sifatida ham tushuniladi.

O'zbekistonlik olimlardan N.Saidahmedov, N.Azizxo'jayeva, Sh.Shodmonov, G.Baubekova, G.Xalikova va boshqalar pedagogik yangilanishlarga ilg'or tajribaning xususiy shakli tarzida qaraydi<sup>1</sup>. Ularni radikal yangiliklar bilan tenglashtirib, quyidagilar bilan bog'lab tushuntiradi: dolzarb muammoning yangi yechimi, ulardan foydalanish yangi sifat o'zgarishlariga olib keladi, ularni qo'llash tizimdagi boshqa komponentlarni ham sifat jihatidan o'zgartiradi. Bunda yangilanishlar tizimning bir sifatli holatdan ikkinchi holatga o'tishi tarzida tushuniladi. Yangilik muayyan ta'lim tizimi ichida mavjud bo'lib, yangilanish asosida yuzaga keladi. Shu tarzda yangilanishni yangilik yaratish, qo'llash va o'zlashtirish hisobiga ta'lim rivojlanishi jarayoni sifatida tushunish mumkin. Yangilanish ta'lim jarayonining qaysi bo'lagiga o'zgartirish kiritishni aniqlashdan boshlanadi. Pedagogik yangilanish predmeti yangilanish jarayoni samaradorligi va ularni aniqlovchi omillar orasidagi bog'liqlik, shuningdek, o'zgarishlar samaradorligini oshirish maqsadida shu omillarga ta'sir etish usullaridan iborat.

Innovatsion jarayonlar quyidagi bosqichlarga ajraladi:

1. Yangi g'oyalarning tug'ilishi va yangilanish konsepsiyasining paydo bo'lish bosqichi. Bu shartli ravishda fundamental va amaliy izlanishlar natijasi tarzida yangilik yaratish deyiladi.

2. Yaratish bosqichi. Muayyan obyektga amalga oshirilgan yangilik – moddiy yoki ma'naviy narsa-namuna.

3. Yangilik kiritish bosqichi. Yaratilgan yangilik amaliyotga tatbiq etiladi, qayta ishlanadi. Bu bosqich kiritilgan yangilikdan yuqori samaraga erishish bilan yakunlanadi. So'ng yangilikning mustaqil harakatlanishi boshlanadi. Yangiliklar qo'llanilish jarayonida yanada boshqa bosqichlarga ajraladi.

4. Yangiliklarni hayotga tatbiq etish bosqichi. Yangiliklarni boshqa sohalarga ham keng qo'llashda namoyon bo'ladi.

5. Muayyan sohada yangilikning turg'un xizmat qilish bosqichi. Yangilikni qo'llash davomida u o'zining yangilik xususiyatini yo'qotib boradi. Mazkur bosqich yangilik o'rniga undan ham samarali yangiliklarni tatbiq etish bilan yakunlanadi. Bir yangilik o'rnini undan ham samaraliroq bo'lgan boshqasi egallaydi.

6. Yangiliklarni boshqa yangilik bilan almashtirish maqsadida yangiliklar ko'lamini qisqartirish bosqichi.

Ta'lim sohasidagi innovatsiya ta'lim-tarbiya maqsadi, mazmuni, usul va shakllari, pedagogik jarayonni tashkil etishda yangiliklar kiritishni nazarda tutadi.

Innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Funktsional imkoniyatlariga qarab, barcha pedagogik innovatsiyalar: yangiliklar samarali ta'lim jarayonini ta'minlaydigan shartlar (ta'limning yangi mazmuni, innovatsion ta'lim muhitlari, ijtimoiy-

<sup>1</sup>Farberman L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: 2000., Шодмонов Ш., Баубекова Г., Халикова Г. Инновационные методы обучения в экономическом образовании. – Т.: "Фан", 2003

madaniy sharoitlar); yangilik – pedagogik vosita, texnologik ta'lim loyihalari va hokazo; tashkiliy boshqaruvga oid yangiliklar (ta'limning sifatli xizmat qilishini ta'minlaydigan yechimlar).

2. Innovatsiyalarni amalga oshirish va tatbiq etish sohasiga qarab: ta'lim mazmunida; o'qitish texnologiyalari, ta'lim tizimining tarbiyaviy sohasida; pedagogik jarayon qatnashchilari o'zaro ta'siri tizimida, pedagogik vositalar tizimida.

Tizimli innovatsiyalar – bu muayyan muammo doirasidan kelib chiqadigan, aniq maqsad, vazifalarga ega innovatsiyalardir. Bular o'qituvchi va talabalar qiziqishlari asosida tuzilib, uzviylik xarakteriga ega bo'ladi. Bunday innovatsiyalar puxta tayyorlanib, ekspertlardan o'tadi va zarur vositalar bilan ta'minlanadi (kadrlar, moddiy, ilmiy-metodik ta'minot)<sup>1</sup>.

Ma'lumki, pedagogik innovatsiya faoliyatining subyekti o'qituvchi va uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga ega bo'ladi. Innovatsion jarayonning mohiyati o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyati mazmunida aks etadi, mazkur jarayonda pedagog talabalarga yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Pedagogik yordamning asosiy mohiyati innovatsion uslubning tavsifi, uning maqsadga yo'naltirilganligi, shuningdek, shaxsni shakllantirish va tarbiyalash borasida hal etiladigan vazifalar bilan ifodalanadi.

Talabalarning shaxsiy xislatlari pedagogik jarayonning subyekti sifatida quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'qitishning hozirgi va kelgusi bosqichlari uchun qabul qilingan o'quv-tarbiya jarayonining maqsadi, vazifasi va ko'rsatmalarni anglay bilish; intellektual mehnatning yangi turlarini egallash; maqsadga muvofiq kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash va mustaqil tahsil olish, qiyinchiliklarni a'lo darajada yenga bilish, o'sish va mustahkam o'rin egallashning kengayayotgan intellektual va kasbiy imkoniyatlari, istiqbollari bilan qoniqish, o'zining ijtimoiy roli funksiyasini bajarishda faol munosabatda bo'lish va hokazo.

Talabalarning innovatsion faoliyatini yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat sifatida baholash mumkin. Innovatsion faoliyatga aksiologik yondashuv insonning o'zini yangilik yaratish jarayoniga baxshida qilishi, u tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar yig'indisini anglatadi. Aksiologiya insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir maqsadi sifatida qaraydi. O'qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi kreativlik va refleksiya komponentlaridan iborat. O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir. Kreativlik individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

O'qituvchi innovatsion faoliyatidagi kreativlikning bir necha bosqichlari mavjud:

– birinchi bosqichda tayyor metodik tavsiyalar ko'chiriladi;  
– ikkinchi bosqichda mavjud tizimga ayrim moslamalar (modifikatsiyalar), metodik usullar kiritiladi.

– uchinchi bosqichda g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to'la ishlab chiqiladi;  
– to'rtinchi bosqichda o'qitish va tarbiyalanishning betakror konsepsiyasi va metodikasi yaratiladi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponent bu refleksiya. Refleksiya o'qituvchining o'z ongi va faoliyatini belgilashi hamda tahlil qila olishidir. Refleksiya (lotincha "reflexio" – "ortga qaytish") subyektning o'z (ichki) psixik tuyg'u va holatlarini bilish jarayonidir. Innovatsionlik pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik qurilmasiga, balki o'qituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir. U ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi va o'zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshirishini ko'zda tutadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli muloqoti, aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi

<sup>1</sup> Erkaboyeva N. Yangilangan fikrlarning mohiyati va uning ustuvor yo'nalishlari. // Xalq ta'limi, 2005-yil, 6-son, 19-20-betlar.

o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi. O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilish va yaratuvchilik kabi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi. Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tug'dirishdir. Muloqotning yangi vaziyati – bu o'qituvchining o'z mustaqillik mavqeyini, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. O'qituvchi o'z nuqtayi nazarlariga o'ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o'zgarib boradi, hissiy tuyg'ulari rivojlanadi. Keyingi sharti – bu o'qituvchining madaniyat va muloqotga shayligi. O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usullarini yechishni aniqlashga qaratilgandir. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi innovatsion faoliyat shartlaridan biridir. Yangi munosabatlar, an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan xoli bo'lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyat bu o'qituvchi va talabaning ijoddagi hamkorligidir.

O'qituvchining innovatsion faoliyati quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- kasbiy faoliyatning ongli tahlili;
- me'yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;
- kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;
- dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish;
- o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatda mujassam qilish.

Demak, o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi. Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida o'qituvchining innovatsiya faoliyatiga bo'lgan zaruriyati quyidagilar bilan o'lchanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilanishini talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;
- ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish, doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, zamonaviy texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;
- pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabati, xarakteri o'zgarishi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga – yangilik, maqbullik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi. Yangilik me'yoriy pedagogik yangilik me'yori sifatida o'zida taklif qilinadigan yangilikni, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Maqbullik me'yori o'qituvchi va talabaning natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarini bildiradi. Natijalilik o'qituvchi faoliyatidagi muayyan me'yoriy muhim ijobiy natijalarni bildiradi.

Pedagogik yangilik me'yori o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim. Pedagogika yangilikni dastlab ayrim o'qituvchilarning faoliyatiga olib kiradi. Keyingi bosqichda – sinalgandan va obyektiv baho olgandan so'ng, pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligini aniqlash imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- mo'ljallangan yangilikni yalpi va alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish;
- kelgusida qayta ishlash maqsadida yangilikning afzalliklari va uni tatbiq qilishdagi kamchiliklarni aniqlash;



– yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorlarini tanlab olish, eng ahamiyatli va pishiqlik darajasini aniqlash;

– yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish;

– yangilikni tatbiq etadigan tashkilotning innovatsiya qobiliyatiga baho berish va h.k.

O`qituvchining innovatsion faoliyati o`z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berish kabilarni qamrab oladi.

Innovatsion faoliyatning samaradorligida pedagog shaxsiyati va uning innovatsion faoliyatga xos bo`lgan qobiliyatlarining quyidagi asosiy xususiyatlari belgilab berilgan:

– shaxsning ijodiy-motivatsion yo`nalganligi. Bu – qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish; ijodiy yutuqlarga intilish; peshqadamlikka intilish; o`z kamolotiga intilish va boshqalar;

– kreativlik. Bu – xayolot (fantastika), faraz; qoliplardan xoli bo`lish, tavakkal qilish, tanqidiy fikrlash, baho bera olish qobiliyati, o`zicha mushohada yuritish, refleksiya;

– kasbiy faoliyatni baholash. Bu – ijodiy faoliyat metodologiyasini egallash; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash; mualliflik konsepsiyasi faoliyat texnologiyasini yaratish, ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish; ijodiy faoliyatda hamkorlik va o`zaro yordam berish qobiliyatlari va boshqalar;

– o`qituvchining individual qobiliyati. Bu – ijodiy faoliyat sur`ati; shaxsning ijodiy faoliyatdagi ish qobiliyati; qat`iyatlilik, o`ziga ishonch; mas`uliyatlilik, halollik, haqiqatgo`ylik, o`zini tuta bilish va boshqalar. Innovatsion faoliyat tadqiqotlari o`qituvchining quyidagi innovatsion faoliyatga hozirligi me`yorlarini belgilashga imkon beradi:

– innovatsion faoliyatga bo`lgan zaruriyatni anglash;

– ijodiy faoliyatga jalb qilinishga shaylik;

– shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish;

– ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni yengishga shaylik;

– innovatsion faoliyatni ijro etish uchun texnologik shaylik darajasi;

– innovatsion faoliyatning kasbiy mustaqillikka ta`siri;

– kasbiy refleksiya bo`lgan qobiliyat.

Innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o`rganish oliy ta`lim, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va maktablarda o`quv jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi<sup>1</sup>.

Xulosa o`rnida shuni aytish joizki, oliy ta`lim, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va maktabdagi ta`lim innovatsiya jarayonlari xarakteri kiritilgan yangiliklar xususiyatlari, o`qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari, yangilik kiritish tashabbuskorlari va ishtirokchilarining innovatsion faoliyatlari xususiyatlari bilan belgilanadi. Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri o`qituvchi shaxsidir. O`qituvchi novator, sermahsul ijodiy shaxs bo`lishi, kreativlikni, keng qamrovli qiziqish va mashg`ullikni sevuvchi, ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga o`ch bo`lishi lozim.

## MUHANDISLIK KOMPYUTER GRAFIKASI DASTURLARI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI

**Dilshodbekov Sh.D.** – Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada “Muhandislik kompyuter grafikasi” fanini o`rganishda foydalanish mumkin bo`lgan dasturlarni saralash mezonlari berilgan va saralangan dasturlar “Chizmachilik” fanining bo`limlari xususiyatidan kelib chiqqan holda tasniflangan.

<sup>1</sup>Azizxo`jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2006. – 62-70-betlar.

**Kalit soʻzlar:** grafik dasturlar, CAD, CAM, CAE tizimlari, 2D, 3D, elektron chizma.

### ПРОГРАММЫ ИНЖЕНЕРНОЙ КОМПЬЮТЕРНОЙ ГРАФИКИ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ

**Дильшодбеков Ш.Д.** – базовый докторант Ташкентского государственного педагогического университета

**Аннотация.** В данной статье приводятся критерии отбора программ для обучения предмету “Инженерная компьютерная графика”, проведена классификация отобранных программ с учетом особенностей разделов предмета «Черчение».

**Ключевые слова:** графические программы, CAD, CAM, CAE системы, 2D, 3D, электронный чертеж.

### PROGRAMS OF ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS AND THEIR CLASSIFICATION

**Dilshodbekov Sh.D.** - PhD student of Tashkent state pedagogical university

**Annotation.** In this article was given graphic programs and classifies them according to the properties of the subject “Drawing” for training in the subject “Engineering Computer Graphics”.

**Key words:** graphic programs, CAD, CAM, CAE systems, 2D, 3D, electronic drawings.

Компьютер графикаси – график maʼlumot (tasvir)larni yaratish, saqlash va ularga oʻzgartirish kiritish uchun maxsus grafik dasturlar bilan taʼminlangan kompyuterdan vosita sifatida foydalanadigan informatikaning bir boʻlimidir. Kompyuter grafikasida tasvirlarni yaratish vektorli, rastrli, fraktal va uch oʻlchamli grafika usullarida amalga oshiriladi<sup>1</sup>.

Taʼlimda kompyuter grafikasi ikki koʻrinishda namoyon boʻladi:

- vosita;
- oʻrganish obyekti (fan).

Birinchi koʻrinishda kompyuter grafikasi maʼlum bir fanning mohiyatini ochib berish, yoki unda oʻtiladigan mavzularni oson, qulay va koʻrgazmali yoritish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, auditoriyada koʻrsatish imkoni mavjud boʻlmagan voqea va hodisalarni, juda katta va juda kichkina hajmli narsalarni talabalarga yoritib berish imkoniyati mavjud boʻladi. Masalan, malekulalarning harakatini, baland binolarni, yerning quyosh tizimida joylashuvini yoki temirning zanglash jarayonini tezlashtirib koʻrsatish mumkin<sup>2</sup>.

Ikkinchi koʻrinishda kompyuter grafikasi oʻrganish obyekti sifatida qatnashadi va boshqa fanlar singari oʻzining maqsadi, vazifasi va obyektiga ega boʻladi. Kompyuter grafikasida statik (harakatsiz) va dinamik (harakatlanuvchi) tasvir yaratish usullari oʻrganiladi. Statik tasvirga elektron chizma yaratishni, dinamik tasvirga esa animatsion roliklarni misol qilish mumkin. Kompyuter grafikasining bu ikki koʻrinishi mutaxassisliklarning baʼzilarida bir vaqtda qatnashishini kuzatish mumkin. Bulardan biri muhandislik grafikasi mutaxassisligidir.

Muhandislik grafikasi fanlari qatoriga “Chizma geometriya”, “Chizmachilik” va “Muhandislik kompyuter grafikasi” kiradi. “Chizma geometriya” va “Chizmachilik” fanlarini oʻqitishda kompyuter grafikasidan vosita sifatida qoʻllanilib kelinadi. Muhandislik grafikasi fanlarini oʻqitishda kompyuter

<sup>1</sup> Иванникова Л.В. Методика конструирования учебного модуля “Компьютерная графика” для студентов факультетов технологии и предпринимательства педвузов специализации “Графика и дизайн”. Дисс...канд.пед.наук: 13.00.02.– М.: RGB, 2005.

<sup>2</sup> Везиров Т.Г. Теория и практика использования информационных и коммуникационных технологий в педагогическом образовании. Дисс...докт. пед.наук.– Ставрополь, 2001.– С.187.

texnologiyasidan foydalanish yuzasidan Volxin K.A., Naydsh V.M., Shabanov G.I., Denisova A.L., Lapchik M. va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

“Muhandislik kompyuter grafikasi” fani O‘zbekiston Respublikasidagi texnika oliy o‘quv yurtlarida va unga turdosh yo‘nalishlarda 2000-yildan boshlab o‘rgatilib kelinadi. Bunda, AQShning Autodesk kompaniyasi mahsuloti AutoCAD dasturidan foydalanilmoqda.

Kompyuter grafikasini o‘qitish metodikasi bo‘yicha V.M.Arapov, L.M.Oshkina, Y.V.Sakulina, I.V.Rojina, A.G.Butkarev, S.A.Rikov, O.B.Bolbat, K.A.Volxin, Y.A.Vanshinalar tadqiqot ishini olib borganlar.

Bugungi kunda grafik dasturlar bozorining jadal rivojlangani va ularning soni ortib borayotgani ijobiy ko‘rsatkichdir. Bu esa o‘z navbatida “Muhandislik kompyuter grafikasi” fani o‘qituvchisidan shu fanni o‘qitishda foydalanish mumkin bo‘lgan grafik dasturlarni saralash va “Chizmachilik” fanining bo‘limlari nuqtayi nazaridan saralangan grafik dasturlarni klassifikatsiyalash kabi vazifalarni qo‘ymoqda.

“Muhandislik kompyuter grafikasi” fanini o‘qitishda foydalanish mumkin bo‘lgan grafik dasturlarni saralash uchun, avvalo, dasturlarning qaysi ko‘rsatkichlarini inobatga olish kerakligini shakllantirish lozim:

- kompyuter grafikasining maqsadga muvofiq bo‘limini tanlash;
- texnik vositani tanlash;
- operatsion tizimni tanlash (Windows, MacOS, Linux);
- tizimni tanlash (CAD, CAM, CAE);
- internet tarmog‘iga asoslangan (Online) yoki internet tarmog‘isiz ishlaydigan (Offline) dasturni tanlash;
- ikki (2D) yoki uch (3D) o‘lchamli fazoda ishlovchi dasturni tanlash.

Kompyuter grafikasi qo‘llanish sohasiga ko‘ra ilmiy grafika, delovaya grafika, konstruktorlik grafikasi, illyustrativ grafika, san‘at va reklama grafikasi, kompyuter animatsiyasi va multimedia bo‘limlariga ajratiladi. “Muhandislik kompyuter grafikasi” fanini o‘rgatishda kompyuter grafikasining “konstruktorlik grafikasi” bo‘limi uchun yaratiladigan dasturlardan tanlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Grafik dasturlar texnikaning barcha turlari uchun yaratilishi mumkin. Masalan, planshetlar uchun “Shapr3D”, smartfonlar uchun “BIM 360 Team” va kompyuterlar uchun “AutoCAD” dasturini misol keltirish mumkin. “Muhandislik kompyuter grafikasi” fanini o‘rganishda eng qulash vosita kompyuter bo‘lganligi uchun va oliy ta‘lim muassasalari kompyuterlar bilan ta‘minlangani tufayli shu turdagi vositaga mo‘ljallangan grafik dasturlardan tanlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Operatsion tizimlar kompyuter bilan inson o‘rtasidagi muloqotni yengillashtiruvchi, unga ko‘rgazmali tus beruvchi tizimdir. Operatsion tizimlarning ham bir necha turlari (Windows, MacOS, Linux) mavjud. Ulardan eng ommabop bo‘lganlaridan biri bu Windows operatsion tizimidir. Respublikamizning barcha oliy o‘quv yurtlari shu operatsion tizimdan foydalanib kelishmoqda. Shuning uchun o‘quv jarayonida Windows operatsion tizimi uchun mo‘ljallangan grafik dasturlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Kompyuter grafikasining konstruktorlik grafikasi bo‘limi CAD, CAM, CAE tizimlarda ishlaydigan grafik dasturlardan tashkil topgan. Bugungi kunda murakkab ishlab chiqarish jarayonini keltirilgan tizimlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. CAD tizimi elektron chizma bajarish va avtomatlashgan proyeksiyalash (3D model) uchun mo‘ljallangan. CAM tizimi yaratilgan elektron 3D modelni dasturiy boshqaruvga asoslangan stanoklarda ishlab chiqarishni rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish bilan shug‘ullanadi.

CAE tizimi turli ko‘rinishdagi simulyatsiyalarni bajarish imkonini beradi. Masalan, arxitektorlar tomonidan yaratilgan bino 3D modelining zilzila holatidagi ko‘rsatkichlarini aniqlash mumkin va shu ko‘rsatkichlar asosida mutaxassis chizmani qayta ishlash, takomillashtirish imkoniga ega bo‘ladi. Dasturlar bir vaqtda ikkita (CAD va CAM, CAD va CAE) yoki uchta (CAD,CAM,CAE) tizimida ham ishlashi mumkin.

Bunda CAD tizimi qolgan tizimlar uchun asos bo`lib xizmat qiladi<sup>1</sup>. Shuning uchun bir necha tizim ichida CAD tizimi qatnashgan dasturlardan tanlash maqsadga muvofiq bo`ladi.

Internet tarmog`ining takomillashuvi natijasida grafik dasturlarning shu tarmoq uchun mo`ljallangan versiyalari yoki brauzerlar (Chrome, Firefox)da ishlaydigan yangi grafik dasturlar (Onshape, Vectary) yaratilmoqda. Online tarzda (internetda) ishlaydigan dasturlarning qulayligi shundaki, ular kompyuter vositasiga kuchli texnik talablarni qo`ymaydi. Hattoki, grafik dastur kompyuterga o`rnatilmaydi va uning xotirasidan joy egallamaydi. Bugungi kunda oliy ta`lim muassasalari kompyuterxonalarining moddiy texnik ta`minoti ham Online, ham Offline tarzda ishlaydigan grafik dasturlarni tanlash imkonini beradi.

“Muhandislik kompyuter grafikasi” fanini o`rganish davrida talabalar tomonidan ikkala ko`rinishdagi tasvir yaratiladi. Shuning uchun 2D va 3D grafik dasturlarning barchasini tanlash maqsadga muvofiq bo`ladi.

Yuqorida keltirilgan parametrlar bo`yicha “Muhandislik kompyuter grafikasi” fanini o`qitishda foydalanish mumkin bo`lgan grafik dasturlarning ro`yxati 1-jadvalda berilgan.

Keltirilgan jadvalda elektron chizma va 3D model yaratish imkoniga ega grafik dasturlar ro`yxati berilgan. Jadvalning barcha ustuni yuqorida shakllantirilgan parametrlarga mos ravishda kiritilgan. Jadvalning oxirgi beshta ustuni “Chizmachilik” fani bo`limlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tuzilgan.

Masalan, chizmachilikning geometrik chizmachilik bo`limi asosan chiziqlarning bir-biriga silliq o`tishi (tutashma) bilan shug`ullanadi va talabalar tomonidan faqat tekis chizma (2D) bajariladi. Grafik dasturlarning qaysi biri shu shartni bajara olsa “+”, bajara olmasa “-” belgisi qo`yilgan. Shu tariqa, geometrik chizmachilik uchun barcha grafik dasturlar to`g`ri keladi.

1-jadval

№	Dasturlar	Operatsion tizimlar	CAD tizimlari	CAD turi	Chizmachilik bo`limlari				
					Geometrik chizmachilik	Proyeksiyon chizmachilik	Mashinasozlik chizmachilik	Arxitektura-qurilish chizmachilik	Topografik chizmachilik
1	nanoCAD	Windows	CAD	2D/3D	+	+	+	+	+
2	Solidworks	Windows	CAD,CAE,CAM	2D/3D	+	+	+	+	+
3	Siemens NX	Windows, macOS, Linux	CAD,CAE,CAM	2D/3D	+	+	+	+	+
4	OnShape	Windows, macOS, Linux, Browser	CAD,CAE,CAM	2D/3D	+	+	+	-	-
5	MicroStation	Windows	CAD	2D/3D	+	+	+	+	+
6	Inventor	Windows, macOS	CAD, CAE, CAM	2D/3D	+	+	+	-	-
7	DraftSight	Windows, macOS, Linux	CAD	2D/3D	+	+	+	+	+
8	DesignSpark	Windows	CAD	2D/3D	+	+	+	+	+
9	CATIA	Windows	CAD,CAE,CAM	2D/3D	+	+	+	+	+

<sup>1</sup> Хейфес А.Л., Логиновский А.Н., Буторина И.В., Василева В.Н. Инженерная 3D-компьютерная графика. Монография: Челябинск. Издательский центр ЮУрГУ, 2010.

10	AutoCAD	Windows, macOS, iOS, Android	CAD	2D/3D	+	+	+	+	+
11	Alibre	Windows	CAD, CAM	2D/3D	+	+	+	-	-
12	LibreCAD	Windows, Linux, MacOS	CAD	2D	+	-	-	-	-
13	BricsCAD	Windows, MacOS	CAD	2D/3D	+	+	+	+	+
14	FreeCAD	Windows, MacOS, Linux	CAD	2D/3D	+	+	+	+	+
15	Solid Edge	Windows	CAD, CAE	2D/3D	+	+	+	-	-
16	Fusion 360	Windows, MacOS	CAD, CAM, CAE	2D/3D	+	+	+	-	-
17	QCAD	Windows, Linux, MacOS	CAD	2D	+	-	-	-	-

Biroq, faqat shu bo`lim uchun ishlatiladigan 3D model yasash talab etilmaydigan bo`lsa, unda QCAD va LibreCAD dasturlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi. Jadvaldagi "\*" belgi grafik dasturning aynan qaysi yo`nalish uchun yaratilganini bildiradi. Bu belgi qo`yilmagan dasturlar barcha bo`limlarga birdek to`g`ri keladi.

Bizning fikrimizcha, klassifikatsiyalangan grafik dasturlardan "Muhandislik kompyuter grafikasi" fanini talabalarga o`rgatishda samarali foydalanish mumkin. Talabalar chizmachilik fanining har bir bo`limiga to`g`ri keluvchi grafik dasturlar haqida tasavvurga ega bo`ladilar.

#### BO`LAJAK O`QITUVCHILARDA INNOVATSION KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Djalolov B.B.** – Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqola bo`ljak o`qituvchilarda innovatsion kompetentlikni shakllantirish usullari haqida bo`lib, unda innovatsion kompetentlik, o`qitishdagi kamchiliklar, ularni bartaraf etish, o`qitish metodikasini, innovatsion kompetentlikni rivojlantirishni takomillashtirish usullari to`g`risida so`z yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** kompetentlik, innovatsion kompetentlik, o`quv jarayoni, bo`ljak o`qituvchi, mahorat, konstruktivizm, kompetensiyaviy yondashuv.

#### УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

**Джалолов Б.Б.** - базовый докторант Ташкентского государственного педагогического университета

**Аннотация.** В данной статье приводятся суждения о том, как сформировать инновационную компетентность у будущих учителей; о недостатках в обучении и их устранении; о развитии инновационной компетентности и способах совершенствования методики обучения.

**Ключевые слова:** компетентность, инновационная компетентность, учебный процесс, будущий учитель, мастерство, конструктивизм, компетентностный подход.

**IMPROVEMENT OF INNOVATIVE COMPETITIVENESS MECHANISM FOR FUTURE TEACHERS**

**Djalolov B.B.** - PhD student of Tashkent state pedagogical university

**Annotation.** This article is about the ways to build innovative competencies for future teachers, with innovative competencies, learning disadvantages, how to overcome them, and how to improve innovation competence.

**Key words:** competence, innovative competence, learning process, future teacher, skill, constructivism, competence approach.

Hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan sharoitda ta'lim tizimini takomillashtirishni davrning o'zi talab qilmoqda. Ma'lumki, ta'lim samaradorligi, bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida erkin va mustaqil amaliy faoliyat ko'rsata olishi ulardagi kasbiy-pedagogik, innovatsion kompetentlikning shakllanganligi bilan belgilanadi. "Kompetentlik" – bu chuqur bilim va tajribaga egalik, yuksak mahorat, xabardorlik, omilkorlik. Shuningdek, u nafaqat bilimlarga ega bo'lish, balki ularni amaliyotga moslashtira olish imkoniyati hamdir. Shu nuqtayi nazardan kompetentlikning quyidagi turlari o'zaro farqlanadi:

– Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy vazifalarning samarali yechimini ta'minlashga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amaliy faoliyatda yuqori darajada qo'llay olish layoqatidir.

– Metodik kompetentlik – o'quv-tarbiya va boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etishning shakl, metod va vositalarini bilish, o'zlashtirish, amalda qo'llash, kasbiy faoliyat natijalarini kvalimetrik tahlil eta olish, ilg'or pedagogik va xalqaro tajribalarni o'rganish, o'quv-tarbiya jarayonini loyihalashtirish, muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'nikmalari.

– Innovatsion kompetentlik – ta'limdagi innovatsion jarayonlar mohiyatidan xabardorlik, kasbiy faoliyat sohasi va tegishli ta'lim yo'nalishidagi innovatsiyalarni o'zlashtirish, amaliyotga faol tatbiq etish, zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi savodxonlik, chet tillarini o'zlashtirish, novatorlik.

Kasbiy va kasbiy pedagogik ta'limda innovatsion jarayonlarning rivojlanish konsepsiyasi pedagogik nazariya va amaliyotda S.Y.Batishev, E.F.Zeer, N.V. Kuzmina, L.M. Kustov, L.S. Podymova, V.A.Slastenin singari olimlarning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan. Shuningdek, V.V. Gusev va N.F.Maslova tomonidan universitetda o'quv muhitini yaratish shartlari tadqiq etilgan bo'lib, unga ko'ra, talabalarning kognitiv faolligi ijtimoiy rivojlanayotgan va kasbiy yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarga asoslangan. Axborotning shiddatli oqimi, dunyoda ro'y berayotgan o'zgarishlar zamonaviy ta'lim jarayonida bir qancha kamchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan:

– oliy kasb-hunar ta'limi tizimida kadrlar tayyorlashning bir darajali tizimiga o'tish va universitetning o'quv muhitini tashkil etish muammolarini nazariy va uslubiy jihatdan ishlab chiqishning sustligi;

– oliy maktab amaliyotiga kompetensiyaga asoslangan yondashuvni keng miqyosda joriy etish zaruriyati va talabning umumiy madaniy barkamolligini shakllantirish uchun yetarli pedagogik modelning yo'qligi;

– bo'lajak bakalavrlarning umumiy madaniy barkamolligini shakllantirishda ta'lim muhitining potentsiali;

– kasbiy tayyorgarlik jarayonida universitet innovatsion o'quv muhitining shart-sharoitlari va manbalari.

Kasb-hunar pedagogik ta'limdagi innovatsion jarayonlarning rivojlanishi fan, jamiyat, iqtisodiyot va ishlab chiqarishdagi innovatsion jarayonlarning rivojlanishi bilan bog'liq. Ular o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, innovatsion muhitda samarali faoliyat ko'rsatishga qodir yuqori malakali kadrlarni shakllantirishga ko'mak beradi. OTMlardagi innovatsion ta'lim muhiti ta'lim sifatini oshirishning asosiy

sharti va asosiy manbaya bo'lib, u bo'lajak o'qituvchilarning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvi, kasbiy shakllanishi va rivojlanishi, mehnat bozorida raqobatbardoshligi va ta'limni davom ettirish imkoniyatlarini qondirish uchun mo'ljallangan. Afsuski, kelajakdagi o'qituvchining kasbiy shakllanishi ko'pincha ta'lim muhiti va ular tarkibiy qismlarining xususiyatlarini hisobga olmagan holda quriladi, ya'ni an'anaviy o'qitish mexanizmlari kabi asosiy urg'u nazariyaga qaratiladi. Bugungi kunda o'qitish tizimining xorij metodikasi bilan uyg'unlashtirilishi ta'lim tizimida "zamonaviy o'qituvchi" shaxsini yaratishni talab qilmoqda. Zamonaviy o'qituvchi kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil eta olishi, buning uchun esa, kompetentlik qobiliyatga, pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim. Shunday ekan, bo'lajak o'qituvchilarga ta'lim berishda asosiy harakatlar kelgusidagi kasbiy faoliyat kontekstida o'qitishga yo'naltirilishi, o'qituvchini bilimning faol subyekt sifatida belgilashi, uning individual xususiyatlarini hisobga olib, subyektiv shaxsiy tajribaga asoslangan holda, o'zini-o'zi tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyoti va qudrati innovatsion kompetentlik, pedagog-o'qituvchilarning kasbiy yondashuvi, mahorati bilan belgilanadi. Innovatsion kompetentlik – bu uzluksiz ravishda yangiliklar bilan ishlash bo'lib, uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. O'qituvchining innovatsion kompetentligini ta'lim jarayonida shakllantirish quyidagi ko'nikma va malakalarni rivojlantirish uchun imkon beradi:

– mustaqil ravishda uzoq va yaqin, ichki va tashqi bilimlar tizimini va mahoratini yangi vaziyatga ko'chiradi;

- an'anaviy vaziyatlarda yangi muammolarni his etadi;

– obyekt an'anaviy funksiyasi o'rniga yangisini tasavvur qiladi;

– obyekt tuzilishini tasavvur qiladi;

– masalalarni yechishda muqobil yechimlarni ham hisobga oladi;

– yangi muammolarni hal etishda faoliyatning oldindan ma'lum bo'lgan usul va uslublarini qayta ishlaydi va h.k<sup>1</sup>.

Bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion kompetentlikning shakllanishi ikki yo'nalishda amalga oshirilishi lozim:

Yangilikni idrok qilishga innovatsion tayyorlikni shakllantirish;

Yangicha harakat qilishga o'rgatish<sup>2</sup>.

O'qituvchining innovatsion kompetentligi, asosan, quyidagi jihatlarning namoyon bo'lishida ko'rinadi:

- Izlanuvchanlik;
- Qiziquvchanlik;
- Ijodiy yutuqlarga intilish;
- Ilg'orlikka intilish;
- Novatorlik;
- Ijodiy faoliyatning shaxsiy ahamiyati;
- O'z-o'zini mukammallashtirishga intilish;
- Ijodkorlik.

Bilamizki, jahon ta'lim tizimida o'qitishning turli xil nazariyalari mavjud. Konstruktivizm ana shunday nazariyalardan biri bo'lib, "yaratish", "barpo etish" ma'nolarini bildiradi. Bunda o'rganuvchi kerakli bilimni o'zi tushunishi orqali hosil qiladi va o'qituvchi faqat "nazorat qilish" vazifasini bajaradi. Ushbu jarayon amaliyot, "jonli manba"lar bilan ishlash asosida amalga oshiriladi. Aynan mana shunday o'qitish talabalarda innovatsion kompetentlikni vujudga keltira oladi. Chunki amaliyot bilan bog'lanmagan har qanday nazariya natijasizdir. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak o'qituvchilarda

<sup>1</sup> Шкатова Т.Г. Содержание профессиональной компетентности педагога. // Ярославский педагогический вестник, 2010, №1. С. 100-103.

<sup>2</sup> Новиков А.М. Интеграция базового профессионального образования. // "Педагогика", 1996, № 3. С. 3-8.

innovatsion kompetentlikni shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishda quyidagi tavsiyalarni berish maqsadga muvofiqdir:

– Mustaqil ta'lim darslarini ko'paytirish. Innovatsion kompetentlikning shakllanishida talabalar uchun ajratilgan mustaqil ta'lim muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda ular muammoli topshiriq va vazifalarni hal etishda aqliy salohiyatlarini to'la ishga soladilar, zarur bilimlarni izlab topadilar va amaliy faoliyatni tatbiq etishga odatlanib boradilar. Mustaqil ta'lim orqali bo'lajak o'qituvchi o'zi uchun qulay bo'lgan usul va uslublar, o'qitishning metod va vositalarini izlaydi, ularni takomillashtiradi, ularning yangi mexanizmlarini yaratishga harakat qiladi. O'quv dasturi va darsliklardan tashqari o'z ixtisosligiga aloqador bo'lgan bilimlarni izlab topish, tajriba-sinovlar o'tkazish yordamida ularni boyitish talabada tashabbuskorlik, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi, raqobatbardoshlikni yuzaga keltiradi. Raqobat qayerda bo'lsa, taraqqiyot ham o'sha yerda makon quradi. Demak, bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion kompetentlikni shakllantirishni takomillashtirishda mustaqil ta'lim zarur vosita hisoblanadi.

– Talabalarning ayrim o'quv mashg'ulotlarini mavzuga oid maskanlarda olib borishni yo'lga qo'yish yoki shu sohaga oid jonli manbalar bilan ishlash. Bunday o'qitishda talabada yaratuvchanlik, ijodiy yondashuv, mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. Masalan, texnika sohasi mutaxassislarini tayyorlashda ularga samolyotning tuzilishi haqida ma'lumot berishdan ko'ra, samolyot maketini olib kelib, uni buzish va qayta yaratish topshirig'ini berish samaralidir. Yoki adabiyot darslarida shoir va yozuvchilarning hayot va ijodi o'rganiladigan mashg'ulotlarni ularning uy-muzeylarida olib borish bo'lajak o'qituvchilarda tasavvurning, bilimlarning kengayishiga xizmat qiladi.

– Amaliyot jarayonini o'quv jarayoni bilan bog'lash, shu maqsadda talabalarning 1-bosqichdanoq MTM, maktab va akademik litseylarda nafaol amaliyot o'tashini tashkil etish. Ushbu tizimning yo'lga qo'yilishi bo'lajak o'qituvchilarda muomala madaniyatini, pedagogik mahoratni shakllantirib, o'qish jarayoni va o'qitish jarayoni o'rtasidagi devorning yo'qolishiga sabab bo'ladi. Ya'ni talabaning o'qish jarayonidan birdaniga o'qitish faoliyatiga o'tishi jarayonidagi qiyinchiliklar bartaraf etiladi. Shuningdek, talaba ushbu faoliyat davomida o'qitishda mavjud kamchiliklarni to'laqonli anglaydi va novatorlik orqali qulay o'qitish texnologiyalarini yaratishga harakat qiladi.

– Xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, talabalarda yangicha dunyoqarashni shakllantirish uchun ularning xalqaro konferensiyalardagi ishtirokini ta'minlash. Bugungi kunda yoshlar ongi, tafakkuri tez rivojlanmoqda. Ularning o'quv darslaridan qoniqish hosil qilishi o'qituvchidan katta bilim va mashaqqatli mehnatni talab etadi. Axborotlar oqimi, yangiliklar shiddat bilan tezda butun dunyoga tarqaladi. Shunday ekan, o'qituvchi hamisha zamon bilan hamnafas bo'lishi, dunyoqarashini boyitib borishi lozim. Shu jihatdan, bo'lajak o'qituvchilarni xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi, o'quv jarayonlari bilan tanishtirib borish, xalqaro konferensiyalarda ishtirok etishi uchun shart-sharoit yaratish OTMlarning muhim vazifasidir. Bu jarayonda bo'lajak o'qituvchilarda:

- Ko'p sonli yechimlarni amalda qo'llash;
- Mulohazalarning mustaqilligi;
- Tasavvur etish, ijodiy xayol;
- Pedagogik faoliyatda bir xillikdan voz kecha olish;
- Fikrlar harakatsizligini yenga olish;
- Tavakkalchilik;
- Tanqidiy fikrlash, o'z ishlarini tahlil qila olish qobiliyati;
- Mulohazakorlik qobiliyati rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion kompetentlik barcha o'qituvchilar uchun zaruriy vositadir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim esa, o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan, innovatsion kompetentlikni rivojlantirish uchun, birinchi navbatda, bo'lajak o'qituvchilarga kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan holda ta'lim berish lozimdir.



**TEXNIKA YO`NALISHI TALABALARINI O`QITISHDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH**

**Mirzayev A.O`.** –Andijon davlat universiteti o`qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy matematika fani ayrim mavzularining amaliy tatbiqlari va hozirgi kundagi ahamiyatlari yoritib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** oliy matematika, muhandislik, geometriya, aniq integral, kompleks sonlar, kasbiy kompetensiya.

**РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ**

**Мирзаев А.О.** – преподаватель Андijanского государственного университета

**Аннотация.** В этой статье освещаются практическое применение и актуальность некоторых тем высшей математики.

**Ключевые слова:** высшая математика, инженерия, геометрия, определенный интеграл, комплексные числа, профессиональная компетенция.

**DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN TECHNICAL TRAINING**

**Mirzaev A.O.** - Assistant Professor of Andijan State University

**Annotation.** This article highlights the practical applications and relevance of some of the topics of higher mathematics.

**Key words:** higher mathematics, engineering, geometry, exact integers, complex numbers, professional competence

Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalardagi ta'lim natijalariga kompetentli yondashuv zamonaviy ta'limiy islohotlardan birini tashkil etadi va kompetentli ta'limni amalga oshirish jahon oliy ta'limi sifatini takomillashtirishga asosiy yo`nalish sifatida baholanadi.

S.Musinov kasbiy kompetentlilik tushunchasiga quyidagicha fikr bergan. Kasbiy kompetentlilik - bu kasbiy muammolarni muvaffaqiyatli, ijodiy hal qilishga ko`maklashuvchi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, shaxsiy, ilmiy-texnik, texnologik va axborot jarayonlari talabi bilan belgilanadigan (beriladigan) juda murakkab, harakatchan holatidir, degan xulosaga keldilar<sup>1</sup>.

Har qanday mutaxassisning kasbiy jihatdan yetukligi bu zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan hamnafas ishlay olishi, mutaxassislik bilim va tafakkurlarining amalda qo`llay bilishi va olib borilayotgan jarayonga tizimli ravishda yondosha olishi demakdir. Shu maqsadda texnika yo`nalishida taxsil olayotgan bo`lajak muhandislarning zamon talabi darajasidagi va jamiyatimizning taraqqiyotida yetuk kasbiy salohiyatga ega qilib tarbiyalash muhim hisoblanadi.

Bu yo`nalishdagi talabalarga matematika fanini o`qitishda matematik bilim, malakalar va tasavvurlarni amaliy ko`nikmalarga aylantirish usullari, kasbiy jihatdan maxsus fanlarga bog`liqligi va talabalarining kasbiy tafakkurini rivojlantirish asosida tashkil etish zarur.

Texnika yo`nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida matematika fanining maxsus fanlarga bog`liq holda o`qitish, ya`ni har bir mavzuning amaliy va texnikaviy ahamiyatini hamda muxandislik fanlarining o`zlashtirilishida matematika fani asos bo`lib xizmat qiladi. Quyida matematika fanining "Aniq integral" mavzusining amaliy va texnikaviy

<sup>1</sup> Педагогик компетентлик ва креативлик асослари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. - Тошкент, 2015 – 120 бет.

ahamiyatini ko'rib chiqamiz. Juda ko'p amaliy masalalarni yechish aniq integral tushunchasiga olib keladi. Masalan, geometriyada egri chizikli trapetsiya yuzasini topish, fizikada o'zgaruvchi kuch bajargan ishni hisoblash, iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini aniqlash kabi masalalar shular jumlasidandir. Aniq integral berilgan funksiya va kesma bo'yicha tuziladigan integral yig'indining limiti kabi aniqlanadi. Berilgan kesmada chegaralangan va faqat chekli sondagi uzilish nuqtalariga ega bo'lgan funksiya uchun aniq integral mavjud bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilgan masalalardan aniq integralning geometrik, mexanik va iqtisodiy ma'nolari kelib chiqadi. Aniq integral qiymatini hisoblash yoki baholash uchun uning bir qator xossalardan foydalanish mumkin. Bir qator hollarda integralning aniq qiymatini topish masalasi juda murakkab bo'lishi mumkin. Bunday hollarda aniq integral qiymatini taqribiy hisoblash usullariga murojaat qilinadi. Ularga to'g'ri to'rtburchaklar va trapetsiyalar formulalarini misol qilib ko'rsatib bo'ladi. Geometriyada aniq integraldan turli ko'rinishdagi egri chizikli trapetsiyalarning yuzalarini hisoblash, egri chiziq yoyining uzunligini topish, jismlar hajmini aniqlash kabi masalalarni yechishda foydalaniladi. Aniq integralning mexanik tatbiqlariga misol sifatida kuch bajargan ishni hisoblash, notekis harakatda bosib o'tilgan masofani aniqlash, sim massasini topish kabilarni ko'rsatish mumkin. Iqtisodiy nazariyada esa aniq integral yordamida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini topish, iqtisodiy ko'rsatkich bo'lgan Djini koeffitsientini hisoblash, iste'molchi va ishlab chiqaruvchining yutug'ini aniqlash kabi masalalar o'z yechimini topadi. "Aniq integral" tushunchasining maxsus fanlarga o'zaro bog'likligiga bir nechta misollar keltiramiz.

Kattaligi o'zgaruvchan va  $f(x)$  funksiya bilan aniqlanadigan kuch moddiy nuqtani  $[a,b]$  kesma bo'yicha harakatlantirganda bajarilgan  $A$  ish qiymati aniq integral orqali

$$A = \int_a^b f(x)dx \quad (1)$$

formula bilan hisoblanadi<sup>1</sup>. Ammo bu bilan aniq integralni mexanika masalalarini yechishga tatbig'i chegaralanib qolmaydi. Bunga misol sifatida bu yo'nalishda quyidagi masalani ko'rib o'tamiz.

1- Misol. **80 H** kuch purjinani **0,02 m** cho'zadi. Purjining dastlabki uzunligi **0,15 m**. purjinani **0,2 m** gacha cho'zish uchun qancha ish bajarish kerak.

Echilishi. Guk qonuniga asosan purjina uchun  $F = kx$  ya'ni purjining siqilishi unga ta'sir etayotgan kuchga to'g'ri proporsional. Shu formula bo'yicha

$80 = k \cdot 0,02$ , bundan  $k = \frac{80}{0,02} = 4000 \left(\frac{H}{m}\right)$ .  $k$  ning topilgan qiymatini yuqoridagi formulaga qo'yib,  $F = 4000x$  ni hosil qilamiz ya'ni  $f(x) = 4000x$ . Integrallash chegaralarini 0 da 0,05 gacha olib yuyqoridagi (1) formulani qo'llaymiz, chunki  $0,2 - 0,15 = 0,05$  m.

$$A = \int_0^{0,05} 4000x dx = 4000 \frac{x^2}{2} \Big|_0^{0,05} = 2000 \cdot 0,0025 = 5 (J)$$

Ma'lumki, biror  $v$  o'zgarmas tezlik bilan to'g'ri chiziq bo'ylab tekis harakat qilayotgan moddiy nuqtaning  $[a,b]$  vaqt oralig'ida bosib o'tgan  $s$  masofasi  $s=v(b-a)$  formula bilan hisoblanadi. Endi tezligi har bir  $t$  vaqtda o'zgaruvchan va  $v=v(t)$  funksiya bilan aniqlanadigan notekis harakatda moddiy nuqtaning  $[a,b]$  vaqt oralig'ida bosib o'tadigan  $s$  masofani hisoblash masalasini ko'ramiz. Buning uchun  $[a,b]$  vaqt oralig'ini  $a=t_0, t_1, t_2, \dots, t_{n-1}, t_n=b$  nuqtalar bilan ixtiyoriy  $n$  bo'lakka ajratamiz. Har bir  $(t_{i-1}, t_i)$  vaqt oraliqchalari uzunliklarini  $\Delta t_i$  kabi belgilaymiz va undan ixtiyoriy bir  $\tilde{t}_i$  nuqtani tanlaymiz. Moddiy nuqtaning  $(t_{i-1}, t_i)$  vaqt oraliqchalarida bosib o'tgan masofasini  $s_i$  kabi belgilab, bu vaqtda uning  $v_i$  tezligi taqriban o'zgarmas va  $v_i=v(\tilde{t}_i)$  deb olamiz. Bu holda  $s_i \approx v_i \Delta t_i = v(\tilde{t}_i) \Delta t_i$  bo'lib, bosib o'tilgan  $s$  masofa uchun

<sup>1</sup> "Oliy matematika" (Iqtisodchi va muhandis-texnologlar uchun). Rasulov, I.I. Safarov I.I., R.T. Muxitdinov. TOSHKENT, 2012- 554 bet.

$$s = \sum_{i=1}^n s_i \approx \sum_{i=1}^n v_i \Delta t_i = \sum_{i=1}^n v(\tilde{t}_i) \Delta t_i$$

taqribiy tenglikni hosil qilamiz. Bu masofaning aniq qiymatini topish maqsadida bo`lakchalar soni  $n$  ni cheksiz oshirib boramiz. Bunda  $\Delta_n = \max_{1 \leq i \leq n} \Delta x_i$  cheksiz kamayib boradi deb hisoblaymiz. Natijada, aniq integral ta`rifiga asosan,

$$s = \lim_{\substack{n \rightarrow \infty \\ \Delta_n \rightarrow 0}} \sum_{i=1}^n v(\tilde{t}_i) \Delta t_i = \int_a^b v(t) dt \quad (2)$$

formulaga ega bo`lamiz<sup>1</sup>.

2- Misol. Tezligi  $v(t)=t^2+3t$  qonun bo`yicha o`zgaradigan notekis harakatda [3,8] vaqt oralig`ida bosib o`tilgan  $s$  masofani (2) formulaga asosan topamiz:

$$s = \int_3^8 (3t^2 + 4t) dt = (t^3 + 2t^2) \Big|_3^8 = (8^3 + 2 \cdot 8^2) - (3^3 + 2 \cdot 3^2) = 640 - 45 = 595.$$

3- Misol. Engil avtomashinasining harakat tezligi  $v = (9t^2 - 8t)$  m/sek tenglama bilan berilgan. Engil avtomashinasining to`rtinchi sekundda bosib o`tgan yo`lni toping.

Yechilishi. Masala shartida ushbu berilgan:

$$t_1 = 3 \text{ sek}, t_2 = 4 \text{ sek}, f(t) = 9t^2 - 8t.$$

$$s = \int_{t_1}^{t_2} f(t) dt \quad \text{formulaga ko`ra,}$$

$$s = \int_3^4 (9t^2 - 8t) dt = (3t^3 - 4t^2) \Big|_3^4 = 83 \text{ m.}$$

Bundan tashqari aniq integral bir jinsli bo`lmagan sim massasini, yassi chiziq va geometrik shaklning og`irlik markazi, inersiya momentlarini hisoblash uchun ham qo`llaniladi.

Texnika oily o`quv yurtlarida iqtisodiyot ta`limi yo`nalishi talabalariga aniq integral tushunchasi kiritilayotganda, o`zgaruvchan mehnat unumdorligi bo`yicha mahsulot hajmini aniqlash masalasini o`rganib chiqiladi.

4- Misol. Korxonada mehnat unumdorligi har bir ish kuni davomida

$$z = f(t) = -0,0033t^2 - 0,089t + 20,96$$

funksiya bilan berilgan bo`lsin. Bunda  $0 \leq t \leq 8$  bo`lib,  $t$  vaqtni soatda ifodalaydi. Bu korxonaning yil (258 ish kuni) davomida ishlab chiqargan mahsulot hajmini topamiz:

$$Q = 258 \int_0^8 (-0,0033t^2 - 0,089t + 20,96) dt = 258 \cdot (-0,0011t^3 - 0,0445t^2 + 20,96t) \Big|_0^8 = 258 \cdot (-0,5632 - 2,848 + 167,68) = 258 \cdot 164,2688 = 42381,3504.$$

Demak, bu korxonada bir yilda 42381 dona mahsulot ishlab chiqaradi.

Texnika oily o`quv yurtlarida muxandislik yo`nalishi talabalariga maxsus fanlar bilan integratsiyasi asosida yana bir nechta misollarni ko`rib chiqamiz.

6- Misol.  $v(t) = t^2 - 3tsint$  tezlikda bosib o`tilgan yo`lni aniqlang. Bu erda  $t$  [0,5] vaqt oralig`ida.

7- Misol. Agar  $F(x) = x^3 + \frac{1}{x}$  bo`lsa, purjinani 2 sm gacha ko`tarish uchun qanday ishlarni bajarish kerakligini aniqlang.

8- Misol.  $y = x^3$ ,  $y = 4x$  chiziqlar bilan chegaralangan shaklni yuzini hisoblang. Shaklni chizing.

<sup>1</sup> "Oliy matematika" (Iqtisodchi va muhandis-texnologlar uchun). Rasulov, I.I. Safarov I.I., R.T. Muxitdinov. Toshkent, 2012- 554 bet.

Bu misollarning yechimi juda oz vaqt talab etadi, osonlikcha tekshiriladi va talabalarning bilimlaridagi bo'shliqlarni aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, mavzu davomida o'tkaziladigan bunday savollar talabalarning yanada faol idrok etishiga yaxshi rag'bat hisoblanadi.

Demak Aniq integral mavzusi yuzasidan talabalarda quyidagi hislatlar shakllanadi:

- aniq integrallarni hisoblash zarurligini tushunadi;
- muhandisning kasbiy faoliyatida aniq integrallarni qo'llashning turli jihatlarini o'rganadi;
- aniq integrallar yordamida muammolarni hal etish bo'yicha nazariy jihatlarni ajratadi;
- aniq integrallarni yechish uchun usullarni tanlaydi;
- amaliy masalalar bo'yicha o'qituvchi bilan birgalikdagi yechim jarayonida fikrlar almashinish jarayonini asoslaydi.

Texnika oliy ta'lim muassasalarida matematika fani asosan birinchi va ikkinchi talabalarining dars mashlg'ulotlarida olib boriladi. Bu bosqichda talabalar muhandislik kasbini to'liq holda o'zlashtirishi uchun aniq fanlarning ahamiyatini bilmaydi. Matematika dars mashg'ulotlarida har bir mavzuning texnikaviy tatbiqlarini va muhandislik fanlariga bog'liqlik asosida olib borilishi talabalarning kasbiy dunyoqarashi, kasbiy fikrlashlari, kasbi uchun muhim fanlarni o'zlashtirishi va kasbiy kompetentligini takomillashuviga olib keladi.

#### CHAQIRIQQACHA HARBIIY TAYYORGARLIKDA RAQAMLI O'QITISH

**Pantin R.V.** - Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Maqolada kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan muddatli harbiy xizmatga tayyorgarlik o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish muhimligi ko'rsatilgan. Asosiy ta'lim tushunchalarining mohiyati ochib berilgan: funktsional savodxonlik, ta'lim, kompetentsiya.

**Kalit so'zlar:** o'qitish, muddatli harbiy xizmatga tayyorgarlik o'qituvchisi, savodxonlik, bilim, kompetentsiya, ta'lim sifatini baholash.

#### ЦИФРОВОЕ ОБУЧЕНИЕ В ДОПРИЗЫВНОЙ ВОЕННОЙ ПОДГОТОВКЕ

**Пантин Р.В.** - базовый докторант Ташкентского государственного педагогического университета

**Аннотация.** В статье раскрывается актуальность совершенствования системы профессиональной подготовки педагогов допризывной военной подготовки, направленная на повышение профессиональной компетенции. Раскрывается сущность основных образовательных понятий: функциональная грамотность, образованность, компетенция.

**Ключевые слова:** обучение, педагог допризывной военной подготовки, грамотность, знание, компетенция, оценка качества образования.

#### IMPROVEMENT OF THE TRAINING SYSTEM FOR TEACHERS OF DRAWBURNING MILITARY TRAINING

**Pantin R.V.** - PhD student of Tashkent State Pedagogical University

**Annotation** The article reveals the relevance of improving the system of training teachers for pre-conscription military training aimed at improving professional competence. The essence of the basic educational concepts is revealed: functional literacy, education, competence. The issues of improving the scientific and methodological foundations of training teachers of pre-conscription

military training in order to form competitive personnel in the vocational education system are considered.

**Key words:** training, teacher of pre-conscription military training, literacy, education, competence, assessment of the quality of education.

Составной частью проводимых в Республике Узбекистан реформ являются Вооруженные Силы Республики Узбекистан, деятельность которых направлена на защиту и обеспечение безопасности развития государства.

За последние годы был принят ряд правительственных постановлений, в которых нашли отражение задачи по дальнейшему развитию и совершенствованию национальной армии Узбекистана.

Так, в Постановлении Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиёева «О коренном совершенствовании системы повышения духовно-просветительского уровня военнослужащих Вооруженных Сил Республики Узбекистан» от 4 августа 2018 года подчеркивается, что основная цель проводимых реформ заключается в дальнейшем совершенствовании эффективности духовно-просветительской работы в системе Вооруженных Сил Республики Узбекистан. Особое значение приобретает повышение уровня знаний военнослужащих, а также подготовка верных воинскому долгу высокопрофессиональных военнослужащих, обладающих сформированным идеологическим иммунитетом к внутренним и внешним угрозам<sup>1</sup>.

Наряду с этим, за последние годы в стране проделана определенная работа в сфере подготовки призывников. Однако, как показывает практика, возникла необходимость совершенствования системы подготовки допризывной молодежи к военной службе. В постановлении Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по патриотическому и физическому воспитанию молодежи и совершенствованию порядка подготовки призывников по военно-техническим специальностям», указано, что важным в решении этих задач является совершенствование образовательной составляющей допризывной подготовки, в которой должны найти отражение достижения научно-технического прогресса, развития современной военной техники и вооружения<sup>2</sup>.

Сегодня, информация публикуется с высокой скоростью и, чтобы не оказаться в числе отстающих, необходимо приложить усилия к поиску новых путей и подходов к получению знаний, созданию максимальных условий и возможностей их производства и реализации, в том числе и в военной сфере. Очевидно, что система высшего образования играет ключевую роль и заключается в подготовке квалифицированных специалистов для военной сферы, без которых не может быть конкурентоспособной армии.

Профессиональное образование - важнейший элемент будущих педагогов и экономики знаний, обеспечивающий необходимый уровень образования специалистов, позволяющих им преобразовывать информацию в знания и знания в конкурентоспособную продукцию.

Для придания системе профессиональной подготовки педагогов допризывной военной подготовки гибкости и ее быстрой адаптации к изменяющимся условиям, большое внимание уделяется:

- разнообразию профессиональных образовательных программ, удовлетворяющих экономические, социальные, научно-технические и культурные потребности личности и общества;

<sup>1</sup> Постановление Президента Республики Узбекистан: О коренном совершенствовании системы повышения духовно-просветительского уровня военнослужащих Вооруженных Сил Узбекистана: 4 августа, 2018 №ПП-3898 // Собрание Законодательства Республики Узбекистан.- 2018.-№32.-С.116-121.

<sup>2</sup> Постановление Президента Республики Узбекистан: О дополнительных мерах по патриотическому и физическому воспитанию молодежи и совершенствованию порядка подготовки призывников по военно-техническим специальностям; 12 декабря, 2018 года // Народное слово. -13 декабря.- 2018.

- развитию интеллекта и логического мышления путем приобретения навыков самообразования, необходимых для совершенствования профессионального уровня в течение всей жизни и навыков постановки и решения задач на перспективу.

Таким образом, профессиональное образование и подготовка педагогов допризывной военной подготовки должно:

- развивать способности личности к преобразованию информации в знания и действия, направленные на улучшение показателей работы и повышения ее ценности;

- обучать не простому освоению информации и приобретению фактов, а развивать способности, влияющие на видение перспектив и на эффективность выполнения определенных задач;

- всегда ориентироваться на опережающую подготовку конкурентоспособных кадров с учетом современных достижений науки, техники, технологий, в том числе и в военной сфере.

Совершенствование системы подготовки педагогов допризывной военной подготовки предполагает: дидактическую обработку программного материала с учетом требований боевой деятельности войск; активизацию познавательной деятельности обучаемых; дифференциацию и индивидуализацию обучения; повышение профессиональной компетенции преподавателей; совершенствование учебно-материальной базы; непрерывность и действенность воспитательной работы.

Анализ современных требований определения качества и эффективности подготовки военных специалистов находит отражение в таких показателях как:

- грамотность - в узком понимании навыки чтения и письма, в широком - устойчивое сознание личности, позволяющее усваивать базовые знания и навыки, связанные на начальном этапе с элементами культуры;

- образованность - индивидуальная личностная результативность образования, характер личности, от которого зависит умение самостоятельного решения проблем в любой сфере, исходя из собственного социального опыта;

- компетентность - сложное качество личности, которое способствует разрешению типичных ситуаций и проблем, с опорой на накопленный опыт.

Для оценки эффективности результата образовательного процесса пользуются понятием «грамотность». Однако, у него широкий диапазон толкования, поэтому уточним рассматриваемую область термином «функциональная грамотность». Функциональная грамотность становится характерным качеством человека после прохождения определённого этапа образования.

Это атомарный набор знаний, навыков и умений, который предполагает естественное функционирование личности в социальных отношениях. Его наличие является минимальной необходимостью для существования в конкретном социуме. Бытовая функциональная грамотность проявляется при смене обстановки, образа жизни или профессиональной деятельности. В профессиональном смысле функциональная грамотность определяется посредством влияния социальных факторов<sup>1</sup>. Образованность - мы рассматриваем как индивидуально-личностное явление, являющееся результатом образования, характером личности, у которой присутствует способность самостоятельного решения проблем в любой сфере, исходя из социального опыта. Это своего рода показатель грамотности и результат определённой деятельности человека. Так, образование - интегральный процесс, который включает в себя:

- процесс освоения грамотности, включающий изучение знаковых систем и языков, без которых невозможно дальнейшее развитие, получение информации и использование ее в любой сфере жизнедеятельности;

<sup>1</sup> Дюшеева Н.К., Кубатбеков М.М. Функциональная грамотность будущего педагога: сущность и содержание // Инновации в науке: сб. ст. по матер. LXIV междунар. науч.-практ. конф. № 12(61). Часть I. - Новосибирск: СибАК, 2016. - С. 107-115.

- процесс обучения, целью которого является усвоение знаний и навыков в ходе прохождения учебных предметов и дисциплин.

- процесс профессиональной подготовки, направленный на адаптацию полученных знаний и навыков для осуществления конкретной работы или приобретения определённого статуса в обществе;

- процесс воспитания, направленный на изучение и усвоение норм и правил культуры, обычаев, традиций и особенностей народа, профессиональной группы или социальной структуры, которые занимают организацией процесса образования;

- процесс образования (в узком значении) является составляющей интегрального процесса образования, направленного на обеспечение общей культуры и ознакомление с установками, ценностями и стандартами общества.

Компетентность - интегральное качество личности, позволяющее решать проблемы и задачи в различных жизненных ситуациях, пользуясь знаниями, учебным и личным опытом, ценностями и наклонностями.

Специалисты Международного бюро просвещения ЮНЕСКО, основываясь на исследованиях междисциплинарных связей, выстроили трехмерную классификацию ключевых компетенций: действуй автономно; действуй интерактивно; действуй в социально гетерогенных группах<sup>1</sup>. При описании качеств компетентности человека следует помнить, что им характерны:

- динамичность - постоянное изменение в соответствии с изменениями требований внешнего мира;

- направленность на будущее - способность организовать образование сегодня, исходя из имеющихся личных характеристик и умений с учетом будущих требований;

- деятельностный характер общих умений в совокупности с предметными навыками и знаниями в определенных ситуациях (областях);

- способность делать выбор в соответствии, с адекватной оценкой личностных ресурсов в определенных ситуациях;

- мотивированность - нацеленность на непрерывную самообразовательную деятельность.

Компетенции, в том числе профессиональные, формируются на основе базовых способностей, необходимых для развития любой личности – интерес, желание, готовность к постоянному обучению и переквалификации, поиск, критический анализ и практическое применение информации (самостоятельно и с помощью других), работа в команде без нарушения правил, чужих границ и другие<sup>2</sup>. Существуют общепредметные и предметные компетенции.

Общепредметные связаны с умением разрешать проблемы, опираться на факты или закономерности из разделов образовательных программ, понимать обобщенные научные подходы и методики. К предметным компетенциям относится способность обучаемых брать за основу умения, навыки, знания в рамках определенного предмета и решать узкоспециализированные проблемы в конкретной сфере знаний.

Предметные компетенции характерны для исследований и решения научных проблем в конкретной области (военной сфере), что предполагает необходимость проведения анализа в соответствии с заданными гипотезами и научными вопросами. Наряду с этим, необходимо составлять описание и выявлять особенности исследования, учитывая измеряемые и контролируемые переменные и причинно-следственные связи, самостоятельно выносить решения о проделанных измерениях или процедурах для дальнейших исследований<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Канукова Д.К. Ключевые компетенции в образовании // European Research. 2015. № 6 (7). С. 40-43.

<sup>2</sup> Педагогическое обеспечение личностно-профессиональной компетентности будущих офицеров в военном вузе: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01 / Мещеряков Дмитрий Викторович. - Тверь, 2014. - 207 с.

<sup>3</sup> Коклевский А. В. Формирование технологической компетентности будущих специалистов в процессе военной подготовки в классическом университете: теория и практика - Минск: РИВШ, 2015. - 228 с.

Из вышеизложенного следует, что при оценке образовательных результатов педагогов допризывной военной подготовки нельзя ограничиваться фиксацией достигнутого личностью уровня отдельно взятых знаний и умений.

К сожалению, попытки оценивать образовательный результат как обособленное качество личности, проверяемого индивидуально, ограничиваясь традиционными на сегодняшний день средствами фиксации, характерно для установившейся практики образования. Этот же подход лежит в основе построения содержания образовательных программ, и прохождении которых формируется обязательный стандартизированный набор навыков, сведений, умений, характеризующих личность специалиста<sup>1</sup>.

Однако от современного специалиста военной сферы в настоящее время требуется не только владение набором знаний и умений, а прежде всего способность использовать их в ходе взаимодействия с внешней средой. Военный специалист обязан действовать в различных проблемных и нестандартных ситуациях, постоянно повышать свою квалификацию и распространять накопленный опыт. В профессиональном становлении военного педагога - профессиональные качества и развитие неразрывно взаимосвязаны: профессиональные качества, с одной стороны, формируются в процессе профессионального развития, с другой стороны – являются важными показателями проявления личности в качестве специалиста<sup>2</sup>.

В этой связи необходимо пересмотреть подход к оценке образовательных результатов и дополнить общепринятую фиксацию индивидуальных показателей методами, позволяющими представить те же образовательные результаты в разрезе взаимодействия обучаемого с внешней средой.

Система образования Республики Узбекистан претерпевает полномасштабную модернизацию структуры, и содержания в соответствии с требованиями нового времени, необходимую для вывода качественных показателей на более высокий уровень<sup>3</sup>.

В этих условиях актуальным становится формирование современных подходов к оценке и пониманию образовательных результатов, поэтому со стороны государства необходимы меры, направленные на становление процесса получения, освоения и применения знаний мировых стандартов. Это, в первую очередь, создание соответствующих условий, законодательной и нормативной основы, обеспечивающих востребованность и интерес для приобретения знаний и совершенствования научно-методических основ профессиональной компетентности будущих педагогов допризывной военной подготовки.

## **BOSHLANG`ICH SINFLAR MATEMATIKA KURSIDA MANTIQIY MASALALAR VA ULARNI YECHISHDA MODELLASHTIRISHDAN FOYDALANISH**

**Mamadjonova M.Q.** – Andijon davlat universiteti o`qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarining matematik qobiliyatlarini tarkib toptirish va rivojlantirishda mantiqiy masalalarning roli va o`rni, boshlang`ich matematika kursiga kiritilishi taklif etilayotgan mantiqiy masalalar turlari, ularni yechimlarini modellashtirish usullari yoritilgan.

<sup>1</sup> Атаджанова Б.Т. Развитие профессиональной компетентности у студентов как важнейшая задача высшей школы // Достижения науки и образования. 2018. № 17 (39). С. 46-47.

<sup>2</sup> Шарипова Д.Д., Низамова Ш.И. Методы управления в профессиональном становлении личности преподавателей гуманитарных наук // Вестник науки и образования № 4(58). Часть 2. 2019. С.56-59.

<sup>3</sup> Хакимжонова Х.Х.К. Инновационные образовательные реформы в Узбекистане // Достижения науки и образования. 2019. № 3 (44). С. 52-54.



**Kalit soʻzlar:** mantiqiy masalalar, modellashtirish, toʻplam elementlarini tartiblash, oʻzaro bir qiymatli moslik oʻrnatish.

### ЛОГИЧЕСКИЕ ЗАДАЧИ В КУРСЕ МАТЕМАТИКИ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МОДЕЛИРОВАНИЯ ИХ РЕШЕНИЙ

**Мамаджонова М.К.** - преподаватель Андижанского государственного университета

**Аннотация.** В статье рассматривается роль и место логических задач в формировании и развитии математических способностей учащихся начальных классов, виды логических задач, предложенных для включения в курс начальной математики, приведены приемы моделирования их решений.

**Ключевые слова:** логические задачи, моделирование, упорядочивание элементов множеств, установление взаимно-однозначного соответствия.

### LOGISTIC TASKS IN PRIMARY CURRICULUM MATHEMATICS AND METHODS OF MODELING THEIR SOLUTION

**Mamadjonova M.Q.** - Teacher of Andijan State University

**Annotation.** In the given article was analysed the role and place of logical tasks in the formation and development of mathematical abilities of primary school pupils, the types of logical problems proposed for inclusion in the course of initial mathematics and methods of modeling for their solution.

**Key words:** logical problems, modeling, order relation, one-to-one correspondence.

Boshlangʻich sinf oʻqituvchisi matematikadan taʼlim jarayonini tashkil etar ekan, oʻquvchilar bajara oladigan barcha aqliy operatsiyalar: analiz, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, abstraksiyalash va konkretlashtirishga tayangan holda ularda tegishli bilim, koʻnikma va malakalarni tarkib toptirishi lozim boʻladi. Matnli masalalarni yechish boshlangʻich sinf oʻquvchilarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol oʻynab, ularning bilish faoliyati samaradorligini orttirishga ijobiy taʼsir oʻtkazadi. Bugungi kunda umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimida yangi davlat taʼlim standartlarining joriy etilishi munosabati bilan boshlangʻich sinflar matematikasi uchun anʼanaviy boʻlgan matnli masalalar mazmuni kengaytirilib, ularning tarkibiga birinchi bor kombinatorik va mantiqiy masalalar kiritilishi belgilab qoʻyildi<sup>1</sup>. Mantiqiy masalalar mazmun jihatdan turli-tuman boʻlib, ularni koʻp sondagi tiplarga ajratish mumkin. Koʻp hollarda ularni yechish uchun keng matematik bilimlar zaxirasi talab etilmay, faqat arifmetikaga doir maʼlumotlar bilan chegaralanish mumkin. Shuning uchun ham boshlangʻich sinf oʻquvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning mantiqiy tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantirish, oʻz fikrini mantiqiy ifoda qilish koʻnikmalarini tarkib toptirishdagi roli va ahamiyati, shuningdek, murakkablik darajasini hisobga olgan holda quyidagi tipdagi mantiqiy masalalar:

a) toʻplam elementlarini tartiblashga doir (bu masalalarni yechish asosida toʻplam elementlari oʻrtasida chiziqli tartib munosabat oʻrnatish yotadi);

b) toʻplamlar oʻrtasida oʻzaro bir qiymatli moslik oʻrnatishga doir (bu masalalarni yechish asosida toʻplamlar elementlari oʻrtasida oʻzaro bir qiymatli moslikni oʻrnatish yotadi);

<sup>1</sup>Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimining davlat taʼlim standartlarini tasdiqlash toʻgʻrisida." Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son Qarori. lex. uz./pages/ getpage.aspx? act/id =3153714 – Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi (Murojaat sanasi: 05.03.2018).

v) kechib o'tishga doir (bu masalalarda daryoning bir qirg'og'idan ikkinchi qirg'og'iga suzish vositalari (qayiq)dan foydalanib o'tkazib qo'yish ko'rilib, bunda muammo bu vositalarning yetishmasligi, ular ko'tara oladigan yuk massasining chegaralanganligi, yo'lovchilar soni va ularning tarkibi bilan bog'liq bo'ladi);

g) quyib olishga doir (bu masalalar ikkita yoki undan ortiq hajmi ma'lum bo'lgan bo'sh idishlardan foydalanib, talab etilgan miqdordagi suyuqlikni o'lchashga doir bo'lib, ularni yechishda faqat ikkita operatsiya: idishdagi suyuqlikni to'la bo'shatish yoki idishga limmo-lim qilib suyuqlikni quyishga ruxsat beriladi);

d) tarozida tortishga doir (bu masalalarni yechish asosida u yoki bu faktni o'rnatish (haqiqiy tangalar ichidan qalbaki tangani aniqlash, massasiga ko'ra yuklarni tartiblash va boshq.) siferblatsiz, pallali tarozida tortish asosida bajariladi);

e) eng yomon holni aniqlashga doir (bu masalalarni yechishda talab etilayotgan tasdiq eng yomon (noqulay) hol uchun to'g'ri ekanligi isbotlansa, u holda boshqa barcha hollar uchun u, albatta, o'rinli bo'lishiga asoslanadi);

j) Dirixle prinsipini qo'llashga doir masalalar (bu masalalarni yechish asosida berilgan xossalarga ega bo'lgan obyektning mavjudligini bilvosita isbotlash usuli yotib, uning mazmunini quyidagicha ifodalash mumkin: n ta yashikka soni n dan ortiq bo'lgan predmetlar joylashtirilsa, u holda shunday quti topiladiki, unga bittadan ortiq predmet joylashadi) boshlang'ich sinflar matematika kursiga kiritilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.<sup>1</sup>

Bugungi kunda mantiqiy masalalar ko'p hollarda olimpiadalarda taklif etilib, darsliklarda yulduzcha bilan belgilanib yoki qiziqarli masalalar rukniga kiritilganligi uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilarining katta qismi mantiqiy masalalar faqat matematikani o'rganishga qobiliyatli o'quvchilar uchun mo'ljallangan deb hisoblaydilar.<sup>2</sup> Bunday nuqtayi nazarni paydo bo'lishiga sabablardan yana biri mantiqiy masalaning yechimi evristik (nostandart) bo'lib, boshqa tipdagi masalalarni yechish usullariga o'xshamaydi, natijada o'qituvchi konkret masalani yechish jarayonida o'quvchilarda oldin tarkib toptirilgan bilim va ko'nikmalarga tayana olmaydi. Shuning uchun ham mantiqiy masalalarni yechish metodikasini yaratish bugungi kunning dolzarb muammosiga aylandi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy masalalarni yechishga yo'naltirilgan faoliyatini samarali tashkil etish uchun ularning fikrlash qobiliyati takomillashib borishga moyil ekanligi va demak, unga tinimsiz ravishda ko'maklashuvchi ta'sir o'tkazish uchun masala shartida qaralayotgan obyektlarni o'rganishda taqqoslash, xulosalar chiqarishga e'tiborni kuchaytirish lozimligidan modellashtirish muhim ahamiyat kasb etishi kelib chiqadi. Demak, modellashtirish o'quvchilarda mantiqiy masalalar yechish ko'nikmalarini tarkib toptirishning asosi hisoblanib, ularni yechish jarayonida o'quvchi uchun eng muhimi masala shartida bayon etilgan hodisa yoki jarayonning miqdoriy xarakteristikalar va ular orasidagi bog'lanishlarni o'rnatish hamda ularni matematik simvollar bilan ifodalash, ya'ni masalaning matematik modelini qurishdir. Ushbu maqolada biz yuqorida ko'rib o'tgan mantiqiy masalalar tiplaridan to'plam elementlarini tartiblashga doir hamda to'plamlar o'rtasida o'zaro bir qiymatli moslikni o'rnatishga doir masalalarni yechish jarayonida matematik modellarning tutgan o'rnini ko'rib o'tamiz.

To'plam elementlarini tartiblashga doir vaziyatlarni to'g'ri chiziqda modellashtirish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham bu tipdagi masalalarni yechishda uning shartida berilgan to'plam elementlari nurda joylashgan nuqtalar bilan tasvirlanib, berilgan munosabat asosida ular birin-ketin joylashtirilib, tartiblanadi.

1-masala. Salimning bo'yi Lazizdan baland, Ikromdan esa past. Bolalardan qay birining bo'yi eng baland ekanini aniqlang?

<sup>1</sup> Истомина Н.Б., Тихонова Н.Б. Учимся решать логические задачи. Математика и информатика. Тетрадь для 1-2 классов общеобразовательных организаций. 9-изд. – Смоленск: Ассоциация XXI век, 2017. – 48 с.

<sup>2</sup> Лихтарников Л.М. Занимательные логические задачи. (Для учащихся начальной школы) // СПб.: Лань, МИК, 1996. – 125 с.

Yechish. Dastlab, masala modelini quramiz. Bu holda nur “bo`y chizig`i” vazifasini o`taydi . Shuning uchun o`quvchilar bilan bolalarni nurda ularning bosh harflari ko`rsatilgan nuqtalar bilan: ularning bo`yi pastrog`ini nurda chaproqda, bo`yi balandrog`ini esa o`ngroqda belgilashga kelishib olamiz. So`ngra tartib bilan masalaning har bir shartini nurda belgilaymiz:

- Salimning bo`yi Lazizning bo`yidan baland, demak, S nuqta L nuqtadan o`ngda joylashadi;
- Salimning bo`yi Ikromning bo`yidan past bo`lsa, u holda Ikromning bo`yi Salimning bo`yidan baland bo`ladi, demak, I nuqta S nuqtadan o`ngda joylashadi. Nurda nuqtalarning joylashishidan bolalarning bo`yi eng balandi Ikrom ekanligini aniqlaymiz.

2. To`plamlar elementlari orasida o`zaro bir qiymatli moslikni o`rnatishga doir vaziyatlarni xulosalar zanjirini qurish yo`li bilan, graflar yordamida yoki jadvallar tuzish yo`li bilan modellashtirish mumkin<sup>1</sup> . Bu tipdagi masalalarni:

a) xulosalar zanjirini qurish yo`li bilan yechishda uning shartida berilgan bog`lanishlar alohida-alohida xulosalar shaklida ifodalanadi va har bir xulosa natijasi keyingi xulosani keltirib chiqarish uchun asos bo`ladi va h.k.;

b) graflar yordamida yechishda berilgan to`plamlar elementlari nuqtalar bilan belgilanib, ular o`rtasidagi moslik kesmalar bilan tutashtiriladi; agar to`plam elementlari orasida qaralayotgan moslik o`rinli bo`lmasa (inkori bo`lsa), shtrix chiziqlar bilan tutashtiriladi;

v) jadvallar tuzish asosida yechishning ta`limiy ahamiyati shundaki, masala shartida berilgan bog`lanishlar va ulardan keltirib chiqariladigan xulosalar zanjirini qurish ko`rgazmali holda sistemalashtiriladi;

Masala. Anvar, Botir va Salim ko`paytirish jadvalini o`rganmoqda. Ulardan biri 5 ga, ikkinchisi 6 ga, uchinchisi esa 8 ga ko`paytirish jadvalini o`rganmoqda. Agar Botir 6 ga ko`paytirish jadvalini bilsa, Anvar esa 6 ga va 8 ga ko`paytirish jadvallari bilsa, bolalarning har biri nechaga ko`paytirish jadvalini o`rganmoqda.

Yechish. a) masalani xulosalar zanjiri qurish yo`li bilan yechamiz.

Botir 6 ga ko`paytirish jadvalini biladi, demak, u 5 ga yoki 8 ga ko`paytirish jadvalini o`rganishi kerak. Anvar 6 ga va 8 ga ko`paytirish jadvalini biladi, demak, u 5 ga ko`paytirish jadvalini o`rganayotgan bo`ladi. U holda Botir 8 ga ko`paytirish jadvalini o`rganayotgan bo`ladi. Demak, Salim 6 ga ko`paytirish jadvalini o`rganmoqda.

b) masalani graflar yordamida yechamiz.

Masala shartiga ko`ra, o`quvchilar ismlari to`plami va ular o`rganayotgan ko`paytirish jadvali to`plamiga egamiz. Birinchi to`plam elementlarini A, B va S nuqtalar (o`quvchilar bosh harflari) bilan, ikkinchi to`plam elementlarini 5, 6, 8 sonlari (ko`paytirish jadvali o`rganilayotgan sonlar) bilan belgilaymiz. Dastlab masala shartida berilgan bog`lanishlar asosida graf yasaymiz, so`ngra berilgan bog`lanishlardan keltirib chiqariladigan xulosalar zanjiriga asoslangan holda yechimni ifodalovchi grafni hosil qilamiz. Grafdan Anvar 5 ga ko`paytirish jadvalini, Botir esa 8 ga ko`paytirish jadvalini o`rganayotganligini aniqlaymiz. Demak, Salim 6 ga ko`paytirish jadvalini o`rganmoqda.

c) o`quvchilarda yuqorida ko`rib o`tilgan ikki usul bilan bu tipdagi mantiqiy masalalarni yechish ko`nikmalari tarkib toptirilgach, masalani endi jadval tuzish yo`li bilan yechishga o`tish mumkin.

Jadvalni to`ldirishga kirishishdan oldin o`quvchilar bilan “Bolalar qaysi songa ko`paytirish jadvalini o`rganayotgan bo`lsa “+” belgisi, o`rganmayotgan bo`lsa “-” belgisini qo`yishga kelishib olamiz.

Ko`paytirish jadvali	Ismlar		
	Anvar	Botir	Salim
5 ga ko`paytirish	+		
6 ga ko`paytirish	-	-	+
8 ga ko`paytirish	-	+	

<sup>1</sup> Стойлова Л.П., Конобеева Т.А., Шадрин И.В. Математика. Сборник задач: учеб.пособие для студ. учреждений высш.проф.образования.– М.: Издательский центр “Академия”, 2012. – 240 с. (Сер.Бакалавриат).

Masala shartiga ko'ra, Botir 6 ga ko'paytirish jadvalini biladi. Demak, u 6 ga ko'paytirish jadvalini o'rganmaydi. U holda "6 ga ko'paytirish" satri va "Botir" ustuni kesishish katakchasiga "-" belgisi qo'yamiz.

So'ngra masala shartida berilgan, shuningdek, ulardan keltirib chiqariladigan xulosalar zanjiri qurib, jadvalni to'ldiramiz:

- Anvar 6 ga va 8 ga ko'paytirish jadvalini biladi. Bundan u ushbu sonlarga ko'paytirish jadvalini o'rganmaganligi uchun mos katakchalarga "-" belgilarini qo'yamiz. Demak, Anvar 5 ga ko'paytirish jadvalini o'rganayotgan bo'ladi. "+" belgisini qo'yamiz.

- U holda Botir 8 ga ko'paytirish jadvalini o'rganayotgan bo'ladi. "+" belgi qo'yamiz.

- Agar Anvar 5 ga ko'paytirish, Botir 8 ga ko'paytirish jadvalini o'rganayotgan bo'lsa, u holda Salim 6 ga ko'paytirish jadvalini o'rganayotgan bo'ladi. "+" belgi qo'yamiz.

Jadvaldan Anvar 5 ga ko'paytirish, Botir 8 ga ko'paytirish, Salim esa 6 ga ko'paytirish jadvalini o'rganayotganligini aniqlaymiz.

Xulosa qilib aytganda bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisini metodik faoliyatga tayyorlashda mantiqiy masalalarni yechishning umumiy usullarni egallashga yo'naltirish ularda ijodiy faoliyatni rivojlantirishga asos bo'ladi. Jumladan mantiqiy masalalarni yechish jarayoniga modellashtirishning yuqorida ko'rsatilgan usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, mantiqiy masalalarni yechish jarayonida modellashtirishning yuqorida ko'rsatilgan usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi ko'rsatildi.

## YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Djumabayev J.Z.** – O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Muallif maqolada yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berishga harakat qilgan. Shuningdek, maqolada yoshlarni harbiy vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishda ta'lim muassasalari, tarixiy shaxslarning ilmiy-amaliy merosining o'ziga xos o'zni ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** yosh avlod, barkamollik, harbiy vatanparvarlik, Vatan, ta'lim, tarbiya, qadriyatlar, mustaqil fikr, buzg'unchi g'oyalar, illatlar, milliy mentalitet, tarixiy shaxslar, tarixiy asarlar.

## ОСОБЕННОСТИ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ВОЕННОГО ПАТРИОТИЗМА

**Джумабаев Ю.З.** – преподаватель Академии Министерства внутренних дел Республики Узбекистан

**Аннотация.** В статье освещены особенности воспитания молодежи в духе военного патриотизма. Также описана роль образовательных учреждений, научно-практического наследия исторических личностей в формировании военно-патриотических качеств молодежи.

**Ключевые слова:** молодое поколение, гармония, военный патриотизм, Родина, образование, воспитание, ценности, независимое мышление, разрушительные идеи, пороки, национальный менталитет, исторические личности, исторические произведения.

## FEATURES OF EDUCATION OF YOUTH IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM

**Djumabaev J.Z.** - Lecturer at the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

**Annotation.** In article features of education of youth in the spirit of military patriotism are described. Also the role of educational institutions, a scientifically-practical heritage of historic figures in formation of military-patriotic qualities of youth is described.

**Key words:** young generation, harmony, military patriotism, homeland, education, upbringing, values, independent thinking, destructive ideas, disease, national mentality, historical figures, historical works.

Har qanday mamlakat o'z kelajagini yoshlar timsolida, aniqrog'i, ularni jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol, harbiy vatanparvarlik fazilatlarini bilan yo'g'rilgan etib voyaga yetkazishda ko'rishi tabiiydir. Bu o'z navbatida mamlakatning kelajagini belgilab beruvchi yoshlarni haqiqiy vatanparvar bo'lib yetishishiga katta imkoniyat yaratadi. Shu sababli, mustaqillikning dastlabki kunlaridan respublikamizda yoshlarning barkamol inson bo'lib ulg'ayishiga alohida e'tibor berildi. Bu borada, ayniqsa, yoshlarimizning harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi uchun katta huquqiy, siyosiy, ijtimoiy asoslar yaratildi. Lekin mazkur sohada amalga oshirilgan tadbirlarimiz o'zining asosiy maqsadiga erisha olmadi.

“Vatan” tushunchasi ma'naviy qadriyat sifatida inson ongida har xil kamol topadi, vaziyatlardan kelib chiqib, turlicha talqin etiladi. Agar ularning barchasi nazarga olinmasa, qiyosiy tahlildan o'tkazilmasa, yosh avlod ruhiga singimaydi, oddiy bir shior darajasida qolib ketaveradi. Vatan (arab. o'sgan joy, yurt) – kishining tug'ilib o'sgan o'lkasi, shahri yoki qishlog'i, yurt, diyor yohud kishi tug'ilib o'sgan va o'zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat, ona yurt. Barcha tinchliksevar mamlakatlar singari O'zbekiston Respublikasida ham inson huquq va erkinligi, davlat va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, fuqarolar uchun erkin va farovon hayot kechirishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish kabi vazifalari mavjud. Albatta, mamlakat yoshlarida bu vazifalarni amalda ta'minlash ko'nikmasi ortgan, malaka va tajribasi shakllangan bo'lishi maqsadga muvofiq. Ularda harbiy vatanparvarlik qiyofasi yoshlikdan shakllangan bo'lishi mamlakat taraqqiyotida ham muhim o'rin tutadi. Shu maqsadda ham O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori bilan “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi” qabul qilindi. Unda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga jismonan va ma'nadan sog'lom avlodni tarbiyalashga oid yaxlit ta'lim-tarbiya tizimining uzviy va ajralmas qismi sifatida qaralib, O'zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi talablari asosida milliy va jahondagi ilg'or tajribalar, bugungi O'zbekiston hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilganligi ta'kidlandi. Darhaqiqat, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi umummilliy miqyosdagi vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki vatanparvar bo'lmagan inson o'z yurti, o'z xalqi uchun qayg'urmaydi, jonini fido qilmaydi. Zero, o'zbek ma'rifatparvari Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, har bir kishining tug'ilib-o'sgan shahar va mamlakatini shu kishining Vatani deyilur. Har kim tug'ilgan, o'sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto, bu Vatan his-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z Vatanidan – uyuridan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohat-farog'atda yashamas, maishati talx bo'lib, har vaqt dilining bir go'shasida o'z Vatanining muhabbati turar. Demak, inson ongli mavjudot sifatida o'z Vatanini ulug'lashi, taraqqiyoti uchun qayg'urishi, tinchligi, xavfsizligi uchun kurashmog'i uning vatanparvarligidan dalolat beradi. Ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan yoshlarni mana shu ruhda tarbiyalash mamlakat ravnaqi uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi. Asosiy qonunimizda “O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar”, deyilgan. Ushbu normadan kelib chiqib aytish mumkinki, mamlakatimiz barcha fuqarolari uchun insonparvarlik prinsipidan kelib chiqqan holda bir xil e'tibor qaratiladi. Shu sababli ham ozod va obod Vatanimizni sevish va qadrlash, u bilan faxrlanish, uning sarhadlarini mudofaa qilish vatanparvarlik namunasidir. Yoki Konstitutsiyamizning 52-moddasida “O'zbekiston Respublikasini himoya qilish — O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda

belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar", degan huquqiy normaning kiritilganligi ham har bir fuqaroga vatanparvarlik uning ajralmas burchi ekanligi anglatadi. Yoshlarimizda harbiy vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishni ularning kichik yoshligidan amalga oshirishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlarimizni harbiy vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish faqatgina ijtimoiy-ma'naviy masala bo'libgina qolmay, balki O'zbekiston Konstitutsiyasiga asoslangan holda siyosiy-huquqiy masala ekanligini yoshlarimizning ongi va tafakkuriga singdirdik, ularning vatanparvarligini yanada yuqori cho'qqilarga ko'tarish imkoniyati yuzaga keladi. Vatanga nisbatan chinakam sadoqat uni himoya qilishga ham qodir bo'lishni talab etadi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan mudofaasiga jismonan va ma'naviy jihatdan tayyorlash zarurligi hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Umumta'lim o'quv muassasalarida, o'rta maxsus va o'rta kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'quvchilarni, shu jumladan, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash endilikda ta'lim-tarbiya ishlarining barcha tizimlari orqali amalga oshirilmoqda. O'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash barcha turdagi faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri bo'lishi darkordir. Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim muassasalarida "Chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik" fani, ko'pchilik oliy ta'lim muassasalarida harbiy kafedralar, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida "Chaqiriqqacha harbiy ta'lim" yo'nalishi doirasida o'quvchi va talaba yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga e'tibor berilmoqda.

Yoshlar – Vatanimizning, millatimizning kelajagidir. Vatanimiz taqdirini ularga ishonib topshirar ekanmiz, avvalo, ular zimmalariga yuklatilayotgan murakkab va mas'uliyatli vazifani butun mohiyati ila chuqur anglashlari, unga o'zlarining hissalarini qo'shishlari lozim. Zero, Vatanni sevish, unga mehr-muhabbat qo'yish bevosita har kimning shu yurt ravnaqi yo'lida amalga oshirayotgan bunyodkorona ishlari bilan belgilanadi. Milliy o'zlikni anglashning rivojlanishida milliy vatanparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan, teran fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash kata ahamiyatga egadir. Shuning uchun Vatan himoyasiga tayyorlanayotgan yoshlarimizning har biri yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi shart.

Vatanparvarlik – yuksak insoniy fazilat hisoblanadi. Alisher Navoiy shahzoda Badiuzzamonga yozgan maktublaridan birida maqsad xususida shunday ibratli fikrlarini bayon etgan: "Odamning murod-maqsadi bo'lmasa, balolardan omon qolmaydi. Ammo har kishining murodi ko'proq bo'lsa, Haq taolo amriga itoati ko'proq bo'ladi". Vatani bor odamning g'urur-iftixori yuksak, maqsad-muddaosi aniq bo'ladi. Vatani – tog'dek tayanchi borligini his etgan inson har qanday sinovga, har qanday mashaqqatga doimo tayyor turadi. Shiroq, To'maris, Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur kabi xalq qahramonlarining jasorati, dushmanga qarshi kurash, Vatan ozodligi yo'lidagi mardligi va jonbozligi buning yorqin tasdig'idir. Mustaqillik tufayli xalqimiz o'zining haqiqiy tarixi haqida gapirish huquqiga ega bo'ldi, Vatan ozodligiga erishdi. Ta'lim muassasalarida o'quvchi, talaba, tinglovchi va kursantlarda vatanparvarlik hissini shakllantirish bosh g'oyamizning ma'no-mazmunini ularning ong-u shuuriga singdirish vositasida amalga oshiriladi. Ayrim holatlarda vatanparvarlik degan tushunchaning mazmuni noto'g'ri talqin etilib, unga bir tomonlama tavsif beriladi. Ya'ni vatanparvar deganda harbiy jasorat yoki qahramonlik ko'rsatgan shaxslar nazarda tutiladi. Bizning fikrimizcha, bu vatanparvarlikning muayyan bir ko'rinishidir. Vatanparvarlikning ko'rinishlariga mustaqil fikrlash, ma'naviyatlilik kabilar kiradi va shuningdek, maxsus kasbga ega bo'lish ham uning qirralarini ko'rsatib beradi. Haqiqatan ham, mustaqil fikr bo'lmagan joyda tobelik, ma'naviy tahdid mavjud bo'ladi. Mustaqil fikrga ega bo'lgan inson hech qachon o'zgalarga qaram bo'lmaydi. Mustaqil fikr yaratuvchanlik va bunyodkorlikning ma'naviy yo'lidir. Vatanparvarlikning shakli bo'lgan mustaqil fikrlash mavjud bo'lmagan joyda esa sotqinlik boshlanadi. Demak, yoshlarimizni mustaqil fikrlashga o'rgatishimiz ularni nopok yo'llardan asrab qoladi. Bejizga hadislarida "yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir" deyilmagan. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bu haqida bildirgan quyidagi fikrlari hammamiz uchun dusturulamal vazifasini o'tashi kerak: "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat

bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq". Yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish adolatparvarlik bilan ham mustahkam bog'liq. Inson umriga ma'no-mazmun baxsh etuvchi adolat haqiqatga rioya qilishda, har bir narsani o'z o'rniga qo'ya bilishda namoyon bo'ladi. Johillik, yalqovlik va bekorchilik, xudbinlik va hasadgo'ylik, qo'rqqoqlik, jur'atsizlik va takabburlik oxir-oqibatda Vatan taqdiriga befarqlikni vujudga keltiradigan illatlardan hisoblanadi. Bekorchilik – har qanday iste'dod uchqunini o'chirib, boshlangan har qanday ezgu niyat va intilishlarni yo'qqa chiqaradigan, qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlarning boy berilishiga olib keladigan illat. Bekorchilik oqibatida inson o'z hayotida xayoldan va xohish-istakdan nariga o'ta olmaydi. Inson umri oqar suv kabi tez o'tib ketadi. Xalqimiz maqollaridan birida ta'kidlanganidek, "O'tgan vaqt yo'qolgan oltindan qimmat". Shunday ekan, biz har bir soniya va imkoniyatdan oqilona foydalanishga intilishimiz lozim. Xulosa qilib aytganda, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda biz xalqimizning ming yillar davomida shakllanib va rivojlanib kelayotgan milliy mentalitetiga, ajdodlarimizning, tarixiy shaxslarimizning asarlari va fikrlariga, tarixiy asarlarga asoslangan holda faoliyatimizni tashkil etishimiz muhim o'ringa ega. Bu esa o'z navbatida yoshlarimizda Vatan ravnaqiga g'ov bo'ladigan harakatlarga yo'l qo'ymaslik, ularga nisbatan murosasiz bo'lish ham Vatanga muhabbat hissini kamol toptirishiga xizmat qiladi.

#### **ИНТЕГРАТИВНЫЙ ПОДХОД КАК СОВРЕМЕННОЕ НАПРАВЛЕНИЕ ВЫСШЕГО МУЗЫКАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**Тригулова А.Х.** - доцент Ташкентского государственного педагогического университета

**Аннотация.** Эта статья рассказывает о совершенствовании музыкального образования и высшего образования.

**Ключевые слова:** Системный подход, интегративные связи, жанр, стиль, форма, интонационный язык.

#### **INTEGRATIVE APPROACH AS A MODERN DIRECTION OF HIGHER MUSIC AND PEDAGOGICAL EDUCATION**

**Trigulova A.Kh.** - Associate Professor, Tashkent State Pedagogical University

**Annotation.** Annotation. This article talks about improving music education and higher education.

**Key words:** system approach, integrated communication, genre, style, form, musical language.

#### **ИНТЕГРАТИВ YONDASHUV OLIY MUSIQAVIY-PEDAGOGIK TA'LIMNING ZAMONAVIY YO'NALISHI SIFATIDA**

**Trigulova A.X.** - Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy musiqaviy-pedagogik ta'limni takomillashtirish haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** tizimli yondashuv, integrativ aloqa, janr, uslub, shakl, intonatsiya tili.

В Постановлении Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему развитию и совершенствованию сферы культуры и искусства» от 31.05.2017 ставится задача дальнейшего повышения культурно-духовного уровня молодежи посредством регулярного привлечения ее к искусству, в частности, посещения театров, музеев, концертов, приобщения к лучшим образцам национальной и мировой культуры. В нем также указывается на необходимость изучения потребностей образовательных учреждений сферы культуры и искусства в квалифицированных кадрах и специалистах, создания эффективной системы их подготовки, переподготовки и повышения квалификации, использования для этого современного передового опыта, проведения творческих встреч и мастер-классов с известными зарубежными музыкантами и композиторами, обеспечение образовательных учреждений сферы учебными программами и нотами, пособиями и учебниками, научно-методической литературой. Решение данных задач возможно в направлении совершенствования подготовки учителей музыки в средней школе как носителей музыкальной культуры в образовательном учреждении, осуществляющих музыкальное воспитание молодого поколения в массовом масштабе. В настоящее время ученые, преподаватели музыкальных колледжей, вузов (кафедр) по-разному подходят к вопросу о профессиональной подготовке учителей музыки. Как показал анализ научных источников и практики преподавания специальных музыкальных предметов в вузах, ее совершенствование происходит наиболее успешно по таким направлениям, как реализация комплексного, интегрированного, интерактивного подходов в процессе профессионального обучения. Сложность музыкального искусства, освоение его сущности, длительность формирования навыков вызывает необходимость синтеза, интеграции понятий, умений, психических процессов, различных видов музыкальной деятельности. В самом широком смысле под интеграцией понимается объективный процесс объединения дифференцированных ранее элементов в новое качество, характеризующееся таким признаком, как целостность. Интеграция связана с качественными и количественными преобразованиями ранее разобренных элементов. При этом интегративный процесс, как правило, сопровождается усилением (умножением) педагогического эффекта. В ряде научных исследований по музыкальной педагогике применяется также термин «полифункциональная подготовка учителя музыки»<sup>1</sup>. Под ним подразумевается такая структура и содержание учебных занятий, которые формируют у студентов универсальные профессионально-значимые музыкально-теоретические знания, исполнительские умения и навыки, организационно-коммуникативные способности, необходимые для организации различных видов и форм художественно-творческой и культурно-досуговой деятельности обучающихся. Вся совокупность профессиональных требований к будущему учителю музыки может получить целостное теоретико-методическое и практическое отражение в структуре и содержании профессионального обучения при разработке и реализации специальных педагогических условий формирования интегративной - художественно-исполнительской и педагогической подготовки в процессе обучения по направлению «Музыкальное образование» в педагогических вузах.

Так, курс «Сольфеджио» включает в себя интонирование номеров-музыкальных отрывков, знакомство студентов с образцами вокальной и инструментальной музыки от европейского Ренессанса до XXI века. Сольфеджирование, диктант, слуховой анализ в курсе «Сольфеджио» способствует накоплению «интонационного багажа» и формированию слухового опыта в осознании и умении определять особенности музыкального языка того или иного композиторского стиля, эпохи. Механизм интеграции содержит в себе большой потенциал для профессионального становления будущих учителей музыки. Такие базовые понятия из теории

<sup>1</sup> Печерская А.Б. Формирование творческой активности студента в концертмейстерском классе// Искусство в школе. – М., 2009. – № 2. – С.77



музыки, как звук, интервал, аккорд, лад, получают дальнейшее развитие, расширяется сфера их применения студентами не только на всех предметах музыкального цикла, но и в своей дальнейшей профессиональной деятельности. Рассмотренные понятия находят свое дальнейшее развитие в курсе «Гармонии» — науке об объединении звуков в созвучия и связанной последовательности таких созвучий. Курс «Гармонии» прослеживает эволюцию звуковысотных структур на примере музыки от XVII до XXI веков, знакомит студентов с принципами соединения аккордов в четырехголосном изложении, выработанными художественной практикой, правилами голосоведения. Курс «Анализ музыкальных форм» предполагает знакомство с основными формами на примере музыкальных произведений композиторов XVII — XXI веков. По сложившейся традиции анализ музыкальных произведений заключается в определении формы произведения, его образно-эмоционального содержания, выявлении средств музыкальной выразительности. Взгляд на теоретические предметы как на интегрирующий фактор позволяет выделить их дидактические функции. Эти предметы придают всему образовательному процессу целостность и системность. Они позволяют проследить становление и развитие отдельных жанров, форм и стилей в музыке в историческом развитии, они расширяют образовательный кругозор студентов, уровень их компетентности в теоретическом и историческом аспекте. Могут применяться различные виды интеграции:

- жанр (род и вид музыкального творчества) – стиль (эстетическая концепция, системность выразительных средств) – форма (целостная организация музыкальных элементов);

- взаимосвязь музыкально-теоретических предметов;

- музыкально-теоретический цикл предметов как основа и принцип взаимосвязи исполнительских дисциплин - Теория музыки-Сольфеджио-Гармония-Анализ музыкальных форм – История музыки;

- взаимосвязь исполнительских предметов - Основной инструмент – Хоровое дирижирование - Постановка голоса;

- взаимосвязь исполнительских предметов и коллективного музыкального исполнительства (хоровое пение).

Как показали результаты зачетов, тестирования, творческих экзаменов, педагогической практики, интегративный подход к подготовке будущих учителей музыки в процессе изучения ими специальных музыкальных дисциплин позволяет достигать хороших результатов развития по художественно-исполнительской подготовке, владению методикой работы над вокально-хоровым произведением, использованию интонационно-стилевого подхода к освоению педагогического и концертного репертуара. В настоящее время интегративный подход еще не получил широкого распространения по направлению «Музыкальное образование» в республиканских педагогических вузах. Он предполагает объединение усилий всех преподавателей музыкального цикла, наличие у них глубоких знаний и эрудиции, владение методикой интегративного обучения. Изучаемые в рамках всех музыкальных дисциплин произведения обязательно должны разбираться с музыкально-исторической (эпоха, история создания), интонационно-ладовой (тональность, лад), гармонической (гармония, модуляции), жанрово-стилистической, формообразующей, образно-эмоциональной, интерпретационной сторон. Мы считаем, что использование знаний и умений студентов по музыкально-теоретическим дисциплинам на занятиях по дирижированию, музыкальному инструменту (фортепиано, народные инструменты), в концертмейстерском и хоровом классе будет способствовать стимулированию интеллектуальной и эмоционально-волевой сфер личности будущих учителей, всесторонне развивать их профессиональные качества.

**XIX АСР ОХИРИ - XX АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОНДАГИ ШАҲАР МАҲАЛЛАЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ ТОПОНИМИЯСИ ХУСУСИДА**

**Ишқуватов В.** – Тошкент давлат педагогика университети доценти, тарих фанлари номзоди

**Аннотация.** Мақолада XIX аср охири - XX аср бошларида Туркистондаги шаҳар маҳаллаларининг номлари, уларнинг этимологияси, турлари, классификацияси хусусида сўз юритилган. Унда шаҳар кўчалари ва дарвозаларининг номлари ҳамда уларнинг вазифаларига ҳам қисқача тавсиф берилган.

**Калит сўзлар:** Туркистон, шаҳар, маҳалла, топоним, XIX аср охири - XX аср бошлари, аҳоли, ишлаб чиқариш, савдо, топография, кўча, дарвоза, жой номлари.

**ОБ ИСТОРИЧЕСКОЙ ТОПОНИМИИ ГОРОДСКИХ МАХАЛЛЕЙ ТУРКИСТАНА КОНЦА XIX ВЕКА - НАЧАЛА XX ВЕКОВ**

**Ишқуватов В.** - доцент Ташкентского государственного педагогического университета, кандидат исторических наук

**Аннотация.** В статье рассматриваются названия городских махаллей в Туркестане конца XIX - начала XX вв., их этимология, виды и классификация. В ней даётся краткое описание улиц и ворот города, а также их функции.

**Ключевые слова:** Туркестан, город, окрестности, топонимика, начало XIX - начало XX века, население, производство, торговля, топография, улица, ворота, название мест.

**TOPONYMY OF VILLAGES IN SMALL TOWNS IN TURKISTAN CITY AT THE END OF XIX CENTURY AND IN THE BEGINNING OF XX CENTURY**

**Ishkuvatov V.** - Associate Professor, Tashkent state pedagogical university, candidate of historical sciences

**Annotation.** The article discusses the names of urban mahallas in Turkestan of the late XIX - early XX centuries, their etymology, types and classification. It provides a brief description of the streets and gates of the city, as well as their functions.

**Key words:** Turkestan, city, neighborhood, toponymy, beginning of XIX - beginning of XX century, population, production, trade, topography, street, gate, name of places.

Маълумки ўтмишда ҳар бир маҳалла алоҳида топоним сифатида ўз номига эга бўлган. Уларнинг номлари шу ернинг табиий-географик ҳолати, топографияси, аҳолининг ижтимоий, этник ва диний мансублиги, турмуш тарзини ифодалаган. XIX аср охири - XX аср бошларида Туркистондаги шаҳар маҳаллаларига тавсиф берар эканмиз, маҳаллалар номларини таҳлил қилган ҳолда уларни 5 гуруҳга бўлишни лозим топдик:

Биринчи гуруҳ: алоҳида машҳур шахслар номлари билан аталувчи топонимлар; Иккинчи гуруҳ: муқаддас қадамжолар, қабристонлар номлари билан аталувчи топонимлар; Учинчи гуруҳ: кишиларнинг касб-кори, машғулоти билан аталувчи топонимлар; Тўртинчи гуруҳ: ишлаб чиқариш, савдо, тижорат турлари билан боғлиқ топонимлар; Бешинчи гуруҳ: шаҳар топографияси билан боғлиқ жой номлари, яъни топонимлар (хусусан, кўча, ҳовуз, карвонсарой ва бошқа)

Тарихий топонимлар орасида машҳур кишилар номи билан аталувчи маҳаллалар номлари, яъни топонимларни кўпроқ учратиш мумкин. Кишилар номи билан аталувчи аксарият маҳаллалар

Ўтмишда ўзига тўқ, бадавлат хон, бек, амир, сайид авлодлари номлари билан аталган. Жумладан ўрта асрларда Бухоро шаҳри маҳаллаларида Шайбонийхон, Аштархоний авлодларидан *Искандархон, Боқи Муҳаммадхон, Амир Ёрмуҳаммадхон, Абдулфайзхон, Муҳаммадиёр оталиқ, Қамбар оталиқ, Мехтар Акбар, Мехтар Ориф, Мехтар Шохбек* ва бошқалар. Айрим маҳаллалар шаҳардаги бой аслзодалар, бадавлат кишилар, ҳарбийлар номлари билан ҳам аталган. Масалан, *Асқар бий, Боҳодир бий, Мусурмон қушбеги, Қўчқор қушбеги, Нодир қурчи, қози Мир Ҳошим, қози Файзи, қози Нуриддин, қози Зоҳид* ва бошқа топонимлар шулар жумласидандир. Маҳаллалар айниқса Мавороуннаҳрда сўнги ўрта асрларда янада ривожланган. Бу вақтга келиб маҳаллаларда аҳоли касб-корига кўра алоҳида алоҳида истиқомат қила бошлаганлар. Хусусан, темирчилар, қуролсозлар, тикувчилар, чармдўзлар, гиламдўзлар, кулоллар, қурувчилар, саррофлар шаҳар ва қишлоқларнинг алоҳида жойларида яшаганлар. Агар Бухоро шаҳри маҳаллалари тарихий топонимиясига эътибор қаратилса, кўпчилик маҳаллалар диний уламолар, авлиёлар номи билан ҳам аталган. Буларга *Хожа Порсо, Хожа Зайниддин, Хожа Рофеъ, Жафар Хожа, Ўзбек хожа, Олим хожа, Хожа Саъад Жуйборий* ва бошқалар номларини киритиш мумкин<sup>1</sup>. Маҳаллалар қаторида машҳур қадамжолар мазорлар номи билан аталувчи жой номлари ҳам учрайди. Хусусан, Тошкентда *Кафол Шоший, Шайх Ҳованди Тохур, Занги ота*, Фарғонада *Имом Муҳаммад Ғаззолий*, Самарқандда *Махдуми Аъзам*, Бухорода *Баховуддин Нақшбанд, Абдухолиқ Ғиждувоний* каби маҳаллаларнинг номлари шулар жумласидандир. Ўтмишда маҳаллалар маълум уруғ, қабила, этник гурӯҳ, халқ номлари билан ҳам аталиб келинган. Масалан XIX ва XX асрлардаги маҳаллаларга тавсиф берар эканмиз, *Чиғатой, Дўрмон, Уйғур маҳалла, Қатағон, Қорахон, Саидота, Қанғли, Хўжаобод, Калтатой, Тожик, Қашқар, Қутчи, Эшонгузар, Хўжакент, Туркмановул* каби номлар билан аталувчи маҳаллалар Тошкент, Бухоро, Самарқанд, Термиз каби шаҳарларда бўлган. Бухоро, Нурота шаҳрларида сўнги ўрта асрларда ўзбек уруғлари номи билан аталувчи маҳаллалар билан бирга, тожикча уруғлар номи билан аталувчи номлар ҳам кўпчиликни ташкил этган<sup>2</sup>. Кўпчилик маҳаллалар номи ўша маҳаллада истиқомат қилаётган аҳолининг касб-кори, машғулоти акс эттирган. XIX аср охири - XX аср бошларида Бухоро, Тошкент, Термиз, Хўжанд, Нурота, Қўқон каби шаҳарларда *Тақачи, Дегрезлар, Сўзангарон, Косагарон, Совунгарон, Бўйрабофон, Пўстиндўзон, Мурдашўён, Писташканон, Ғассоллар* маҳаллалари бўлган. Улар аҳолининг касб-корига кўра *Темирчилар, Мисгарлик, Тақачи, Дегрезлик, Заргарлик, Эгарчи, Парчабоф, Бўйрачи* ва шу каби номлар билан атаб келинган<sup>3</sup>. Сўнги ўрта асрлар ва ундан сўнг кўплаб маҳаллалар машҳур олим-уламолар, давлат ва жамоат арболари, ёзувчи ва шоирлар, диний уламо ва авлиёлар номлари билан аталган. Улар қаторида *Алишер Навоий, Захриддин Муҳаммад Бобур, Абдурахмон Жомий, Ҳофиз Кўҳакий, Юнусхон, Ҳазрати Имом (Хастимом), Хожа Аҳрори Валий, Боборахим Машраб, Фурқат, Ғафур Ғулом* ва бошқа номларини келтириш мумкин. XIX аср охири - XX аср бошларига келиб шаҳар маҳаллалари тарихий топонимлари орасида кўчалар номларининг ҳам ўрни катта бўлган. Одатда кўчаларнинг катта-кичиклигига қараб (Катта кўча), маҳалла номи билан (Қоратош кўча, Ўқчи кўча), шу кўчада, яшаган бирор таниқли шахс номи билан (Мурод кўчаси, Ҳазрати Имом кўчаси), шаҳардан қайси томонга қараб чиқилишига кўра (Паркент йўли, Қўқон йўли, Зангиота йўли, Чимкент йўли), жой рельефининг тузилишига қараб (Пасткўча, Баландкўча, Жаркўча), шу кўчадаги бирор машҳур жой номи билан боғлиқ (Эски Намозгоҳ кўчаси) ёки касб-ҳунар билан боғлиқ (Парчабоф, Дегрезлик, Этикдўзлик, Пичоқчи) номлар берилган<sup>4</sup>. Кўчаларга маҳаллий номларни бериш Россия империясининг қаттиқ назоратида бўлганлиги боис, Тошкент эски шаҳар ҳудудидаги айрим катта кўчаларга маҳаллий

<sup>1</sup> Сухарева О.А Кавартальная община позднефеодального горда Бухары. М., 1976.

<sup>2</sup> Дала ёзувлари. Навоий вилояти Нурота тумани.

<sup>3</sup> Дала ёзувлари. Навоий вилояти Нурота тумани.

<sup>4</sup> Бўриева Х. Тошкент шаҳрининг тарихий топонимияси. (XIX аср охири – XX аср бошлари). Т., 2009 45 бет.

аҳоли томонидан берилган номлар 1893 йили 13 майда Тошкент шаҳар Думасиниинг 14-мажлисида кўриб чиқилади ва тасдиқланади.

Мазкур дума мажлиси баёнида "Кўча номларини ёзма равишда қонунлаштириш лозим", - деб ёзилган эди. Қабул қилинган қарорга кўра, 18 та кўчанинг номи расмий тасдиқланган. Бу қуйидагилар: Шайхонтохур кўчаси, Жаркўча, Ўқчи кўчаси, Оқмасжид кўчаси, Қуйи Оқмасжид кўчаси, Чархчилик кўчаси, Себзор кўчаси, Қорасарой кўчаси, Хазрат Имом кўчаси, Сағбон кўчаси, Чиғатой кўчаси, Кўкча кўчаси, Самарқанд кўчаси, Чақар кўчаси, Арпапоя кўчаси, Камолон кўчаси, Анҳор кўчаси кабилар. Ўтмишда шаҳар маҳаллаларининг муҳим жиҳатларидан яна бири, у ерда махсус сув иншооти, ҳовузларнинг мавжудлиги бўлган. Сўнги ўрта аср Бухоро маҳаллаларига тавсиф берган О.А. Сухареванинг ёзишича шаҳардаги 220 та маҳаллада 585 та ҳовуз бўлган<sup>1</sup>. Уларнинг суви билан шаҳардаги аҳоли таъминланиши билан бирга, экинларни суғориш учун ариқларга сув оқизилган. Уни тоза-озода сақлаш ҳамда сувдан фойдаланиш масаласига маҳалла оқсоқоллари жавобгар бўлганлар. Шаҳарлардаги маҳаллаларга махсус дарвозалар орқали кирилган ва уларнинг топонимик номи ҳам ўзига хос. Жумладан Тошкентда 12 та, Бухорода 11 та, Самарқандда 7 та дарвоза бўлганлиги ҳақидаги маълумотлар тарихий манбаларда учрайди. О.А.Сухарева "Кавартальная община позднефеодалного города Бухары" номли асарида Бухородаги қуйидаги дарвозалар номларини келтириб ўтади: Самарқанд дарвоза, Қарши дарвозаси, Саллахона, Ғарбий дарвоза ва ҳ.к. Шаҳарлар дарвозалари ҳақида, ёзма манбаларда маълумотлар учрасада, фақатгина айрим шаҳарлар дарвозалари жойлашган жой ва уларнинг номларини эслатиб ўтилади холос. Жумладан, Афросиёбда тўртта дарвоза бўлиб, улар Бухоро, Кеш, Хитой ва Навбахор дарвозалари. Улардан Бухоро дарвозаси қисман яхши сақланган. Ёзма манбаларда Фарғона водийсидаги шаҳар маҳаллалари ва дарвозалари тўғрисида камроқ бўлса-да маълумотлар учрайди. Хусусан, уларга кўра Ўшда учта, Ўзганда тўртта, Ахсикетда бешта дарвоза бўлган<sup>2</sup>. Уларнинг жойлашган ўрни ҳисобга олиниб, ўз номларига эга бўлганлар. Шаҳарлар майдони кенгайиши билан дарвозаларнинг ўрни, номи, сони ҳам ўзгариб турган. Жумладан, 1738-1739 йилларда Тошкентга юборилган биринчи рус савдо карвонининг бошлиғи Миллернинг ёзишича шаҳар дарвозалари 8 та, 1800 йилда ташриф буюрган М.Посепеловнинг ёзишича 6 та, Филипп Назаровнинг 1813-1814 йилларга оид маълумотларида 12 та деб кўрсатилган<sup>3</sup>. Унда ҳатто дарвозаларнинг шаҳарнинг қайси томонда жойлашганлиги тўғрисидаги маълумотлар ҳам учрайди. Жумладан Самарқанд дарвоза жануби-ғарбда, Бешёғоч, Терсариқ дарвозалари жанубда; Шайхонтохур дарвозаси шарқда; Тарсахон дарвозаси шимоли – ғарбда Капкан (Қопқа) дарвозаси шимолда; Точки (Кўкча) дарвозаси ғарбда жойлашган. Тошкент шаҳрининг сўнги девори XIX аср бошларида Бекларбеги ҳокимлиги даврида қайта тикланган. Унинг атрофи бўйлаб Қўймас, Қўқон, Қашқар, Лабзак, Тахтапул, Қорасарой, Сағбон, Чиғатой, Кўкча, Самарқанд, Камолон, Бешёғоч каби 12 дарвозалари қурилган. Сўнги ўрта асрлар, хусусан XIX аср охири – XX аср бошларида ҳар бир маҳаллада 50-150<sup>4</sup>, баъзан 200-250<sup>5</sup> тагача хонадон бўлган. Хусусан О.А.Сухареванинг ёзишича XIX аср охири – XX аср бошларида Бухоро шаҳри марказида жойлашган Чор Баққоли, Дарвозаи Самарқанд маҳаллаларида – 112 та, Олим Хўжа маҳалласида 110 та, Бўйрабаффон маҳалласида 110, Мир Тохури Девон маҳалласида 120 та, Жафар Хўжа маҳалласида 104 та, Имом Қози хон маҳалласида 100 та хонадон бўлган. Корхона маҳалласида 101 та, Чуббоз маҳалласида 100 та хонадон, Аравон маҳалласида 120 хонадон, Эшон пир маҳалласида 100-150 та, Абдулло хўжа маҳалласида 100 дан ортиқ, Хонақо маҳалласида 105 та, Чақар маҳалласида 100, Халифа Худойдод маҳалласида 148 та, Чуқур маҳаллада 160-180 хонадон, Мир Дўстумда 150 та, Шишахона маҳалласида 100 та, Дўст Чўрғоси маҳалласида 120 та, Чохи

<sup>1</sup> Сухарева О.А Кавартальная община позднефеодалного города Бухары. М., 1976.

<sup>2</sup> Анорбоев А., Исломов У., Матбобоев. Б. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. Т., 2001 59- бет.

<sup>3</sup> Мухаммаджонов А. Қадимги Тошкент. Т., 2002.61 бет.

<sup>4</sup> Сухарева О.А Кавартальная община позднефеодалного города Бухары. М., 1976.

<sup>5</sup> Бўриева Х. Тошкент шаҳрининг тарихий топонимияси. // XIX аср охири - XX аср бошлари. Т., 2009. 37 бет.

занжир маҳалласида 160 та хонадон бўлган<sup>1</sup>. Шаҳар марказига яқин маҳаллаларда аҳоли нисбатан чиз жойлашган.

Гувоҳи бўлганингиздек ўтмишда маҳаллаларнинг тарихий топоним сифатидаги ўзига хос ўрни бўлган. Уларнинг номлари маҳаллаларнинг табиий-географик ҳолати, топографияси, аҳолининг ижтимоий, этник ва диний мансублиги, турмуш тарзини ифодалаганлигини кўриш мумкин. Ўзбекистон мустақиллиги қўлга киритилгандан сўнг ўзбек халқига хос ушбу анъанавий қўни-қўшничилик жамоаси барча шаҳар ва қишлоқларда яна ўзининг азалий номи «маҳалла» атамаси билан юритиладиган бўлди, у ердаги жой номлари ҳам ўзининг анъанавий номига эга бўлди. Шу муносабат билан ҳозирги даврда маҳалла ва у билан боғлиқ тарихий топонимлар ва уларнинг ўзига хослигини илмий ўрганиш янада долзарб аҳамият касб этишини таъкидлаш ўринли.

### TABIAT HODISALARI VA ULARNING XALQLAR TURMUSH TARZIGA TA'SIRI TARIXI

**Norboyev A.O.** –Toshket davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada insoniyat tarixi tabiat va uning hodisalari bilan uzviy bog'liqligi, kishilik hayoti tabiatning ajralmas bir qismi ekanligi hamda unda yuz berayotgan tabiiy jarayonlarni ijtimoiy hayotga ta'siri ko'rsatib berilishi bilan birga ijtimoiy-siyosiy tuzumlarining raqobati ostida tabiatga yetkazilgan zararlar tarixiy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** tabiat, tabiat hodisalari, texnogen, tabiiy, ekologik ofatlar, antropogen ta'sir, siyosiy raqobat, zilzila, suv toshqini, sel, seysmologiya, davlat tizimi, muhofazalanish tadbirlari, xavfli omillar, barqaror taraqqiyot.

### ИСТОРИЯ ВЛИЯНИЯ ПРИРОДНЫХ ЯВЛЕНИЙ НА ОБРАЗ ЖИЗНИ НАРОДОВ

**Норбаев А.О.** - старший преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

**Аннотация.** В статье сделан исторический анализ связи истории человечества с природой и ее явлениями, жизни человека как неотъемлемой части природы, а также влияния происходящих природных процессов на социальную жизнь. На ряду с этим проведен исторический анализ ущерба, нанесенного окружающей среде конкуренцией социально-политических структур.

**Ключевые слова:** природа, природные явления, техноген, природные, экологические катастрофы, антропогенное влияние, политические структуры, землетрясения, наводнения, сель, сейсмология, государственные системы, защитные мероприятия, опасные факторы, стабильное развитие.

### THE HISTORY OF NATURAL PHENOMENA AND ITS INFLUENCE ON THE LIVES OF PEOPLES

**Norboyev A.O.** - senior lecturer at Tashkent state pedagogical university

**Annotation.** Relationship between human history and nature, human life is an integral part of nature, and the impact of natural processes on the social life, the damage caused to the environment by the competition of social and political structures were historically analysed in the article.

<sup>1</sup> Сухарева О.А Квартальная община позднефеодалного города Бухары. М., 1976.

**Key words:** nature, natural phenomena, technical, natural, environmental disasters, anthropogenic impact, political competition, earthquakes, floods, seismology, state systems, protection measures, hazardous factors, sustainable development

Tarixda tabiat va uning hodisalariga obyektiv qarash qadimdan shakllanib kelganligi ma'lum. Biroq o'tgan asrda tarixda yuz bergan davlat tuzumlari tabiatni insoniyatga bo'ysundirish harakati bilan boshlandi va u tabiat inson uchun xizmat qilish kerak, degan fikr shakllantirildi. O'tgan asrda insoniyat olamining ikki yirik lagerga ajralishi, dunyoga o'z hukmronligini o'rnatish g'oyasining ilgari surilishi, yaratilgan har qanday fan yangiliklarini hukmronlik mafkurasi tomon burib yuborishga olib keldi. Bu esa nafaqat harbiy sohani, balki iqtisodiy, ma'naviy – ma'rifiy yo'nalishlarni ham shu mafkura uchun xizmat qildirishga majbur etdi. Kashfiyotlar qanchalik dahshatli oqibatlariga olib kelmasin, avvalo, u tizimning hukmronligini ta'minlashga yordam berishi lozim deb topildi. Har qanday fan, ayniqsa, texnik fanlarning shitob bilan rivojlanishi harbiy sohaga yo'naltirildi. Ommaviy qirg'in qurollari miqdorini, shuningdek, uni yo'q qilish, shikastlash hamda zararlash ko'lamini oshirib borishga alohida e'tibor qaratildi. Ikki siyosiy lager o'rtasidagi kurash faqatgina shu bilan tugamadi. Balki, ikkinchi jahon urushi tugashi bilanoq, "sovuq urush" tushunchasi kirib keldi va avj oldi. 1960-yillarda bu kurash kosmosni zabt etish, unda gegemonlik o'rnatish bilan davom etdi.

Gegemonlikka intilgan davlatlar o'rtasidagi kurash iqtisodiy sohani ham qamrab oldi. Bugungi kunda o'zga davlatlar va xalqlarga iqtisodiy yordam ko'rsatish niqobi ostida ulkan gidrotexnik inshootlar barpo etildi. Hozirgi kunda bunday inshootlar soni dunyo bo'yicha 100 mingdan ortiqni tashkil etadi<sup>1</sup>. Bu gidrotexnik inshootlarning umumiy maydoni o'nta Azov dengizidan ham katta hududni tashkil etadi. Bu bilan ularga yordam ko'rsatishgina emas, balki ularni o'ziga qaram qilib turish masalasi dolzarbroq edi.

Ikkinchidan, qaram mamlakatlarda sanoatni rivojlantirish emas, ularga tayyor mahsulot yetkazib, xomashyo bazasiga aylantirish bu siyosatning o'zagini tashkil etar edi.

Uchinchidan, Osiyo, Afrika hamda Lotin Amerikasidagi qoloq mamlakatlar yirik davlatlar iqtisodiyotiga mute qilib qo'yildi. Traktorlar, og'ir yuk mashinalari, transport vositalari, yerlar hosildorligini oshirish uchun ishlatilishi kerak bo'lgan kimyoviy moddalar u davlatlarga yetkazib berilar edi. Bu gegemonlikka intilayotgan davlatlarda og'ir sanoatni rivojlantirish, kimyoviy zavodlarni qurish va boshqa inshootlarning ishlashi uchun yangidan-yangi energiya manbalarini yaratish zarurati paydo bo'ldi.

To'rtinchidan, gegemonlikka intilish, nafaqat harbiy yoki iqtisodiyotni, balki ma'naviy sohani ham qamrab oldi. O'z maqsadiga erishish uchun ular o'ziga qaram deb hisoblagan xalqlar tarixiga, qadriyatlariga, e'tiqodlariga qaqshatqich zarba berishga kirishdi. Bular hayotiy omil bo'lgan, suv, havo va tuproqning ifloslanishiga, oqibatda turli tUSDagi favqulodda vaziyatlarning ortib borishiga sabab bo'ldi. Chunki ularning hammasi tabiat ne'matlarini nooqilona o'zlashtirish evaziga yuz bergan edi.

O'tgan asrda insoniyat tarixida misli ko'rilmagan texnik qobiq yaratildi. Tabiatdan shunchalik ko'p narsa undirildiki, o'tgan asrning keyingi 45-50-yillarida o'zlashtirilgan ne'matlar insoniyat tarixi davomida o'zlashtirganidan ham ko'proqdir.

O'tgan asrda maqtalib, oqibatda o'zini oqlamagan bunyodkorlik ishlaridan biri – yirik suv inshootlarining barpo etilishi bilan bog'liq. O'tgan yuz yilda 1000 dan ortiq gidrotexnik inshootlarda avariya sodir bo'ldi. Masalan, O'zbekistonda 1969-yilda Chordara suv omborida yuz bergan avariya oqibatlaridan aholini muhofaza qilish uchun 21 mlrd m<sup>3</sup> suv Aydar-Arnasoy ko'li tomon yo'naltirildi. Yoki 1963-yilda Italiyaning Vayont suv omborida tog' qulab tushishi oqibatida 25 mln.t. suv to'g'ondan oshib o'tdi, Pyave daryosi vodiysida balandligi 70 m. bo'lgan to'lqin hosil bo'ldi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Ilyosova Z.F., Hayot xavfsizligi asoslari. – T.: "Moliya", 2001. – 173-6.

<sup>2</sup> O'sha joyda, 174-6er

O'gan asrda suvdan nooqilona foydalanish shu darajaga yetdiki, bir avlod umri davomida yirik bir dengizning qurishiga, oqibatda mintaqada iqlim o'zgarishiga, boshqa xalqlar va davlatlarga tuz, chang va qumlarning ko'chib borayotganiga sabab bo'ldi. Bu esa turli xildagi kasalliklarning ko'payishiga olib keldi.

XX asrning muhim xususiyatlaridan biri sanoat ishlab chiqarishining shiddat bilan o'sishidan iboratdir. Bu esa suv va suv zaxiralari, tuproq va havo tarkibining ifloslanishiga olib keluvchi sabablardan biridir.

Bugun dunyo siyosatida ustunlikka ichimlik suvi zaxiralari shakllanayotgan hududlardagi davlatlar da'vo qilmoqdalar. Holbuki, o'tgan yuz yillikning ikkinchi yarmida planetamizning 9 mintaqasida davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlarga aynan ichimlik suvi sabab bo'ldi. Chunki, ichimlik suvi hozirgi kunda eng savdosi chaqqon mahsulotga, dunyo siyosatidagi asosiy masalaga aylandi.

Ta'kidlash joizki, mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotida suv muhim o'rin tutadi. Lekin mintaqada shakllanayotgan suv zaxiralari asosiy qismi Tojikiston va Qirg'iziston respublikalari hududlarida shakllanadi. Demak, suv Respublikamiz taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega. Mintaqa mamlakatlari hududidagi suv zaxiralari taxminan 170 km<sup>3</sup> ni tashkil etadi. Ularning asosiy qismi O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston respublikalari tog'liklaridagi 315 ta yirik ko'llarda, yer ostida, suv omborlarida joylashgan. Bu obyektlar suvga bo'lgan ehtiyojni qondirish bilan birga turli ko'rinishdagi favqulodda vaziyatlar xavfini ham saqlab turadi. Bugungi kunda katta xavflardan biri – foyda ketidan quvib, yangi mahsulotlar turini yaratishga bo'lgan harakatning ortib borishidir. Masalan, Yer yuzida tamaki chekuvchilar soni yildan yilga ortib, u yosharib bormoqda. Ma'lumotlarga qaraganda, dunyoda kashandalar soni 1,3-1,5 mlrd kishini tashkil qiladi. Ularning har biri bir kunda o'rtacha 5 donadan tamaki mahsuloti iste'mol qilsa, jami 6,5-7,5 mlrd donagacha sigareta chekiladi. Uni qadoqlash uchun 325-375 mln dona quti kerak bo'ladi. Bir kunda tashlab ketilgan va tabiiy suratda yemirilishi 1,5 yilgacha bo'lgan sigareta qoldiqlari ham shu 6,5-7,5 mlrd donani tashkil qiladi. Bu oddiy arifmetika bo'yicha o'rtacha 365 kunga hisoblanganda 2373 mlrdan 2738 mlrdgacha bo'lgan tamakini tashkil etadi. Bu miqdordagi tamaki xomashyosini yetishtirish uchun qanchadan-qancha bo'sh yer maydoni, suv, mablag', ishchi kuchi kerak bo'ladi? Bu esa o'zidan yo'q qilingan o'rmonlar, ishdan chiqqan yer, ifloslangan suv, dorilar bilan to'la dorixonalar, kasalliklarga to'la kasalxonalar qoldirmoqda, xolos. Inson hayotiga xavf solayotgan omillardan yana biri yirik shaharlarda havoning keskin ifloslanib borishi bilan bog'liq. Shaharlarda sanoat, transport hamda maishiy xizmat ko'rsatish sohasidan chiqayotgan gazlarga xonadonlardagi gazlar qo'shilib qalin havo gumbazini tashkil etadi. Agar shaharlar ustida bulutlar paydo bo'lib, bir necha kun turib qolsa, unda kasallar soni keskin oshib ketadi. Xafaqon kasalligi, yurak-qon aylanishi, asab, havo hamda ovqatlanish tizimi bilan bog'liq bemorlar soni keskin ko'payadi.

Buni 2015-yilning boshida Xitoyda yuz bergan "Qizil favqulodda holat" misolida ko'rish mumkin. Navbatdagi xavflardan biri insoniyatga bog'liq bo'lmagan tabiiy ko'rinishdagi xavflardan iboratdir. Bularga geologik, gidrometeorologik xavfli hodisalar hamda turli epizootik, epifitotik hamda zoonoz kasalliklar kiradi. Ushbu tuzdagi favqulodda vaziyatlarning yuz berishiga osmon jismlarining ta'siri, Yer gravitatsiyasi, tektonik harakatlar, vulqonlar va boshqalar sabab bo'lmoqda. Masalan, olimlarning kuzatishlarida Quyoshda chaqnashlar qancha ko'p bo'lsa, Yerda texnogen tuzdagi favqulodda vaziyatlar soni ortgani aniqlandi. Masalan, Yapon olimi Shira Masamuroning olib borgan kuzatishlari quyidagi xulosalarga kelishga majbur etdi. 1943-yilda Quyoshda yuz bergan chaqnashlar soni 16 ta bo'lganda Yaponiyaning Tokio shahrida har 1000 avtomobilga to'g'ri kelgan baxtsiz hodisa 109 taga, Yaponiya bo'yicha 93 taga, 1944-yilda chaqnashlar soni 10 taga avtomobillar harakati tufayli vujudga kelgan baxtsiz hodisa soni 74 taga, 1947-yili chaqnashlar soni 152 ga baxtsiz holatga uchrash soni 140 ga yetgan.<sup>1</sup> Olimning kuzatishlari Yerda magnit aktivligi oshgan kunlarda, magnit sokin kunlarga nisbatan kasallanishlar soni ortib borganligini ko'rsatdi. Aytish lozimki, Quyoshda yuz bergan chaqnashlar

<sup>1</sup> Мамадазимов М.М. Астрономиядан ўқиш китоби. – Т.: “Ўқитувчи”, 1992 й. – 59-60-бетлар

kosmanavtlar uchun eng katta xavfli holat hisoblanadi. Quyoshda yuz bergan chaqnashlar insonning qon aylanish hamda asab tizimiga kuchli ta'sir etadi. Shira Masamuroning Yaponiyaning o'nta shahrida o'tkazgan tajribasi yuqoridagi xulosalarga sabab bo'ldi. Tarixda osmon jismlari, ya'ni kometalarning Yerdagi ijtimoiy hayotga keskin ta'sir etgani haqida turli manbalarda keltirib o'tilgan. Masalan, eramizning III asrida Xitoyga samoviy tosh kelib tushgan. Sirtida turli xildagi chiziqlar bo'lgani bois mahalliy aholi uni johil podshoh Tish-Goang-Tining yaqinda o'limidan darak deb sharhlaganlar. Bundan g'azablangan podshoh toshni kukunga aylantirishni, shu hudud aholisini butunlay qirib tashlashni buyurgan. 837-yilning bulutsiz tunlarining birida, fransuz qiroli Lyudovik munajjimiga qarab, unga shunday deydi: "Bor, saroy ayvoniga chiqib, tezda meni oldimga qayt va nima ko'rganingni ayt menga, chunki bu yulduzni kecha kechqurun ko'rganman. Sen esa uni mendan yashirding, ko'rsatmading, biroq menga ma'lumki, u kometa va u mening mamlakatimda podshohlik qiluvchi shaxsning almashinishidan darak beradi. Meni qayg'u kutadi<sup>1</sup>."

Tabiat hodisalari, turli tabiiy ofatlar, osmon jismlari harakati, ularning ko'rinishlari odamlar orasida vahima o'yg'otgan. Bu esa o'sha davrda kasalliklarning ko'payishiga, o'limning ortishiga sabab ham bo'lgan. 1527-yilda Fransiyada kuzatilgan kometa haqida Simon Gulyar shunday yozadi: "U (kometa – M.M) shunday kuchli vahima tug'dirdiki, ayrimlari dahshatdan o'ldilar, boshqalari esa betob bo'lib qolishdi. Yuzlab odamlar uni ko'rdilar va ularning barchasiga u qonli bo'lib ko'rindi. Uning tepa qismida qilichini ushlab, uni urishga tayyor turgandek qo'lni yaqqol ko'rdilar. Qilichining uchi ustida uchta yorug' yulduz ko'rinib, qilichga tegib turgani ravshanligiga ko'ra qolgan ikkitasidan ustunlik qiladi. Kometa nurining ikki tomonida esa ko'plab qonli xanjarlar va shamshirlar ko'rinib ularning oralaridan o'rin olgan, tanasidan judo qilingan bir necha sochli va soqolli boshlar esa, bu manzaraga yana ham vahimali tus berar edi." Tarixda samoviy jismlar bilan bog'liq bunday misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Bu o'tmishda xalqlarning dunyoqarashiga, fikrlashi hamda ijtimoiy turmush tarziga ma'lum ma'noda ta'sir etgan. Bunday holatni Sharq hukmdorlari hayotida ham ko'rish mumkin. Ular saroyida munajjimlar xizmat qilishgan. Munajjimlar bashorati podshohlarning u yoki bu ishini boshlashiga kuchli ta'sir etgan. Gohida qilinishi kerak bo'lgan ishlar osmon jismlari harakatiga qarab rad etilgan. Gohida esa bu ishlarni qilish uchun eng qulay fursat deb bilishgan. Bu tUSDagi tabiiy ofatlardan biri – bu Yer silkinishi. Bu ko'rinishdagi hodisa insoniyatga qadimdan juda qatta ta'sir ko'rsatib kelgani ma'lum. U juda katta yo'qotishlarga sabab bo'ladi. Yer silkinishlari talofatlarini yaqqol tasavvur qilish uchun ular keltirgan zararlarni quyidagi voqelik bilan taqqoslasak yanada aniqroq ko'rinadi. Zilzila oqibatida Tokio, Yokogama va Kantoning boshqa shaharlari yo'q bo'lib ketdi. Keyingi yillardagi ma'lumotlar bu yer silkinishida nobud bo'lgan va tan jarohati olgan odamlar soni yanada ko'proq bo'lganini ko'rsatadi. 2016-yilda Q.Abdullabekov va Z.Ilyasovalar muallifligidagi "Favqulodda vaziyatlar tarixidan: zilzila" kitobida qurbon bo'lganlar 147 807 ta, jarohatlanganlar 200 ming kishi ekanligi ko'rsatiladi. Kitobda ikki kunda 350 marta zilzila bo'lgani va ularning dastlabgisida 12 m. balandlikda sunami natijasida 56 ming km<sup>2</sup> maydonni suv yuvib ketgan, deyiladi. Bedarak yo'qolgan va zarar ko'rganlar soni 542 ming, zilziladan umumiy zarar ko'rganlar 4 milliondan ortiq kishi ni tashkil etganligi keltirilgan. Bu ma'lumotlarni Rus-Yapon urushi keltirgan zarar bilan solishtirsak, u holda Gorshkov aytganidek, 5 marta emas, undanda ortiqroq zarar keltirgani ma'lum bo'ladi. Birgina asrimizning dastlabgi o'n yilida sayyoramizda yuz bergan Yer silkinishlari juda katta talofatlarga sabab bo'ldi. XXI asr boshlarida, 2014-yilning 26-dekabrida Hind okeani havzasida yuz bergan Yer silkinishi natijasida 300 mingga yaqin kishi qurbon bo'ldi. 2010-yilning 12-yanvar kuni Gaitidagi kuchli Yer silkinishi 300 ming kishining hayotiga zomin bo'ldi, 300 ming atrofidagi kishi turli darajada shikastlandi, bir milliondan ortiq aholi boshpanasiz qoldi. Gaiti zilzilasi natijasida 50 mingdan ortiq o'y-joylar, bino va inshootlar vayronaga aylandi. Bu

<sup>1</sup> Мамадазимов М.М. Астрономиядан ўқиш китоби. – Т.: "Ўқитувчи", 1992 й. 115- бет



yerda to'la kaos va kafando'zlik boshlanib, kasallik avj oldi, ochlik va qashshoqlik kuchaydi<sup>1</sup>. 2010-yilning 27-fevralida Chili zilzilasi bo'ldi. 2 million aholi boshpanasiz qoldi. 1,5 million uy shikastlandi. Shundan 500 ming uy-joyni qayta tiklash imkoniyati bo'lmadi. Zilzila oqibatida paydo bo'lgan sunamidani himoyalash uchun Yaponiya, Gavayi, Filippin, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Rossiyaning Kamchatka va Kuril orollaridan 320 mingdan ortiq aholi evakuatsiya qilindi. Ushbu zilzila Chilining 80% hududini qamrab oldi, 30 mlrd AQSh dollari miqdorida zarar keltirdi. Bunday tabiiy ofatlardan mintaqamiz mamlakatlari ham xoli emas. Buni tarixda yuz bergan kuchli Yer silkinishlari misolida ko'rish mumkin. Tarixda "Andijon fojiasi" nomi bilan kirgan zilzila yurtimizda katta vayronalik olib kelgan tabiiy ofat hisoblanadi. U 1902-yil 3-dekabrda yuz berdi va Andijon shahrini vayronaga aylantirdi. Bu kabi Yer silkinishlari 1911-yilda Kebin va Pomirda, 1946-yil Chotqolda, 1948-yil Ashxobodda, 1966-yil Toshkentda, 1976-1984-yillarda Gazlida yuz berdi. Chunki mintaqamiz O'rta yer dengizi – Osiyo sesmik kamarida joylashgan. Ma'lumki, zilzila o'chog'i Yer ustiga yaqin joylashgan zilzilalar xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Markaziy Osiyo xuddi shunday qobiq zilzilalar yuz beradigan hududda joylashgan. Ularning chuqurligi 10-40 kmgacha bo'ladi. Pomir tog'larida esa 70 km gacha borishi mumkin<sup>2</sup>. Shunday ekan, yoshlarni bu sohadagi bilimni oshirish, undan muhofazalanish, imoratlar barpo etishda texnologiyaga qat'iy amal qilish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlash joiz.

O'tgan asrda eng katta xavflardan biri – qadriyatlarimizga hamda ma'naviy meroslarga tayanib ish olib borishga to'sqinlik qilinishidir. O'sha davrda sho'rolar siyosatiga bag'ishlab musiqalar bastalandi, she'rlar yozildi va qo'shiq qilib tarannum etildi. Xo'sh, bu jarayon nimalarga olib keldi? Bu avvalo dindand, urf-u odatlar, marosimlar hamda boy ma'naviy meroslardan xalqni uzoqlashtirdi. Tabiatga, ya'ni insonni o'rab turgan olamga nisbatan xo'jayinchilik ruhini shakllantirdi. Holbuki, turli tusdagi favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish eng qadimgi merosimiz "Avesto" da, islom dini hamda qadriyatlarimizda o'z aksini topgan. Unda suv havzalarini iflos qilmaslik, ariqlar bo'yida mevali daraxtlar o'tkazmaslik, suvlardan iflos idish bilan suv olmaslik, unga o'limtik tashlamaslik, suv mushuklarini o'ldirmaslik, hojatxonalarni suv manbalaridan yiroqda qurish, olovga iflos narsalar tashlamaslik, havoni ifloslantirmaslik, sovuqdan saqlanish kabi favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan choralar belgilangan. Suv, havo, tuproq hamda olovni toza tutish insoniyat yashab qolishining asosi ekanligi g'oyasi kitobda aks etgan. Soflik, tabiat in'omlaridan tejab-tergab foydalanish, shuningdek, yuksak insoniy fazilatlar bor joyda tinch-totuv hayot bo'lishi haqidagi g'oyalar islom dinidan ham keng o'rin olgan. Tabiat hodisalarini yuz berib turishi aholini undan muhofazalanishga undagan. Shu sabab xalqimiz orasida maqollar, iboralar hamda urf-u odatlar ham shakllanganki, bular tabiiy ofatlardan muhofazalanish jarayonida yuzaga kelgan. Masalan, uylarni sinchli qilib qurish, uning tomini yengil material hamda qamishdan yopish, poydevorini qattiq joyga o'rnatish va b. Shuningdek, suvga tupurmaslik, tog' yonbag'irlarini ortiqcha sug'ormaslik, suv bo'yida mevali daraxtlar o'tkazmaslik, suv bo'yida imorat qurmaslik kabi ko'plab odatlar shakllangan. Ular zamirida esa ilmiy asoslar mavjud bo'lgan. "Darveshona", "Sust xotin", "Choy momo", "Shamol chaqirish" kabi ko'plab marosimlar o'tkazib kelingan. Bugun bu qadriyatlar unut bo'lgani bois ko'plab favqulodda vaziyatlar paydo bo'lmoqda. Chunki, biz ularning oldini olishda, uning ne'matlarini avaylab-asrashda ma'naviy jihatdan mas'ul ekanligimizni unutib qo'ydik. Bu esa insoniyat barqaror taraqqiyotining eng asosiy omili hisoblanadi. Xulosa o'rnida aytish joizki, inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikni ta'minlash muhim masalalardan biridir. Shu sabab yoshlarni tabiatga nisbatan g'amxo'r inson sifatida shakllantirishda unda yuz bergan voqealar, uning sabablari, oqibatlari haqida atroflicha ma'lumot berish kerak. Holbuki, inson olamini, xalqlar xarakterini shakllantirishda tabiat va uning hodisalari eng asosiy omil hisoblanadi.

<sup>1</sup> "Муҳофаза +", 2010 й. №10, 5- бет.

<sup>2</sup> Горшков П. Ер қимирлаши. – Т.: "Қизил Ўзбекистон" ва "Правда Востока" бирлашган нашриёти, 1952 й., 5-бет.

## O‘ZBEK TILI LEKSIK O‘ZLASHMALARIDA SINONIMIK MUNOSABATLARNING TARTIBLANISHI VA TASNIFLANISHI

**Daniyarov B.X.** – Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

**Annotatsiya.** Maqolada o‘zbek tili leksik o‘zlashmalarida sinonimik munosabatlarning tartiblanish va tasniflanish muammolari haqida so‘z yuritilgan. So‘z o‘zlashtirish har qanday til taraqqiyotida qonuniy jarayon hisoblanib, biror bir xalq boshqa tillar ta‘siridan tashqarida yashay olmaydi. O‘zbek tili leksikasining rivojida boshqa tillarga oid leksik o‘zlashmalar va ulardagi sinonimik munosabatlarning tartiblanish va tasniflanish masalalarini “nerv”, “asab”, “jig” sinonimik juftligi misolida tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** leksika, leksik o‘zlashma, sinonimik munosabat, tartiblanish, tasniflanish, so‘z o‘zlashtirish, baynalmilal, asab, nerv, jig‘.

## УПОРЯДОЧИВАНИЕ И КЛАССИФИКАЦИЯ СИНОНИМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В ЗАИМСТВОВАННОЙ ЛЕКСИКЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

**Данияров Б.Х.** - доцент Навоийского государственного педагогического института, кандидат филологических наук

**Аннотация.** В статье идёт речь об упорядочении и классификации синонимических отношений в заимствованной лексике узбекского языка. Заимствование слов считается законным процессом в развитии любого языка и ни один народ не может жить вне зависимости от других языков. Развитие узбекской лексики, вопросы, связанные с упорядочением и классификацией лексических изменений в других языках и их синонимические связи были проанализированы на примере синонимических пар “nerv”, “asab”, “jig”.

**Ключевые слова:** лексика, лексические заимствования, синонимические отношения, упорядочение, классификация, заимствование слов, интернациональный, нервничать, нерв, раздражение.

## ORGANIZATION AND CLASSIFICATION OF SYNONYMOUS RELATIONS IN THE LEXICAL CHANGES OF THE UZBEK LANGUAGE

**Daniyarov B.H.** - Associate Professor of Navoi State Pedagogical Institute, Candidate of Philology

**Annotation.** In this article the problems of ordering and classification of synonymic relations are discussed in the lexicon of the Uzbek language. Reclamation new words is a legitimate process in any language development, each language lives under influence of other languages. Development and classification of lexical terms and their synonymic relation to other languages in the development of Uzbek vocabulary are analyzed as an examples of a synonymic pair “nerv”, “nerves”.

**Key words:** lexicos, taken words foreign languages, synonymous contact, sorting, classifying, international words, nerves.

Ma'lumki, har bir tilning lug'at tarkibida boshqa tillardan o'tgan so'zlar o'ziga xos o'rinni egallaydi va bu murakkab tarixiy jarayonning natijasidir, chunki har qanday jamiyat o'z tarixiy taraqqiyoti davomida boshqa millatlar bilan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va ilmiy aloqalarda bo'ladilar. Hech bir xalq o'z taraqqiyoti yo'lida boshqa xalqlar bilan aloqa qilmasdan, ayri hayot kechirishi mumkin bo'lmaganidek, birorta xalqning tili yakka holda taraqqiy qilishi mumkin emas. Shunga ko'ra, har bir tilning leksikasida etimologik jihatdan shu tilning o'ziniki bo'lgan so'zlardan tashqari, boshqa tillardan kirgan leksik elementlarning bo'lishi ham tabiiydir. O'zbek tili leksikasi

ruscha-baynalmilal soʻzlar hisobiga boyib, tilimizda ilm-fan, texnika va ijtimoiy-siyosiy tuzumni ifodalovchi koʻplab leksik birliklar paydo boʻlib, natijada oʻzbek tili rasmiy til sifatida, texnika tili sifatida shakllanib, sayqal topdi. Bundan tashqari, oʻzbek tili leksikasi rus tili orqali boshqa tillardan kirib kelgan baynalmilal soʻzlar hisobiga ham kengayib bordi.

Xorijiy tillardan soʻz oʻzlashtirish hozirda ham davom etmoqda. Avval oʻzbek tili faqat rus tilidan va rus tili orqali boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirgan boʻlsa, hozirga kelib bu jarayon toʻgʻridan-toʻgʻri amalga oshirilmogʻda. Oʻzbekistonning davlat mustaqilligi boshqa tillardan koʻplab soʻz oʻzlashtirish uchun imkoniyatlar berdi, masalan, litsey, kollej diller, menejer, birja, konsept kabi. Damas, tiko, neksiya, matiz, kompyuter, video, aerobus kabi soʻzlar esa bugungi hayotimizda sodir boʻlayotgan tub oʻzgarishlarning, yangiliklarning yorqin ifodasi sanaladi. Uyali telefon, devonxona, hakim, chipta, dorixona kabi soʻzlar esa ruscha-baynalmilal soʻzlarning taʼsirida paydo boʻldi, ruscha-baynalmilal soʻzlar, ayniqsa, iqtisodiyot, bank, diplomatiya, sanoat, ishlab chiqarish, ilm-fan, texnika sohalariga oid atamalar ichida koʻplab uchrab turibdi. Masalan, makroiqtisodiyot, mikroiktisodiyot, injenering, marketing, monitoring kabi soʻzlar iqtisodiyot atamaları sifatida allaqachon tilimizga singib boʻldi.

Oʻzbek tili leksikasining rivojida boshqa tillarga oid oʻzlashmalarning ham salmogʻi katta, zero soʻz oʻzlashtirish – har qanday til taraqqiyotida qonuniy jarayon, binobarin, biror bir xalq boshqa tillar taʼsiridan tashqarida yashay olmaydi. E.Begmatov oʻzbek tilining leksik qatlamlariga bagʻishlangan ishlarida oʻzbek tilining oʻz ichki lugʻaviy resursi boʻlgan, oʻzbek tilining oʻzida asrlar davomida hosil qilingan soʻzlar oʻzbekcha soʻzlar deb yuritadi<sup>1</sup>. Bunday soʻzlarning ijodkori va egasi oʻzbek xalqi, oʻzbek tilidir. Chunki oʻzbekcha soʻzlarni oʻzbek tilida gaplashuvchi etnos oʻz tilining imkoniyatlari asosida yasaydi, uning lisoniy ijodkoridir, yaʼni “oʻzbekcha soʻzlar oʻzbek tilining oʻz soʻzi, oʻz mahsulidir<sup>2</sup>.” Oʻzlashmaning semantik moslashuvi oʻzlashmaning oʻzga tildagi maqomi va vazifasini belgilash uchun xizmat qiladi.

Oʻzbek tili leksik oʻzlashmalarida sinonimik munosabatlarning tartiblanish va tasniflanish muammosini “nerv” – “asab” sinonimik juftligi misolida tahlil qilamiz. Agar ruscha-baynalmilal soʻz sanaluvchi nerv leksik birligiga terminologik nuqtayi nazardan qaralsa, lisoniy doirada u toʻgʻri belgilangan tarzda “asosan nominativ-definitiv vazifada, yaʼni nomlash va maxsus tushuncha ifodalash vazifasida<sup>3</sup>” qoʻllanishini koʻrish mumkin. V.P.Danilenko taʼkidlaganidek, biror soʻzning amalda qoʻllanishini, derivatsion xususiyatlarini va qoʻllanishidagi oʻziga xosliklarni bilmay turib baholab boʻlmaydi.

Biz mazkur sinonimik qatorga quyidagi sabablarga koʻra “jig” leksik birligini qoʻshishni maʼqul topmadik: Birinchidan, “jig” soʻzi hozirgi oʻzbek adabiy tilida mustaqil, toʻliq maʼnoli soʻz boʻlmay, faqat soʻz birikmasi tarkibida uchraydi. Qiyoslang: “JIGʻ I: jigʻiga tegmoq. Tegishib yoki biror yoqmaydigan ish, gap bilan jahlini chiqarmoq, gʻashini keltirmoq. Baʼzan Anorxonning jigʻiga tegish uchun yigitni ular oʻzaro “Sobir pochcha” deyishar edi (Oybek “Oltin vodiyan shabadalar”). Boshqa ovoz raisning jigʻiga qattiqroq tegdi (Sh. Rashidov “Gʻoliblar”). Jigʻini ezmoq urib abjagʻini chiqarmoq (Marasul). Ha, oʻsha seni.. (urmoqchi boʻladi). Jigʻingni ezaman! (A.Qahhor “Ogʻriq tishlar”)<sup>4</sup>.” [20.96] Masalan, mustaqillikdan oldin nashr qilingan “Oʻzbekcha-ruscha lugʻat”da bu birlik “JIGʻ: birovning jigʻiga tegmoq – “dosajdat komu-libo”, “donimat, dopekato kogo-libo”; men uning jigʻini ezib qoʻyaman! Razg. Ya yeshche pokaju yemu!”(16. 152) deb izohlangan. “Oʻzbek tilining frazeologik lugʻati”da jigʻiga tegmoq iborasi “kim yoki nima kimning asabini qoʻzgʻatib oʻchakishtirmoq. Bu bola oʻzimning ham jigʻimga tegib yuribdi (P.Tursun. Oʻqituvchi). Baʼzan Anorxonning jigʻiga tegish uchun yigitni ular oʻzaro “Sobir pochcha” deyishar edi (Oybek “Oltin vodiyan shabadalar”). Buxgalterning oʻrinsiz luqmasi Dadajonning jigʻiga tegdi (I.Rahim “Ixlos”)<sup>5</sup>.

<sup>1</sup> Begmatov E. K probleme sobstvenno-uzbekskix slov // Tyurkologiya. 88. Tezisy dokladov i soobshchey V Vsesoyuznoy Tyurkologicheskoy konferentsii. Frunze: Ilim, 1988. – S. 116-118.

<sup>2</sup> Begmatov E. Hozirgi ʻzbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent, “Fan”, 1985. – 170 b.

<sup>3</sup> Danilenko V.P. Russkaya terminologiya. – M., 1977. – 246 s. 7-v.

<sup>4</sup> Oʻzbek tilining izohli lugʻati: 5 jildlik. 2-jild. – Toshkent, OʻzME, 2006. – 671 b.

<sup>5</sup> Raʼmatullayev Sh. ʻzbek tilining frazeologik lugʻati. – T.: “Qomuslar” Bosh taʼhriyati, 1992. 95-6.

Ko'rinadiki, "O'zbekcha-ruscha lug'at"da "jig" ishtirok etgan o'zbekcha jumlaning rus tiliga tarjima qilishda qayd qilingan lug'at tuzuvchilari "nerv" (yoki uning hosilalari) terminini qo'llamaganlar, bizningcha, bu jig' va nerv leksik ma'nosining aynan bir xil (bir ma'noli) emasligidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, nafaqat hozirgi davrda, balki ilgari "qadimiy turkiy so'z bo'lgan jig", ehtimol shunday bo'lsa, "asab" yoki "nerv" terminlarining denotatini anglatmagan. Har holda bu leksik birlik rus tilida nashr etilgan "Древнетуркийский словарь"da uchramaydi. U, shuningdek, turkiy tillar etimologiyasiga bag'ishlangan "Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazikov. Obshchetyurkskie i mejtyurkskie osnovy na bukvy J, J, I"<sup>1</sup> lug'atida ham mavjud emas. "Nerv" – "asab" sinonimik juftligida, bizningcha, umumqo'llanuvchi leksikada ustun vaziyat haligacha "asab" so'zida mustahkam saqlanib qolgan.

Asab va nerv so'zlarining "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi ma'nolari izohini solishtiramiz. Masalan, arabcha so'z sanaluvchi asab so'zi quyidagicha izohlangan: ASAB 1. anat.fiziol. Bosh va orqa miyadan barcha a'zolarga tarqalgan va ularning faoliyatini boshqarib turadigan juda ingichka nerv tomirlari tizimi va shu tomirlarning har biri. O'zi yosh, asablari butun (S.Zunnunova "Olov"). 2. Organizm faoliyati va inson xatti-harakatlarini o'z ichiga olgan shunday tizimlar majmuyi. 3. Shu tizimlar majmuyining holati. Boboshning tarang asablari bo'shshib, yengil tortdi-da. (A.Muxtor "Bo'ronlarda bordek halovat"). Go'zal manzara ruhingizni bardam, asablaringizni osoyishta qiladi ("Saodat"). 4. Asabiy holat. Adolat asabdan titrab, boshini ushlab, o'tirib qoldi (S.Zunnunova "Gulxan"). Asabiga tegmoq Asabini qo'zg'atmoq, g'ijintirmoq, jig'iga tegmoq U Karim bilan Mehrini maqtab, Qodirovning asabiga tekkanini sezib turardi. (Sh. Rashidov "Bo'rondan kuchli"). Asabiga tegmoq, kayfiyati yomon tomonga o'zgarmoq. Bo'lar-bo'lmasga asabing buzilmasin<sup>2</sup>.

Nerv so'zi izohiga diqqat qaratamiz: NERV anat., fiziol. Bosh miya, orqa miya va nerv tugunlarini gavdaning boshqa a'zo va to'qimalari bilan bog'laydigan, asosan, nerv tolalari tugunidan iborat murakkab anatomik tuzilma va ularning har biri; asab. Ko'rish nervi. Harakatlantiruvchi nervlar. Nerv sistemasi. Nerv to'qimalari. Tepki kasalligida ayrim hollarda nerv sistemasida har xil o'zgarish bo'lib, yengil o'tadigan meningit ham bo'lishi mumkin ("Saodat")<sup>3</sup>. Lug'atda keltirilgan ikkala so'z izohlaridan ham ma'lumki, qo'llanish chastotasi va ma'no ko'lamiga ko'ra asab so'zi ustunlik kasb etgan.

Yoki aniq ma'lumotlar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, rus tili orqali tilimizga o'zlashgan lotincha "nerv" so'zi arab tilidan o'zlashgan, ammo o'zbek tiliga to'liq assimilyatsiyalashgan o'z ekvivalenti "asab" so'zi semantikasini har doim ham to'liq qoplay olmaydi.

Qiyoslang, misollar:

1. Hammom qabul qilish odamning asab sistemasiga tinchlantiruvchi ta'sir etibgina qolmay, bir qator nerv kasalliklariga davolovchi qilishi ham mumkin (Gazetadan).

2. (Suyukli yoridan) Suvonjonga ma'lum bo'lmagan, asablarni qitiqlovchi nafis hid anqirdi (S.Anorboyev).

Birinchi holatda "nerv" va "asab" sinonimik juftligining ilmiy-ommabop maqolada meditsina termini sifatida parallel qo'llanishi o'rinli, chunki u tavnologiyaga yo'l bermaydi. Bu qo'llanishda ikki birlik ham til sohiblariga birday tushunarli, bu matnda sinonimlarning leksik ma'nolarini ularning farqlovchi semantik belgilariga qarab aniqlash qiyin, chunki bu kabi qo'llanishda komponentlarda farqlovchi ma'no faollashmaydi. Ammo ikkala sinonimik terminlardan hech birini "jig" leksik birligi bilan almashtirib bo'lmaydi, chunki birinchidan, o'zbek tilida so'zlashuvchilarda "jig" so'zini nerv, asab so'zlariga sinonim sifatida qo'llash qabul qilinmagan, ikkinchidan, agar "bizning terminologiya tozaligi" tarafdorlari izidan borsak<sup>4</sup>, baynalminal termin bo'lgan "sistema" so'zini o'zgartirib, "asab" so'zi yordamida kontekstda "asab tizimi" – "nerv sistemasi" so'z birikmasi hosil bo'lar edi. Ammo bu

<sup>1</sup> Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на буквы Ж. Ж. Й. – М., "Наука", 1989. – 291 с.

<sup>2</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati: 5 jildlik. 1-jild. – Toshkent, O'zME, 2006. – 680 b. 96.

<sup>3</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati: 5 jildlik. 3-jild. – Toshkent, O'zME, 2007. – 688 b.

<sup>4</sup> Миртожиев М. Ўзлашган сўз – пайванд куртаги. – Тошкент, "Ўзбекистон", 1988.

almashtirish, uni sof o'zbekcha so'zlarga aylantirish imkoni yo'q, chunki meditsinada "sistema" atamasining mohiyatini to'la yoki qisman aks ettiruvchi turkiy so'z yo'q.

Badiiy asardan keltirilgan ikkinchi misolda asab so'zini nerv so'zi bilan almashtirib bo'lmaydi (nerv so'zi badiiy bo'yoqqa ega emas.), kontekstda asab so'zi va uning qurshovidagi so'zlar insonning ruhiy holatini, ichki kechinmalarini nozik qirralari bilan tasvirlay olgan, butun vujudi bilan sevgi domiga tushgan, yorning nafisligidan sarxush bo'lgan yigitning hissiyotlariga uyg'un tarzda aks ettirish imkoniga ega bo'lgan.

V.I.Abayevning fikricha, so'z san'atkori uchun so'zni o'zining chuqur o'tmishidan birga olib kelayotgan xilma-xil va nozik ideosemantik ma'no qirralari va tasavvur, his-tuyg'u, fikr va shu kabilarning bir-birini eslatadigan o'zaro bog'lanishi bilan birga ifodalashga majbur qilish oliy mahorat hisoblanadi.

Agar misolda asab so'zi nerv so'zi bilan almashtirilsa, badiiy asarda so'z ustasi tomonidan ko'zda tutilgan badiiy bo'yoq yo'qolishi tabiiy edi. Qiyoslang: "Suyukli yoridan... Suvonjonga ma'lum bo'lmagan, nervlarni qitiqlovchi nafis hid anqirdi". Shuningdek, nerv so'zi meditsina termini sifatida emas, hatto, umumqo'llanish leksikasi birligi sifatida ishlatilganda ham "quruq" – ma'no nozikliklarini ifodalay olmasligi ko'zga tashlanadi. Demak, ikki so'zning o'rinni birikishi uchun ularning semantik strukturasi bir-birini taqozo etuvchi semalar mavjud bo'lishi kerak.

Ikkinchi matnda ham "asab" so'zini "jig" so'ziga almashtirib bo'lmaydi, chunki "jig" so'zi semantikasida emotsional-salbiy tavsifni bildiruvchi qo'shimcha semalar (konnotatsiyalar) ustunlik qiladi, shu sabab nutqda kishining haddan tashqari salbiy psixologik holatini ifodalash uchun qo'llaniladi. "Ming marta eshitgandan ko'ra, bir marta ko'rgan afzal" deganlaridek, badiiy asardan olingan quyidagi parchada "asab" so'zi o'rniga "jig" so'zini qo'yish bilan bunday almashtirishning maqsadga nomuvofiqligi va imkonsizligini ko'rsatishga harakat qilamiz:

(Suyukli yoridan) ...Suvonjonga ma'lum bo'lmagan, jig'larni qitiqlovchi nafis hid anqirdi.

Ko'rinadiki, bunday hollarda ijodkor kitobxonga anglatmoqchi bo'lgan emotsional holat butunlay yo'qoladi, matn semantikasi esa ikki ma'noli bo'lib qoladi: bir tomondan, Suvonjon o'z sevgilisidan kelayotgan, unga notanish bo'lgan g'alati nozik hidni his qilgan (1), ikkinchi tomondan esa, unga bu ajoyib hid nega yoqmayotganligi, g'ashiga tekkanligi sababi noma'lum bo'lib qoladi. (2)

Yuqorida maxsus tahlilga tortilgan parcha kontekstning ikki ma'noliligida "jig" so'zi leksik semantikasida respientni tavsiflovchi emotiv salbiy munosabat ifodalovchi qo'shimcha semalar (konnotatsiya)ning mavjudligidan dalolat beradi.

O'zbek tilida "jig" vositasida faqat bitta leksik birlik – "jig'ibiyron" yasalgan<sup>1</sup>. "JIG'IBIYRON: jig'ibiyron bo'lmoq – kuyib-pishmoq, o'rtanmoq; tutaqib ketmoq. – Xudo ko'rsatmasin, q a m a b qo'ysalar yaxshimi? – jig'ibiyron bo'lib dedi ona (Oybek "Nur qidirib"). Fotima opa eri bergan pulning cho'g'ini ko'rib, jig'ibiyron bo'ldi. ( R.Fayziy "Sen yetim emassan"). Jig'ibiyronni chiqmoq ayn. jig'ibiyron bo'lmoq. Jig'ibiyronni chiqib ketgan Ahmad noqulay ahvolga tushib qoldi." (F.Musajonov "Himmat")<sup>2</sup>.

Bu so'z nutqda, asosan, jig'ibiyron bo'lmoq shaklida qo'llanadi. Tilimizda bu so'z vositasida yasalgan "jig'ibiyronni chiqmoq" iborasi ham mavjud. "O'zbek tilining frazeologik lug'ati"da jig'ibiyronni chiqdi iborasi "kimning behad norozi bo'lib, nihoyatda tutaqib gapirmoq. "Jamoat chorvasiga sovuqqonlik bilan qaraydigan odamlarni javobgarlikka tortish kerak deb jig'ibiyronni ch i q d i" ( S.Abduqahhor "Hayotning boshlanishi"). "Safarov bilan Samandarov ertalab qochgan ekan, mana hozir siz..." Bo'taboyning jig'ibiyronni chiqib ketdi: "Qaysi unsur aytdi senga bu gapni?!"(A.Qahhor "Qo'shchinor chiroqlari"). U shaharga ish izlab ketib, anchadan keyin yana quruq, yalang'och, jig'ibiyronni chiqib qaytardi ( A.Muxtor "Opa-singillar")<sup>3</sup> tarzida izohlangan.

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 2 жилдлик. 1-2-жилд. – М.: "Русский язык", 1981. – 717 б. 16.

<sup>2</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati: 5 jildlik. 1-jild. – Toshkent, O'zME, 2006. – 680 b. 97.

<sup>3</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Т.: "Қомуслар" Бош таҳририяти, 1992.

“Asab” soʻzini “nerv” soʻzi bilan va ularni “jig” sinonimi bilan almashtirib boʻlmasligiga oid misollarni yana keltirish mumkin: Gʻulomjonning asab torlari tortildi, alamiga alam qoʻshildi. Keltirilgan bu matnda “asab” va “nerv” soʻzlarining oʻrnini almashtirib boʻlmaydi, chunki “nerv” soʻzi hatto umumisteʼmolda ham oʻzining terminlik (meditsinaga oid) xususiyatiga ishora qilib turadi, tabiiyki, uning uchun obrazli-poetik qoʻllanish xos emas. Qiyoslang: Gulomjonning asab torlari tortildi..

Semantikasida salbiy emotiv boʻyoqdorligi (maʼno komponenti, konnotatsiya) yorqin ifodalangan “jig” soʻzi matnda salbiy emotsional boʻyoqdorlik ifodalayotgan “asab” soʻzi oʻrnida qoʻllanishi mumkindek koʻrinadi, ammo u asosiy (denotativ) maʼnosidan tashqari, konnotativ maʼnoga ega boʻlgan, koʻchma maʼno ifodalayotgan “tor” soʻzi bilan hosil qilingan leksik-semantik birikmada ishtirok eta olmaydi, “jig” soʻzidan farqli ravishda yorqin ijobiy emotsional maʼnoga ega boʻlgan “tor” soʻzi odatda obrazli poetik nutqda qoʻllaniladi va qoidaga koʻra, respient (hamsuhbat, oʻquvchi, tinglovchi kabilar) tomonidan oʻziga ijobiy emotsional munosabat uygʻotuvchi denotatni ifodalaydi.

Soʻzning asosiy semantik qonuni quyidagilarga mos keladi: Ikki soʻzning oʻzaro birikishi uchun ularning semantik strukturasi bir-biriga qarama-qarshi boʻlgan semalar mavjud boʻlmasligi kerak (V.G.Gak, I.V.Arnold, Y.S.Kubryakova, V.N.Teliyalarning ishlari). Ifodaning toʻgʻri tashkillashuvi tabiiyki, soʻzlar birikishi qonunining saqlanishini nafaqat sintagmatik sathda, balki umumiy kontekst semantikasida ham saqlanishini taqozo qiladi. Shu bilan bogʻliq holda oʻzbek semasiologiyasida ham “semantik sintez muammolarini ishlab chiqish soʻzlar birikishi qonunlarini oʻrganishni nafaqat leksik, balki semantik sathda ham oʻrganish masalasini qoʻyadi. Bu esa nominatsiyaning tobeligi qonunlari boshqa nominatsiyalar qurshoviga bogʻliqligidan dalolat beradi<sup>1</sup>.”

Sinonimiya terminologiyada xuddi umumisteʼmoldagi leksika kabi katta rol oʻynaydi, ammo mazkur holatda, “nerv” va “asab” misolida biz bu sinonimlarning meditsina terminlari sifatida, masalan, ilmiy-ommabop maqolalarda toʻla huquqli vazifada qoʻllanishini koʻramiz. Masalan: Bir qator olimlarning olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari shuni koʻrsatdiki, yaxshi kuy tinglab hordiq chiqargan kishilarning “markaziy asab aʼzolarining” faoliyati yaxshilanishi, “asabiyatning” sokinlashishi qayd etiladi... “Markaziy asab sistemasining” tormozlanish jarayonlari musiqani rohatlanib tinglash natijasida yaxshilanar ekan” (Gazetadan). Koʻrinadiki, parchada (ilmiy-ommabop maqola parchasida) aynan bir tushuncha – “asab” denotati uch marotaba takrorlangan, oʻzbek tilida bu denotatni ifodalash uchun uch sinonimik vositaning mavjudligi (asab aʼzolari, asabiyat, asab sistemasi) bois mualliflar tavnologiyadan qochib, oʻz fikrlarini turli shaklda ifodalashga muvaffaq boʻlganlar. Bu sinonimik ifodalar oʻzbek tilida soʻzlashuvchilar uchun toʻliq tushunarli. Ammo ularda leksik-semantik va sintaktik birikishda farqlar mavjudligi seziladi. “Asab aʼzolarining” birikmasi oʻzbek tili grammatikasi qoidalariga koʻra, arab tilidan oʻzlashgan “asab” va “aʼzo” soʻzlaridan, “nerv sistemasi” esa oʻzbek tili grammatikasi qoidalariga koʻra, “nerv” va “sistema” kabi ruscha baynalmilal soʻzlardan tashkil topgan. Bizningcha, bu birliklarning mazkur matnda nafaqat semantik, balki sintaktik jihatdan ham toʻgʻri birikkanligidan dalolat beradi. “Arabcha soʻzlarning oʻzbek tiliga morfologik jihatdan moslashishi ikki holatda: a) arabcha soʻzlar negizida oʻzbek tilida yangi soʻzlar hosil qilinishida; b) arabcha soʻzlarning oʻzbek tilidan grammatik forma yasovchi qoʻshimchalarni qabul qila olishida yorqin koʻrinadi<sup>2</sup>.”

“Aʼzo” soʻzining “asab” soʻzi bilan “asab aʼzolari” tarzida birikishi oʻzbek tili uchun odatdagi hol, ammo baynalmilal termin hisoblangan “nerv” soʻzi bilan birikishi noodatiy hisoblansa-da, oʻzbek nutqida “nerv aʼzolari” tarzida qoʻllash ham uchrab turadi. Oʻzbek tilida soʻzlashuvchilar nutqiy vaziyatlarda “nerv sistemasi” denotatini qoʻllashni maʼqul koʻradilar, “asab aʼzolari” asosan kitobiy, masalan, publitsistik nutqda qoʻllanadi.

Ammo nutqda, oʻzbek davriy nashrlarida, jumladan, ilmiy nutqda, ilmiy-ommabop maqolalarda “asab sistemasi” birikmasining “nerv sistemasi” baynalmilal birikmasi sinonimi sifatida parallel ravishda faol qoʻllanayotganini koʻrish mumkin. Ammo shoʻrolar davrigacha va undan keyingi davriy nashrlarda (mustaqillikka qadar) “nerv aʼzolari” birikmasining qoʻllanishi deyarli uchramaydi.

<sup>1</sup> Арнолд И.В. Основы научных исследований в лингвистике. – М.: “Высшая школа”, 1991. – 140 с.

<sup>2</sup> Бегматов Е. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент, “Фан”, 1985. – 170 б.

Sababi, birinchidan, “asab a’zolari” birikmasi tarkibidagi birliklar ruscha baynalmilal birikmadan ilgari o’zlashgan bo’lib, tilda an’anaviylik kasb etgan. Ikkinchidan, mazkur birikma tarkibidagi “a’zo” so’zi tushuncha (denotat) ifodalasa-da, “sistema”dan farqli o’laroq, alohida mustaqil birlik sifatida qo’llanganda “insonning yaxlit tanasi, organizmining a’zosi, qandaydir qismi” ma’nosini bildiradi<sup>1</sup>. Shuning uchun meditsina fanlari va sog’liqni saqlash muassasalari xodimlari aniq tushuncha (denotat) ifodalovchi “nerv sistemasi” birikmasini qo’llashni ma’qul ko’rishlari shubhasiz.

O’zbek tiliga arab tilidan “asab” so’zi bilan birga “asabiyat”, “asabiy” so’zlari ham o’zlashgan.

“Asabiyat” oti o’zbek tilida quyidagi leksik ma’nolarni ifodalaydi: “asablar”, “nerv sistemasi”, asablar jamlanmasi.” Tilimizda asabiyat so’zi anglatgan ma’noni “nerv” terminiga boshqa birliklarni, masalan, “sistema” so’zini qo’shmasdan aniq ifodalab bo’lmaydi.

O’zbek tilidagi “asabiy” sifatini baynalmilal so’zlar vositasida ifodalab bo’lmaydi. Tabiiyki, “asabiy” so’zi ishtirokisiz o’zbek tilida so’zlashuvchilar tiliga xos bo’lgan quyidagi holatlarni to’g’ri shakllantirish imkonsiz bo’ladi:

ASABIY 1. Salga asabiylanaveradigan, bo’lar-bo’lmasga qizishib, tutaqib ketadigan; zardasi tez, jizzaki. Asabiy kishi. Asabiy bola. Otam asabiy odam edi. Shunday bo’lsa ham, meni qattiq urmagan va yomon.. so’kmagan edi.( S.Ayniy. “Esdaliklar”) 2. Asablarning qo’zg’alishi bilan bog’liq. Asabiy holat. Asabiy tovush. - Begonadan ham battarsiz! – qizishib ketgan Xolisaning lablari asabiy titradi. (S.Nurov “Narvon”) Yuzini asabiy timdalayotgan onasining ahvoliga achinibmi, ayol jahldan tushdi. (“Yoshlik”)<sup>2</sup> Masalan: ...u yoqdan bu yoqqa asabiy borib-kelib turibdi (Gazetadan).

Mediklarning ta’kidlashicha, ichkilikka ruju qo’yg’an kishilardan bo’lgan farzandlar tug’ma asabiy bo’lgan holda dunyoga keladilar (Gazetadan).

“Nervli kishi” ifodasi meditsinada “nerv hujayralariga ega odam” tushunchasini bildirishi mumkin. Shundagina u mantiqan to’g’ri bo’lishi mumkin. Chunki inson tirik mavjudot sifatida, albatta, asab hujayralariga ega bo’ladi. Shu bois bizningcha, o’zbek tilida -li qo’shimchasi yordamida “nervli kishi” birikmasi hosil qilinmagan.

Arabcha lug’aviy o’zlashmalar o’zbek tili so’z yasaliishi jarayonlarida ikki xil holatda ishtirok etadi: 1) bevosita; 2) bilvosita. Arabcha lug’aviy o’zlashmalar o’zbek tili so’z yasaliishi jarayonida bevosita ishtirok etganda, so’zning so’z yasaliishi strukturasi o’zbek tilining o’ziga tegishli bo’ladi. Unda arabcha leksik birliklar o’zbek tiliga mansub motivlovchi vosita (yasovchi vosita, yasovchi formant)lar bilan so’z yasash munosabatiga kirishadi. Masalan, asabiylik, asabiylanmoq, asabiylashmoq kabi.

Arabcha lug’aviy o’zlashmalar o’zbek tili so’z yasaliishi jarayonida bilvosita ishtirok etganda, motivlovchi asos maqomidagi uzvning o’zi yasama leksemalik xarakteriga ega bo’lib, uning yasaliishi qolipi o’zbek tiliga emas, boshqa tilga xos bo’ladi. Bizning faktik materiallarimiz nuqtani nazaridan qaralganda, o’zbek tili so’z yasaliishida bilvosita maqom bilan qatnashadigan arabcha lug’aviy o’zlashmalar tojik tilida yasalgan yasalmalar tarkibida keladi.

Arabcha lug’aviy o’zlashmalar o’zbek tili so’z yasaliishining kompozitsiya usuli doirasida ham yangi leksem birliklar hosil qilishda ishtirok etgan bo’lsa, o’shanday lisoniy xususiyatlar so’z yasaliishning kompozitsiya usuli yordamida hosil bo’luvchi qo’shma so’zlarning so’z yasaliishi strukturasi ham mavjud bo’ladi. Arabcha lug’aviy o’zlashmalar kompozitsiya usulidagi so’z yasaliishi jarayonida ishtirok etganda, motivlovchi asos, motivlovchi vosita uzvlari har bir komponentga sinxron – sinkret tarzda qorishib ketadi. Qo’shma so’zning har bir komponentida ham motivlovchi asoslik, ham motivlovchi vositalik vazifalari bir vaqtda (sinxron tarzda) mujassamlashgan bo’ladi. Arabcha lug’aviy o’zlashmalar ishtirokida hosil bo’lgan qo’shma so’zlarni yasovchi uzvlardan birining qaysi tilga mansubligi nuqtayi nazaridan quyidagi to’rt guruhga ajratish mumkin: 1) yasovchi uzvlaridan biri o’zbek tiliga mansub qo’shma so’zlar; 2) yasovchi uzvlaridan biri fors-tojik tiliga mansub qo’shma so’zlar; 3) yasovchi uzvlaridan biri rus tiliga mansub qo’shma so’zlar; 4) yasovchi uzvlarining har ikkisi ham arab tiliga mansub qo’shma so’zlar. Yasovchi uzvlaridan biri o’zbek tiliga mansub qo’shma so’zlarning deyarli

<sup>1</sup> Узбекско-русский словарь. – Ташкент. 1988. – 728 с

<sup>2</sup> O’zbek tilining izohli lug’ati: 5 jildlik. 1-jild. – Toshkent, O’zME, 2006. – 680 b. 106.

ko'pchiligi so'z birikmalarining leksikalizatsiyalashuvi natijasida hosil bo'lgan. Masalan, asabni buzuvchi →asabbuzar kabi.

“Asabiylik”, “asabbuzar” so'zlari yordamida hosil bo'lgan so'zlarning qo'llanishi nutqqa emotsional-ekspressivlik bag'ishlaydi: ...dod! Bu asabbuzarning dastidan dod! (Gazetadan).

Asabbuzar so'ziga -lik affiksini qo'shish bilan boshqa mustaqil leksik birlik – “asabbuzarlik” yasalgan: Bu asabbuzarlik qachongacha?! (Gazetadan). Har qanday asabbuzarliklar ham meni bugungi yomon odat – chekishga qaytara olmaydi (Gazetadan).

“Asab” so'zi “asabiylanmoq”, “asabiylashmoq” kabi fe'llarning hosil bo'lishida ham faol hisoblanadi. Bunday hosil bo'lgan birliklarni “nerv” va “jig” so'zlari bilan almashtirib bo'lmaydi. Masalan:

1. Otaxon asabiylashdi. (Gazetadan)

2. ...yoshlar oliy o'quv yurtiga kirish uchun tanlov imtihonlari topshirganlarida “ikki” yoki “uch” baho olsalar, hayron qoladilar, men maktabda hech qachon “uch” baho olganim yo'q edi, deb asabiylashadilar, ba'zan hatto janjal ko'taradilar. (Gazetadan)

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinadiki, arab tilidan o'zlashgan, o'zbek leksik-semantik sistemasida o'zlashganligi deyarli sezilmas holatga kelib qolgan “asab” so'zining qanday amaliy qimmatga egaligini aniq tasavvur qilish mumkin. Shu bilan birga, “nerv” baynalmilal so'zi o'zbek tilining nafaqat kitobiy (yozma), balki og'zaki nutqiga ham kirib kelganligi, uning so'zlashuv nutqida sintaktik qurilmalarning ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qilganligini ko'rsatadi.

O'zbek tilida asabiga tegmoq iborasi mavjud bo'lib, “O'zbek tilining frazeologik lug'ati”da “kim yoki nima kimning asabini qo'zg'atmoq, g'ijintirmoq. Sinonimi: g'ash(i)ga tegmoq, kim yoki nima, kimning; g'ash(ini) keltirmoq, nima, kimning. O'rnashibroq o'tirmoqchi bo'lganida, stul g'ijirlab, yana asabiga tegdi, ung'aysizlanish avjiga mindi (R.Fayziy “Cho'lga bahor keldi”). Asabimga tegaverma, bo'lmasa, adabingni berib qo'yaman! Jonli so'zlashuvdan” tarzida izohlangan. Biroq lug'atga keltirilmagan bo'lsa-da, jonli nutqda asabiga tegmoq iborasining “nerviga tegmoq” varianti kuzatiladi. Shuningdek, o'zbek tilida jahli chiqmoq iborasi ham mavjud bo'lib, lug'atda “kimning – jahli(i)ni chiqarmoq nima yoki kimning g'azablanmoq. Varianti: achchig'(i) chiqdi; chiqqan jahli(i) kimning. Sinonimi: zahra(si) uchdi kimning. Sening shaxsiy hayotingga aralashayotganim uchun balki jahling chiqar? (S.Zunnunova “Ikkinchi xotin”) ... shirin uqusidan mahrum qilsa, kimning jahli chiqmaydi?! (H.Nu'mon. “Yoshlikda bergan ko'ngil”) Teshaboyning tanasi, bogi kiti yirtiq qotma cholning jahlini chiqardi (M.Ismoilov. “Farg'ona tong otguncha”). Jahli(i) qistadi: achchig'(i) qistadi”<sup>1</sup> tarzida izohlangan.

Ushbu iboraning ham jonli so'zlashuvda nervi chiqmoq varianti mavjud bo'lib, lug'atda berilmagan. Agar “nerv” leksik birligini terminologik nuqtayi nazardan qaralsa, lisoniy doirada u to'g'ri belgilangan tarzda “asosan nominativ-definitiv vazifada, ya'ni nomlash va maxsus tushuncha ifodalash vazifasida” [8.7] qo'llanishini ko'rish mumkin. Shuni qayd etish kerakki, “nerv” termini (va uning grekcha ekvivalentlari) “nervyura” (samolyotsozlik qurilishida qo'llanuvchi termin, O'zbekistonda shunday sanoat qurilishi mavjud), “nervatsiya”<sup>2</sup> kabi maxsus tushunchalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu baynalmilal terminlarning barchasi rus tilidan tayyor holda o'zlashtirilgan. Taniqli terminshunos B.L.Danilenko ta'kidlaganidek, qandaydir biror so'zning amaliy qo'llanishini uning asosiy derivatsion xususiyatlarini va qo'llanishidagi o'ziga xosliklarini bilmay turib baholab bo'lmaydi. O'tkazilgan tahlillar “asab” so'zining qo'llanish darajasini belgilash “turli so'z yasovchi va semantik iplar bilan”<sup>3</sup> hozirgi o'zbek leksikasining faol qismi bo'lgan arxaizm<sup>4</sup> sifatida mustahkam bog'langanligi asossiz ekanligini ko'rsatdi. Hozirgi vaqtda “asab”ni “nerv”ga almashtirish yoki bu sinonimlar o'rnida “jig” so'zini qo'llash maqsadga muvofiq emas. Bu uch so'z (“nerv”, “asab”, “jig”)ning birini boshqasidan afzal ko'rishga ehtiyoj yo'q, vaholanki, ular o'zbek tili sistemasida davomiy mavjud bo'lishi

<sup>1</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Т.: “Қомуслар” Бош таҳририяти, 1992.

<sup>2</sup> Словар иностранных слов. – М., 1986. – 330 с.

<sup>3</sup> Shmelev D.N. Проблемы семантического анализа лексики. – М., 1973. –278 с.

<sup>4</sup> Mirtojiev M. O'zlashgan so'z – payvand kurtagi. – Toshkent, “O'zbekiston”, 1988. 3-b.



natijasida paradigmatika va sintagmatika sathida rivojlanishda davom etmoqda. “Nerv” va “asab” soʻzlarining semantik tavsifi va funksional-stilistik xususiyatlariga koʻra farq qiluvchi sinonimik qator komponentlari sifatida qarash maqsadga muvofiq. “Nerv” soʻzi hatto umumisteʼmol tilida qoʻllansa ham, qaysi nutq uslubida qoʻllanishiga qarab, leksik semantikasi oʻzgarib turuvchi “asab”dan farqli ravishda oʻzining terminologik maʼnosini mustahkam saqlab qolgan. Sinonimiya soʻz leksik maʼnolarining paradigmatic munosabatlaridan biri sifatida voqelanadi, sinonimik munosabatni yuzaga keltirishning maʼlum shartlari mavjud boʻlib, belgilovchi asosiy shart maʼno munosabatidir. “Gap faqatgina maʼnoni belgilashni shakllantirish qiyinligida emas, eng avvalo, soʻzning alohida maʼnolarining har birini aniqlashning favqulodda qiyinligidadir. Qiyosan, maʼnoning asosiy guruhlarini belgilash oson, ammo maʼno nozikliklari deb ataluvchilarni aniqlash katta qiyinchilik tugʻdiradi va subyektivlikka ega boʻladi<sup>1</sup>.” Agar nerv leksik birligiga terminologik nuqtai nazardan qaralsa, lisoniy doirada u toʻgʻri belgilangan tarzda “asosan nominativ-definitiv vazifada, yaʼni nomlash va maxsus tushuncha ifodalash vazifasida” qoʻllanishini koʻrish mumkin. V.P.Danilenko taʼkidlaganidek, biror soʻzning amalda qoʻllanishini, derivatsion xususiyatlarini va qoʻllanishidagi oʻziga xosliklarni bilmay turib baholab boʻlmaydi. Nominativ birliklar semantikasining konnotativ makrokomponentlaridagi kichik oʻzgarishlar toʻplana borish natijasida maʼnoning yangi komponentlarini (semalarini) hosil qilib, fon boʻyoqdorligini yuzaga keltirgan. Turli tillarga oid soʻzlar, hatto ular yaxlit va bir tushunchani ifodalasalar-da, hech qachon mutlaq teng maʼnoli sinonim boʻla olmaydi<sup>2</sup>.

Ifodaning toʻgʻri tashkillashuvi, tabiiyki, soʻzlar birikishi qonunining saqlanishini nafaqat sintagmatik sathda, balki umumiy kontekst semantikasida ham saqlanishini taqozo qiladi. Demak, “sinonimlarning oʻziga xos tabiatini oʻrganishda kontekstning roli katta<sup>3</sup>” ahamiyatga ega ekanligiga yana bir bor amin boʻlindi.

#### КОННОТАЦИИ ВОКРУГ СЛОВА-СОМАТИЗМА «СЕРДЦЕ» В РУССКОМ, УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

**Латипов О. Ж.** - доцент Ташкентского государственного педагогического университета, кандидат филологических наук

**Аннотация.** Статья посвящена изучению семантической структуры образных выражений, фразеологизмов, идиом, пословиц и поговорок с ключевым словом-соматизмом “сердце” в неродственных языках: русском, узбекском и английском. В ней проведен компонентный анализ клишированных единиц данной тематической группы в аспекте сопоставительного исследования, выявлены их аналогичные и эквивалентные варианты в трех языках разной системы, приведены статистические данные фразеологизмов в каждом из сопоставляемых языков.

**Ключевые слова:** семантика, фразеологизм, идиома, аналогия, эквивалентность, изоморфизм, антонимия, коннотация.

#### RUS, OʻZBEK VA INGLIZ TILLARIDA "YURAK" SOMATIZM SOʻZINING KONNOTATSIYASI

**Латипов О.Ж.** - Тошкент давлат педагогика университети доценти, филология фанлари номзоди

**Annotatsiya.** Maqola qardosh tillar boʻlmagan: rus, oʻzbek va ingliz tillarida “yurak” somatik soʻzi bilan bogʻliq boʻlgan koʻchma maʼnoli iboralar, idiomalar, maqol va matallarning semantikasini oʻrganishga bagʻishlangan. Unda mazkur tematik guruhga oid majoziy birliklarning komponent tahlili chogʻishtirma tarzda oʻtkazilgan, ularning turlicha tizimdagi uchta tildagi analogik hamda ekvivalent

<sup>1</sup> Щерба Л.В. Избранные работы по языкознанию и фонетике. – Л., 1957. – 186 с. 70-б.

<sup>2</sup> Gumboldt V. fon. Избранные труды по языкознанию. – М., 1984. – 400 с. 58-б.

<sup>3</sup> Bragina A.A. Sinonimy v literaturnom yazyke. – М.: “Nauka”, 1986. – 124 с.

variantlari aniqlangan, har bir chog'ishtirilayotgan tillardagi iboralarga oid statistik ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** semantika, ibora, idioma, analogiya, muqobililik, izomorfilik, antonimiya, konnotatsiya.

### CONNOTATIONS AROUND THE WORLD-SOMATISM "HEART" IN RUSSIAN, UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

**Latipov O. Zh.** - Associate Professor, Tashkent State Pedagogical University, Candidate of Philological Sciences

**Annotation.** The article is devoted to the study of the semantic structure of figurative expressions, phraseological units, idioms, proverbs and sayings with the key word-somatism "heart" in unrelated languages: Russian, Uzbek and English. Their analogous and equivalent variants in three languages of a different system; statistical data of phraseological units in each of the compared languages are given.

**Key words:** semantics, idiom, idiom, analogy, equivalent, isomorphisms, antonymy, connotation.

С философской точки зрения человек может быть «бессердечным», однако с анатомической – без сердца он не может существовать. Действительно, сердце – это жизненно важный орган, без которого невозможно прожить. Название этого органа в переносном значении воспринимается как символ души, переживаний, чувств, настроений. Если вести рассуждение под таким углом зрения, то следует предполагать, что в языке с названием данного органа образовано максимальное количество образных выражений. В частности, во «Фразеологическом словаре русского языка<sup>1</sup>» зарегистрировано 60 фразеологизмов со словом-соматизмом «сердце». Причем, их можно классифицировать по-разному: фразеологические единицы, несущие положительный эмоциональный коннотативный заряд (от всего (или чистого и т. п.) сердца – совершенно искренне; большое сердце у кого – о том, кто способен горячо и сильно чувствовать; всем сердцем – всем существом; с открытым (или чистым) сердцем – искренне, откровенно, доверчиво; по сердцу и по сердцу кому (в знач. сказ.) – по вкусу, нравится; болеть сердцем за кого-что, о ком-чем; с лёгким сердцем и другие); фразеологические единицы, несущие отрицательный эмоциональный коннотативный заряд (в сердцах – в порыве раздражения, сильно рассердившись; сердце болит (или щемит, ноет, сжалось и т. п.) – о состоянии тревоги, тоски, грусти; сердце взыграло; сердце горит; сердце кровью обливается; сердце не лежит к кому-чему; сердце не на месте; сердце отойдёт (отошло); от сердца отойдёт (отошло); сердце оборвалось (или" упало и т. п.) у кого – о внезапном ощущении сильной тревоги или испуга; сердце перевернулось у кого или в ком см. перевернуться; вынуть (вынимать) сердце; держать (или иметь) сердце на кого – сердиться, гневаться, затаить гнев, обиду на кого-л.; с тяжёлым сердцем; скрепя сердце; разбить (разбивать) сердце чье – сделать несчастным кого-л.; сорвать (срывать) сердце на ком-чем – излить свой гнев на кого-, что-л.; как (словно) ножом по сердцу (полоснуть); нож в сердце кому; лечь свинцом на сердце; свинец на сердце у кого; на сердце кошки скребут и другие). Как видно из примеров, фразеологизмов с данным компонентом, выражающих негативные значения, намного больше, чем фразеологизмов с положительным значением. Кроме того, в качестве ласкового, нежного обращение к кому-л. может быть употреблено устойчивое сочетание слов «сердце моё» (ср.: Дорогая, хорошая, сердце мое! Как медлителен времени бег! Сурков, Дорогая, хорошая...).

<sup>1</sup> Фразеологический словарь русского языка под ред. А. И. Молоткова, М.: Русский язык, 1987. – 543 с. с.420-422

Люди, располагающие сентиментальной натурой, обычно относятся ко всему с большим сочувствием, сопереживанием, вниманием. Именно, по отношению к ним применимо выражение принять (принимать) (близко) к сердцу.

“Сердцу не прикажешь” – так говорят о тех, кто бессилён управлять своими чувствами. Именно слово «сердце» определяет основные человеческие качества типа доброта и зло. Неспроста об очень добром человеке говорят, что у него золотое сердце и, наоборот, о злом, чёрством человеке говорят, что у него нет сердца.

В устойчивых выражениях узбекского языка также подчеркивается неопределимая роль данного органа, что можно подтвердить на примере из текстов художественных произведений, приведенных в “Толковом словаре узбекского языка”<sup>1</sup> : “юррак бақувват бўлса, иш ҳам унумли бўлади, киши чарчамайди. Уйғун, Сўнгги пушаймон. [Кумушнинг] Ҳарорати кучли, юрак уриши фавқуллодда тез эди. А. Қодирий, Ўтган кунлар.

С компонентом “юррак” (сердце) в узбекском языке образовано очень много фразеологизмов (более 40), в частности: юраги ачимоқ (ёки ачишмоқ) - ачинмоқ, куйинмоқ, в значении: ему жалко (кого-л.), (ср.: *Отабекни бу аҳволда кўриб, Кумушнинг юраги ачиди. А. Қодирий, Ўтган кунлар. ..ўсиши мужмал, аллақандай касалсимон ғўзаларни кўрар, юраги ачишар эди. Ойбек, О. в. Шабадалар*); юраги бетламаслик – Журъат қилмаслик, ботина олмаслик - в значении: не решиться что-либо сделать; сердце или душа не лежит (ср.: *Шундан-шунга чопиб келиб, мактаб директорига учрагани юрагим бетламади. Р. Азизхўжаев, Яшил чайла*); юраги ёрилмоқ (буквально: сердце лопнуло от испуга) 1) ниҳоятда қўрқмоқ (ср.: *Унинг ваҳимасидан юрагим ёрилай деди*); 2) жуда диққат бўлмоқ (ср.: *..баъзи вақт, Иўлчивой, юрагим тарс ёрилгудай бўлади, дунё кўзимга қоронғи кўринади. Ойбек, Танланган асарлар*); юраги жиз этмоқ (внезапное приятное пробуждение в сердце кого-либо) – Қалбида кескин ҳолда ёқимли ҳис-туйғу қўзғалмоқ, шундай ҳисни туймоқ (ср.: *Эрталаб бу сўзлар ғашини келтирган эди, ҳозир ҳам юрагини жиз эттиролмади. О. Ёқубов, Излайман*); юраги жиғ этмоқ 1) айн. юраги жиз этмоқ (ср.: *Шунда кўзлар кўзга тўқнашди, Ғуломжоннинг юраги жиғ этиб кетди. М. Исмоилий, Фарғона т.о.*; 2) айн. юраги шув этмоқ. *..ҳар кун саломга кирадиган бўлиб қолди. Ҳар кирганда, «сўйиб келмадимикан», деб юрагим жиғ этиб кетади. А. Қаҳҳор, Асарлар*); юраги зир этмоқ (сердце задрожало у кого-либо) - Қўрқув, безовталиқ ҳиссини туймоқ (ср.: *Тантибойваччаннинг юраги зир этиб кетди. Асабийланиб, ўзгарган товуш билан бобиллади.. Ойбек, Танланган асарлар*); юраги йўқ (буквально: человек без сердца) - Қўрқоқ, юраксиз; юраги кенг (широкое сердце, широкая душа) – (ср.: *Юрагингиз мунча ҳам кенг бўлмаса, кўзингизга уйқу келмаганига ҳайронман. А. Қаҳҳор, Қўшчинор чироқлари*); юраги куймоқ (сердце горит) 1) жуда ташна бўлмоқ. *Иссиқда узоқ йўл босиб, юрагим куйди*; 2) қаттиқ куйинмоқ (сильно переживать). *Юраклари куйиб кетиб Темурхон, Во болам, деб майиб нордай йиғлайди. «Ҳасанхон»*; юраги орзиқмоқ (сердце наполнилось радостью); юраги орқасига тортмоқ (душа в пятки ушла) – Қаттиқ чўчишдан қўрқув ҳолатига тушмоқ (ср.: *Сарой мулозимини кўргач, унинг юраги орқасига тортиб, эти сесканиб кетган эди. М. Осим, Аждодларимиз қиссаси*); юраги пўкилламоқ (сердце ёкнүло) – Қўрқувда бўлмоқ; чўчимоқ (ср.: *Ҳар йили жийда гули вақтида, «Сой тошиб, йўл бекиладиган бўлди», деб юракларимиз пўкиллаб туради. «Мүштүм». Юраги яна пўкиллади. «Тошкентнинг тўрт даҳаси» танийдиган давлатманд бу кишининг олдида қандай киради? Ойбек, Танланган асарлар*); юраги сиқилмоқ (сердце сжимается) – Диққат бўлмоқ, диққати ошмоқ (ср.: *..орадан бир ҳафта ўтар-ўтмас, Бухорода юраги сиқилиб, «ёлғизлик» азобини торта бошлади. Мирмуҳсин. Меъмор*); юраги така-пука бўлмоқ (сердце разрывается от беспокойства) – Ваҳима, қўрқув, хавотир ҳолатида бўлмоқ; безовталанмоқ (ср.: *Шу капаларга яқинлашган сайин Сидиқжоннинг юраги така-пука бўла бошлади. А. Қаҳҳор, Қўшчинор чироқлари*); юраги типирчиламоқ (сердцу беспокойно) – Тезлашиш ҳаракатида, иштиёқида

<sup>1</sup> Фразеологический словарь русского языка. Москва. «Русский язык медиа». 2007. – 336 с. с.91-94

бўлмоқ (ср.: *Азиза юраги типирчилаб кийинди*. Ў. Ҳошимов, Қалбингга қулоқ сол); юраги тор (буквально: узкое сердце – о капризном, болезненном человеке) – Арзимас нарсага сиқилаверадиған, тажанглиги тутадиган (ср.: *Анзират хола ҳам юраги торгина бир кампир, бўлар-бўлмасга хархаша қиладиган*. А. Қахҳор, Қўшчинор чироқлари); юраги тошмоқ (душа переполнилась) – Ғам, ҳасрат, ҳаяжон ва ш.к. ичига сиғмай кетган ҳолат (ср.: *Баъзан юраги тошиб, бутун дардини Унсинга очишни истайди*. Ойбек, Танланган асарлар); юраги тутдай тўкилмоқ (буквально: сердце рассыпалось как тутовник) - Интизорликда изтироб чекмоқ, дили бе-саранжом бўлмоқ (ср.: *Худди биров: «Э, ўл-а, шунақа-да, чиройли йигитни кўрсанг, юрагинг тутдай тўкилади» - деб таъна қилаётгандай қизарди*. А. Қахҳор, Сароб); юраги увушмоқ (сердце сжимается) - Маъюс, эзгин ҳолатни тўймоқ (ср.: *Мана шуни ўйласам, аллақандай бўлиб кетаман, юрагим увушади*. А. Қахҳор, Қўшчинор чироқлари); юраги чиқмоқ (буквально: сердце выскочило с места) 1) ниҳоятда кўрқмоқ; эси чиқмоқ (ср.: - *От опқочди, - деди Бадиа. - Юрагимиз чиқиб кетди-ку!* Мирмуҳсин, Меъмор); 2) ниҳоятда тўлқинланмоқ (*Бу хабарни эшитиб, хурсандликдан юраги чиқиб кетди*); юраги чопмоқ (душа лежит) - Ишонч билан ботинмоқ (ср.: *Аммо адреси тайинсиз бу келинга ҳам юрак чопмай турибди*. «Муштум»); юраги шув этмоқ – сердце ёкнүло (*ёки* шиғ этмоқ, шувулламоқ, шиғилламоқ) - Чўчиш, кўрқув ҳис этмоқ (ср.: *Баширжоннинг юраги шув этиб, кайфи учди*. Н. Аминов, Суварак. *Бир одамнинг тўнкарилиб ётганини кўрди*. *Юраги шиғ этиб, орқасига тортиб кетди*. Мирмуҳсин, Меъмор. *Саодатхоннинг юраги шувуллаб кетди*. С. Зуннунова, Янги директор. *Биров Қумриниса, деса кампирнинг юраги шиғиллаб кетади*. Мирмуҳсин, Бир хумча тилла); юраги ўйнамоқ (буквально: сердце играет, в значении сердце стучит быстро и сильно от волнения, страха, паники) – 1) юраги тез ва кучли урмоқ (ср.: *Отини қутидорнинг ўйлагига етаклар экан, негадир юраги ўйнаб кетди*. А. Кодирий, Ўтган кунлар); 2) кўчма ваҳима босмоқ, кўрқмоқ, ҳовлиқмоқ (ср.: *Шу савол бошига келганда, кўзига тўсатдан Канизак кўриниб, Сидиқжоннинг юраги ўйнаб кетди: Борди-ю шу бўлса-чи*. А. Қахҳор, Қўшчинор чироқлари; *Ваҳима қилаверманглар, юрагим ўйнаб кетяпти..* Мирмуҳсин, Меъмор); юраги қинидан чиқмоқ (у него сердце чуть не выскочило) - Ниҳоятда ҳаяжонли, талвасали ҳолатга тушмоқ (ср.:...*Марғилон дарвозасидан кириши билан унинг ҳоли ўзгара бошлар, юраги қинидан чиқар даражада.. эди*. А. Қодирий, Ўтган кунлар); юраги қон (аналогичное в русском: сердце кровью обливается) - Жуда диққат, хуноб ҳолатли (ср.: *Эртадан бери тўппи, қийиқча, жияк тика бериб, юраги қон бўлган қизлар..* Ойдин, Ҳикоялар); юрагига сиғмаслик (аналогичное в русском: сердце или душа не лежит) - Маъқул келмаслик, ёқмаслик (ср.: *Юрагимга сиғмайди, сиғмайди юрагимга ҳеч нарса!* А. Қахҳор, Асрор бобо); юрагига қўл солмоқ (в значении: отведать душу) - Синаш, билиш мақсадида бир гап-сўз айтмоқ (ср.: *Бир куни у шу артелдаги Масъуда деган қизнинг юрагига қўл солиб кўрди*. «Муштум»); юрагида кири йўқ (в значении: чистосердечный, честный) - Бировга ёмонликни раво кўрмайдиган, дили пок, дали-ғули; юрагини бўшатмоқ (в значении: излить душу) - Бор дардини тўкиб солмоқ (ср.: *Ўрмонжон кўп ҳам тўлиб-тошиб юрган экан, юрагини роса бўшатди*. А. Қахҳор, Қўшчинор чироқлари); юрагини ёрмоқ (буквально: разорвать чьё-то сердце, то есть вспугнуть кого-либо) - 1) бировни қаттиқ кўрқитмоқ, чўчитмоқ (ср.: *Чернецов жангшар олдидан узоқлашгач, Эмин Норматга: -Нега юрагимни ёрган эдингиз, комиссар индамади-ку, — деди*. И. Раҳим, Чин муҳаббат); 2) юрагини очмоқ (в значении: раскрыть душу кому-либо) - Дилидагини маълум қилмоқ, айтмоқ (ср.: *Албатта, у ўз юрагини ҳеч кимга оча олмаган*. *Дардини ўз ичига ютган*. Ойбек, Танланган асарлар. *Асқар полвон ҳам юрагини очди — ёлғизгина қизчасини соғинганини.. сўзлади*. Ойбек, Қуёш қораймас); юрагини тирнамоқ (аналогичное в русском: на сердце кошки скребут) - Безовта ҳолатга солмоқ (ср.: *Ўзини қаёққа қўйишини билмай, юрагини тирнаган кечинмалари.. билан ҳовлида кезди*. Ойбек, Танланган асарлар); юрагини чангалламоқ (схватиться за сердце, сильно переживая из-за чего-либо) - Бирор нарса ҳақида ўта ташвишланмоқ, кўрқмоқ. *Ҳаёт қозонни ювди-ю, қопқоғини ёпиб, кириб кетди*. *Энди бўш саҳну, унинг этагида юрагини чангаллаб ўтирган Ғуломжонгина қолди*. М. Исмоилий, Фарғона т. о.);

юрагини эзмоқ (брать за сердце) - Рухий азоб бермоқ. *Кумушининг бу ҳоли бечора онанинг юрагини эзар, юз хил васвасаларга солар эди.* А. Қодирий, Ўтган кунлар); юрагини ҳовучлаб (схватившись за сердце, в страхе из-за чего-либо) - Қўрқа-писа, безиллаган ҳолатда (ср.: *Доим ойим бечора юракларини ҳовучлаб ўтирардилар.* Э. Раимов, Ажаб қишлоқ); юрак олдирмоқ (однажды испугавшись, бояться чего-кого-либо) - Қўрқиб, чўчиб қолмоқ (ср.: *Бир дўққа шунчалик юрак олдирибсиз, яшанг-е, раис ака!* С. Анорбоев, Оқсой); юрак тепиши (биение сердца) - Юрак фаолиятининг тезлашиш ёки заифлашиш ҳолати (ср.: *Жаннат опа эшикни очиб, уйга кирганда, у оҳистагина замбил остидан чиқди, унинг юрак тепиши ҳали ҳам шиддатли эди.* А. Қодирий, Ўтган кунлар); юрак ютиб (в значении: расхрабриться, набраться храбрости, осмелиться) - Тап тортмай, қўрқмай. *Наҳот сиз.. бу ишга бош қўшиб, юрак ютиб, менинг остонамга келсангиз?* К. Яшин, Ҳамза); юрак ўйноғи (пребывать в постоянной тревоге; лишаться душевного покоя; терзаться) -Юракнинг безовта бўлиши (ср.: *Бир кун уйда ётиб, яхши уйқуси келмай, юрак ўйноғиси қўзиб чиққан экан.* Ҳ. Назир, Ёнар дарё. *Эъзозхоннинг юрак ўйноғи ҳадеганда босила бермади.* Ҳ. Ғулом, Машъал).

Производные от данной лексемы также могут иметь коннотативные значения: юракбуруғ - қатъиятсиз, мужмал (так говорят о нерешительном человеке, мямле); юракдош *поэт.* (близкий друг, единомышленник, соратник) - Фикр-ёди, ўйи, мақсади бир хил бўлган; ҳамнафас, дўст (ср.: *Замондош дўстларим чиндан юракдош, Ҳамиша ҳамнафас, ўртоғу йўлдош.* С. Абдулла); юракзада (сильно бояться чего-кого-либо) - Юрагини олдирган, чўчиб қолган (ср.: *Балки улар – бу томондаги қушлар ҳали юракзада бўлишмаган.* Ш. Холмирзаев, Қил кўприк. *Колхозчилар сўнги йилларда нобоп раисларни кўравериб, юракзада бўлибқолган эдилар.* Й. Шамшаров, Юксалиш). Сердце служит символом храбрости, о чем свидетельствуют образованные от данного компонента словосочетания: юракли или шерюрак (о смелом, храбром человеке) - Юрагида ўти бор; қўрқмас, жасур (ср.: *Зебихон опангиз сизни жуда мақтади. Юракли қиз экан, деди.* С. Зуннунова, Гулхан) и антонимичное юраксиз (нерешительный; трусливый) - Бирор нарсага ботинолмайдиган; қўрқоқ. *Юраксиз бола. - Жудаям юраксиз одамсиз-да, Юсуфбек, - деди муфтий.* А. Ҳакимов, Илон изидан); тошюрак – жестокий и другие.

В “Узбекско-русском и русско-узбекском словаре»<sup>1</sup> отражены следующие фразеологизмы: “юрақдан урмоқ – покорять, пленять, очаровывать; юраги қора – скрытый, злой, завистливый (человек); юраги дарё (или кенг) – (букв. сердце его, как река, в значении широка, как река) – хладнокровный; неунывающий человек; юраги тор (букв. сердце его узкое) – нервный, болезненно нетерпеливый”. В данном словаре приведены также аналогичные и эквивалентные фразеологизмы двух языков разной системы: чин юрақдан – от чистого сердца (искренне); всем сердцем – жону дили билан; сердце обливається кровью – юрак-бағрим қон бўлди или юрагим ачиб (эзилиб) кетди; сердце замерло (упало) - юрагим чиқиб кетди; сердце ёкнуло – юрагим шув этиб кетди<sup>2</sup>”, передающее состояние страха.

В отличие от русского и узбекского языков в английском языке образовано относительно больше клишированных единиц, причем образованы не только идиомы, но и пословицы с участием компонента “heart” (сердце): “every heart knows its own bitterness – посл. у каждого свои горести; faint heart never won fair lady - посл. буквально «робкому сердцу не завоевать прекрасной дамы», то есть робость мешает успеху; kind hearts are more than coronets - посл. буквально: доброе сердце лучше всякого титула; after one’s heart – по душе, по сердцу; at heart – в душе, в глубине души; at the heart of smth. – в основе чего-либо; be sick at heart – тосковать, томиться; тяжело на душе, на сердце; a big heart – великодушный, благородный человек; человек большой души; break one’s heart – убиваться, расстраиваться; break smb.’s heart – разбить чье-либо сердце, сильно огорчить, расстроить кого-либо; bring smb.’s heart – перепугать кого-либо до смерти; душа ушла в пятки; a broken heart – разбитое сердце; by heart – наизусть,

<sup>1</sup> Абдурахимов М. М. Узбекско-русский и русско-узбекский словарь. – Т.: Академнашр, 2014.–704 с. с.274.

<sup>2</sup> Абдурахимов М. М. Узбекско-русский и русско-узбекский словарь. – Т.: Академнашр, 2014.–704 с. с.614

на память; close to – близкий чьему-либо сердцу; cross one's heart - клясться, божиться; dear heart – разг. ласк. душа моя, сердце мое, милый; милая; dear heart! – боже мой! (восклицание, выражающее удивление, досаду и т.п.); do smb.'s heart good – радовать сердце, доставлять кому-либо удовольствие; eat one's heart out – изводить себя, терзаться, изнывать от тоски; find in one's heart to – решиться на что-либо; from the heart – от всего сердца, от чистого сердца, от души; give one's heart to smb. – отдать свое сердце кому-либо; harden one's heart – ожесточиться, стать бесчувственным, бессердечным; a hard heart – каменное сердце; have a heart! – разг. сжальтесь! помилосердствуйте! a heavy heart - с тяжелым сердцем и антонимичное a light heart - с лёгким сердцем” .

Приведенные из словарей примеры дают нам возможность выявить аналогичные и эквивалентные варианты фразеологических единиц в трех сопоставляемых языках: сердцу не прикажешь – юракка амр этиб бўлмайди; принять (принимать) (близко) к сердцу что юракка яқин олмоқ; one's heart goes out of smth. - юраги бетламаслик - сердце не лежит; юраги куймоқ (ёнмоқ) - сердце горит; юраги пўкилламоқ - сердце ёкнуло; юраги қон - сердце кровью обливается; a hard heart – каменное сердце – тошюрак; from the heart - чин юракдан – от чистого сердца; dear heart – душа моя, сердце мое; break smb.'s heart - разбить сердце – юрагини парчаламоқ; bring smb.'s heart – душа ушла в пятки – юраги орқасига тортмоқ; a heart of oak - шерюрак – храброе сердце; find in one's heart to – юрак ютиб; a heart of gold - золотое сердце; harden one's heart - у него нет сердца – юраги йўқ; win smb.'s heart - юракдан урмоқ – покорить сердце и другие.

Как и следовало ожидать, компонент “сердце” активно вовлечен в процесс образования клишированных единиц во всех трех языках, что свидетельствует о подтверждении выдвинутой нами гипотезы о том, что в языке с названием данного органа образовано максимальное количество образных выражений, ввиду того, что сердце является жизненно важным органом, название которого в переносном значении воспринимается как символ души, переживаний, чувств, настроений и связанных с ними такими человеческими качествами, как доброта, бесстрашие, отзывчивость и многие другие. Проведенный анализ позволяет сделать выводы о том, что большинство фразеологизмов объединены общей семантикой, то есть несут изоморфный характер, что возможно объясняется общностью свойств и функций, выполняемых данным жизненно необходимым органом. В ходе исследования были выявлены десятки аналогичных и эквивалентных вариантов фразеологических единиц трех разносистемных языков, причем преимущественно несущих отрицательные эмоциональные коннотации. Более того, фразеологизмы со словом-соматизмом “сердце” могут вступать в антонимические отношения и с точки зрения статистического анализа можно утверждать, что самое большое количество фразеологических единиц было обнаружено в английском языке (70), соответственно в русском (60) и в узбекском (40).

Материалы данной статьи могут найти свое применение в процессе организации межкультурной коммуникации между представителями вышеуказанных языков, при переводе текстов художественной и публицистической литературы, а также в лексикографических разработках.

#### ADABIY TA'LIM JARAYONIDA FUNKSIONAL TAHLIL

**Abduvalitov N.** – Toshkent davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada adabiy ta'lim jarayonida tadqiqot metodini qo'llashga doir usullar yoritiladi. Xususan, o'quv mavzusini o'rganishga integrativ yondashuv, ijodiy topshiriqlar, savol-topshiriqlar ustida ishlash, voqeliklar, qahramonlar taqdiri, xarakter xususiyatlarini qiyoslash,

muammoli vaziyatlar yaratish va mavzuni hayotga bog'lash bilan bog'liq tajribalar xususida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim metodlari, tadqiqot metodlari, adabiy ta'lim, tahlil, muammo, integratsiya, toponimlar, gidrominlar.

### ФУНКЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ В ЛИТЕРАТУРНОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

**Абдувалитов Н.** - старший преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

**Аннотация.** В данной статье освещены способы применения исследовательского метода в литературном образовательном процессе. В частности, говорится об экспериментах, отображающих интегративный подход к изучению учебной темы, творческие задания, работа над вопросами и ответами, судьбах героев, происшествиях, сравнениях особенностей характера, созданиях проблемных ситуаций, также взаимосвязи темы с жизнью.

**Ключевые слова:** методы обучения, методы исследования, литературное образование, анализ, проблема, интеграция, топонимы, гидронимы.

### THE FUNCTIONAL EDUCATION IN THE PROCESS OF LITERARY EDUCATION

**Abduvalitov N.** - Senior lecturer of Tashkent state pedagogical university

**Annotacion.** In this article the ways to apply the research method in the literary educational process are preformed. In particular, it is said about experiments that reflect an integrative approach to studying a learning topic, creative tasks, working on questions and answers, the fate of character traits, creating problem situations, and the relationship of a topic with life.

**Key words:** teaching methods, research methods, literary education, analysis, problem, integraticon, toponyms, hydronyms.

So'nggi yillarda ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti natijasi o'laroq o'quv-tarbiyaviy ishlar jarayonida ta'lim texnologiyalari, metod va usullari integratsiyasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. O'qitish metodlari, ta'lim mazmuni, didaktik maqsad, pedagogik layoqatga aloqadorlikda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga ko'ra tanlanadi. Albatta, bu mezonlar bevosita o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati asosida dinamik xarakter kasb etadi. Adabiy ta'lim jarayonida yozuvchi ijodiy laboratoriyasi, asarning badiiy-estetik qimmatini, tarbiyaviy ahamiyatini tadqiqi qilish ta'lim strategiyalariga yondashuv masalasiga ko'ra muhim ahamiyatga ega.

Amaliyotda o'zbek adabiyotini o'quv fani sifatida o'rganishga doir quyidagi metodlar qayd etilgan:

- badiiy asar mazmun-mohiyatini o'zlashtirish, adabiyotni ilmiy asosda anglashga yo'naltiruvchi – ijodiy o'qish metodi;

- yozuvchi qo'yigan masalalarni aniqlash, ularni hal qilish yo'llarini belgilash, asar tarkibiy qismlarning uzviy bog'liqligini tushunish va tahlilga qaratilgan – evristik (izlanish) metodi;

- mustaqil ishlarni bajarish orqali badiiy asar mohiyatini ochish, asarning g'oyaviy va badiiy ahamiyatini baholash ko'nikmasini o'stirishga doir – tadqiqot metodi;

- bilimlarning yodda saqlanishini ta'minlash va qayta ishlab chiqishda muhim o'rin tutuvchi reproductiv metod<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Зуннунов А. ва бошқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 65-71-б.

Uzluksiz adabiy ta'limda, asosan, muayan hayotiy kuzatishlar va tajribalarga egalik nuqtayi nazaridan yuqori sinflarda qo'llash samarali bo'lgan metodlardan biri tadqiqot metodidir. Badiiy asarda ilgari surilgan hayotiy-maishiy, ijtimoiy-g'oyaviy muammolarni mustaqil tadqiq qilish jarayonida uning yechimiga oid bir qator g'oyalarning taklif etilishi va boshqa variantlar bilan taqqoslashga yo'naltirilish tadqiqot metodining muhim xususiyatlari sifatida qayd qilish mumkin.

N.I.Kudryashev, O.Yu.Bogdanova, M.A.Zaldiner, A.Zunnunov, Q.Hasanboeva, R.Niyozmetova, Z.K.Kudashev kabi metodist olimlarning e'tirof etishlaricha, tadqiqot metodi qisman izlanish metodiga yaqin tursada, zamirida birmuncha murakkab nazariy masalalar hal qilinishi, qo'yilgan masala yuzasidan o'quvchilarning dalillar to'plash, tahlil qilish, tizimlashtirish, umumlashtirish hamda ilmiy xulosalarga kelish kabi amaliy ishlarni mustaqil bajarishlari ko'zda tutiladi.

Fikrimizcha, adabiyot ta'limida muayan mavzu atrofidagi tadqiqot topshiriqlari mazmuni asar g'oyaasini ilgari surishda tanlangan yo'nalish, har bir voqea-hodisa, obraz yoki manzara-holatning badiiy-estetik jihatdan muallif maqsadini ifodalash; kompozitsion vositalarning izchillikda bir butun qiyofa aks etishi; personajlar ichki dunyosining falsafiy-psixologik tahlili kabi tamoyillarni qamrab olishi zarur.

So'nggi paytlarda uzluksiz adabiy ta'lim tizimida o'qituvchilar tomonidan tadqiqot metodini

So'nggi paytlarda uzluksiz adabiy ta'lim tizimida o'qituvchilar tomonidan tadqiqot metodini qo'llashga oid: mavzu doirasida konkret maqsad va vazifalarni aniqlash; o'quv muammosini belgilash; o'quvchilar bilan birgalikda tadqiqot mavzusini muhokama qilish; ilmiy-tadqiqot mazmunini to'g'ri shakllantirish; muallifni o'quvchi shaxsga yaqinlashtirish muhokama qilish; ilmiy-tadqiqot mazmunini to'g'ri shakllantirish; muallifni o'quvchi shaxsga yaqinlashtirish va matn mohiyatining tahliliga oid savol-topshiriqlar tuzish; o'quvchilar faoliyatini muntazam nazorat qilish va ularga tegishli yo'l-yo'riqlar va matn mohiyatining tahliliga oid savol-topshiriqlar tuzish; o'quvchilar faoliyatini muntazam nazorat qilish va ularga tegishli yo'l-yo'riqlar ko'rsatib borish; o'quv materialini o'rganishga doir tahlil usullarini tanlash; tadqiqot ishi mazmunini muayyan shakl va mazmunda baholash kabi faoliyat turlari tashkil etilayotgani kuzatilmoqda.

O'quvchilarning bu boradagi faoliyati quyidagi ishlarni amalga oshirish jarayonida o'z aksini topadi:

- a) asarda qo'yilgan muammoni aniqlash doirasida fikrlarni asoslovchi dallilarni to'plash, taqqoslash, tizimlashtirish va umumlashtirish;
- b) badiiy-estetik tahlil jarayonidagi faollik va izlanuvchanlik;
- v) muammo yechimiga doir g'oya va nuqtayi nazarlar yuzasidan bahs-munozara uyushtirish;
- g) tadqiqiy masalalarni belgilash, yo'l-yo'riqlarini o'zlashtirish;
- d) olib borilgan tadqiqotlar yuzasidan hisobot shaklidagi portfolio, referat, lug'at, xarita yoki taqdimot yoki taqdimot kabi mustaqil ijodiy ishlar tayyorlash va hokazo.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari uchun mo'ljallangan "Adabiyot" fani o'quv dasturi Uqtirish xatida belgilanganidek, "milliy va jahon adabiyotning nodir namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish"<sup>1</sup> masalasi o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning samarali shakl va usullarini qo'llashni taqozo etadi.

Tadqiqot metodini o'quvchilar mustaqil ravishda faoliyat yurita olish darajasiga yetganida qo'llash ijodiy samara berishi allaqachon amaliyotda o'z tasdig'ini topgani ma'lum. SHu nuqtayi nazardan yondoshilganda, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfida Amerika adabiyotining yirik namoyondasi Jek Londonning iroda, matonat, yashash uchun kurash kabi xususiyatlar yorqin ifodalangan "Hayotga muhabbat" hikoyasini tadqiqot metodi asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

<sup>1</sup> Umumий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунара таълимнинг давлат таълим стандартини тасдиqlаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маъжмасынинг Қарори. – Т.: [www.lex.uz](http://www.lex.uz). Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 йил, 14 (774)-сон, 230-модда. – 33-б.



Buning uchun o'qituvchi tomonidan mashg'ulot turi va shakli belgilanadi; munozara uchun mavzular tavsiya qilinadi; butun sinfga asar syujeti, kompozitsiyasi tamoyillari doirasida tahliliy muammo qo'yiladi; o'quvchilarning jamoa bo'lib yoki individual tarzda faoliyat yuritishlariga oid ish usullari belgilanadi. O'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlari darajasiga hamda asarning janr, mavzu xususiyatiga ko'ra qo'yidagi vazifalar topshiriladi:

- Jek London biografiyasi va ijodiga oid qo'shimcha ma'lumotlarni aniqlash;
- ingliz va o'zbek adiblari ijodidagi mushtarak jihatlar yoritilgan maqolalarni o'rganish;
- asar matnidagi adib shaxsiyati bilan bog'liq o'rinlarni topish;
- matndagi kalit so'zlarni belgilash va ularning vazifasini baholash;
- yo'lovchining xarakteri qirralarini ochib berishga xizmat qilgan detallarni aniqlash va kontekstdagi vazifasini belgilash;
- adabiy qahramonlarning shaxs sifatidagi ma'naviy-axloqiy xususiyatlarini qiyoslash;
- matndagi toponimlar (joy nomlari) va gidronimlar (daryo va suv havzalarining nomi)ning real yoki to'qimaligini, mavjud bo'lsa ularning bugungi kunda qaysi davlat hududida ekanligini aniqlash;
- hikoyada tasvirlangan joylar yoki asar qahramonlarining safar yo'nalishi xaritasini tuzish;
- yo'lovchiga yashash ishtiyoqini bag'ishlagan vositalarni izohlash;
- asar voqealari sodir bo'lgan joylarning iqlimi, nabotot va hayvonot olami tasviri bilan o'lkamiz tabiatining o'ziga xosligini birlashtirish;
- asarda tasvir etilgan voqea-hodisalar yuzasidan rasm ishlash;
- izohlash so'zlar lug'atini yaratish.

Quyida hikoya matni bilan bog'liq topshiriqlardan ko'zda tutilgan natijalarga doir namunalari keltiriladi:

Kalit so'zlarni aniqlashga doir topshiriqlar: Ma'lumki, kalit so'zlarni aniqlashga oid topshiriqlar matn ustida olib boriladigan ishlarning tarkibiy qismlaridan biridir. Matndan asosiy so'zlarni ajratish, ularning ma'nosi va asardagi funksiyasini belgilash o'quvchilarni nazariy yo'nalishdagi masalalarni tadqiq qilishlarida muhim o'rin tutadi. O'ranilayotgan mavzu yuzasidan ma'lumotlar to'plash, ularni mustaqil tahlil qilish, nazariyani amaliyotga tatbiq etish kabi faoliyat turlari tadqiqot metodining muhim jihatlariandir. Bunda mavzuga doir bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilar duch keladigan qinchiliklar o'qituvchining diqqat markazida turmog'i zarur.

Asar matnidagi kalit so'zlarni aniqlashda dastlab qahramon ruhiyati, xarakter xususiyatlarni ochib berish yoki syujet chizig'ida muayan vazifalar yuklatilgan voqea-hodisalar bilan bog'liq so'zlarni aniqlash va mazmunini izohlash topshirig'ini berish mumkin. Masalan, miltiq, soat, qop, gugurt cho'plari, o't (olov), odeal, kotelok, qaynagan suv, bug'u terisidan qilingan xaltacha, ochlik azobi, botqoq mevalari, qamishzor, baliqchalar, kaklik, kasal bo'ri kabi asosiy so'zlarning ma'nosini, syujetdagi o'rniga baho berish orqali o'quvchilarda yo'lovchining iroda sifatleri yoki intilishlaridan ko'zda tutilgan maqsad idrok qilinishi kabilar belgilanadi.

O'quvchilar mazkur so'zlarning qo'llanilishiga doir fikr-mulohazalarini bayon etish, firklarini asoslash jarayonida matndagi muayan epiozdlarga murojaat qiladi. Muallifning tasvir uslubi va mahoratiga munosabatlarini ifodalaydi, so'zlar tagzaminidagi ma'no mohiyatiga kirish, muhimi, asar markazidagi shaxsiyatni anglashga urinadi. Kalit so'zlarni topishga yo'naltirish orqali o'quvchilarda mavzuni o'zlashtirish bilan bog'liq onglilik va emotsional ko'nikmalar shakllanadi. Masalan, lavhalardan hayot tasodiflari ba'zan omadga yo'g'irilgan bo'lsa, ba'zan shafqatsizligi, moddiyatni afzal bilish kutilmagan baxtsizliklar sababchisi yoki umr intihosi bo'lishi haqidagi g'oya singdirilgan so'zlarni topish va syujetning tarkibiy qismlarida ularning qanday o'rin borligini aniqlash vazifasini berish mumkin.

"Odam top-toza qilib qo'yiladigan, yarqiroq qizg'ish suyaklarga qarab turdi. Suyaklarning rangi qizg'ish edi, chunki undagi hayot hali so'ngmagandi. Kechqurunga borib, ehtimol, uning taqdiri ham shunday bo'lar. Hayot shunaqa, hayot bevafo va bebaqo. Lekin hayot alam chektiradi, o'limda esa qiynalish yo'q. O'lmoq uxlamoqdir, o'lim orom olmoqdir. Bo'lmasa nima uchun u o'lishni istamaydi?"

Lekin u uzoq o'ylab o'tirmadi. Ko'p o'tmay u cho'kka tushdi-da, suyaklarni kemira boshladi, suyaklarga qizg'ish tus berib turgan hayotning oxirgi nishonlarini so'rmoqqa tutindi. Go'shtning o'tmishdan qolgan xotira singari bo'lib tuilgan sezilar-sezilmas mazasi uni o'zini yoqotar darajada hayajonga soldi. Suyakni tishlari orasiga olib, g'ajib boshladi. Goh suyak sinar, goh uning tishi sinardi. Keyin u suyakni tosh bilan yanchib, ochko'zlik bilan yuta boshladi. SHoshilganidan toshni barmoqlariga urar, ammo qancha hovliqmasin, nima uchun og'riqni sezmayyotirman deb ajablanib qo'yardi"<sup>1</sup>. E'tibor qilinsa, yo'lovchiga sarguzashtlari davomida *bug'u terisidan tikilgan xaltacha* hamrohlik qiladi. Muallif kitobxonga xaltacha ichida nima borligini bildirmaydi. Bu jim turishlik ma'nosini sinchkov kitobxon ilg'amasligi ham mumkin emas, voqealar rivojida bu detalning kiritilishi borasida nimanidir sezadi. Asar yakunida esa, sir ma'lum bo'ladi, uning funktsiyasi oydinlashadi:

"U o'rmalab o'tgan boshqa odamning izidan borardi. Ko'p o'tmay, o'zidan oldingi odamning manziliga yetib keldi. Ho'l chimliq ustida kemirib tashlangan suyaklar va bo'ringing iziga ko'zi tushdi. Yerda xuddi o'zinikiga o'xshagan, o'tkir tishlar tortqilab yirtgan bug'u terisidan tikilgan xalta yotardi. Bunday og'ir yukni ko'tarishga madori kelmasa ham, kuchsiz barmoqlari bilan qopni yerdan ko'tarib oldi. Bill oltinlarni so'nggi daqiqalarga qadar tashlanmagan..."<sup>2</sup>.

Asar matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilar faoliyatini hayotga muhabbat g'oyasi, o'zlikni anglash, insonning tabiat kuchlariga qarshi kurashi, shukronalik, do'stga sadoqat tuyg'ulari kompozitsion markaz talablariga muvofiq tanlaganini aniqlashga yo'naltirish maqsadga muvofiq. Badiiy adabiyotni mavzu, g'oya, tasvir tamoyillari, obrazlar talqini jihatidan baholashda ayrim asarlar syujetidagi mushtarak nuqtalarni birlashtirish vazifasini bajarish ham taqozo qilinadi. O'zbek adabiyotida N.Norqobilovning "Oqbo'in", N.Fozilovning "Ko'kyol", P.Qodirovning "Xatarli uchrashuv" kabi asarlar bilan "Hayotga muhabbat" hikoyasidagi ayrim epizodlarni qiyoslash asnosida o'quvchilarning mantiqiy tafakkuri rivojida ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, yirtqichlar ta'qibiga uchragan insonning aql-idrok bilan yo'l tutishiga oid lavhalar tasvirini bunga misol qilish mumkin:

"...Meni sergaklanib kuzatayotgan haligi kulrang jonivorlar it emas edi. Men ularning bo'ri ekanligini tushundim-u, yetim junjikib ketdi. Bir lahza o'zimni yo'qotib qo'ydim. Keyin sal hushumni yig'ishtirib qaragam, oyoqlarim go'yo o'zidan o'zi yurib ketayapti. To'xtashga ham, jadallashga ham, avzoyimni o'zgartirishga ham, hatto bo'rilarga yana bir qarashga ham jur'at yo'q. To'g'riga qarab avvalgiday yurib ketyapman-u, butun vujudim bilan bo'rilar tomonga quloq solaman..."

Kishining qo'riqqanini sezsa, jur'atsiz kuchuk ham hujum qiladi, men buni yaxshi bilar edim. SHunning uchun yuragim vahimadan uvishib ketayotgan bo'lsa ham boyagiday shoshilmay, bo'rilarni ko'rmaganday bir maromda yurib borardim..."<sup>3</sup> (P.Qodirov. "Xatarli uchrashuv").

"... Orqadan xirillagan bir tovush eshitildi, bu xo'rsinishmi, yo'talmi – bilib bo'lmasa edi. G'oyat zaiflik va karaxtlikni juda sekinlik bilan yengib, u ikkinchi yonboshiga ag'darildi. Yaqinda hech narsa ko'rinmadi. U sabr bilan kuta boshladi. Yana xirillagan va yo'tal eshitildi. Yigirma qadamcha narida o'tkir qirrali ikki toshning orqasidan bir bo'ringing kulrang boshi ko'rindi..."

... U esa orqasidan kasal bo'ri ergashib kelayotganini, kasal odam avval o'ladi degan umidda ekanligini tushunardi"<sup>4</sup> (J.London. "Hayotga muhabbat").

Qiyosiy mazmundagi topshiriqlar uzluksiz adabiy ta'lim bosqichlari dasturlari o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni aniqlashga xizmat qilishi, shuningdek, turli zamon va makonda yashab ijod qilgan yozuvchilarning ijodiy yo'nalishi, tasvir uslubidagi mushtaraklik haqida ma'lumot berish nuqtayi nazaridan ham samaralidir. Fanlararo integratsiyaga oid topshiriqlar. Adabiyotni boshqa fanlar bilan

<sup>1</sup> Tuxliyev B. va bo'sh. Adabiyet. U'rtta ta'lim muassasalarining 10-sinf va u'rtta mahsus, kasb-xunar ta'lim muassasalarining u'quvchilari uchun darслиk-majmu'a. – T.: "U'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyati, 2017. – 161-6.

<sup>2</sup> Tuxliyev B. va bo'sh. Adabiyet. U'rtta ta'lim muassasalarining 10-sinf va u'rtta mahsus, kasb-xunar ta'lim muassasalarining u'quvchilari uchun darслиk-majmu'a. – T.: "U'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyati, 2017. – 163-6.

<sup>3</sup> Matchanov S. va bo'sh. U'qish kitobi. Umumiy u'rtta ta'lim maktablarining 4-sinf uchun darслиgi. – T.: "Yanгийul poligraf servis", 2017. – 139-6.

<sup>4</sup> Matchanov S. va bo'sh. U'qish kitobi. Umumiy u'rtta ta'lim maktablarining 4-sinf darслиgi. – T.: "Yanгийul poligraf servis", 2017. – 139-6.

<sup>5</sup> Tuxliyev B. va bo'sh. Adabiyet. Darслиk-majmu'a. – T.: "U'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyati, 2017. – 161-162-6.

integrativ yondashuv asosida o'rganishga oid topshiriqlar o'quvchilarda "mavjud axborot manbalari (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug'at, ma'lumotnomalar, (audio-video yozuvlar), kompyuter, elektron pochta va boshq.)dan o'quv maqsadlari doirasida foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish, ibrat olish va o'z faoliyatida qo'llash"<sup>1</sup> kabi axborot bilan ishlashga oid (V1) tayanch kompetentsiyalar rivojiga xizmat qiladi. Ensiklopedyalardan hikoyada qalamga olingan joylarda doir ma'lumotlarni o'rganish asosida geografik qutblar, dunyo davlatlarining relyefi, iqlimi kabi muayyan bilimlar takomiliga yerishishi maqsadi nazarda tutiladi. SHuningdek, hikoyadagi peyzaj o'quvchilar tasavvurida yanada yorqinroq gavdalanadi. Masalan, SHimoliy Qutb – Yer aylanishi faraziy o'qining yer yuzasi bilan kesishadigan SHimoliy yarim shardagi nuqtasi. SHimoliy Muz okeanining chuqur. 4000 m-li markaziy qismida joylashgan. SHimoliy o'rtacha havo temperaturasi – 40°, yoz oylarida 0°, ayrim kunlarda 1-2° gacha ko'tariladi. Qutb kuni 186 sutka va 10 soat, qutb tuni 178 sutka va 14 soat davom etadi<sup>2</sup> va h.k. "To'plam va tasnif" mavzusidagi oid topshiriqlar orqali ona tili fani bilan integratsiya ta'minlanadi. Bunda quyidagi berilgan so'zlarni ma'lum nom ostida guruhlashtirish vazifasini berish mumkin:

Sahro, yomg'ir, bug'ular, qor, vodiy, botqoq, tun, qamishzor, bo'rilar, qurt, tuman, tuyoqlar, tepalik, tong, archa, kakliklar, ayiq, baliqlar, soy, qurbaqa, qumloq, qirg'oq, buta va boshqalar.

Savol-topshiriqlar ustida ishlash.

1. Hikoyadan insonning ruhiy holati aks etgan epizodlarni aniqlang va obrazlarni o'rganish bo'yicha tahlil qiling. 2. Siz yo'lovchiga qanday ism qo'yigan bo'lardingiz? Muallifning uni nomlamasligi sabablari nimada deb o'ylaysiz? 3. Bill holakatining sabablari nimada? 4. Bo'ri va inson xatti-harakatlarini solishtiring. Undan qanday xulosa chiqardingiz? 5. Safarga chiqqanda hamrohini qiyin vaziyatlarda tashlab ketgan insonlar obrazi gavdalandirilgan qanday asarlarni o'qigansiz? O'zingiz ham shunga o'xshash voqealarni boshingizdan kechirganmisiz? 6. Oqibatsizlik yoki nafsga berilish salbiy oqibatlariga olib kelishiga kuzatishlaringiz asosida javob bering.

Muammoli savollar (vaziyatlar) yuzasidan bahs-munozara:

1. Agar yo'lovchi va Bill birga bo'lishganida (voqealar qanday yakun topishi mumkin edi?)... 2. Yo'lovchining yig'lashi bu uning (ojizligi, o'limdan qo'rqishi yoki irodasizligi)... 3. Tirik qolmasligi mumkin edi, agarda u (bo'rining ta'qiblaridan xulosa chiqarmaganida, Billning suyaklarini ko'rmaganida)... 4. Inson hayot qadri his qilmaydi, o'zligini anglab yetmaydi (agar ayovsiz sinovlar bo'lmasa).

Xulosa qilganda, adabiy ta'lim jarayonida tadqiqot metodidan foydalanish o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, badiiy-estetik tafakkurini o'stiradi, dunyoqarashini kengaytiradi, o'quv materialini mazmunini ilmiy-mantiqiy Xulosa qilganda, adabiy ta'lim jarayonida tadqiqot metodidan foydalanish o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, badiiy-estetik tafakkurini o'stiradi, dunyoqarashini kengaytiradi, o'quv materialini mazmunini ilmiy-mantiqiy o'rganishda yo'naltiradi hamda kichik ilmiy izlanishlarga debocha vazifasini bajaradi.

## O'ZBEK POEZIYA NAMUNALARI TARJIMASINING INGLIZ TILIDAGI INTERPRETATSIYASI

**Yusupov O.N.** - Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek poeziya namunalarining tarjimasining ingliz tilidagi interpretatsiyasini tahlil qilishga bag'ishlangan. Zero, adabiy aloqalar xalqlar o'rtasida birdamlik ruhiyatini yaratadi.

<sup>1</sup> Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунара таълимнинг давлат таълим стандартини тасдиқлаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. – Т.: [www.lex.uz](http://www.lex.uz). Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 йил, 14 (774)-сон, 230-модда. – 35-б.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедия. Тўртинчи жилд. – Т.: "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) кутубхонаси. – 153-б.

**Kalit soʻzlar:** tarjima, interpretatsiya, poeziya, til.

### ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПЕРЕВОДОВ ОБРАЗЦОВ УЗБЕКСКОЙ ЛИРИКИ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

**Юсупов О.Н.** – соискатель Ташкентского государственного педагогического университета

**Аннотация.** В данной статье анализируется интерпретация переводов образцов узбекской лирики на английском языке. Поскольку литературные связи создают дух сплоченности между народами.

**Ключевые слова:** перевод, интерпретация, поэзия, язык.

### INTERPRETATION OF ENGLISH POEMS EXAMPLES IN ENGLISH

**Yusupov O.N.** - Tashkent state pedagogical university, independent researcher

**Annotation.** In the given article interpretation of transfers of the Uzbek poetic samples is analyzed. As on the basis of the literature the relation of the different people develops.

**Key words:** translation, interpretation, poetry, language.

Badiiy adabiyotni yanada chuqurroq tadqiq etish, jumladan, badiiy asar matnida qoʻllanilgan tasviriy vositalar, poetik tasviriy vositalarni qiyosiy oʻrganish hozirgi filologik tadqiqotlarning ustuvor ilmiy-nazariy yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Oʻzbek va inglizabon adabiyotlarida sheʼriy tarjimalar XX asrning oʻrtalaridan jadal rivojlanib borgan. Bunday adabiy aloqalar, albatta, xalqlar oʻrtasida birdamlik ruhiyatini yaratadi. Oʻzbek adabiyotidan ingliz tiliga tarjima qilingan sheʼriy asarlarni oʻrganamiz.

Shunday tarjimalardan 1958-yilda Moskvada ingliz tilida “Uzbek poetry” (“Oʻzbek sheʼriyatini”) nomi bilan koʻp asrli oʻzbek sheʼriyatining muxtasar antologiyasi nashr etildi. Nazarimizda, bu nashr antologiya sifatida inglizchaga tarjima yosinidagi ilk qadamdir. Kitobga oʻn toʻrtta oʻzbek shoiri (3 shoir mumtoz adabiyot, 11 shoir zamonaviy sheʼriyat vakillaridan)ning ijodidan namunalar kiritilgan edi. Kitob adabiyotshunos olim Izzat Sultonning “A few words about Uzbek poetry” (“Oʻzbek sheʼriyatini haqida bir necha soʻz”) nomli soʻz boshi bilan ochiladi. Unda olim koʻp asrlik oʻzbek sheʼriyatini haqida ingliz oʻquvchilari uchun yangilik boʻlgan maʼlumotlar berib oʻtadi. Xususan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu Bilig” nomli didaktik asari, Yassaviy, Qutb, Xorazmiy, Durbek, Atoyi kabi shoirlar ijodi, Lutfiyning “Gul va Navroʻz” dostoni borasida fikr yuritadi. Buyuk tafakkur sohibi, shoir va davlat arbobi Alisher Navoiyning “Xamsa”, “Xazoin ul-maoniy” (muallif maqolada “Chordevon” deb yozadi) kabi kitoblariga kiritilgan dostonlar va gʻazallar, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari, shuningdek, zamonaviy oʻzbek shoirlari: Hamza, Gʻafur Gʻulom, Oybek, Hamid Olimjon, Uygʻun, Mirtemir, Zulfiya, Mirmuhsin, Asqad Muxtor, Mamarasul Boboyev, Quddus Muhammadiy hamda ulardan keyingi avlod vakillari ijodi toʻgʻrisidagi fikr-mulohazalar qilgan va maqolani mazmunli qilgan, boyitgan. Har bir muallif haqida qisqacha biografik maʼlumotlar berilganligi kitobning qiymatini yanada oshirgan.

Mazkur antologiyaga Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidan parcha hamda uch gʻazali va hikmatlari kiritilgan. Shuningdek, Muqimiy va Furqatning gʻazallari ham mumtoz sheʼriyat namunalari sifatida kitobdan joy olgan.

Kitob tuzuvchilari ingliz kitobxonini zamonaviy oʻzbek sheʼriyatining atoqli namoyandalari ijodi bilan kengroq tanishtirishni oʻz oldilariga maqsad qilib qoʻyishgan. Tarjima uchun, asosan, shoirlarimizning maʼlum va mashhur sheʼrlari tanlab olingan. Sheʼrlarni (albatta, rus tili orqali oʻgirilgan, deb hisoblash kerak) V.Iyevleva, D.Rotenberg, O.Moiseyenko singari tarjimonlar ingliz tiliga oʻgiranlar.

Ushbu antologiya ingliz o'quvchisiga o'zbek she'riyatining olis yellari haqida yaxshigina tasavvur berishi bilan qadrlidir<sup>1</sup>.

Amerikalik shoir Mel Ken va Turkiyada yashab ijod qilayotgan, o'zbek adabiyotining otashin jonkuyarlaridan Temur Xo'ja o'g'li, Fitrat va Cho'lpon ijodini o'rgangan olimlardir. Ularning tarjimalaridan misol keltirsak:

Asliyatda:

Ko'ngil

Ko'ngil, sen bunchalar nega

Kishanlar, birla do'stlashding?

Na faryoding, na doding bor,

Nechun sen muncha sustlashding?

Haqorat dilni og'ritmas,

Tubanlik mangu keimasmisi?

Kishanlar parchalanasmisi?

Qilichlar endi sinmasmisi?

Tiriksan, o'lmagansan,

Sen-da odam, sen-da insonsen,

Kishan kiyima,

Bo'yin egm,

Ki sen ham hur tug'ilg'onsen!

Tarjimada:

Heart

Oh, my heart! Why do you behave.

So amicably toward these chairs?

You never weep or writhe in pain

How can you endure your endless silence?

Don't the insults ever offend you?

Is there no end to your submission?

Will you ever break free one chain?

And can the swords ever be shattered?

You are a live, not a dead thing,

You are still manly, wholly human.

Don't bear these chains,

Don't bend down,

Know that you too were free born!

Asliyatda:

Kuz

Ko'm-ko'k ekan, sarg'aydilar yaproqlar

Og'riq, mag'lub, tutqun Sharqning yuzidek.

Bo'ronlarning ko'zlarikim, o'ynoqlar,

G'olib G'arbning qonga to'lgan ko'zidek.

Qora bulut to'dasikim ko'klarni

Sharqni yopgan yang'lig' yopmishdir.

Kuz qo'shini — og'u bulut o'qlarni

Yoz bag'riga hech sanoqsiz otmishdir!

Balo yanglig' qator-qator chizilib,

Ko'k yuzidan qarg'alar ham o'talar.

Sharqdek ichdan yashiringina ezilib,

Ko'p jonlilar so'nggi tinni kutalar.

Butun borliq — chog'liq o'chish oldida,

Sovuq... qora kishga ko'chish oldida...

Tarjimada:

Fall

The green leaves have all gone yellow

As the sick, captive, broken face of the East

The eyes of the twisters dance

Like the bloody victorious leers ohe West.

The sky was shrouded by a bank of black clouds,

Like the veil that covers the face ohe East.

The armies of all have launched their myriad

Poisoned arrows toward summer's bare chest.

Also, there in sky passes a flock of crows,

A misfortune compounded by several dark rows.

Many souls stand a waiting the final breath,

Like the East that secretly mourns its sorrows.

All existence sits perched on the eve of expiration.

On the eve of moving on to winter's icy foundation.

Ushbu she'riy tarjimalarni Mel Kene va Temur Xo'ja o'g'li juda yuksak estetik did va mahorat bilan tarjima qilishgan. Lekin birinchi she'riy tarjimada, mutarjimlar "Ko'ngil" so'zini "Yurak", ya'ni "Heart" so'zi bilan tarjimani sarlavhasini noto'g'ri berishgan, aslida uni "soul" so'zi bilan ifoda etishganda tarjima yanada aniqroq chiqqan bo'lardi. Keyingi tarjimada esa "Kuz" so'zini majoziy o'xshatish bilan "tugallanish" yoki "to'kilish" so'zlari bilan tarjimani maromiga yetkazishgan.

Shuni ham qayd etish lozimki ingliz va amerika tarjimonlari "Boburnoma"ni tarjimasini bevosita asliyatdan, tarjima qilib o'rganishgan. Shunday mutarjimlardan biri, bu Jon Leyden bo'lib, u ingliz sharqshunosligida alohida o'rin tuadi. Jon Leyden boburiylar tarixini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish uchun kelganlardan biri bo'lgan. U o'z davrining mashhur hakimi va shoiri edi shu bilan birgalikda. Uning rafiqasi Izabella Skott esa Buyuk Britaniyaning taniqli a'yonlaridan biri, mashhur yozuvchi Valter Skottning singlisidir. Jon Leyden, "Boburnoma"dan qilgan nasriy va nazmiy parcha tarjimalarini adib Valter Skottga taqdim etganda, u hayratda qoladi. Asardagi tarix, geografiya, ma'danshunoslikka oid ma'lumotlarni maxsus fanlar bilan shug'ullanuvchi olimlar xukmiga havola qiladi, o'zi esa Boburning

<sup>1</sup> Бегойим Холбекова. Ўзбек тилидан инглиз тилига таржималар тарихидан. // Шарқ юлдузи журналі, 2010. №4.

ijodiy faoliyatiga qiziqib, uning she'riyatiga juda yuqori baho beradi. Valter Skott "Boburnoma" tarjimasini yaratishda Jon Leydenga ham moddiy, ham ma'naviy ko'mak berganligi ma'lum. Jon Leyden asar qo'lyozmalarini 1804—1805-yillarda turkiy asliyatdan o'rganishga kirishgan, lekin u asar tarjimasini oxiriga yetkaza olmaydi, sababi u vafot etadi. Uning vafotidan so'ng, tadqiqotni u bilan bir vaqtda forscha tarjimadan o'g'irishga kirishgan Uilyam Erskin poyoniga yetkazadi va 1826-yilida chop ettiradi.

Henri Beverij va Anetta Susanna Beverij ham "Boburnoma" asarini tarjima qilishda qiyinchilikka duchor bo'lishgan, ular turkiy va fors-tojik tilidan habardor bo'lsada, she'riy satrlar qatiga jo qilingan ruhiyatni, shira, nozik sharqona ma'nolar, tavoze, takalluf, odob-axloq, xatti-harakatlar, mubham tushunchalarni to'la berisha olmagan buni aytish qiyin. Xuddi shuni e'tirof etib, A.Beverij xonim Boburning badiiy mahoratini quyidagicha ta'riflaydi: "Boburning ikkinchi satridagi ruhiy hissiyotiga biror qo'shimcha qilishga o'zimga zid fikrlar nimani anglatishini tushunib yetish mushkul. Bobur o'zining ichki ruhiy aks sadolarini she'rlarda namoyon qiladi. Shayx Zayn butun voqealarini nazmda tasvirlab, shunday shoirona uslubda davom etadi... Bobur voqealar bitilgan sahifalarning satrlarini o'zining olijanob qalbidan uzr so'ragan holda pushaymonlik, kayfiyatiga cho'mib, o'z qalb yaralarini barmoq tirnoqlari ila timdalab, tanbeh pichog'i bilan saralab qofiyaga olgan. Men bunday botiniy ilohiy misralarni nazarda tutgan holda, uni tangriga bo'lgan tavba iltijosi va A'lo hazratlarining aytgan betakror so'zlari har qanday ezonlarning so'zlaridan ham qudratliroq, deb tushunaman<sup>1</sup>".

Jumladan angliyalik tadqiqotchilar orasida birinchi bo'lib Olaf Kerou "Sovet saltanati. O'rta Osiyo va stalinizm" kitobida Cho'lpon shaxsiyati va ijodiga alohida e'tibor bergan edi. Kitobning "Chig'atoy merosi" bobida Cho'lpon va Mag'jon ijodi qiyoslanadi: «Mag'jon – kun, men – tun» atamasini turkiy xalq (kun) va o'rislarga (tun) nisbatan qo'llangan bo'lsa, Cho'lpon "sharq" va "g'arb" atamalarini ishlatib, bular orqali ezilganlar (sharq) va zolimlarni (g'arb) nazarda tutgan edi", deb to'g'ri xulosaga keladi, tadqiqotchi.

Olaf Kerou fikriga ko'ra mumtoz adabiyotimiz Alisher Navoiy bilan boshlanib, Cho'lpon bilan tugaydi. Olim Cho'lpon she'rlaridan misollar keltiradi va uni tahlil qiladi. Olaf Kerouning kuzatishicha, "Cho'lpon 1926-yilgacha milliy ruhda she'rlar yozgan. Shoirning ilk she'rlarini hozir topib bo'lmasa kerak", deb afsuslanadi u.

She'riy janrlardan bo'lgan, qasida janrida teran falsaiy fikrlari keng va batafsil bayon qilgan, Shayboniyxonning "Bahr ul-hudo" ("Hidoyat dengizi") deb nomlangan qasidasini ingliz sharqshunosi Ch.Riyo o'rgangan. Ushbu qasida hijriy 914-yilning muharram oyida — milodiy 1508-yil may oyining 3—14-kunlari Baston va Domg'on (Xuroson) shaharlarida yozilgan 260 bayt (520 misra)dan iborat mazkur qasidaning hozircha yagona deb hisoblangan qo'lyozma nusxasi ham Britaniya muzeyi kutubxonasining Sharq qo'lyozmalari bo'limida Add. 7914y. raqami bilan qayd etilgan va Ch.Riyo tomonidan tavsifi berilgan yirik majmua tarkibidan joy olgan.

Shayboniyxonning "Bahr ul-xudo" qasidasini amerikalik olim A.Bodrogligeti "Ural—Oltoyshunoslik xalqaro jurnali"da, mazkur qasidani so'zboshi, izoh va lug'at bilan nashr ettirgan. Noshir asarni o'rta asr Sharqida turkiy tilda yozilgan eng uzun qasida deb hisoblaydi va shoirning ba'zi mavzularda, ayniqsa, ilm haqidagi fikrlari tarqoq holda berilganligini nazarda tutib, qasidani ko'chirgan kotib uning asl tuzilishini o'zgartirgan bo'lishi mumkin, deydi. Olim asarning umumiy uslubi Sa'diy uslubiga o'xshab ketadi, xususan, qasidaning Shayboniy nasihatlaridan iborat o'rinlari "Guliston"ning bevosita ta'sirida yuzaga kelgan, degan fikrga keladi. Shuningdek A.Bodrogligeti mazkur nashrda yozgan so'z boshida Shayboniyning "Risoi maorif" asarini qayd etadi va bu asar ham "Devon" va "Bahr ul-hudo" kabi shoirning yetuk bilimdon, taqvodor musulmon, raiyat va islom dini haqida g'amxo'rlik qiluvchi inson sifatida ko'rsatadi, deydi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup>Zany Al-Din Khwafi, Zain Khan's Tabaqat-i Babur., Translated by Sayed Hasan Askari., Annotation by B.P.Ambastha. Delhi; Idavah-i adabiyati., Delhi., 1982.

<sup>2</sup>Мунира Шарипова. Мухаммад Шайбоний ижоди хорижда. // Жаҳон адабиёти журнали. Тошкент 2010. №4. Б. 172—174

Demak, yuqoridagi tarjimalarda, balki, qandaydir kamchiliklar bo'lishi mumkin, albatta, chunki har qanday tarjima, bizning nazdimizda, amalga oshirib bo'lmaydigan muammoni hal etishga tirishqoqlik bilan urinishdek ko'rinadi. Negaki har bir tarjimon ikki to'g'anoqning biriga, ya'ni o'z xalqining tili va uslubiga haddan tashqari amal qilgani oqibatida asliyatga yoki asliyatga ortiq darajada amal qilgani natijasida o'z xalqining o'ziga xos xususiyatiga borib urilishi kerakdek go'yo. Ikkalasining orasida o'rtamiyona narsaga erishish nafaqat qiyin, balki chindan ham buning imkoni yo'q.

### “KUZ” AZIM SUYUN SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZ TIMSOLIDA

**Keldiyorova N.** — O'zR FA O'zbek tili va adabiyoti va folklori instituti tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Maqolada Azim Suyun she'riyatidagi poetik obrazlar haqida fikr yuritilib, “kuz” obrazining yaratilish usullari poetik mahorat nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Va boshqa safdoshlari, jumladan, Shavkat Rahmon va Usmon Azim she'riyati bilan qiyoslanadi. Shoirning she'rlaridan parchalar keltirilib, tahlilga tortiladi, ma'lum xulosalar chiqariladi.

**Kalit so'zlar:** poetik obraz, lirik qahramon, timsol, xalqona ifoda, ijodiy konsepsiya, falsafiy mulohaza.

### “ОСЕНЬ” КАК ПОЭТИЧЕСКИЙ ОБРАЗ В ПОЭЗИИ АЗИМА СУЮНА

**Келдиёрова Н.** – соискатель института узбекского языка и литературы и фольклора Академии наук Республики Узбекистан

**Аннотация.** В статье анализируются поэтические образы в поэзии Азима Суюна, а также с точки зрения поэтического мастерства стили исследуются создания образа “осени”. Проведено сопоставление с поэзией Шавката Рахмана и Усмона Азима, являющихся его соратниками. Приведены и проанализированы отрывки из стихотворений поэта и сделаны некоторые выводы.

**Ключевые слова:** поэтический образ, лирический герой, народная творческая концепция, философское рассуждение.

### THE IMAGE OF “AUTUMN” AS POETIC SYMBOL IN THE POEMS OF AZIM SUYUN

**Keldiyorova N.** - independent researcher of the Institute of Uzbek language and literature and folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

**Аннотация.** The article analyzes the poetic images in the poetry of Azim Suyun, as well as the styles of creating the image of the “autumn” are explored from the point of view of poetic skill. As well as the comparisons with the work at Shavkat Rahmon and Azim Suyun are given. Some extracts from poems of this poet are given and analyzed and some conclusions are made. In article poetic images in poetry Azim Suyun are analyzed, and also styles of creation of an image of "autumn" are investigated from the point of view of poetic skill. Comparison to poetry was held by Shavkat Rahmon and Usman Azim. Fragments from poems of the poet are resulted and analysed and some conclusions are drawn.

**Key words:** poetic image, lirik hero, folk conception, philosophical reasoning.

O'tgan asrning oltmishinchi yillari oxiri yetmishinchi yillar boshlarida she'riyat maydoniga kirib kelgan bir guruh yosh shoirlar ichida Azim Suyunning ham o'z munosib o'rni bor. U tengdoshlari

Xurshid Davron, Usmon Azim, Ikrom Otamurod kabilar qatori ijodiy izlanishlari bilan o'zligini topishga harakat qildi.

Shoir bu davrda yozgan bir she'rida:  
Bahor doim bahorligin ayon etar,  
Oftob nuri bulutlarni yorib o'tar,  
Bijg'ib yotgan ko'lmaklarni ko'p ko'rdim-ey,  
Oqin suvlar o'z yo'llarin topib ketar<sup>1</sup>  
deb bashorat qilgan edi.

Darhaqiqat, shoir ijodi chashmadan otilib chiqayotgan buloq suvidek o'z yo'lini topib, muxlislariga ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qilmoqda. Azim Suyunlar avlodi she'riyatga XX asrning buyuk salafarlari — G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Oybek, Mirtemirlar, o'zlaridan besh-o'n yil ilgari yoniq yurak bilan ijod maydoniga kirib kelgan Abdulla Oripov, Erkin Vohidovlarday salohiyatli ijodkorlar ijodidan bahra olib, ko'tarinki kayfiyat va shijoat bilan kirib keldilar.

Ayni paytda, bu davrda jahon va rus she'riyatidan qilingan tarjimalar, Genrix Geyne, Bayron, Lorke, Pushkin, Lermontov, Yesenin kabi shoirlar ijodi ham o'zining o'tli tuyg'ulari bilan ularning qalbiga olov yoqдилar. Shu bois bu zamondosh shoirlar ilk ijodiy namunalaridayoq havaskor qalamkash sifatida emas, balki badiiyatning sir-asrorini, she'riyatga xos nafosati va go'zallikni, tuyg'ular po'rtanasini yaxshi his qiladigan to'laqonli shoir sifatida bo'y ko'rsatdilar. Ular rang-barang mavzularda bitilgan dastlabki she'rlaridayoq inson qalbining nozik kechinmalarini o'ziga xos obrazli bo'yoqlarda, mohirlik bilan qo'llangan poetik obraz va timsollarda ifodalashga muyassar bo'ldilar. Bu she'riyatiga havoyilik, soxta ko'tarinkilik begona. Ular qaysi mavzuda asar bitmasin, Ona Vatan madhimi yoki sevgi-muhabbat motivi bilan sug'orilgan she'rlarmi, kuz yoki bahor fasli haqida yoziladimi, undan qat'i nazar barchasiga xos bir xususiyat ustuvor, u ham bo'lsa shu Ona zamin bilan, uning munis va mehnatkash xalqi taqdiri bilan bog'lanuvchi mustahkam rishta bor. Mana shu rishtani har bir zamondosh shoir o'ziga xos bo'lgan ovozi bilan sarrin bo'yoqlarda, rang-barang poetik obraz va timsollarda aks ettirishi davr yoshlari she'riyatining xos xususiyatlaridan biriga aylandi.

Azim Suyun she'riyati haqida fikr yuritgan munaqqidlar ham shoir she'rlarini o'z zamondoshlaridan ajratib turuvchi jihatlar sifatida shoir tuyg'ulari ko'proq hayotiy voqelik bilan uzviy bog'liqlikda, ortiqcha murakkabliklardan, ko'povozli ma'no va mazmundan xoli, asosan, xalq ohanglari bilan uyg'un jihatlariga e'tibor qaratishadi. Jumladan, U. Normatovning "So'z tuzalsa — el tuzalar" maqolasida quyidagi fikrlarni o'qiyimiz:

"Azim Suyun she'riyatda xalqona, baxshiyona yo'liga shunchaki bir havas, "tajriba o'tkazish" uchun kirib qolgan emas, qismat unga shuni ravo ko'rgan. Ehtimol, hozir urf bo'lgan yoki urf bo'lib borayotgan xiyla murakkab, majoziy ma'noli modernistik she'rlar yoki tasavvufona falsafiy nazmga moyil kishilar nazarida Azim Suyun tutgan yo'l jo'nroq, odmiroq tuyulishi mumkin. Shoir dilidagi gaplarini ko'pincha aylanma yo'llar qidirib o'tirmay dangal aytib qo'ya qoladi, uning fikrlash va ifoda tarzi sodda, bir qadar xokisor, jimjima-bezaklardan holi, bir oz dag'al, biroq bu "dag'allik" zamirida ajib bir tabiiylik, samimiyat, shu samimiyatdan tug'iladigan teran badiiylik mavjud". Darhaqiqat, munaqqid ta'kidlaganidek, xalqona ifoda — Azim Suyun she'riyatining bezagi. Shoir she'rlari o'ziga zamondosh ijodkorlar ijodidan shu jihati bilan ham farqlanib turadi. Buni biz shoirning turli mavzularda bitilgan she'rlarida ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, she'riyatda tabiat fasllari va ular bilan bog'liq bo'lgan ruhiy olam kechinmalari istalgan shoir ijodida ko'plab topiladi. O'zbek shoirlari ichida, ayniqsa, Cho'lpon, Oybek, Abdulla Oripov ijodida uning badiiy mukammal namunalarini uchratamiz. Azim Suyunga zamondosh bo'lgan shoirlar ijodida ham tabiat fasllariga bag'ishlangan she'rlar alohida bir sahifani tashkil etadi. Ular ichida ayniqsa, bahor va kuzga bag'ishlangan she'rlar ko'proq uchraydi. Shoirlar bu tipdagi she'rlarida o'zining ijodiy konsepsiyasidan kelib chiqib turlicha poetik mazmun bilan boyitadi. Chunoschi, shoir bilan oldinma-keyin ijod maydoniga kirib kelgan Usmon Azim, ijodi keyinroq bo'y

<sup>1</sup> Suyun Azim. O'zlik. — T., Sharq, 1999-y. 63-b



ko'rsatgan Shavkat Rahmon she'rlarida ham kuz fasli yetakchi mavzulardan biridir. Biroq ularning she'rlarida kuz Azim Suyundan farqli ravishda U. Normatov qayd etganidek, ko'proq majoziy obraz sifatida asosan hayot murakkabliklari, umr o'tkinchiligi haqidagi falsafiy mazmuni aks ettiruvchi vositaga aylanadi. Usmon Azimning tabiat mavzusidagi she'rlari alohida bir turkum sifatida yaxlit yaratilgan. Shoirning "G'ussa" kitobidagi "Tazarru bog'lari" ana shunday turkumlardan biridir. Turkumning nomidan ham ko'rinib turibdiki, lirik qahramon tabiat fasllari bilan muloqatga kirishib, o'z ruhiyati manzaralarini chizadi. Shoir turkumning muqaddimasidanoq inson umri fasllariga ishora qiladi.

Otashin taxtidan qular saraton,  
Samoda titranar hazin tiniqlik.  
Qaydandir adashib qaytadi armon —  
Ruhingga kiradi mubham siniqlik<sup>1</sup>.

Saratonning taxtdan qulab, kuzga o'z o'rnini berishi va bundan ruhga kirayotgan siniqlik inson umri fasllarining almashish qonuniyati sifatida, binobarin, umr fasli — kuz inson uchun o'zlikni anglash, samoviy haqiqatlar sirini teran his etish, oliy haqiqatga — Haqqa yaqinlashish pallasi ekani haqidagi haqiqat talqinidir. Shoir "Tazarru bog'lari" da mana shu katta haqiqatni fasllarga xos tabiat manzaralari bilan ruhiy olam kechinmalarini bir-biriga monand tarzda uyg'un tasvirlab, falsafiy mazmun bilan boyita olgan. "Tazarru bog'lari" turkumining katta salohiyatini ta'minlagan bosh omil — bog'lar bahonasida dunyoga, borliqqa, koinotga, hamma yaratilarga, nabotot-u mavjudotga, inson mohiyatiga haqqoniy nuqtayi nazar. Hamma-hamma narsaga haqiqat ko'zi bilan, haq ta'limotlari asosida qarashgina adolatdir". Ana shunday inson mohiyatiga evrilish iste'dodli shoir Shavkat Rahmon she'riyatiga ham xos. Shoir "Saylanma" sidan joy olgan to'rt fasldan iborat "Fasllar" turkumidagi she'rlarda ham lirik qahramon kechinmalari orqali tabiat va inson umri bir-biriga monand hodisa sifatida ramziy bo'yoqlarda aks etadi. Azim Suyunning fasllarga bag'ishlangan she'rlarida ham bahor va kuz fasliga alohida e'tibor qaratiladi. She'rlarida kuz ohanglari o'ziga xos bo'lgan hazinlik bilan katta hayotiy falsafani — Inson umri haqidagi hukm-xulosalari va o'y-xayollarini ifoda etadi. Azim Suyunning "Tog'larda kuz boshlandi", "Kuz", "Tog' o'rmoni" kabi she'rlarida ham mana shu ohanglarga qaysidir ma'noda izdoshlikni kuzatamiz. Shoir "Tog'larda kuz boshlandi" she'rida kuzning o'ziga xos bo'lgan poetik manzarasini chizadi. Shoir kuz manzaralarini boshqa she'rlarda uchramaydigan xos bo'yoqlarda, tog'li xududlarga monand tarzda tasvir etadi. Kuzning belgilarini o'ziga xos tarzda poetiklashtiradi. Ketma-ketlikda kelgan bunday poetik tasvirlar mohiyatida kuzning boshqa fasllardan farq qiluvchi o'ziga xos bo'lgan obrazli qiyofasi jonlanadi. She'ning birinchi to'rtligi epilog shaklida kelib, shoir nigohi orqali kuzning xabarchisiga aylangan. Keyingi misralarda esa shoirning poetik nigohi kuzning boshlanishini bildiruvchi belgilarni birin-ketin marjondek tiza boshlaydi. Ularni o'qir ekanmiz, kuzning boshlanishini sharsharaning to'rt tarafga yoyilgan salqinidan, qo'lida ko'za ko'targan tog' qizining osmonga qadalgan nigohidan, bu nigoh orqali osmonu falakda suzib yuruvchi sor burgutlarning ham ko'rinmay qolganini ilg'ovchi kechinmalaridan topadi. Kuzning ushbu belgilari tasviridan so'ng lirik qahramonning kuz haqidagi do'stiga qilgan murojaati ifoda etiladi. Lirik qahramoni suhbatdoshga yuzlanar ekan, kuzning go'zalligi, tarovati boshqa biron fasldan qolishmasligini, kuz deganda, ba'zi bir insonlarning xayoliga faqat hayot kuzagi kelishi bayon etilar ekan, o'zining faol munosabatini bildiradi. She'rdan kuzning go'zalligi, nafosati tog' etaklarida qator bo'lib uchib ketayotgan turnalar orqali, ularga qo'shilib oqayotgan shoirning o'tkir xayollar hamda hayotbaxsh tuyg'ular ummonida g'arq bo'lishi orqali ifoda etiladi. Lekin shoir kechinmalari faqat tabiat go'zalligidan zavq-shavq olish bilangina cheklanib qolmaydi, aksincha, kuz shoir qalbiga yaratuvchilik tuyg'usini, umrning o'tkinchiligi-yu umr kuzagi kelmasdan yaratish, ijodkorlik zavqi bilan yashashga undashi bilan ahamiyatli.

Lekin goh beixtiyor, birdan yodga solar kuz

<sup>1</sup> Qozoqboy Yo'ldosh. Yo'l olami. —T., "Muharrir" nashiryoti, 2011. 62-b

Umrim kuzini, do'stim, uylab qolaman og'ir.

Aqlim deydi misoli chaqmoqday chaqib shu kez:

Dolg'aday jo'sh, xayqirgil, yaratmoq payti axir.

Binobarin, shoirning she'rda ifodalamoqchi bo'lgan asosiy konsepsiyasining bir yo'nalishini mana shu misralarda, ya'ni umr kuzagini katta hayotsevarlik bilan, to'lib-toshib ijod qilish bilan kutib olishga chorlash g'oyasi tashkil etadi. Shoir "Kuz" she'rda ham bu motivni yanada o'ziga xos bo'lgan teran tasvirlar bilan boyitadi. Yuqoridagi she'rda bir-ikki misraga chizilgan chizg'ilar "Kuz" she'rda ruhiyat bilan bog'langan mukammal tasvirlarida o'z ifodasini topadi. Har biri sakkizlikdan tashkil topgan o'n sakkiz bo'limli she'rning epilog va prologlari aynan bir xil bo'lib, o'ziga xos qoliplovchi vazifasini o'taydi. Shoir nigohida kuzatilayotgan, kashf etilayotgan manzaralarda tog'lar bag'riga salqin tushganligi, daralardan vazmin ko'tarilayotgan tuman, kuch-ko'ronini ortmoqlab qishloqqa enayotgan el-yurt, qo'ng'iroqlarni jaranglatayotgan suruvlari bilan tog'ni tark etayotgan cho'pon tasvirlari kuzning darakchisi sifatida ifoda etiladi. Shoir poetik nigohi orqali aks etayotgan kuz manzarasi har bir bo'limda o'zining ma'lum bir qiyofasiga ega bo'lib, shoirning tizginsiz uy-hayollari, munosabati, hayot haqidagi uy-kechinmalari, odam umri va qismati, yaratuvchilik ishqi haqidagi falsafiy mazmun bilan boyitiladi. Kuz faslida tog' etaklarida kezib yurgan lirik qahramon har bir ranglardan o'zgacha bir ma'no-mazmun izlar ekan, xayolan yurtdoshlari bilan muloqatga kirishib, o'zini yolg'izlanib, ulardan uzilib qolgan qolgan odam sifatida aybsimasligini, chunki uning qalbi doim xalq orzu-umidlari bilan bog'langanligini, butun hayoti-yu ijodi mana shu mehnatkash xalq taqdiri bilan qismatdosh ekanligini, bor vujudi bilan xalqning tuy-azasiga birdek kamarbasta ekanliginishe'riy misralarda bayon etadi:

Faxriya bitganday u to'y damlari,

Marsiya bitaman g'amgin va o'ksik<sup>1</sup>,

deb yozadi she'rning lirik qahramoni.

Ayni paytda shoir lirik qahramonni shoir qalbi kuz oylarida tog' bag'rilarida yolg'iz sarsari kezishi, tabiatning maftunkor va go'zal manzaralarini kuzatib, poetik jozibasini qalbiga rassomlardek chizishi, har bir rang manzaralaridan, tabiat ne'matlaridan ma'no-mazmun izlashi shu asosda axtarishi va shu asosda hayot haqida, ijod haqida biron-bir falsafiy mazmun olishni istashini quyidagi satrlarda suratlantiradi:

Garchi kuz chehrasi emas serkulgi,

Garchi ko'p erkalab, kuylamas shodon,

Goh dilda titroq — mung uyg'otsa ham u,

Dilgir sukutlarga ko'msa ham, inon,

U sobir rejalar doyasi erur,

Donishmand otaday oladi qo'lga

Va boshlab yuborar muqaddas yo'lga,

Qarshingda manzillar raxshon ko'rinur<sup>2,3</sup>.

Tahlillardan ma'lum bo'layotirki, shoirning kuz fasliga bag'ishlangan she'rlarida ayrim ijodkorlar ijodida uchraganidek, xazinlik, umr utkinchiligi va poyoni haqidagi falsafiy mulohazalar tasviri yetakchilik qilmaydi. Aksincha, yaratuvchilik ishqi, ijodkorlik shavqi bilan yongan qalb g'azobnok kishilarga ayni kuz paytlari toqqa chiqib, uning go'zallikdan bahramand bo'lish, borliq tarovatidan o'ziga xos bo'lgan ma'no-mazmun axtarish lozimligini ta'kidlar ekan, qani endi ular ham tabiatning buyuk tabib ekanligini anglab yetsaydi, deb orzu qiladi. Umuman olganda, Azim Suyunning kuz fasliga bag'ishlangan she'rlarida ham xuddi boshqa mavzudagi she'rlari kabi kuchli shijoat, ertangi kunga katta ishonch va hayotbaxsh qudrat sezilib turadi. Bu uning har narsadan kir axtaradigan yoki hayotiylikdan xoli, soxta xulosalar bayon etadigan ma'no kimsalarga nisbatan g'azabi cheksiz bo'lib, buni aniq oshkor

<sup>1</sup> Suyun Azim. Tanlangan asarlar: 7 kitob.k. 2. T:G.Gulom, 2015. 65-b

<sup>2</sup>Suyun Azim. Tanlangan asarlar: 7 kitob.k. 2. T:G.Gulom, 2015. 67-b

bayon etadi. Biroq ta'kidlash kerakki, shoir she'rlaridagi bunday kutarinkilik soxta hayqiriqlar bilan emas, balki jonli-hayotiy kechinmalarning tabiiy aks etishi bilan poetik joziba hosil qiladi. Shoir she'rlarining hayotbaxsh qudrati ham shunda.

### ҲАКИМ АТ-ТЕРМИЗИЙ АСАРЛАРИ ТАҲЛИЛИ

**Қодирова А.Б.** – Термиз давлат университети ўқитувчиси

**Аннотация.** Мақолада ақл ва ҳавонинг кураши, уларнинг ҳар бирининг хос ёрдамчи қисмлари тасниф қилиниб, тавсиф этилади. Бунда Ҳаким Термизийнинг одоб масалалари ва инсоннинг хулқ-атвори, ундаги психологик хусусиятларни жуда яхши ўзлаштиргани, аниқ-равшан мисоллардан сабоқлар чиқарилганини кузатамиз. Шунингдек, у зотнинг сўзлардан моҳирона фойдалана олиш истеъдоди ва маъноларни йўналтира олиши, сўзнинг кучини намойиш этиши кишини ҳайратга солади ва мақоланинг таълим ва тарбиядаги аҳамияти мисоллар билан асослаб берилган.

**Калит сўзлар:** одоб масалалари, ақл, кибр, маърифат, билиш, илм ўрганиш, тўғрилиқ, нафс одоби, сабр қилиш, қаноатли бўлиш, ишонч, эътиқод, фахм-фаросат, илҳом, ҳикматлар сири.

### АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХАКИМ АТ- ТЕРМЕЗЫ

**Кадырова А.Б.** - преподаватель Термезского государственного университета

**Аннотация.** В статье предоставлено и классифицируется борьба разума с воздухом и описывается их каждые свойственные вспомогательные части. Здесь освоены задачи воспитания Хакима Термези и характер человека, его психологические свойства, а также наблюдается вывод на точных примерах. Также талант умелого использования слов великого Хакима Термези и правильное применение их смысла, показана сила слов, которая удивляет людей и доказана на примерах значения воспитания и образования.

**Ключевые слова:** задача воспитания, ум, высокомерие, просвещение, знать, получать знания, честность, довольствующийся малым, терпение, доверие, вера, сообразительность, вдохновение, тайна мудрых изречений.

### ANALYSIS OF WORKS BY KHAKIM AT-THERMESA

**Kadyrova A.B.** - Lecturer at Termez state university

**Abstract.** This article describes the mind and air struggle, each of which is drawn in the specific auxiliary parts. Here we accompany that Hakim Termizi observed human's good manners, learned psychological properties from clear examples. As well as, his ability to use words skillfully and to direct meanings to demonstrate the power of words is astonishing. The importants of the article in education and training is illustrated by examples.

**Key words:** issues of decency, mind, haughtiness, education, learning, the study of knowledge, honesty passion, self-control, patience, satisfaction, confidence, beliefs, cleverness, inspiration, the secret of wisdom.

“Ақл ва ҳаво” рисоласи аслида Ҳаким Термизийнинг бизга номаълум асари бағридаги боб бўлиб, ақл ва ҳаво мавзуи теварагида баҳс юритади. Рисола муҳим қирраларни намоеён этиб,

унда ақл ва ҳавонинг кураши, уларнинг ҳар бирининг хос ёрамчи қисмлари тавсиф этилади. Бунда Ҳаким Термизийнинг одоб масалаларини жуда яхши ўзлаштирганлиги, аниқ-равшан мисоллардан сабоқлар чиқарилганлигини кузатамиз. Шунингдек, у зотнинг сўзлардан моҳирона фойдалана олиш истеъдоди ва маъноларни йўналтира олиши, сўзнинг кучини намойиш этиши кишини ҳайратга солади.

Аллоҳ таоло Қуръони Каримда дейди: “Аллоҳ киши билан унинг қалбини ажратиб қўяди” (Анфол, 24).

Фахм – фахм-фаросатлиликдан бўлиб, уч нарса билан бўлади:

1. Қалб фароғати билан.

2. Ўзи ва Аллоҳ орасидаги тазарруъ (кўниш, ён босиш, итоат, ўтиниш) билан, токи (Аллоҳ) унга (керакли нарсаларни) фахмлатади.

3. Икки дунё ишларини фахмлайдиганлар билан ўзаро савол-жавоб, мунозара, музокара қилиш билан. Бу (икки дунё ишларини) фақатгина кўра оладиган фарқловчи (басийр - 1) кўзи равшан, кўзи очиқ, ҳаммадан яхшироқ кўриб турувчи; 2) фарқловчи, сезувчи, билувчи; 3) сезгир, зийрак, ақлли, фаросатли, эс-ҳушли) кишиларгина фахмлатадилар, токи у фахмли бўлади.

Фахмнинг ўхшаши “басор”дир (яъни, бири бирини келтириб чиқаради). Фахмнинг зидди ваҳмдир (Басар - 1) кўриш, кўриш қобилияти; 2) фарқланиш; 3) қабул қилиниш; 4) тушунилиш, фахмланиш, билиниш; 5) фаросатлилик, зеҳнлилик; 6) назар, қараш. “Басар” сўзига “Тафсири Насафий”да: “Кўзнинг нурики, у кўрувчи ўша билан кўрадиган нарса” дейилади. Ваҳм – 1) тасаввур, иллюзия, тўқима нарса, фикция 2) фикр, ғоя 3) шубҳа, хатар, қўрқув 4) янглишиш, хато, адашиш.

Аллоҳ таоло деди: “Ҳужжатларингизни келтиринглар” (Бақара, 111).

Демадики: “Одамларингизни келтиринглар”. Шунинг учун таълим олувчи учун лозимки, олимдан илмни фақатгина ҳужжат билан олсин. Ундан ҳужжатсиз қабул қилмасин.

Басар ва маърифат шаклдир (яъни, бири бирини келтириб чиқаради). Басарнинг зидди исёндив (яъни, исён кўрликда қилинади). Басарнинг учта аломати бор:

1. Муроса-ю мадорани яхши кўради, чунки муроса-ю мадора унда (кишида) билинган ва кўрилган (ёмон) нарсани зоҳир бўлишидан унинг учун тўсиқдир.

2. Кўнгил сўраш, ҳамдардлик билдиришни яхши кўради. Чунки кўнгил сўраш, ҳамдардлик билдириш қалбни мулойим, таъсирчан қилади.

3. Яхши соғлик, (ортиқча нарсалардан, машғулотлардан) озод бўлиш, қутулиш, бу билан жамоатга бўлган муҳаббати зиёда бўлади (яъни, жамоатга қўшилиш учун вақт ва имкон топади).

Уч нарса басийрнинг феълларидандир:

1. Бирор нарсада динининг амрини тарк этмаслик. Чунки у кишиларнинг айбига басийрдир (яъни, уларнинг айби мана шундан –динининг амрини тарк этишдан келиб чиқишини яхши билади).

2. Динининг амрига хасис бўлади (яъни, уни қўлдан бермайди). Чунки у кўра оладик, динининг амрини тарк қилиш унинг учун гўштини ўзиб олиш ва қонини оқизишдан шиддатлироқдир. Шунинг учун динининг амрига мушфиқ бўлади.

3. Одамларнинг қўлидаги нарсага тамаъгир бўлмайди. Чунки у қалби ила ёдда тутадик, ким одамлар қўлидаги нарсадан тамаъ қилса, қалби фосид бўлади.

Басийр бу (даража) га умматнинг ихтилофида ҳужжатли илмга ва басорга тобеъ бўлиш билангина етади, токи (ўшандай вақтларда) олимлар билан аралашганда (шаръий масалалардаги) носих ва мансух (яъни, нимага эргашиш ва нимани тарк қилиш лозимлиги) билинади.<sup>1</sup>

Басар, маърифат ва яқийн ўхшашдир. Маърифатнинг зидди номаълумлик, ноаниқликдир. Маърифатнинг тафсири тасдиқдир, форсчада “Рост шуноҳтан”;

<sup>1</sup> Термизий алломалар / С.Турсунов ва бошқ. – Тошкент: “Yangi nashr”, 2015, 114-115 бетлар.

Бу худдики Аллоҳ таоло Ўз Китобида айтганидек:

“Бас, Аллоҳ, албатта, содиқ бўлганларни ҳам билажак, ёлғончиларни ҳам билажак” (Анкабут,3).

Бас, маърифат (билиш) қалбнинг тил билан иқроор бўлган ҳолдаги тасдиғидир (яъни, ҳақиқатни уни тасдиқлаш даражасида кўра олган киши маърифат соҳибидеишлишига ҳақли. Тасдиқ эса таҳқиқ-ҳаққи рост билишнинг ортидан келади). Маърифати билинган, танилган Аллоҳ Ўзининг (Ўзига берган) таърифлари билан танилган, токи ориф (танувчи) Аллоҳ тўғрисидаги ҳақиқатларни ва (Аллоҳ) Ўзини у билан таърифлаган (таъриф)лари ҳақиқатини танийди. Аллоҳга басийр бўлган (яъни, уни қалб-у фаросати билан кўрган) уни (Аллоҳнинг) Ўзи кўрсатиши орқали Уни кўради, токи басийрга, Уни кўрувчига Ўзини унга кўрсатиладигандек (яъни, унинг тоқатиға, аҳволиға мослаб) кўрсатади. Халойиқ учун бу (аслий кўриш) ни кўтаришга тоқат ва қобилият йўқ. Фахм ҳам худди шундай ва яқийн ҳам (яъни, булар Аллоҳ таоло белгилаб қўйгандек бўлади. Чунончи, аслий фахм ва яқийнга инсонда тоқат йўқ). Чунки бу иккиси фақатгина Аллоҳ таолонинг иши, феъли билангина бўлади (чунки булар Аллоҳ таоло берадиган ҳидоятнинг ортидан келувчи нарсалардир. Бас, Аллоҳ уни Ўзи хоҳлагандек тасарруф қилаверади).<sup>1</sup>

Уч нарса фақиҳнинг аломатларидандир:

1. Халқдан умидини узган бўлмоғи, чунки фикҳ уни қаноатли қилади ва одамлардан беҳожат қилади.

2. Фикҳ билан гапирадиганлар билан аралашишни яхши кўрмоғи, токи дин ишида ҳар кунни фикҳи зиёда бўлади.

3. Яширин ва ошкора гапиришдан хавф қилмайди, чунки фикҳ унга каломнинг тўғирланиши, яхшиланиб бориши ва зийнатли бўлишида ёрдам беради.

Уч нарса фақиҳнинг феълларидандир:

1. Ҳалол ва ҳаром (масалалари)да диннинг амри (доираси)да гапириш (яъни, ҳавойи нафсидан ёки ботил ҳужжатлар билан гапирмайди), токи (ана ўшанда) одамларга ҳақ ва ботилнинг баёни очиқ-ойдин бўлади.

2. Амри маъруф ва наҳий мункар қилиш, Аллоҳ таолонинг қўйидаги сўзи учун:

“Эй уммати Мухаммад), сиз одамлар учун чиқарилган умматларнинг энг яхшиси бўлдингиз. Амри маъруф қиласиз, наҳий мункар қиласиз...” (Оли Имрон, 110).

Одамлар орасида фатволар ва ҳукмлар борасида гапиреди. Фақиҳ фақатгина дин ишида фақиҳ ва басийр бўлганлар билан эшлаш, мунозара қилиш билангина фикҳга етишади (яъни, ўзича, ўзбошимчалик билан эмас, балки устозлар ва ҳаммаслак дарсдошлари билан бунга етишади).<sup>2</sup>

Вақф – воқиждан бўлиб (“вақф” сўзи луғатда қўйидаги маъноларни билдиради:

1) туриш; 2) бекат; 3) танаффус. Шунингдек, “тутиб туриш” маъноси ҳам борлиги айтилади – Шайх Мухаммад Содиқ. Бу ўринларда руҳий маънодаги вақф – тўхташ ҳақида сўз кетган. Шунинг учун вақф сўзидан келиб чиққан “воқиф” сўзи “огоҳ, хабардор, билувчи” маъносини ҳам билдириб, ўзбек тилида ҳам ишлатилади. Шунинг учун бу сўзларнинг асли қолдирилди, у тўққиз нарса билан бўлади:

1. Хавфли оқибатни ёдда тутиш билан.

2. Ақл (билан қилинган иш) нинг хотимасини ёдда тутиш билан (яъни, ўзидан олдингининг зиддини... яъни, яхши ва ёмон ишлар оқибатини).

3. (Ҳавойи) орзу-умидлар хотимасининг хавфини ва ажал хотимасининг хавфини ёдда тутиш билан.

4. (Дунё-ю охиратдаги яхши амал учун) мукофотни ёдда тутиш билан.

5. (Дунё-ю охиратдаги ёмон ишлар учун) азобни ёдда тутиш билан.

<sup>1</sup> Термизий алломалар / С.Турсунов ва бошқ. – Тошкент: “Yangi nashr”, 2015, 116-бет.

<sup>2</sup> Термизий алломалар / С.Турсунов ва бошқ. – Тошкент: “Yangi nashr”, 2015, 119-бет.

6. Аллоҳни ёдда тутиш билан.

7. (Яхши ва ёмон ишларини ёзиб бориш учун ўзига бириктирилган) ҳафаза (ҳифз, яъни муҳофаза қилиб турувчи) фаришталарини ёдда тутиш билан.

8. Ўлим фариштасининг тўсатдан келиши хавфини ёдда тутиш билан (яъни, у ҳеч қачон айтиб келмайди, балки тўсатдан келади).

9. Вақфнинг манфаатларини ёдда тутиш билан.

Воқифнинг уч аломати бор:

1. Агар бир амалга киришишни ирода қилса, бас, вақф қилади ва унинг оқибати ҳақида тафаккур қилади. Агар у рушд ёки тўғрилиқ, соғлом ақлга мос бўлса, уни қилишга ўтади. Агар адашиш, гуноҳ, йўлдан урадиган, (ҳавойи нафсни) қизиқтирадиган ва хато бўлса тўхтади.

2. Вақф қилади, токи ушбу иш борасида тафаккур қилади (яъни, тўхтамай туриб, тафаккур қилиб бўлмайди). Бу қандай иш? Савобидан умид қилинадиган амалми бу ёки иқобидан хавф қилинадиганми?

3. Вақф қилади, токи бу ишнинг (шаръий) ҳужжати ҳақида тафаккур қилади. Ўзини унинг ҳужжатини талаб қилиш билан машғул қилади. Чунки Аллоҳ таоло қачонки уни (қиймат кунда) Ўз олдида (савол-жавоб учун) қоим қилганида дейдики: “Нега (нимага асосланиб) бу ишни қилдинг?”. Ва у жавоб бериши лозим бўлади.

Уч иш ҳалимнинг ишларидандир:

1. (Зоҳиран ва ботинан) чиройли, яхши бўлиши (чунки ҳилмнинг ўзи гўзал).

2. Каломи меҳр-шафқат ва мулойимлик билан бўлиши. Чунки у ҳилм эгасидир.

3. Биродарларининг юзларига табассум қилувчи бўлиш.

Илҳомнинг ўхшаши яхшиликка далолатдир. Яхшиликка далолатнинг зидди ёмонликка далолатдир. Ёмонликка далолат ва васваса ўхшашдир (яъни, бири бирини келтириб чиқаради). Илҳомнинг зидди васвасадир. Ҳар бир мўмин учун илҳомни васвасадан ажратиб олиш лозимдир. Агар у (васваса) ни билмоқчи бўлсанг, амалга киришингдан олдин назар қил. Кўрасанки, қалбингда тезлаш ва амалга киришингдан олдин тафаккур қилиб кўргангидан, бу иш оқибатидан бўлган хавфинг кетган ва сени (ҳалитдан, у ишни қилмасдан) ўша (амал) нинг ҳаловати эгаллаган. Бас, билки, бу васвас (васваса қилувчи – шайтони лаъин)дандир. Бу амалнинг далолати ҳам ундан бўлади. Агар амалга киришсанг, унинг оқибатини ёдда тутувчи ва уқубатидан хавфда бўлсанг ҳамда хавфинг зиёдалашишда бўлса ва умидинг Аллоҳ сени бу билан хавф – хатарга йўллагандан Аллоҳнинг сен учун қилиб қўядиган тўғрилиқ, ҳимоясида бўлса, бас, билгинки, мана шу (тарзда) ёдда тутиш илҳомдир ва мана шу нарса (яъни, илҳом) сени далолат қилди (яъни, ишларни манмансираб, ўзига ишониб эмас, балки хокисорлик билан, Аллоҳга сўяниб қилиш лозим). Энди хурсанд бўл ва Аллоҳнинг саховатин, яхшилигини ёдда тутувчи бўл. Аллоҳ уни илҳом билан воқиф қилган (тўхтатган) кишига тубо бўлсин!<sup>1</sup>

Термизий алломаларидан Ҳаким Термизий ижодий фаолияти унинг ўз давридани буюн ҳозирги кунгача мусулмон дунёсининг диққат марказида туради. Алломанинг асарлари ва уларда илгари сурилган ғоялар ўз долзарблиги нуқтаи назаридан шу кеча-кундузда ҳам қувватини сақлаб, умрбоқийлигини намойиш қилмоқда. Аллома яратган асарлар қанчадан-қанча авлодга ғоявий озуқа бўлиб, уларни тарбиялашда беқиёс манба сифатида эътиборга моликлигини сақлаб келмоқда. Ҳаким Термизий қаламига мансуб илмий-диний мерос бир нечта аждодлардан авлодларга ўтиб, уларни китобларнинг онаси – Қуръони карим саҳифаларидаги сеҳрли сура ва оятлар, Пайғамбар ҳадисларининг мўъжизавий мағзини англашда ҳамда халқона ҳикматлар сирини билишда чинакам дастур вазифасини бажармоқда. Шу орқали ёш авлодни дунёга, оламга, жаҳонга, умуман атрофга тўғри ва оқилона муносабатда бўлишга чорлаб, уларнинг қалбига эзгулик шуълаларини сингдирмоқда.

<sup>1</sup> Термизий алломалар / С.Турсунов ва бошқ. – Тошкент: “Yangi nashr”, 2015, 125-бет.

**MUNDARIJA**

<b>PEDAGOGIKA</b>		
<b>1</b>	Mamadazimov M., Dadaboyeva F. ASTRONOMIYANI O'QITISHDA UNING MAZMUNI, TA'LIMNI GUMANITARLASH TIRISH MANBAI SIFATIDA	2
<b>2</b>	Xaydarov F.I. O'QUV FAOLIYATI MOTIVATSIIYASI SOHASIDAGI KATEGORIAL APPARATNING TIZIMI VA MAZMUNI	6
<b>3</b>	Xoliqov A. O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK MAHORATNING O'RNI	11
<b>4</b>	Ruzieva D., Alptekin Z., Joldasbekov A. TURKIYA VA QOZOG`STON TA'LIM TIZIMINING O`ZARO TAHLILI	15
<b>5</b>	Abdirasilov S.F., Xasanova M.A. TASVIRIY SAN`AT ASARLARIDA VA INSON HAYOTIDA FRAKTALLAR TUZILISHLARINING TADQIQOTI	19
<b>6</b>	Mamarajabova Z.N. ADABIY TA'LIM JARAYONIDA ZAIF ESHITUVCHI VA KAR BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHGA INNOVATSION- USLUBIY YONDASHUV	23
<b>7</b>	Kadirov X.Sh. MEDIATA'LIM TEXNOLOGIYALARI BO'YICHA TALABALARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI	27
<b>8</b>	Azimov I.T., Saydamatov. F.R. O'QUVCHILARDA EKOLOGIK TOLERANTLIK VA ORGANIZMLARNING YaShASH MUXITIGA MOSLASHISHI HAQIDAGI QARASHLARINI SHAKLLANTIRISH	<b>31</b>
<b>9</b>	To'xbabekov K.A. GERMANIYA TA'LIM TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	33
<b>10</b>	Latipova A.R.GUMANITAR YO'NALISH TALABALARIGA MATEMATIKANI O'RGATISH TAJRIBALARI	37
<b>11</b>	Raximqulova M.B. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ORFOGRAFIYANI ADAPTIV O'RGATISH TEXNOLOGIYASI	<b>39</b>
<b>12</b>	Melibayeva R.N. MUAMMOLI TAPSHIRIQLAR ASOSIDA TALABALAR IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH	<b>43</b>
<b>13</b>	Begmatova D.A., Abdullayev N.Q. FIZIKA PRAKTIKUMIDA ZAMONAVIY TIZIMLI METODLARNI QO'LLASH USULLARI	47
<b>14</b>	Aimova G. TARBIYA JARAYONIDA BOLALARDA IJOBIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA RANG PSIXOLOGIYASI	50
<b>15</b>	Maqsudov U.Q. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITASIDA IJTIMOYIY FAOLLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	<b>53</b>
<b>16</b>	Xaydaraliev X.X. BO`LAJAK VATAN HIMYOYACHILARINI TARBIYALASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	<b>57</b>
<b>17</b>	Artikova G.A. MATEMATIKADAN AMALIY MASHG'ULOTLARDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEXNOLOGIYASINI JORIY ETISH	60
<b>18</b>	Madaliyev A.M. ZARRALAR FIZIKASI AMALIY MASHG'ULOTLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN MAZMUNI	63
<b>19</b>	Muslimov Sh.N., Umarova F.A., Umarova Z.A. TA'LIM TIZIMIDA SMART-AUDITORIYADAN FOYDALANGAN XOLDA O`QUV MASHG'ULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	67
<b>20</b>	Tursunov D. ANALITIK TAFAKKUR VOSITASIDA O'QUVCHILARNING G'OYAVIY-MAFKURAVIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	70
<b>21</b>	Кулабекова Г.К. МИЛЛИЙ ПЕДАГОГИЯНИНГ ТУРК ХАЛҚАРО БОЛАЛАРИ ТА'ЛИМИДАГИ РОЛИ ВА МА'ЛУМОТИ	76
<b>22</b>	Ибрагимов А.Т. СПОРТ ТА'ЛИМИНИ ТАКОМИЛЛАСHTIRISHNING SAMARALI YO'NALISHLARI	81
<b>23</b>	Tojiboyeva N. PEDAGOGIK MENEDJMENT VA UNING TA'LIM TIZIMIDAGI ZARURATI	84
<b>24</b>	Zokirova Sh.A. JAMIYATDA BEFARQLIK, LOQAYDLIK VA BEGONALASHUVNING PSIXOLOGIK TAHLILI	89
<b>25</b>	Raximov Z.T. TALABALAR O'QUV-BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV	92

<b>26</b>	Dilshodbekov Sh.D. MUHANDISLIK KOMPYUTER GRAFIKASI DASTURLARI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI	97
<b>27</b>	Djalolov B.B. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA INNOVATSION KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	101
<b>28</b>	Mirzayev A.O'. TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARINI OLIY MATEMATIKA FANINING "ANIQ INTEGRAL" TUSHUNCHALARINI MAXSUS FANLARGA BOG'LIQLIK ASOSIDA O'QITISHDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH	105
<b>29</b>	Pantin R.V. RAQAMLI HARBIY O'QITISH UCHUN O'QUV TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	108
<b>30</b>	Mamadjonova M.Q. BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA KURSIDA MANTIQUIY MASALALAR VA ULARNI YECHISHDA MODELLASHTIRISHDAN FOYDALANISH	112
<b>31</b>	Djumabaev J.Z. YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBİYALASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	<b>116</b>
<b>32</b>	Trigulova A.X. MUSIQA VA PEDAGOGIK TA'LIMNING ZAMONAVIY YO'NALISHIGA INTEGRATIV YONDASHUV	119
<b>TARIX</b>		
<b>33</b>	Ishquvatov V. XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDAGI SHAHAR MAHALLALARINING TARIXIY TOPONIMIYASI XUSUSIDA	122
<b>34</b>	Norboyev A.O. TABIAT HODISALARI VA ULARNING XALQLAR TURMUSH TARZIGA TA'SIRI TARIXI	125
<b>FILOLOGIYA</b>		
<b>35</b>	Daniyarov B.X. O'ZBEK TILI LEKSIK O'ZLASHMALARIDA SINONIMIK MUNOSABATLARNING TARTIBLANISHI VA TASNIFLANISHI	130
<b>36</b>	Latipov O. J. RUS, O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA "YURAK" SOMATIZM SO'ZINING KONNOTATSIYASI	137
<b>37</b>	Abduvalitov N. ADABIY TA'LIM JARAYONIDA FUNKSIONAL TAHLIL	142
<b>38</b>	Yusupov O.N. O'ZBEK POEZIYA NAMUNALARI TARJIMASINING INGLIZ TILIDAGI INTERPRETATSIYASI	147
<b>39</b>	Keldiyorova N. AZIM SUYUN SHE'RIYATIDA "KUZ" POETIK OBRAZ TIMSOLIDA	151
<b>40</b>	Qodirova A.B. HAKIM AT-TERMIZIY ASARLARI TAHLILI	155